TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

# BAXTIYOR VAHOBZODA

# XALIL RIZO

66



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

# BAXTIYOR VAHOBZODA

# XALIL RIZO






"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.162-3
KBK 84 (5Ozar)
B 36

**Tahrir hay'ati:**

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

**Ishchi guruh:**

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

**To'plovchi va nashrga tayyorlovchi**

**Tohir Qahhor**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8733-3-9

**©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022**

# Baxtiyor VAHOBZODA



## BAXTIYOR VAHOBZODANING HAYOTI VA IJODI

XX asr ozarbayjon adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri, erkparvar shoir, olim Baxtiyor Vahobzoda (1925–2009) Shakida tug'ilgan. O'rta maktabni bitirgach, Boku davlat universitetining filologiya bo'limida ta'lim oldi, shu maskanda ilmiy-tadqiqot olib bordi, fan nomzodi, professor bo'ldi (1965). Ozarbayjon fanlar akademiyasi muxbir a'zosi, akademigi darajasiga yuksaldi. 1945-yilda Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilingan shoir badiiy ijodda ham ana shunday taraqqiy yo'lidan bordi, 1949-yilda bosilgan ilk she'riy to'plamidan so'ngra 40 dan ortiq she'r kitobi, 11 ilmiy asari, 2 monografiyasi bosildi; o'nlarcha dostonlari va dramalari bilan shuhrat qozondi. Ozarbayjon xalq shoiri unvoni bilan taqdirlandi. Shoir va olim sifatida siyosiy faoliyat ham olib bordi, 1980-yildan boshlab Ozarbayjon parlamentida xalq deputati o'laroq umrining so'ngigacha xizmat qildi. 2001-yilgacha universitetda dars berdi. 83 yoshida Bokuda vafot etdi, Ozarbayjonning ulug' kishilarining mozori Faxriy xiyobonga dafn etildi.

Baxtiyor Vahobzoda o'tgan asrning oltmishinchi yillarida boshlangan milliy-ma'rifiy harakatga o'z asarlari bilan faol aralashdi. Uning "Guliston" dostoni ikki qo'shni mustamlakachi davlatlar tomonidan ikkiga bo'lib qo'yilgan Ozarbayjon fojiasini aks ettirgani bois sevimli asarga aylandi, xalqni to'lqinlantirdi, muallifi esa ishdan chetlatildi. Ammo shoir sabot bilan yo'lida davom etdi. Uning zamon, inson, jamiyat, vatan, millat mavzusidagi asarlari ommaviy tushunchani bir qadar yuqoriga ko'tarishi barobarida muallifini ham xalq ko'z o'ngida yuksaltira bordi. Birinma-ketin "Mening do'stlarim" (1949), "Bahor" (1950), "Do'stlik qo'shig'i" (1953), "Abadiy haykal" (1954), "Chinor" (1956), "Sodda odamlar" (1956), "Jayron" (1957), "Oyli kechalar" (1958), "E'tirof" (1962), "Shabi hijron" (1962), "Inson va zamon" (1964), "Bir

yurakda to‘rt fasl” (1966), “Tanlangan asarlar” (1967), “Ildizlar, butoqlar” (1968), “Dengiz, sohil” (1969), “Bir bahor qushi” (1971), “Shafaq” (1973), ikki jildlik “Tanlangan asarlar” (1974), “Saharlarga salom” (1979), “Kuz tushunchalari” (1981), “O‘zim bilan suhbat” (1985), “Lirika” (1990), “Yuksaklikda yolg‘iz” (1998), “Mening g‘aribim” (2002) kabi kitoblari bosildi, shoirni keng xalq ommasiga tanitdi.

Shoir ellik yoshga to‘lganida Ozarbayjonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi unvoni, “Muqom”, “Lenin bilan suhbat” dostonlari uchun Ozarbayjon davlat mukofoti (1976), oltmish yoshga to‘lganida, “Bir kemaning yo‘lchisimiz” asari Sho‘rolar ittifoqi davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Ozarbayjon xalq shoiri unvoni berildi.

Qayta qurish davrida Ozarbayjondagi mustamlakachilik fojialari bir muncha o‘rtaga chiqdi, barcha ziyolilar, millatparvarlar yurt va ozarbayjon xalqi manfaatlarini himoya qilishga kirishdi; sho‘rolar, sho‘roparastlar va ularga suyangan armanilarning zararli faoliyatlari matbuotda, mitinglarda fosh etildi. B.Vahobzoda ham bu harakatlar ichida bo‘ldi, uning “Keling, ochiq gaplashaylik” (1988) kitobiga muhim ijtimoiy mavzulardagi shoirona ruh, olimona teran tafakkur bilan bitilgan maqolalari jamlangan. “Qo‘rquv” dostonida (1988) sho‘rolar imperiyasidagi qo‘rquv muhiti, 37-yillardagi qatliomlar qalamga olingan. Shoir 1990-yilgi Bokudagi qonli yanvar voqealari mavzusida “Shahidlar” dostonini yozdi. “Ozarbayjondagi hodisalarning asl yuzi, Moskva siyosati” (Anqara, 1990) kitobida rus siyosati va armani o‘yinlarini dalillar bilan tushuntirib berdi. 1991-yilda Ozarbayjon mustaqilligini e’lon qilgach, shoir milliy istiqlol, islomiyat va turklik, Ozarbajon-Turkiya birligi mavzularida qalam tebratdi.

1960-2003 yillar orasida uning “Vijdon”, “Ikkinchi ovoz” “Yomg‘irdan keyin”, “Faryod”, “Yo‘llarni iz bosdi”, “Dunyo qayoqqa boryapti”,“O‘zimizni kesgan qilich”, “Jazosiz gunoh”, “Dor og‘ochi”, “Ortiqcha odam” kabi dramalari Ozarbayjondagi teatrlarda sahnalashtirilgan. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, shoirning 70 dan ortiq she’r kitobi, yigirmata dostoni bosilgan. Ular muallif-

ning 2009-yilda Bokudagi "Ilm" nashriyoti tomonidan chop qilingan 12 jildli"Asarlar"ga kiritilgan.

Uning asarlari qator Osiyo va Ovrupo tillariga tarjima qilingan. Jumladan Rossiyada 14, Turkiyada 15, Eronda, Janubiy Ozarbayjonda 5, Armanistonda 3 kitobi, shuningdek, ingliz, olmon, ispan, o'zbek, turkman tillariga o'girilgan to'plamlari nashr etilgan.

Quyida shoirning 1981-yilda o'zbekchada bosilgan "Mening yo'lim" kitobidagi asarlar, shuningdek, keyingi yillarda uning turli kitoblaridan qilingan yangi tarjimalar berilmoqda.

**Tohir Qahhor,**
*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,*
*shoir va tarjimon*

## O‘ZBEK O‘QUVCHILARIGA

Biz o‘zbek xalqi bilan teran tomirli bir daraxtning qo‘sh butoqlarimiz. Bizni birlashtiruvchi jihatlar farqlantiruvchi jihatlardan ko‘pdir. Tarixan, ruhan, qalban menga yaqin bo‘lgan bir xalqning, ya’ni o‘zbek xalqining tilida she’rlarimning jaranglashini ko‘pdan orzu qilardim. Mening bu orzumni amalga oshirganliklari uchun o‘zbek hamkasblarim Jumaniyoz Jabborov va Jamol Kamollarga chuqur minnatdorchilik bildiraman. Bu kitobning chop qilinishi meni o‘zbek xalqi bilan uning o‘z tilida so‘zlashishday baxtga muyassar etdi. Hurmatli tarjimonchilarim mening qalbim ila buyuk va go‘zal xalqning qalbi orasida ko‘prik soldilar. Yuraklardan yuraklarga shunday ko‘priklar solishga qodir qalam sohiblariga ming tasanno!..

Hozir o‘z ijodi bilan bir qatorda jahon adabiyotining ajoyib namunalarini ona tiliga o‘girmagan shoir bo‘lmasa kerak. Men ham bu shoirlardan biri sifatida jahon xalqlarining, shu jumladan, menga jondosh-qondosh o‘zbek xalqi she’riyati namunalarini ozarbayjon tiliga tarjima qilganman. Kelajakda ham bu ishni davom ettiraman, albatta. O‘zbek klassik shoirlari Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Munis jahon adabiyotining ham daho san’atkorlaridir. Biz bu tuganmas chashmalardan suv ichgan sayin, bu yuksak tog‘larga suyangan sayin o‘zimiz quvvatga to‘lamiz, so‘zimiz salmoq kasb etadi.

Hozirgi o‘zbek she’riyatining Zulfiya, Hamid G‘ulom, Shukrullo, Shuhrat, Asqad Muxtor, Ramz Bobojon, Jumaniyoz Jabborov, yoshlardan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Jamol Kamol, Omon Matjon kabi namoyandalari yuqorida aytilgan ustozlarning ulug‘ an’anasiga suyanganliklari uchun bu kun qudratli adabiyot yaratganlar. Men she’r va san’atda bu yo‘lning, ya’ni an’anadan tug‘ilib, zamonaviy ruh bilan boyigan yo‘lning tarafdoriman.

Shunday buyuk san'at an'anasiga molik bir xalqning inja va shirin tilida asarlarimning jaranglashi men uchun ham sharaf, ham sinov, imtihondir.

Qalbimning aks sadosi bo'lgan she'rlarim hassos o'zbek o'quvchilarining qalbiga yo'l topa olsa, o'zimni chindan baxtiyor deb bilaman.

**Baxtiyor Vahobzoda**

## SHE'RIM

Abadiy bir o't yanglig' ich-ichidan qizarib,
Gurlaydi she'rim manim.
O'tib tildan-tillarga,
O'tib eldan-ellarga.
Bugunimdan ertamga, ertamdan indinimga
O'rlaydi she'rim manim.

Idrokimning ko'zlari,
Aqidamning eng tamiz,
eng ma'noli so'zlari —
Ezgu niyatim, she'rim.
Barcha tilaklarimning
Eng asli, eng tozasi —
Samimiyatim, she'rim.

Sen oyning, yulduzlarning
Nurisan, in'omisan.
Tunlarimning ochilgan
Tonglarga salomisan.

Istayman satrlarning
Hayotdan kuch olmog'in.
Ular aks ettirolsa
Asrimning nafasi-yu
Ohanglari salmog'in.
Rozimasman, she'rlarim
Tegma-nozik qizlarning sochida atir bo'lsa.
Istayman: kun tig'ida
Paxta tergan qizlarning
Boshida chodir bo'lsa.

Har o‘tkinchi kadardan
Qaqshama, she’rim manim,
Satang, tannoz go‘zalga
O‘xshama, she’rim manim.
Sen otash bo‘l, o‘t bo‘lgil,
Yondirgil sen, yoqil sen,
Chaqmoq yanglig‘ chaqil sen!

Ko‘rsat o‘z chirog‘ingda
Bu dunyoning o‘zini.
Bir dam yumma ko‘zingni,
Ham o‘zliging ko‘rsat-u ham aniq ko‘r olamni,
O‘z shaklida bera bil shodlik bilan alamni.

Demaymanki:
Zarrani cheksiz kurrada ko‘rsat!
Qudrating yetsa agar,
Yetsa iste’dod, fursat,
Sen kurrani kichkina,
Mitti zarrada ko‘rsat!

Sen tushun teran-teran, tushuntir teran-teran:
Vatan, elidan tongan
Vijdonfurush yotlarning,
Vatan emas, pul deya yongan
Tuban “zot”larning
Musht bo‘lgil sen boshida.
Soqchi bo‘lgil bu yurtning tuprog‘ida, toshida.
Viqorli bo‘l, azmi bo‘l egilmagan boshlarning.
Ko‘ksida partbilet bo‘l asl vatandoshlarning.

So‘ngsiz tushunchalarim,
Bu dunyoga savolim,
Har istagim, xayolim,
Ishqim, hasratim manim.
Hadsiz shodliklarim-u

Ilk muhabbatim manim,
Bu dunyoda abadiy
Tarki rohatim manim.
She'rim, sening yo'lingda bersam hayotimni kam.
Yolg'iz, yolg'iz kunimning
Cheksiz hayajonlarin
Qo'shiqqa solmoq uchun
yetmagay o'n umr ham!

Onam men uchun yondi:
"Bolamning rohati yo'q" —
Deya sendan qizg'ondi.
Men sen uchun yonaman
Chunki, senga onaman,
Sen tashvishli o'ylardan,
Tuyg'ulardan tug'ilding.
Meni onamdan olib,
Vatanimga, xalqimga
Farzand etib yo'g'rilding![1]

## SHAKI

*"O'zingiz shakilik bo'lsangiz ham nega*
*Shakiga bir she'r bag'ishlamadingiz?"*
***(Maktubdan)***

Bir she'r baxsh etmabman sen, onajonga,
Tog'lar bu aybimni yuzga solmasin,
Men dedim: Oshiqman Ozarbayjonga
Va ushbu tuyg'udan qalbim tolmasin!

Ko'nglimdan yuksalgan bu ovoz, bu sas
Buyukdir, azaliy maslagim manim.

[1] Bu she'rlar va "Shabi hijron" dostoni shoirning 1981-y.da G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida bosilgan "Mening yo'lim" kitobidan olindi. Dostondan keyingi asarlar yangi tarjimalaridir *(T.Q.)*.

Bola onasini “sevaman” demas,
Men ham qichqirmasman: “O, Shakim manim!”

Burchliman qoshingda bir farzand yanglig‘,
Garchand she’rimda ko‘p uchramas oting.
Barcha kuylarimni ayturman aniq,
Qulog‘imga dastlab sen pichirlading!

Qaynoq nafasing-ku har misram, har bayt,
O‘zing-ku she’rimning ma’no — moyasi.
She’rimda dil ochib ko‘rinmasmi ayt,
Bulog‘ing, chinoring. Tog‘ing qoyasi?
Men ham bokulikman,
ham lankaronli,
ganjali, gubali ham naxchivonli.
Shakili, shirvonli,
Qorabog‘liman,
Demak, Vatanimga —
senga bog‘liman.

Men sening qo‘yningda keldim jahonga,
O‘zing baxsh aylading Ozarbayjonga.
Ichib marol ko‘zli chashmalaringdan,
Bugun mehring bilan yana to‘libman.
Bir elda tug‘ilib, qanday baxtki, men
Buyuk bir Vatanga
o‘g‘il bo‘libman.

## IKKI YO‘LDOSH — IKKI TENGDOSH

Bolalikda
Qish oylari
Ming hasrat-la ko‘z tikardim
Men bahorning yo‘llariga,
Yo‘llarini poylab-poylab entikardim.

Der edimki: bahor bilan,
Gullar kelur, quyosh kelur.
Sadosini eshitiboq
Shodlanardim;
Mening bilan o‘ynagani yo‘ldosh kelur.
Mening bilan tengqur edi u vaqt bahor.

Birga-birga o‘ynashardik,
Kuylashardik, quvnashardik.
Men ham — bahor.
U ham bahor —
Ikki hamdam, ikki yo‘ldosh
Sho‘x-sho‘x o‘ynab, quvlashardik.

Zamon o‘tdi,
Umr o‘tdi...
Daralarda, tepalarda
Yana majlis ochar bahor.

Yana yellar qanotida
Atr-u anbar sochar bahor.
Lekin mening ishlarim ko‘p,
Ishlarim ko‘p, tashvishim ko‘p,
Vaqtim tig‘iz shom-u nahor.

Darada suv shildiraydi,
Uni to‘yib tinglolmasman,
Chechaklardan dasta bog‘lab,
To‘yib-to‘yib hidlolmasman.
Bu ishimdan ranjisa ham agar bahor
Ming haqqi bor!
Endi qishning so‘ng kunlari,
Men bahorni kutamanmu,
Yo‘liga ko‘z tutamanmu
O‘z-o‘zimga so‘z beraman;
Bu bahorda o‘ynab-kulib,

Uning bilan birga bo‘lib.
Quchoq-quchoq gul teraman.
Bir qarasam,
Bahor kelib, ketibdi ham.
Men g‘aflatda yana qoldim.
Qani ko‘klam?
Endi bo‘lsa men bahorning o‘zidan ham
Kelishidan, tashrifidan bo‘lgum xurram.
Mayli, tashvish, hasrat ortsin,
Mehnat ortsin, zahmat ortsin,
Shu bilan u menga ko‘rkam,
Shu bilan u menga ko‘klam.

## BOSH

*Amerikalik olim R.Uayt maymun miyasini tanasidan ajratib, mustaqil yashatishga urindi. Bu bilan aloqador o‘laroq, dunyo faylasuflari o‘rtasida miyaning ko‘chirilishi haqida qizg‘in bahs boshlandi.*

G‘aroyib olamdir...
zamonga boq,
Tabiat bilan bahs etmoqchi inson.
Buyrakmi,
yurakmi
ko‘zmi
yo quloq —
Badandan badanga ko‘charmish oson.
Mashina egasi uning qismini
Zarur bo‘lgan chog‘i do‘kondan olar.
Nahotki insonning a’zo-jismini
Aptekalar bir kun savdoga solar!

Ozmidir insonning dardi, tashvishi?!
Bashar ko‘targaymi bu kashfning yukin?!

Tayyor fikrlar-u g‘oyani kishi,
Nahot, boshga joylab sotishi mumkin?!

Buyrag-u yurakning ko‘chishi mayli...
Boshni-chi?!
Bir muddat o‘ylab ol, odam.
Har kashfning o‘zi-ku shu bosh tufayli,
Nahot, bosh almashar boshning o‘zi ham?
Insonning g‘ururi, sharaf-shoniga
Qattiq darz bermasmi bu dahshatli kor?
Nahotki quvonib o‘z imkoniga,
Dononing boshiga ko‘z tikar makkor?

Ey hakim, ne chog‘lik bo‘lsang ham raso,
Bu mudhish fikrning bahridan sen kech.
Insonni o‘zidan ayirma aslo,
Ona tabiatga qarshi borma hech.

Hakim, tabiatdan bundoq o‘zmaylik,
Asra tabiatning yuz ohangini.
Kuchimiz yetsa-da,
lekin buzmaylik
Uning o‘z ko‘rkini, o‘z ohangini.
Daho miyasiga qon urdi birdan,
Bir johil qazoga bordi o‘shal kun...
Johilning boshini o‘z badanidan
Ayirding, dahoni yashatmoq uchun!

Ne derdik...
Kim o‘ldi?
Dahomi, johil?
Kimga aza tutsin do‘sti, qardoshi?
Tirilgan kim bo‘ldi?
Bu-ku sir emas:
Dononing badani, johilning boshi.
Daho yashay boshlar nodondek birdan

Biz kimni bu yerda aldadik, hayhot!
Johilning boshi-yu g‘oyasi bilan
Yashayotgan dono — donodir, nahot?!

Qani u avvalgi maslak, aqida?
U fikr g‘oyadan mahrum bitta tan.
O‘ylab faqatgina yashash haqida
G‘oyadan ajratmoq — johillik zotan.

## TOG‘DA SHALOLA KABI

Bir rang emas, ranglarning payvastasin sevaman,
Bir gul emas, chamanning guldastasin sevaman.
Yuksalmoqqa tepamas, men baland tog‘ istarman,
Hayotda chin hayotdek men yashamoq istarman.

Menga ko‘kning oqshomi, sahari ham go‘zaldir,
Bu hayotning sevinchi, kadari ham go‘zaldir,
Hayot deganlari bu — kurash, yengish sahnasi,
Jur’atlarni namoyon etar har bir lahzasi!

Inju yuzaga chiqmas, chayqalmasa gar ummon,
Umr xayfdir, mehnatsiz omad qidirsa inson.
“Och qornim — tinch qulog‘im” deganlar ham bor, axir,
Mashaqqat nash’asini ular his etmas taqir.

Har kadarni saodat, har sevinchni g‘am izlar,
Asl ko‘ngil ham g‘amni, ham sevinchni azizlar.
Talotumsiz yuraklar ko‘pik yanglig‘ bo‘sh bo‘lur,
Doim sevinch axtargan g‘amga hamog‘ush bo‘lur.

Dushmanman yaltoqlanib tepani tog‘ deganga,
“Umr — amal-taqallab kun o‘tkarmoq” deganga.
“Amal-taqal...” Oh, bu so‘z lug‘atga kirdi kaydam?!
Yashamoq yashamoqdir! Boshqasin olmasman tan.

Men azaliy dushmanman bundoq “o‘lik jonlar”ga,
Kundan qochib, o‘zlarin urur salqin joylarga!
Ular o‘rtadan yurib,
qirg‘oq neligin bilmas,
Nomusni harjlamoqdan zarracha parvo qilmas.

Ular ora yo‘l tutib, na “ha” va na “yo‘q” derlar,
Havoni na issig‘-u na yoxud sovuq derlar.
Ularga yoz-u ayoz, yomg‘ir-u qor — chikora,
Ovshom-u sahar ko‘rki tamom begona-yu yot.
Ulardan bir yaxshilik ko‘rmadi bir bechora,
Na bor-u na yo‘qligin sezmadi biror jonzot.

Ular o‘lgan chog‘da ham bir kimsa to‘kmadi yosh,
Chunki, inson qalbiga ular bo‘lmadi sirdosh.
Dunyoga jimjit kelib, yana jimjit ko‘chdilar,
Hissiz, alamsiz, loqayd bir g‘ubordek uchdilar...

Do‘stim, ming tuyg‘u kechsin yuragingdan bir onda,
Qisilmagin kulganda, iymanma yig‘laganda.
Yig‘lasang, dildan yig‘la, kulsang, qahqahavor kul,
Shodlig-u alamingdan bir yayrab olsin ko‘ngil.

Yashamoq istamayman sudralib yo surinib,
Eng baland cho‘qqilarni etsam deyman qo‘nalg‘a.
Naylayin dengizlarning ul sokin sururini,
Yaqindur yuragimga larzakor mavj-u dolg‘a!
Imtihon etsin meni, mayli, bo‘ron, mayli, qor,
Hayot to‘lqinlarida yayragayman ustuvor.

Istamayman, hayotim tinch kulbada kechsin soz,
Istamayman qoya uzra burgutdek etmoq parvoz.
Bog‘chadagi ariqdek kuylab xazin nag‘malar
Oqmoqni istamasman.
Otilib tushsam deyman tog‘dan shalola kabi
Va cho‘llarga yoyilsam misoli lola kabi.

Daryo-yu dengiz bo‘lib, men chalqimoq istayman,
Osmonda yulduz bo‘lib, yarqiramoq istayman.
Bir rang emas, ranglarning payvastasin sevaman,
Bir gul emas, chamanning guldastasin sevaman.
Yuksalmoqqa tepamas,
men baland tog‘ istayman,
Hayotda chin hayotdek men yashamoq istayman.
Men yashamoq istayman!

## O‘ZIMDAN NOROZIMAN

Tabiatning ko‘ngil ochar
Ming rangi, ming sasi bor.
Har ko‘ngilning ming orzusi,
Ming sasli nag‘masi bor.

Bu orzular, bu nag‘malar
Jaranglab misli chiltor
Mening so‘lg‘in so‘zlarimda
Ko‘ngil ochdimi bir bor?

Hissim teran, so‘zim so‘lg‘in,
Qalbim keng-u siynam tor.
Tuyg‘ularim mendan avval
Topgan-ku menda qaror.

Sahvlarim, xatoyimni
So‘ngroq anglab qolurman;
Boqib vijdon ko‘zgusiga
Dilga armon solurman.

Siz, ey yanglish qadamlarim,
Meni g‘amga solursiz.
Qancha holi bo‘lay desam,
Shuncha chulg‘ab olursiz.

Men haq-hisob istaydurman
Kechamdan, kunduzimdan.
Rohatim yo‘q, noroziman
Umrim bo‘yi o‘zimdan

Bizning san’at dunyosining
Hazin torli bir soziman.
Faqat shundan rozimanki —
O‘zimdan noroziman.

## SHE’R VA MEN

Bir hissiz boqishdan, bir nohaq ishdan
Darhol bo‘g‘ilurman, bosib sovuq ter.
Onam chiday olmay ushbu holimga —
“Har gapni ko‘nglingga olaverma der”, —
“Har ishda jigarxun bo‘laversang xo‘p,
O‘g‘lim, bu dunyoda yashamassan ko‘p”.

Ona, qiynamasman aslo men seni,
Har so‘zing, aslida, haqiqatga mos.
Uzun umr istagan g‘am-u g‘ussani
Yurakka zarracha yo‘latmaydi, rost.

Botgan bir quyoshning, so‘lgan yaproqning,
Qurigan chashmaning, o‘chgan o‘choqning
Dardi-yu g‘amiga bo‘lmayman sherik
O‘zingni el aro hisoblab tirik,
Yashamoq, ey ona, yashamoqmidir,
Hayot yolg‘izgina osh-tamoqmidir?

Dema bu tushuncha, bu xayol nadir?
Olam go‘zalligi shundadir, balkim.
Umri boshdan oyoq bir afsonadir
Nash’ani nash’adan izlar bo‘lsa kim.

Tog‘larning ohidan tuman yo‘g‘rilgay,
She’r ham fikrdan, hisdan tug‘ilgay.

Yozurman she’rimni men yona-yona,
Insonni sevmayin odam sevilmas.
O‘zgalar g‘amini tuymasam, ona,
She’rim ko‘ngillarga yo‘l topa bilmas.

Har g‘amni ko‘ngilga olmasam agar
Men uzoq yasharman, bu so‘zing haqdir.
Unda she’rim o‘lgay o‘zimdan avval,
O, bundoq yashagan qanday badbaxtdir.

Yurak talpinarkan manzil-bamanzil,
Jo‘sharkan, tosharkan,yashaydi demak.
Menga o‘z umrimni uzaytmoq emas.
She’rimning umrini uzaytmoq kerak.

## YOSHIMDAN GINAM

Men o‘n besh yoshimda. O‘smir yoshimda
Aniq bilardimki, qirq bu — ulug‘ yosh.
Ellikda yetdim-u
hanuz boshimda
bolalik havasi charx urar bebosh.

Kuni kechagidek esimda hamon
Arpa kulcha chaynab darsga ketganim.
Qo‘lda xivich qamich, ko‘tarib suron,
Qamish toychog‘imda maktab yetganim.

His eta bilmasman yoshim farqini,
Yurak hamon — o‘sha, o‘shadir havas.
Goh sayhon, gohida tog‘lar zavqini
Tark eta bilmasman bir on, bir nafas.

O‘sha yoshlik chog‘im hamon o‘zimda,
Bu ishq-u havasga kulib qo‘yurman.
Afsus-u nadomat yo‘qdir so‘zimda,
O‘zimni boladek epchil tuyurman.

Yoshlikdan qo‘limiz uzilsa, ul vaqt
Hayotga tobora yopishurmiz biz.
Misoli Ona Yer qa’riga daraxt
Yillar osha teran otgandek ildiz.

Qaragil... bolalar solib g‘alag‘ul
O‘ynashur, tarmashur tomga-yu timga,
Men ham ular bilan berib qo‘lga qo‘l,
Qochmoq istaydirman bolaligimga.

Yana “bekinmachoq” o‘ynasam jo‘shib,
Boshimga ko‘tarib chaman-u cho‘lni.
Shunday bekinayki, izimga tushib
Qarilik topmasin men ketgan yo‘lni.

Ammo yosh o‘zini ko‘rsatur har dam,
Yurak qurg‘ur notinch, zarbi beqaror,
Ko‘chada yurganda qoqilsa qadam,
Oyoqnimas toshni sanayman aybdor.

Yo‘lda bolalardan qolsam orqaroq,
Ayblab nobop yo‘lni ne ham qilurman?
Biroq go‘zallikka maftun boqqan chog‘
O‘zimni o‘g‘limga tengdosh bilurman.

## KIMDIR MENING DUSHMANIM?

Kimdir manim
Eng qo‘rqinchli dushmanim?
Bilolsaydim buni men
Zarba bermasdan yovim

To‘sar edim yo‘lini,
Kesar edim qo‘lini.

Kimdir manim dushmanim?
Yaxshimni tilga olmay,
Yomonimni deganmi?
Yo‘q!
Aybimni yuzga solmay,
Yo orqamdan kulganmi?
Yo‘q!
Mening nuqsonlarimni
Mendan yaxshi bilganmi?
Yo‘q! yo‘q! yo‘q!

O, ularning ko‘zini
Taqolsaydim ko‘zimga,
O‘zgalar ko‘zi bilan
Boqolsaydim o‘zimga,
Qolmas edi armonim,
Bo‘lmasdi zarra dardim...
Men unda o‘z-o‘zimni
Aniq, yaqqol ko‘rardim.

Unda o‘z ayblarimga
O‘zim g‘anim bo‘lardim.
Ko‘rsaydim o‘z-o‘zimni,
Bo‘lardim o‘ylaganim.
Oh, meni mendan yaxshi
Ko‘ra bilgan do‘stlarim,
Orqamdan gap-so‘z qilib
Mendan kulgan do‘stlarim,
Kuling, oshkor kulingki,
Yetsin quloqlarimga
Sizning har bir so‘zingiz,
Barcha gunohlarimdan
Tezda xabardor bo‘lay,
Ko‘zim bo‘lsin ko‘zingiz.

Eng qo‘rqinchli yovning ham
Uddasidan chiqurman,
Lekin o‘zim o‘zimni
Bilolmay entikurman,
Bilolmay entikurman.

O‘zim o‘z qo‘lim ila
Bir kuni bol icharman,
Bir kun zahar icharman,
Men hayot yo‘llaridan
Oyog‘im bilan emas,
Imonim-la kecharman.

## HAYRAT

“Hayrat, ey but!”[1] demish dunyoga qalam,
Olamni bir kezmoq yuz hayratimdir.
Men hayratga tushmay yozmasman kalom,
Mening har qo‘shig‘im o‘z hayratimdir.

Ba’zan deydilarki, bizning zamonda
Dilga hayrat solgay na sevinch, na g‘am.
Har narsa aniqdir,
Mo‘jiza qayda?
Hayratdan ne chog‘lik olisdir odam!

Sen bu ojizliging ko‘rma zamondan,
Qalbingga yaxshi boq,
Qalbing misli kul —
Hayratki, yo‘qolgan bo‘lsa jahondan.
Olamdan go‘zallik ketibdi butkul!

Sen ko‘ra olmasang go‘zalliklarni,
Nechuk olam senga gunohkor bo‘lur?

[1] Fuzuliyning “Hayrat, ey but, surating ko‘rganda lol aylar meni” misrasiga ishora.

Ko‘zin muz bog‘lagan buloqlar kabi
Sovuq odamning ham qalbi ko‘r bo‘lur.

Ko‘klar jimir-jimir,
Yer ko‘ksi rangin...
Bu hayrat, bu jilo, bu g‘aroyib hol.
Go‘daklik chog‘imdan olamning zangin
Rangorang mavjiga men boqurman lol.

Men o‘z hayratimning chamanzoridan
Savollar yog‘dirib, javob axtardim.
Hayratga tushmasam dunyo koridan
Hayratsiz holimga hayratlanardim.

Hayronman ochilib ming varaq-varaq
Sochilgan gullarning alvon rangiga.
Mumkinmidir hayron qolmaslik mutlaq
Ohangsiz dunyoning o‘z ohangiga?!

Ne so‘zlab,
Nimani tilga olayin,
Dunyo sirga to‘la, dunyo — mo‘jiza.
Siz ayting,
Men nechun hayron qolmayin,
O‘rnida aytilgan go‘zal bir so‘zga?..

Hayronman hamisha yongan ko‘nglimga,
Olovi she’rimdir, ko‘rinmas kuli.
Hayratga limmo-lim so‘lim va o‘ngim,
Zarralar mag‘zida dunyolar tutash.

Maysalar shiviri,
Shamolning atri,
Tuproqning nafasi — hayrat nidosi!
Bulbullar chax-chaxi
Va gullar atri —

Suvlar zamzamasi — hayrat nidosi!
Hayrondir,
Butoqlar yaproqqa hayron,
Tuproq toshga hayron, tosh toqqa hayron..
Sel dengizga hayron,

Suv cho‘lga hayron.
Cho‘l chamanga hayron, gul gulga hayron!
O‘ziga hayron-ku bu jonsiz olam,
Hayrat yo‘q deganing,
Yolg‘ondir, inson!

Dilda ardoqlayman bu hayrat hissin,
Yasha hayron-hayron, o‘l hayron-hayron.
Meni sovuq so‘z-la tinchitguncha sen,
“Jon” debon jonimni ol, hayron-hayron.

Sen o‘zgadan o‘t-u otash kutmayoq,
Olamni ko‘ra bil ko‘z — yuragingdan.
So‘qir ko‘zlaringni kengroq ochib boq,
Axtargil hayratni o‘z yuragingdan.

Hayratim yashaydi dardisarimda,
O‘lsam...
Ko‘zlarimni yopmagayman tez.
Boqing ko‘zlarimga
Qorachig‘imda
Bir hayrat chirog‘in ko‘rajaksiz siz.

Hayratsiz bir lahza yashamasman men,
Hayrat — bu hayotga, o‘limga hayrat.
Hayratsiz — dunyoda yashnamasman men,
Nur sochgay bosilgan yo‘limga hayrat!

## QANOTLARIM

Mening qanotlarim bor:
Shirin-shirin orzular,
Buyuk-buyuk xayollar
qanotlarimdir manim!..
Dunyo bu qanotlarga
kelib qolar ba'zan tor.
Koinotdir Vatanim!
Orzular dunyosiga
Parvoz etdi aqllar —
Yaraldi afsonalar,
xotirotlar,
naqllar...
Ucharman
hey, ucharman,
Tepa demay,
duz demay,
Hayolimning hududi —
So'ng nuqtasi, haddi yo'q,
Samoning sarhadi yo'q!
Qushlar nega ozoddir?
Erkinlikning timsoli
Mujassam qush otida.

Erkinlik uchar, uchar...
Qushning sarhad bilmagan
U qo'sha qanotida.
Fikr qanotlari ham
Toliqmas,
sarhadi yo'q,
Samo kabi hadi yo'q!

Samodan ham narida
Manzili bormi yoxud
Qo'nim bilsin biror on?

Yo‘q! U koinotlardan
Buyuk, cheksiz, bepoyon!
Men erkinman, ozodman,
Abadiyat manzili
ichra so‘ngsiz, ustuvor.
Garchand yerda bo‘lsam ham
Samolarni chulg‘agan
Fikr — qanotlarim bor!

## MAKTUBLAR

Kuzak yaprog‘idek yotur parishon
Tortmalar kunjida qolgan maktublar.
Izsiz kunlar yanglig‘ benom-u nishon
Bir vaqt hayajonga solgan maktublar.

Ko‘hna maktublarda talay mazmunlar,
Kechmish ko‘z o‘ngimda misoli ro‘yo.
Goh yig‘lab, goh kulib ko‘rinar kunlar,
O‘t so‘nib, kul bilan o‘ynarman go‘yo.

Bir vaqt har so‘zini yoddan bilganim
Maktublar oddiy bir varaqdir bugun.
Bundagi orzular, tuyg‘ular, hislar
O, bizdan naqadar uzoqdir bugun.

Ko‘nglimni titratgan ne ishq alami?
Zamon yoshligimni yelgami bermish?
Vo ajab! Insonning yoshlik olami
Nahotki o‘zidan olisda ermish!..

Kechmishni yangidan tiklab xayolan,
Borurman u olis ufqlar sari.
Deyurman insonning o‘zidan ba’zan
Jonliroq bo‘larkan xotirotlari.

Har varaq betida bir kunning izi,
Jonlanar yangidan o‘tgan kunlarim...
Jonsiz varaqlarda topmishman sizni
Befoyda, besamar yitgan kunlarim.

Maktublar qalblarni izhor eturlar,
O‘xshar yoz faslining sho‘x sellariga.
Maktublar ko‘prikdir, meni elturlar
Umrimning chechakli sohillariga.

Kulgili ko‘rinar, ehtimol, senga
Ey ko‘ngil, bu ko‘hna “shonli maktublar”,
Bag‘oyat azizsiz,
ey meni menga
qaytargan maktublar, jonli maktublar.

## ZARRA — DUNYO

Qo‘shnidan allakim etibdi vafot...
To‘la edi dunyo g‘amiga, o‘tdi.
Sannab yig‘ladilar,
behad oh-u dod,
To‘y bilan kelgandi,
g‘am qo‘ydi, ketdi.
Dunyoga kelibon ko‘z ochgan oni
Na dardi bor edi,
na alam, qayg‘u.
Dunyodan ketgandi
butkul dunyoni
Go‘yo o‘zi bilan olib ketdi u.

Yo‘q, yo‘q! Onasidan tug‘ilmas mardlar,
Tug‘ilar fikrdan, orzudan — bu haq.
Insonni boyitar qayg‘ular, dardlar,
Axir inson o‘zi dunyodir mutlaq!

Yuraklar daryodir... Uning har kuni
To‘liqdir... oqqaydir ko‘klammidir, yoz.
Bir qalbning bir kunlik talotumini
Yozmoqqa yetmagay qalam-u qog‘oz.

Botib tug‘ilguncha bizning bu oftob,
Har kuni minglab quyosh tug‘ilur, botur,
Yerni sekin bosgil, aylagil tavof,
Tuproqning ostida dunyolar yotur.

Bu tuproq ostida yotur shunchalar
Orzu-yu fikrlar, dard-u azoblar...
Yotur ilk umidlar, so‘ng tushunchalar,
Yotur yozilmagan ming-ming kitoblar.

Xuddi kelganidek ketmas hech bir zot.
Har kimda ayricha olam muhayyo.
Demagil: bir qo‘shnim etibdi vafot,
Kelganda zarraydi,
ketganda — dunyo.

## NEKROLOG

Nekrolog — bir hayotning so‘ng nidosi, so‘ng sasi,
Sermazmun bir umrning eng qisqa manzarasi.
Umrning bor kunlari bo‘lur bir nuqtada jam,
o‘n jumladan mujassam...
Marhumga bir nafaslik umr berilib agar,
Bu xabarga bir yotdek tashlay olsaydi nazar,
o bunga yig‘larmidi
va yoxud kularmidi?..
Ko‘rindi amallarning eng qisqa lavhasidan
Marhum bizga so‘ng bora.
Insonning orzulari ko‘pdir amallaridan
Ming bora, million bora.

Yurakdagi orzular amallardan azaldir,
Qilmoq bo‘lgan ishlarim
Qilingan ishlarimdan
ham ko‘pdir, ham go‘zaldir.
Shunday ekan... nekrolog
bo‘lsin deya mukammal
Unda yozilmas nechun
ham orzular, ham amal?

## EHTIYOT

Ehtiyot so‘zidan ehtiyotim bor,
Ehtiyot har ishda ehtiyoj o‘lmas.
Har so‘zdan o‘zini qo‘rigan ilhom
Oyoqdan parchindir, boshda toj bo‘lmas.

Ehtiyot chog‘ida yozdim ko‘ngilsiz
So‘zimdan lahza zavq topmadi inson...
Va lekin jur’at-la deganim har so‘z
Qo‘rqoq qalblarga ham yo‘l topdi oson.

San’at-u ilhom-u ishq ilohasi
Qo‘rqoq yuraklarga erur mutloq yot.
Yurilmagan yo‘ldir — manzil sohasi,
Qirqqay so‘z qanotin mash’um ehtiyot.

Ehtiyot bo‘lganlar, sokin yurganlar,
Sizni hech ko‘rmadim manzil boshida.
Har ishdan hayiqib, tadbir ko‘rganlar
Qo‘li bo‘sh qoldingiz siz yil boshida.

Yo‘lida ming o‘ylanib kim bossa qadam
Unda na xato-yu va na sahv bo‘lur.
Vale jasorat-la yo‘l yurgan odam
Yo yetar murodga, yoxud mahv o‘lur.

Ehtiyot — arosat, mudhish asorat,
Yo hayot, yo o‘lim erur jasorat!

Ehtiyot verguldir, nuqta emas, yo‘q.
Ehtiyot tussizdir, rang bo‘la bilmas.
Dunyoda hech mahal hech qahramonlik,
Biling, ehtiyotdan aslo tug‘ilmas.

Qo‘rqar jasoratdan qo‘rquv ham, shaksiz.
Unga qo‘sh qanotdir mardlik va hunar.
Axir jasoratsiz, ya’ni, yuraksiz
Qayerda va qachon bir zafar unar?

Jasorat qiyindir, ehtiyot — oson,
Ehtiyot orzuning kishan, no‘xtasi.
Jur’atdan qo‘rqmangiz, qo‘rqing qo‘rquvdan,
Qo‘rquv — itoatning tayanch nuqtasi.

Hayot, ayirmagil o‘z holatimdan,
Menga bag‘ishlagil hamisha jur’at.
Men ziyon chekmadim jasoratimdan,
Qo‘rquvdan qo‘rqaman, qo‘rquvdvn faqat!

## SHUNDAY YUKSALDIKKI...

Insonman,
Yo‘q yerdan bor bo‘lganman men,
Oshnoman olamning naql-u shubhasi,
Oshkor-u nihon-u, rost-chinlariga.
Javob topmoq uchun tug‘ilganman men
Ona tabiatning “Nechun”lariga.
O‘ylayman,
Balki shu “nechun?” bo‘lgandir
Dunyoda insonnig dastlabki so‘zi.
Savollar yuz emas, ming-ming bo‘lgandir,

Savoldan tug‘ilib dunyoning o‘zi.
Yer nim?
Ko‘k nima?
Bu tuproq nima?
O‘lim ne, hayot ne, yashamoq nima?
Ilk nima?
So‘ng nima?
Kun ne, on nima?
Kecha ne, kunduz ne?
Bu davron nima?
Savol-u javobning bu taloshidan
Yuksaldik, har lahza ortib qadrimiz.
Mubham “nechun?”larning chaqmoq toshidan
Fikrimiz yorishib, yondi qalbimiz.
Savoldan kuch oldi aql qanoti,
Shundan qudratlidir insonning oti.
Javob topa-topa bu “nechun?”larga
Yuksaldik bu dovon, ushbu kunlarga.
Shunday yuksaldikki,
jahonning o‘zi
Bizga orzumizdan ushoq ko‘rindi.
Shunday yuksaldikki,
insonning o‘zi
Tabiat uchun bir
jumboq ko‘rindi.
Qulf ham mendadir,
Kalit ham o‘zim.
O‘rgangan ham menman,
O‘rganilgan ham.

## KECHANING SOG‘LIG‘IGA

“Ko‘k yuzi jimir-jimir,
Ko‘kdan yerga nur tomar...”
Bunday go‘zal kechada

Tog‘-u tosh, qoya, jonzot,
Kechadan olur hayot.
Boshimiz ustida oy,
Mayin nurlar sirg‘alar.
Kechaning yoqasida
Qizil-qizil tugmalar...
Kecha loldir, sokin, jim,
Lekin ming bir ko‘zi bor —
Barchasi-la termulib,
Kimni kutar u bedor?

Siz qayerga shoshasiz?
Yotoqqami? Vo ajab!
Kechaning sog‘lig‘iga
May ko‘taring labo lab!
Kecha ham to‘ldiribdi
Nurdan o‘z bodasini,
Kecha ham nag‘masiga
Payvasta etsin, mayli,
Qadahlarning sasini!
Yotmoq gar ne’mat bo‘lsa,
Qo‘y, avval kecha yotsin!

Kechaning jamoliga
Taslim etti-yu o‘zini,
Tog‘-u tosh, qoya, daryo
Yummagaydir ko‘zini,
Bas, inson nega yotsin?
Yo‘q, yo‘q! Keling, yotmaylik,
Orzular dunyosiga
Qanotlansin sho‘x yurak.
Umr — ko‘p uzunmiki,
Uning ham bir qismini
Biz uyquda kechirsak?!
Busiz ham tuproq ichra
Yotajakmiz tuyg‘usiz

Ming yillar, million yilar...
Bu go‘zallik, bu baxtni
His etolmay ko‘ngillar.
Keling, keling, yotguncha
O‘shal sovuq yerda biz,
Hech bo‘lmasa yotmaylik
Bunday kechalarda biz!..
Ey ko‘ngil, anglagilki,
Sen tog‘larning boshida
Yuksalgan bir qoyasan.
Sen o‘zingni, ko‘zingni
Hech bir zamon yummagan
Mehnatkash bir g‘oyasan!
Kechalarni g‘aflatda
O‘tkazmoq — hayot emas!

## XAYOLIM

Ko‘zlarim, ko‘zlarim,
burchliman sizga,
Zaminga,
quyoshga,
ko‘kka,
dengizga
Boqurman, dunyoni ko‘rurman chanqoq,
Eng buyuk davlatdir insonga — ko‘rmoq!

Qadim zamonlardan ko‘zini inson
“Dunyoga ochilgan daricham” dedi,
Qancha ko‘rgan bilan yana kam dedi.
Dunyoni ko‘rsatur bizning ko‘zimiz,
Yana, ko‘zim ojiz,
deymiz o‘zimiz.
Ko‘z ila ko‘rinmas hech zamon yurak,
Yurakka yurak-la boqmoqlik kerak!

Ko‘z ko‘rar buyumning o‘zini faqat,
Ich-ichin ko‘rurman kamolim bilan
Ko‘z menga ko‘rsatur bu kunni faqat.
Ertani ko‘rurman xayolim bilan.

Kim bilur, insonning necha ko‘zi bor?
Uni bilib bo‘lmas desam, to‘g‘ridir.
Orzular, orzular, shirin orzular,
Xayol ko‘zimizning qorachig‘idir.

Hissim ham, tuyg‘um ham ming bir ko‘z kabi
Ko‘rgaylar... Go‘zaldir bu holim mening.
Ko‘z-la ko‘rolmagan tilaklarimni
Sen bilan ko‘rurman, xayolim mening.

## NIMASAN?

Yoding bilan kechgan bu umrning
Ham shuhrati-yu ham shoni sensan.
Ming dardga giriftor bu ko‘ngilning
Ham dardi-yu ham darmoni sensan.
Umrim bezagi, ziynatisan sen,
Ma’nosi, yana hikmatisan sen.

Sen ham shakarim, ham zaharimsan,
Sen manfaatim, ham zararimsan,
Sen ham savobim, ham gunohimsan,
Sen tunlarim-u ham sabohimsan,
Ko‘pdir parilar, yagonasan sen,
Qalbim uyida farzonasan sen.

Uchmoq tilagim, ko‘k sari uchmoq!
Xanjar kabi qindan chiqib shul choq
Har azm-u qarorimni kesar sen,
Bir do‘stimi, yo dushmanmi, nima sen?

Hukming-la sen olding meni mendan,
Sulton-u xoqonim o‘zi sensan.

Ko‘nglimdagi qay orzuni ko‘rmay,
Har orzuning ilk orzusi sensan.
Sensiz bu hayot zaqqum bo‘lardi,
Umrim uyining yog‘dusi sensan.
Bir jon kabi tan ichra kezarsan,
Ruhimmi, xayolimmi, nesan sen?

## MEN SEVARMAN

Men sevarman... darada
Oqqan sellar qonimdir.
Dengizdagi dolg‘alar
Mening hayajonimdir.

Men sevarman... sevgimni
Kuylar tog‘da buloqlar.
Mening tilaklarimdir
Kurtak yozgan butoqlar.

Men sevarman... adirlar
Chechak ochar, gul ochar.
Ko‘ksimdagi tuyg‘ular
Amallarga yo‘l ochar.

Men sevarman... yonimdan
O‘ta bilmas g‘am mening.
Men sevarman... qushlarning
Nag‘masi nag‘mam mening.

Men sevarman... yuragim
O‘z siynamga tor kelar.
Men sevarman qalbimga
Sevgidan bahor kelar.

## SEN KETDING

Sen ketding, go‘yokim dunyo bo‘shaldi,
Yoz ham ko‘chib ketdi, o‘rni bo‘sh qoldi,
Bahordek qalbimni sensiz qish oldi,
Men yozni sevarman, qishni naylayin?

Sen ketding, ishqim ham sen bilan, demak,
Ishqsiz qolgan ko‘ngil kimga ham kerak?
Sovuq toshga o‘xshar sevgisiz yurak,
Siynamga osilgan go‘shtni naylayin?

Hamisha ayrimiz kecha-kunduzdek,
Zidlikda bamisli olovdek, muzdek,
Yoqut ko‘zi bilan mashhurdir uzuk,
Gar uzuk bo‘lmasa, toshni naylayin?

Nega yashay sensiz, yashayin nega?
Na yerga, na ko‘kka bo‘lmayin ega.
Sensiz ko‘r bo‘lurman, ey nozli beka,
Ko‘zsiz qolgan oddiy boshni naylayin?

## BIRI SENSAN, BIRI MEN

Bir buloqning ikki ko‘zi —
Biri sensan, biri men.
Bir olmaning ikki yuzi —
Biri sensan, biri men.

Qo‘sha torning titramasi —
Biri sensan, biri men.
Bir pardaning ikki sasi —
Biri sensan, biri men.

Oydin samo, ko‘k quchog‘i —
Biri sensan, biri men.

Tong yulduzi, sahar chog‘i —
Biri sensan, biri men.

Hayotda juft rang hokimdir —
Biri sevinch, biri g‘am.
Sevinch kim-u, qayg‘u kimdir?
U sensan-u u men ham.

Bu dunyoga keldik shaydo,
Goh shodon, goh dilxasta.
Sen mendasan, men senda jo,
Taqdirimiz payvasta.

## QORA SOCHLAR, OQ SOCHLAR

Sochlarimga oq tushar, oq tushar — yomon tushar,
Har boqqanda onamning yuragiga qon tushar.
Bu sochlar, ey onajon, seni g‘amga solmasin,
Qoraytirib ko‘nglingni, halovating olmasin!

Uzun tunlar she’r uzra saharlarim oqarar,
Qalbim zahmatlaridan balki sochim oqarar.
O‘ylamagil: “Bolamning bir pinhoniy g‘ami bor”,
Bevaqt oqargan sochning o‘zga bir olami bor!

O‘lim — dahshat emas, kim unga boqsa mardona,
Oq sochlarim bilan men faxrlanurman, ona!
Menga shundoq sochlarni in’om etibdi hayot,
Uning bu tuhfasidan xursand bo‘lmayin, nahot?!
Mehnat — umrim otashi, shu otashda yonmishman,
Oq sochlarni hayotda men o‘zim qozonmishman.

## INTIZOR

Yozda qishni xohlaymiz-u
Qishda — yozni.
Ozda ko‘pni xohlaymiz-u
Ko‘pda — ozni.
Bolalikda yigitlikni
Havas qilsak,
Yigitlikda bolalikka
Biz intilsak...
Ayting, o‘zi orzu-havas
Bepoyonmi,
Bir emas-u, yuz emas-u,
Millionmi?!
Xushbaxt bo‘lib,
Yana baxtga talpinamiz.
Orzularning qanotida
Istiqbolga topinamiz.

## EKRANDA KO‘RISHUV

O‘g‘il shaharda-yu
Qishloqda — ona.
Orada masofa katta, albatta,
Ko‘risha olmaslar bir mamlakatda.

Ekran qarshisida ona o‘ltirib,
Faxr-la o‘g‘liga boqar mo‘ltirab.

O‘g‘il she’r o‘qir: “Ona mumtozdir,
Yo‘lida jonimni baxsh etsam ozdir...”

O‘g‘il she’r o‘qir.
Eshitar ona,
Ko‘zida yorishib ketganday olam.
Pichirlar o‘zicha faqat mushtipar;
“O‘zin sal oldirib qo‘yibdi bolam”

## OTA VA O‘G‘IL

*Men o‘ylayman bolamni,*
*Bolam o‘ylar bolasin.*
***Xalq maqoli***

O‘g‘lim, bas qil, endi, bir oz daming ol,
Yorgan o‘tinlaring yetgay bemalol.
— Otajon, borurman, kiring ichkari.

Senga necha marta aytsam ham, bari
So‘zlarim befoyda, kelmasang agar
Sovuqda sen bilan turgum barobar.
— Otajon, siz uyga kiring, men rozi,
Bugun bor o‘tinni yorishim lozim.

— O‘g‘iljon, sovuq-ku, isinib ol, bas,
— Bugungi ishni mard ertaga qo‘ymas...

Ota ko‘p yolbordi, o‘g‘il ko‘nmadi,
Gapirgan gapidan foyda unmadi.
Ota ichkariga kirdi-yu shu tob
Bir go‘dak tashqari yugurdi shitob.

Buni ko‘rgan zahot anov o‘tinkash,
G‘azabi lovullab, ko‘ngli bo‘lib g‘ash,
Baqirdi: — Ey, ota, sovuq-ku dala,
Ne uchun tashqari chiqdi bu bola?!

Ota kulimsirab so‘zladi: — Nodon,
Bolam deb senga ham achidi-ku jon.
Sen mening bolamsan, menga ham aziz,
Sovqotding... so‘zimga kirmading hargiz.
Bilki bu qonun bor shahru ma’voda:
Har kim o‘z bolasin o‘ylar dunyoda.

## YASHAMOQ UCHUN

Quyosh chiqqanidan oqshomgacha to
Yangi bir ertakni dil istar hamon.
Ertakdan men imdod qilurman paydo
Xayolim ufqiga tor kelsa zamon.

Bir ertak istarman, ravshan bir naql,
O‘zim o‘z o‘yim-la yolg‘iz qolgan dam.
Kunda bir mo‘jiza yaratgan aql
Ertak-la zabt etdi, axir, oyni ham.

Bir ertak istarman har kecha, har kun,
Ertak bu insonga misli qanotdir.
Ertak istaydirman yashamoq uchun,
Ertakning mag‘zida axir hayotdir!..

* * *

Yigitlikda —
qo‘llar uzun, tillar qisqa.
Qarilikda —
tillar uzun, qo‘llar qisqa.
Yigitlikda —
kunlar qisqa, yillar uzun.
Qarilikda —
kunlar uzun, yillar qisqa.

## QOFIYALAR

Istamayman
Ohanglardan hosil bo‘lgan qofiyani,
Qiziqtirar
So‘zlardagi hikmat mani, ma’no mani,

Qofiyadir
Ikki simning bir pardada titramasi,
Qofiyadir gul nafasi, bulbul sasi.
Qofiyadir ko‘k ila yer,
Sevinch — kadar.
Paovoz bilan tanazzul-u,
Oqshom — sahar.
Qofiyadir bugungi ish
Va xotirot.
Eng mukammal qofiyadir
O‘lim — hayot!

## BIR TARAFDA

Goh boqdim aqlimga, goho ko‘nglimga,
Yurak bir tarafda, bosh bir tarafda,
Qalb ikki qutbning orasindadir,
Zamon bir tarafda, yosh bir tarafda.

Umr tulporini tog‘larga surdim,
Goh jo‘shib yugurdim, goho tek turdim,
Hamisha dunyoni shu tahlit ko‘rdim,
Ishtaha bir yonda, osh bir tarafda.

Azaldan qayg‘usiz tug‘ilar inson,
So‘ngra g‘am-anduhga yo‘g‘rilar inson,
Goh o‘ng-u goh so‘lga o‘girilar inson,
Bahor bir tarafda, qish bir tarafda.

Bir yonim kechadir, bir yonim sahar,
Bir qo‘lda shakar-u bir qo‘lda zahar,
Vo ajab, bularning barchasi agar
Mujassam bo‘lsaydi bitta tarafda.

## O‘LCHOV

Bolakaylarni tergab tez-tez qichqirar ona:
— Qochma!
— Kulma!
— Yugurma!
— Birdamgina orom ol!
Bola cho‘lda, adirda, kulmasin, yugurmasin.
Yiqilmoqning, turmoqning lazzatini ko‘rmasin.
Bu qanday, gap, qanday o‘y?
Ey opa, holiga qo‘y!
Bola o‘ynasin, chopsin,
Dunyo lazzatin topsin!
Erkin go‘dak ko‘ngliga o‘lchov-bichuv ne kerak?
Busiz ham bir vaqt uning har ishi o‘lchanajak.

## G‘AZAL

Tosh yuraklarni yoqib, toshlarni sindirdi muqom,
Kimki dushmandir haqiqatga — topintirdi muqom.

Undagi qay sehr-u tilsimni hikoyat aylayin,
Qurni oh birla quritdi, solni yondirdi muqom.

Ne yuraklar kin-u nafratdan to‘ngib qolmish edi,
Uyg‘otib, ezgu tilaklar dilda undirdi muqom.

Xotirotdir har fig‘oni, nolasi —jonli kitob,
Qancha kechgan yo‘llaringni yodga indirdi muqom.

U — yurak yog‘dusi, ko‘zlar yoshidir, vijdon sasi,
G‘ayriinsoniy balodan dilni tondirdi muqom.

Baxtiyorman, angladim ne-ne kitoblar mag‘zini,
Lek muqaddas matlabim kuy birla qondirdi muqom.

* * *

Bu qadar soldi meni hasrat, omonlardan omon,
Dil uyni mahv ayladi ming xil gumonlardan gumon.

Necha olim dardini izhor etib zikr ayladi,
O‘tdi oshiq sarguzashti, lek zamonlardan zamon.

Dard-u g‘amdan o‘rtanib, ko‘nglim kuyar hajr o‘tida,
Qilmog‘ing endi shikoyatlar — yomonlardan yomon.

Ko‘zlarimdan to‘kilur ashkim jamoling ko‘rmasam,
Yog‘ilib ko‘kda bulutlardek ayonlardan ayon.

Ko‘rmadim ko‘pdan seni, ey gul, desam — nohaq bo‘lur,
Surating ming noma-yu ming xil bayonlardan bayon.

Necha bor ahdlar qilib, ahdga vafo hech qilmading,
Baxtiyorning qalbini aylab talonlardan talon.

* * *

Tag‘in bog‘lar chechak bog‘lar, faqat bog‘da gulim yo‘qdir,
Gulim yo‘qdir, bu dunyoda oyim yo‘qdir, yilim yo‘qdir.

Zamon qaytmaydi hukmindan, biz ayrildik, tez ayrildik,
Dilim yo‘l bermas, ey do‘stlar, demoqqa sevgilim yo‘qdir.

Chechaklardan, sabolardan men olg‘um atrini yorning,
Tilak o‘lmas, yurak o‘lmas, oshiqlarga o‘lim yo‘qdir.

Gulim, ag‘yor qilichi-la, sevarkan, ayru tushdik biz,
Bu hasratdan, bu zahmatdan ziyod mudhish zulm yo‘qdir.

Sevib yondim, kuyib yondim, kulim sovrildi aflokka,
Topolmassan bu dunyoda, o‘tim so‘ngan kulim yo‘qdir.

Yog‘och yonsa fig‘on aylar, deyar o‘z dardini oshkor,
Demak chun yora dardimni zabon yo‘qdir, tilim yo‘qdir.

Sening-la Baxtiyorman men, oyim sensan, yilim sensan,
Bu dunyoda manim sensiz oyim yo‘qdir, yilim yo‘qdir.

* * *

“Kel-kel” deya, hajringda kamondek yig‘ladim men,
Umrim senga qurbon etibon, jon tig‘ladim men.

Osuda go‘dakdek ne g‘aming bordi, ne darding,
Dardim-la sening ko‘zlaringni surmaladim men.

Hissim seni “kel-kel” dedi, aqlim dedi “ket-ket”,
Bu qonli kurashdan yana imdod tiladim men.

Ishqim malomat o‘ldi mening boshima har kun,
Bir ishqing sababi, o naqadar ta’na yedim men.

O‘z hissin o‘zi band aylagan Baxtiyor o‘lmas,
O‘z ishqima o‘z ko‘nglimi zindon ayladim men.

* * *

Nechuk o‘tsan, bilmadim,
Aqlimdan tondirarsan.
Qancha yoningda bo‘lsam,
Shunchalar yondirarsan.

Sendan olisdaman men,
Muncha sog‘intirarsan.
Nechuk o‘tsan, bilmadim,
Uzoqdan yondirarsan.

* * *

Qoshingga, ko‘zingga boqqanim mahal
Ta’rif-tavsif o‘zi
nega kerakdir?
Chiroying ta’rifga emasdir mahtal,
Ojiz — sevgi so‘zi,
sevgan yurakdir!
Hali yozilmagan she’rim monand sen,
Jo‘shqin ilhomimga satr-satr kel.
Sensan navbahorim, xazon ko‘nglimga
Ko‘klamdek ufurib xushbo‘y atir, kel.

* * *

— Bu qanday iltijo, bu qanday nola,
Ey yurak, sirlaring etgil havola?
— So‘rama bu gapni bir nodon kabi,
Bilsam o‘z-o‘zimni, naql bo‘lardim.
Agar anglay olsam o‘z istagimni,
Men yurak bo‘lmasdim, aql bo‘lardim!

* * *

Deding: “Ezdi meni hijron-u alam,
Dunyo buzilmas-ku ayrilsak agar”,
Dedim: “Buzilmaydi, dunyoga ne g‘am,
Ko‘ngil dunyomizda vayrona qolar”.

## INSON

— Ko‘pdir quruqlikdan bu dunyoda suv,
Nega dunyo nomin yer atashadi?
— Insondir shuhrati butun olamning,
U yerda tug‘ildi, yerda yashadi.

* * *

Umr bizga berilmas
Shundoq yashamoq uchun.
Umr bizga berilar
Dunyoning ham dardini,
G‘amini ko‘ksimizda
Chekmoq, tashimoq uchun.
Umr — qalbning, zakoning
Ming ishqi, ming amali.
Umr — o‘lgandan so‘ng ham
Yashamoqning tamali!

* * *

Uyingizning atrofida
Bo‘lmas ortiq izim endi.
Quriqqina bitta “salom” —
Oramizda bizning endi.
Ishqsiz toshga aylandim men.
Yo‘qdir senga so‘zim endi.

Men bo‘yningda marjon edim,
Pora-pora uzilmishman.
Baland-baland bir tog‘ edim,
Nuramishman, buzilmishman.
Men bir yonar vulqon edim,
Yona-yona muz bo‘lmishman.

* * *

Vatan ishqi barcha ishqdan azaldir,
Ona elim, ona yurtim go‘zaldir.
O‘z jonimdir, onamdir vatanim,
Ozarbayjon, men seniki, sen — manim.

Bu tuproqdan quvvat olib, yayradik,
Vatan uchun biz yashadik, yaratdik.
Sayramaydi aslo bulbul chamansiz,
Biz ham o‘lik butoqlarmiz Vatansiz.

## JAYRON

So‘rama, lolasan deb nechun qoshimda,
Azaldan go‘zallik ishqi boshimda.
O, mening qalbimga shavq solgan sanam,
Senga, sendan o‘zga, hayron-ku olam!

Oy sendan uyalib yumar ko‘zini,
Hayronman, kel meni qiynama, jayron!
Ko‘ra bilolsayding o‘zing o‘zingni,
Mendan ming chandon ko‘p bo‘larding hayron.

## SOVUQ QOTDING

*(Romans)*

Ey yosh o‘g‘lon, olis kecha, tun chog‘inda
Ne izlarsan darvozamning qabog‘inda?
So‘yla, qandoq tuyg‘u bilan qalbing urur?
Shamol esar, ayoz kesar, qor sovurar.

Goh chekarsan, entikarsan, goh tolarsan,
Tinmay kezib qor ustiga iz solarsan.
Ey yosh o‘g‘lon, menga aytar ne so‘zing bor?
Tuyg‘ularing qorga yozib qilma izhor.

Och qalbingni, tortinmagil,
nedir so‘zing?
Yo‘qsa, mendan nechuk javob tilar ko‘zing?

Qo‘y, javobim qolsin mening boshqa vaqtga,
Ayoz kezar, qilich solib dov-daraxtga,
Issiqqina kiyinmabsan, ey yosh o‘g‘lon,
Sovuq qotding, uyingga bor, tez shosh, o‘g‘lon!

## BU ULUG‘ DUNYO

Yaxshiki, sen borsan, shukr etmoq kerak.
Sen borsan,
men borman,
dunyo bor demak!
Yaxshiki, dunyoda yasharsan, yo‘qsa,
Ne bilan bo‘lardi, ayt, to‘liq dunyo?
Sening ko‘zlaring-la ko‘zini ochdi
Bu yorug‘ jahonga uyqulik dunyo.

Yaxshiki, hissimiz oshib-toshibdir,
Yuraklar, tilaklar yaqinlashibdir,
Sening qadamingga xush yarashibdir.
Bu yuksak,
bu keksa,
bu ulug‘ dunyo.

## MENING YO‘LIM

Ming daf’a, million daf’a
Tug‘ilsaydim onadan.
She’r, san’at yo‘lini
Tanlar edim yana man.

Bu yo‘l mening davlatim,
Bu dunyoda borimdir,
Bir-biriga chambarchas
Misrai ash’orimdir.

Bu yo‘l o‘nqir-cho‘nqirli,
Kesakli va toshli yo‘l.
Bu yo‘l qorli-bo‘ronli,
Mashaqqati behad mo‘l.

Chag‘ir so‘qmoqlaridan
Yurib, ko‘p saboq oldim.
Bu yo‘lda tongga qadar
Kechalar uyg‘oq qoldim.

Bu yo‘lning jafosi ko‘p,
Ko‘pdir azob-u dardi.
Bu yo‘lni qoqilmasdan
Qaysi bir mard o‘tkardi?

Bu yo‘lning dovoniga
Chidash bergay qay yurak?
Uning dovullariga
Tik bora bilmoq kerak!

Shunday yurak lozimki,
Yonsin-u kul qo‘nmasin.
Har misraning mag‘zida
Olovlansin, so‘nmasin.

Bu yo‘lda dushmaning ham,
Do‘sting ham ko‘p bo‘lajak.
Olqishdan kalovlanib,
Kaltakdan qo‘rqma yurak!

O‘z ilhomim, o‘z sasim
Uchgan otimdir mening.
Dushmanimning nafrati
Mukofotimdir mening!

Ul kunki, o‘z ko‘nglimni
Bu qiyin yo‘lga berdim,

Quvnoq kulishlarimni,
Rohatimni yitirdim.

Umrimni she'r o'tida
Qovurdim bodroq-bodroq.
Bu yo'lda qora sochga
Barvaqt kirib keldi oq.

Bu yo'lda unut bo'ldi
Hayotim, farog'atim.
Abadiy oromsizlik
Bo'ldi mangu rohatim.

O't lovullab yonmasa
O'choq ham hargiz bo'lmas.
Qasirg'asiz bir o'rmon,
Dolg'asiz dengiz bo'lmas.

Xushdir menga ko'nglimning
Dolg'alangan har oni.
Ming kunning tinchligidan
Bir kunning hayajoni.

Ming daf'a, million daf'a
Tug'ilsaydim onadan,
She'r, san'at yo'lini
Tanlar edim yanadan.

Nedir yo'limning oti,
Neni maslak sanadim?
Inson saodatiga
Baxshidadir san'atim.

Maslagim — oliy sharaf,
Nomusim, izzatimdir.
Partiyamga, xalqimga
Sevgimdir, xizmatimdir.

## SHABI HIJRON

*(Dostondan parcha)*

*Fuzuliy... bashariyat olamida jamiki g'amzadalar va zahmatkashlar dardini chekmoq va mazlumlarning holiga yonmoq uchun yaralgan edi.*
***F. Ko'charli***

## MUQADDIMA

Hey, sado ber,
ne siring bor?
Nega muncha titraydirsan,
ey, qalam?
Men bo'yla bir koinotga bugun uchmoq istaram,
Ki, har sayyorasi buyuk bir koinotdir,
Ey, ilhomim, parvoz etay, o'zing menga qanot ber.
Ey qalamim, quyosh kabi tutashsayding, yonsayding,
Sen yog'och-u ko'mirdanmas, po'latdan yaralsayding,
Yildirimdan sur'at olib, ucha bilsayding, koshki,
O'sha bahri muhitni menam qucha bilsaydim, koshki,
U daryoning har qatrasi bir san'at injusidir,
Har tomchisi otash bo'lib yuraklarni isitur.

Ey qalamim, quyoshdayin tutashmasang, yonmasang,
Ey ilhomim, daryodayin jo'shib-dolg'alanmasan,
U daryoning sirlarini ko'ra bilarsanmi san?
Daryo yarat u daryoning har kichik qatrasidan!..
Uning mavji-talotumi menga tanishdir, dedim,
G'avvos bo'lib udaryodan suzib o'tmoq istadim.
Cho'kdim bitta qatrasiga, qatrasi ham terandir,
Terandirki, tinim bilmas to'lqinlarga vatandir.
To'lqinlarning quchog'iga qorishdim oqshom-sahar,
Ko'zlarimni qamashtirdi tubidagi injular...

Yetolmadim poyoniga,
jon hayratga o‘raldi,
Xayolimni titroq bosdi,
tasavvurim tong qoldi!..

## IKKI MUALLIM

Hayrat, ey but, suvrating ko‘rganda lol aylar mani,
Suvrati holim ko‘ran suvrat xayol aylar mani...[1]
Bir qo‘lida kitobcha, bir qo‘lida yosuman,
Muhammad asta-asta qaytadir madrasadan.
Bir qayg‘u to‘planibdir tugunlangan qoshida,
Bir dunyoning siri bor bo‘zargan boqishida.
Namuncha parishon u, namuncha pajmurdadir,
Bilolmaydi o‘zi ham, ko‘ngildagi g‘am nadir?
Balki bir qayg‘u bordir yosh shoirning boshida?
Qalbiga qor yog‘mishmi shu gulbahor yoshida?
Nega horg‘in borar u, nega parishon ketar,
Go‘yoki har dam uning jonidan bir jon ketar,
Bir tor ko‘cha boshiga yetib, tolga suyanar,
Sham kabi sokit turar, sham kabi ichdan yonar.
Nigohlari qadalar kichkina bir ayvonga,
Orzulari gul bo‘lib, bo‘y cho‘zadi...u yonga.
E voh, bu ne qiyomat!.. Bari behuda, abas!
Orzu — tong yulduzidir, u har soat ko‘rinmas.
Iztiroblar, azoblar kalitidir orzuning,
Ne-ne toshli, tikanli yo‘llari bordir uning...
Yana o‘y surar shoir, yana o‘t tushar jonga,
“Koshki, — der, — qush bo‘lsaydim,
qo‘nsaydim shu ayvonga.
Oh... yoki ko‘k qo‘ynida pag‘a bulut bo‘lsaydim,
Shu ayvonning boshiga kelib soya solsaydim.

[1] Boblarning boshida qora harflarda keltirilgan epigraflar Muhammad Fuzuliydandir.

Ne bo‘lur axir bir bor falak siylasa mani?
Ayvonda guldonida chechak bo‘lsaydim qani...
Boqardim, eh, boqardim shu qora ko‘z Layloga,
Ishqimni so‘ylar edim kecha-kunduz Layloga.
Suv quyganda shivirlab, yuziga to‘qinardim,
Yo bir tomchi suv bo‘lib, qo‘llariga qo‘nardim...”
U o‘y surar...
Soatlar o‘tib borar paydar-pay,
Quyosh tevaragidan Zamin aylanganiday —
Aylanar shu binoning boshidan u doimo,
Dunyoning eng muhtasham binosidir bu bino,
Shoir Muhammad uchun!..
Oshiq u yurak uchun
Bamisoli shu bino uzra tug‘ilardi kun...
U his etar jonidan:
Ka’baning yo‘li o‘tar shu binoning yonidan...
Shivirlar: “Bu binoni qurgan ustaga rahmat,
Har toshidan nur yog‘ar, har suvog‘idan tal’at.
Yondi ilhom chirog‘im
Shu binoda bo‘y cho‘zgan bir qizning nafasidan,
Men unga hayotimni, ishqimni baxsh eturman...”

Osilur nazarlari
Isirg‘aday shu zamon.
Guldondagi chechakning
Jajji butoqlaridan
Hadiksirab kuzatar
So‘li bilan sog‘ini.
Irg‘itar so‘ng ayvonga
Yosuman butog‘ini.
Ota chiqar ayvonga,
Nazar solar har yonga,
Kimsa tushmas ko‘ziga,
U ming‘irlab o‘ziga,
Yoqasiga tupurar,
Yosuman gulni ko‘rar,

“La’nat shaytonga!” — deya
Ko‘chaga uloqtirar.
Ezilgan yosumanga boqa-boqa Muhammad,
O‘y surar, o‘zni o‘tda yoqa-yoqa Muhammad.

Muhammad

— Ey, muallim, sen menga necha yillar dars berding,
Endi bilsam, barini to‘g‘ri emas, ters berding.
Bugun jigarporangni men sevibman beqaror,
Ko‘z ko‘rdi, ko‘ngil yondi, mening ne gnohim bor?
Birma-bir oshno qilding o‘ttik ikki harf bilan,
Kam emas, o‘ttiz ikki... Shuncha harflar ichidan
Uchini ra’no qizing — Laylo o‘rgatdi menga,
Hayronman shu uch harfning hukmiga, qudratiga.
O‘shalardir siynamda tutash o‘t bo‘lib yongan,
Ayn, shin, qof!.. Bilsayding, shu harflardan yaralgan
“Ishq” so‘zi — so‘z mulkining sultonidir, tojidir,
Ishq — hayot og‘ochidir.
Sen ham, men ham, Laylo ham shu og‘ochning bargimiz,
Tuproqdan otash emgan ishqning olov dardimiz.
Qora tuproq ersa-da ilk va oxir yermiz,
Sevgidir tiynatimiz, sevgidir javharimiz.
Sen o‘rgatding harflarning shakli-shamoyilini,
Qizing shu uch harf ila ogoh ayladi meni
Inson tuyg‘ularining so‘ngsiz kori-boridan,
Ishqim-la voqif bo‘ldim dunyoning asroridan.
Zahmatidan tonmayman, meni qarzdor etgansan,
Sen hayot kalimasin yozmoqni o‘rgatgansan.
Hayotning sirin esa qizing o‘rgatdi menga,
Men bandaman Layloning u fusunkor husniga.
Sen kitob kalomini o‘rgatib, etding mullo,
Tabiatning tilini menga o‘rgatdi Laylo.
Endi angladim beshak, ishq degani ne narsa,
Balli, kimning qalbini ishq otashi yondirsa,
Dunyoni idrok etar, ishq buyuk a’mol emish,

Sening menga berganing "ilm — qil-u qol" emish.
Ey muallim, ne qilay jonsiz kitoblarni men?
Eng buyuk kitob — uning husnidir... Shu'lasidan
Yorishur ko'zlarimga mubham siri jahonning,
Ishq — sobit mehvaridir bizning dono
davronning.
Ey muallim, ko'nglimni senga so'yladim yolg'iz,
Endi o'zing ayt, asl ustoz qaysi biringiz?
Onam — bir qishloq qizi, otam — oddiy hunarmand,
O'zim hali, muallim, bitilmagan kitobman.
Sening qo'ling ulug'lar, shohlar etagidadar.
Bu yolg'onchi dunyoning hukmi, kuchi sendadir.
Sen shohlarning bog'idan alvon meva terarsan,
Sen o'z jigarporangni nahot menga
berarsan? —
deya ko'ksin to'ldirib xo'rsinar uzun-uzun,
So'ngra qayrilib yo'lga, uyiga qaytar sekin.

## IKKI HUKMDOR

Vodiyi vahdat daqiqatda maqomi ishqdir,
Kim mushaxxas o'lmas ul vodiyda sultondin gado...

Xonning elchilari ming bir va'z ila
Keksa muallimga taqdilar alam.
Qizni keltirdilar saroyga zo'r-la,
Qaro kunga qoldi Laylodek sanam,
"Olloh, bu parimi, malakmi?" deya
Haram og'a qotdi necha soniya.
Birma-bir keldilar joriya kaniz,
Hasad-la raqibga qadadilir ko'z.
Keldi mashshotalar, bir onda keldi,
Kelin yotog'ida yasoq tuzildi.
Shirin so'zlar bilan ovuntirdilar,
Saroy adosi-la kiyintirdilar.

Uzildi har yerdan Layloning qo‘li.
Bog‘dan ayri tushdi chamanning guli.
Har ne shirin so‘zlar, shirin va’dalar,
Tahqirlar, tahdidlar, qo‘rqinch zardalar
Qizning irodasin buka olmadi,
“Men o‘z menligimni sotmasman”, — dedi.
Xabar yetdi xonga, g‘azablandi xon,
Yovuz bir hayqiriq taraldi har yon.
— Bu qanday hamoqat?!
Nodonlikka boq!
Mening irodamdan bo‘yin tovlamoq?!
Xo‘p mayli ko‘ramiz! Xuddi shu oqshom
Men o‘zim u bilan hisoblashaman!..
Boq, nelar hukm etar gardishi davron,
Laylo hozir bo‘ldi, qotib qoldi xon.
Chuqur bir xo‘rsindi, chuqur tin oldi,
Hayratdan kerildi uning qoshlari.
Ko‘zi tumanlandi, tili tug‘ildi,
Ko‘rarkan suzilgan u boqishlarni.
Yondi yuragida ehtiros o‘ti,
G‘azabi sovudi, hirsi sovudi...
Go‘zallik! Kim seni “ko‘raman” dedi,
Ko‘rarman, lol bo‘lib, bo‘yin egmadi.
Sehr va jodular qilmishing sening.
Qilichdan o‘tkirdir qiliching sening.
O, sening kuchingdek buyuk kuch qani?
Sen sanchar ekansan nurli nayzangni,
Inson ixtiyordan ayriladi bot,
Maslag-u aqida, din-u e’tiqod
Sening otashingda kuyib kul bo‘lur,
Amallar, orzular ko‘kka sovrular.
Dinidan voz kechib u Shayx San’on
Bo‘yniga bir onda xoch solmadimi?
Maslagi yo‘lida yuksalgan inson
Go‘zallik oldida qulamadimi?
Go‘zallik toshni ham keltirar tilga,

Hattoki vahshiyni rom etar qo‘lga...
Xon qizni ko‘rarkan, termulib qoldi.
Hayratdan kerildi uning qoshlari.
Ko‘zi tumanlandi, tili tutildi
Ko‘rarkan ohudek u boqishlarni.
Yondirdi sehr ila malohat uni,
Xayol daryosida qalqib suzdi xon.
Bir lahza unutib xon ekanini,
Bir lahza o‘zini inson sezdi xon.
Og‘oni chaqirib:
— Eltingiz! — dedi,
Qizni boshladilar haramxonaga.
Xon majhul boqardi, parishon edi,
Xayoli oqardi sanamxonaga...
Kechdi necha bir kun... Xonning ko‘zlari
Ro‘yolar ichida tumanlanardi.
Xon u kundan beri, u kundan beri
Har neki ko‘rganin uyqu sanardi.
Og‘oni chaqirib yoniga bir kun,
Yuragi dardini so‘zladi butun.
So‘zladi Layloga maftunligini,
Dedi: “Bosh malika aylaram uni!”
Qizga xon amrini yetkazdi og‘o,
Layloning ko‘ziga qoraydi dunyo.
L a y l o:
— Bu so‘zlar xohishmi yoki amrmi?
O g‘ o:
— Xohish!
L a y l o:
— Ahli haram kamlik etarmi?
O g‘ o:
— Yo‘q! Sen yulduzlarning eng porlog‘isan,
Shu porloq yulduzning adosidir xon.
Sevaman, deydi u, sevaman yonib,
Shahlo ko‘zlariga boqsam to‘lg‘onib,
To‘ymasman, to‘ymasman, to‘ymasman, aslo!..

L a y l o:
— U boshqalarga ham shunday der, og‘o.
O g‘ o:
— Yo‘q, demas!
L a y l o:
— Bo‘g‘masman qalbim sasin,
Sevaman xonnimas, boshqa kimsani.
O g‘ o:
— Qizim, gul baxtingni qilmagin xazon.
L a y l o:
— Mumkinmas!
O g‘ o:
— Ne deyman, meni kutar xon?!
L a y l o:
— Degilki, qaytmasman sira ahdimdan,
Degilki kechmasman muhabbatimdan!
O g‘ o:
— Qizim, qaysar bo‘lma, shaytonga hay ber,
Unutma, xon sening hukmdoringdir!
L a y l o:
— Ey og‘o, gapingni o‘ylanib gapir,
Mening hukmdorim — muhabbatimdir!..

Zindonga soldilar Layloni u kun,
Dunyo zindon bo‘ldi Muhammad uchun.
Laylo rozi edi o‘z amalidan,
U zahar ichmishdi ishqning qo‘lidan.
Muhabbat yo‘lida chekkan azob
Unga kadar emas, viqor keltirdi.
U o‘z hayotini, nihol umrini
Taqdirning omonsiz hukmiga berdi.
U dedi: — Zulming-la, ey, charxi davron,
Yuragim qon bo‘ldi, yondim, yonarman.
Yo‘q, yo‘q, demasmanki,
sen bevafosan,
Berganing jafoni vafo sanarman.

Uning azobini tortdi Muhammad,
Paydar-pay maktublar yo'lladi xonga.
Yuragida og'riq, ko'zida hasrat,
U la'nat yog'dirdi charxi davronga.
Yozdi: "Tanimasman na din, na qonun",
Yozdi: "Dushman qaviy, toleyim zabun".
Yozdi: "Gulni mahbus etmishsan, ajab!
Bulbulni solurlar qafasga, ey, xon...
Hukmingki, o'lkada har yerda vojib,
Qo'rqma bulbul chekkan oh-u fig'ondan.
Quvonma hukmingga, toj-u taxtingga,
Zamona yo'llari tugun-tugundir.
Zulmning qilichini endi sol qinga.
Gulga qo'l ko'tarmoq — ojizligingdir.
Qo'rqmasman zulmingdan, siyosatingdan,
Shoirman, qorani oq, demasman man.
Senda zarra qadar insof bor esa,
Gulnimas, bulbulni solgin qafasga!.."
Maktublar paydar-pay oqdi saroyga,
Kiborlar oldilar xonni oraga.
G'iybatlar yog'ildi,
O'yga botdi xon,
Kemtik qoshlarini tugdi beomon.
Dedi: — Saroyga tez chorlangiz uni,
Anglatib qo'yaylik quturganini!..

O'ngida, so'lida yaltoq kiborlar.
Bir yonda Fuzuliy, bir yonda Laylo.
Xonning ko'zlarida kin bor, olov bor,
Goh o'ngga yuzlanar, so'lga boqar goh.
Xon:
— Derlarki, Layloning Majnunidirsan,
Ne deya olursan muhabbatingdan?
F u z u l i y:
— Asli jahon oshiq manam, hukmdor,
Majnunning jahonda yolg'iz oti bor.

Manam bu asrda ishqing olloohi,
Meni o‘xshatmagin Majnunga zinhor.
Ohimcha bo‘lsaydi Majnunning ohi,
Uya qo‘yarmidi boshida qushlar?
Xon:
— Unda sen Layloning sha’niga beshak
Ash’ori badiha aytmog‘ing kerak... —
Fuzuliy indamas... —
Bajo et amrim!
Huzurimda ash’or aytmog‘ing lozim!
F u z u l i y:
— Bir xon bo‘lsangiz-da, atayin, illo
Siz menga hukmdor emassiz, aslo!
Xon:
— Hukmdor emasman?! Hukmdoring kim?
O‘zga bir xonlikka ta’basan balkim?
F u z u l i y:
— Laylo nomusimdir, Laylo orimdir,
U mening yagona hukmdorimdir.
Umr dostonimdir u go‘zal pari,
Hukm uning hukmidir, amr uning amri.

Kular ko‘zlarida Layloning jahon,
Deyar: — Bundoq bo‘lur sevganlar, ey, xon.
Uning har kalomi ishqning sasidir,
Oshiqning sultoni ma’shuqasidir.
Hukmdor, bu sirni yaxshi angla sen,
Sevgi dunyosida hali bolasan.
Xon:
— Jim bo‘l!
F u z u l i y:
— Jim bo‘lurmu to‘lg‘an yuraklar?
Zanjirni istamas ozod tilaklar! —
Deya yigit shoir tushar tug‘yonga,
Butun g‘azabini yog‘dirar xonga:
— Eshit so‘zlarimni, ey xon, endi sen.

Men ham sening kabi bir hukmdorman.
Sen o‘z hukming ila kelib-ketarsan,
Men esam hamisha hayotman, borman.
Sen xonsan, necha bir viloyatga xon,
Men so‘z lashkarining sarkardasiman.
Sening zulming ila xor o‘lur inson,
Men esam adolat, haqning sasiman!
Sen ham shoh, men ham shoh...
Sen o‘lkalarni,
Men esam qalblarni fath etarman, xon.
Qilichdir, nayzadir sening quroling,
Mening madadkorim so‘zdir har qachon.
Qilich faqat bugun kesmoqqa qodir,
So‘z qilichdan o‘tkir, boqiy beomon.
Qilichlar, nayzalar — abadiy qo‘rg‘on.
Bas, endi yoqamdan qo‘llaringni tort,
Kuchlar tortshganda, teng bo‘lmog‘i shart!
Ber menga Layloni, insof ayla, xon,
Usiz nafasi yo‘q, qup-quruq jonman...
Xon:
— Menga ham keragi ushbudir, shoir,
Seni umr bo‘yi ingratajakdir —
Mening huzurimda aytganing so‘zlar,
Kerakkim, yig‘idan ko‘r bo‘lib ko‘zlar,
Hasrat, nadomatga qongancha qoning,
Ikkingiz bir o‘tda kul bo‘lib yoning!..

## OH, U ZOLIM OVCHILAR...

Chekarda oh siynamdan sadolardir chiqar, bilmam,
Dil aylar nola yo paykon tegar siynamda paykona.

Bu ahvolotdan keyin yana bir necha oyda
Saqladilar Layloni mahbus kabi saroyda.
Laylo sarg‘aydi, so‘ldi xazon urgan bog‘ kabi,

O‘rtandi, yondi yolg‘iz, yetim bir chiroq kabi.
Yuragining dardini to‘kib olov so‘zlarga
Aytdi, kunduz bulutlar, kechalar yulduzlarga.
Uyqusi uzoq tunlar samolarga chekildi,
Ko‘zlari tongga qadar faqat shamga tikildi.
Dedi: “Sen ham yonursan, men ham... biroq sarbasar
Yonishda ham yonish bor... Bu farq bizni ayirar.
Sen kechalar yonursan, men-chi jizg‘anak, singlim,
Ham kechalar yonurman ham kunduzlar betinim!...”
Zulmlar buklolmadi bu ko‘zlari humorni,
Fuzuliy sovg‘a etgan o‘sha zarrin tumorni
Siynasiga bosarak, ingraydi tongga qadar,
Fuzuliy insho etgan otashnafas g‘azallar
Saroy devorlarini osha kelar bir onda,
Oshiqning imdodini qiz kutar hayajonda:
“Oshiyoni-murg‘i dil zulfi-parishoningdadir,
Qayda bo‘lsang, ey pari, ko‘nglim saning yoningdadir.
Ishq dardi-la husham, qo‘l cheki ilojimdin, tabib,
Qilma darmonkim, halokim zahri-darmoningdadir.
Baski, hijroningdadir xosiyati qat’i hayot,
Ul hayot ahlina hayronamki, hijroningdadir...”
Mug‘om yo‘lida o‘qir Laylo bu satrlarni,
Hayratga solar sasi samolarni, yerlarni
Bu sas eritar qishning qirovini, qorini
Bu sas tilga keltirar saroyning devorini.
(Dardi og‘ir emasdir dardini bilmaganning,
Dardi yomon og‘irdir sevib sevilmaganning...
Dardiga davo bormi
Ham sevib, ham sevilib,
Ishqi yetim qolganning?
Ham o‘zi, ham oshig‘i
Bir olchoqning qo‘lida
So‘lib, xazon bo‘lganning!)
Xon ko‘zladi, ko‘zladi,
yetmadi orzusiga,
Qizning qat’iy saboti nuqul sad chekdi unga.

Ko‘p o‘yladi, nihoyat, makr-u hiylaga o‘tdi,
Bir kecha kuch ishlatib, shum orzusiga yetdi.
Saroy ahli ertasi xabar yoydi har yonga:
Laylo surgun etilmash Bag‘doddan chet tomonga!

O, shu kunda Fuzuliy dara oshdi, tog‘ oshdi,
Kentlar kezib darbadar, sahrolarda adashdi.
“Laylo! Laylo!..” nidosi uchaverdi falakka,
Yarali ohu kabi bosh urdi har tarafga.
Har manzil, har go‘shada “Laylo!” deb ovoz soldi,
U o‘z muhabbati-la yuksaldi, hey, yuksaldi!
Kechdi ne-ne qasirg‘a, kechdi qor-u qirov-da,
Ko‘rdim degan Layloni topilmadi birov-da.

Quyosh sirg‘aldi, ketdi,
Laylo jon oldi, ketdi,
Qalbga abadiy armon,
Ko‘zga yosh soldi, ketdi.

Yurak toqatni bilmas,
Qaro qonim to‘kilmas.
Senga boqqan ko‘zlarim
Sensiz nega ko‘r bo‘lmas?..

Fuzuliy manzillarni keza-keza tolmadi,
Lekin chorlovlariga biror javob bo‘lmadi.
G‘azallarga chulg‘ana, otashda yona-yona,
Bir kun yana Bag‘dodga qaytdi dali devona.
Yuragida bo‘g‘ildi Fuzuliyning haq sasi,
Bulbullarning nolasi, shamollarning nag‘masi,
Ohang tutdi shoirning “nolayi dilso‘ziga”,
U botdi tushunchalar, xayollar dengiziga...
Kecha-kunduz tafakkur unga bir odat bo‘ldi,
Yupanchi birda — xayol, birda ibodat bo‘ldi.
U ko‘p ma’nilar izlab dunyo qil-u qoliga,
Ko‘klardan javob kutdi zaminning savoliga.

Falaklar yondi qat-qat chekarkan oh-u fig‘on,
Umid shami miltirab, lekin yonmadi bir on.
Yuragining nolasi,
Omon sasi, oh sasi
G‘ofillarni uyg‘otdi, baxtini uyg‘otmadi,
Ohi ko‘klarga yetdi, zolim xonga yetmadi.
Dardi ko‘ksiga botdi xanjar kabi, nish kabi,
Ingradi cho‘lda bitgan yarali qamish kabi.
Shoir qalbini ochib, dedi: “Bu yongan manam,
Quyosh, oyga dushmanam, yulduzlarga dushmanam.
Ular nur — shu’lasini zamin uzra taratar,
Nazarimni beadad balolarga qaratar.
So‘ramangizkim, nelarni, nechalarni sevarman,
Bulutlarni sevarman, kechalarni sevarman.
Yerga insin bulutlar, olamni etsin xira,
Azoblarim, dardlarni ko‘zim ko‘rmasin sira”.
Oh, u zolim ovchilar!.. Oh, u zolim ovchilar!..
Toshbag‘ir talovchilar!
Uyasini buzishdi ular bulbullarimning
Uyqusini uchirdi uyquli cho‘llarimning.
Bu dunyoga ko‘z ochib, baxtim kulmadi bir kun,
Dunyodan zavq tilagan dunyodan qo‘lni yuvsin!
Na zavq, hattoki zavqning umidiga gadoman.
Dahr dengizi ichra yolg‘iz qolib adoman.
Na qalbimning nolishi, na ko‘zimning qon-yoshi
So‘ndirolmas, so‘nmagay siynamning o‘ti — otashi.
Eritarman otashda yurakni ham, jonni ham,
Qo‘rqarman, yondirmasam bir kuni jahonni ham.
Istarman, falak ming bir savdoga solsin meni,
Tabiat bir fig‘onli nay qilib chalsin meni.
Dunyoga o‘t qalansin,
Dengizlar dolg‘alansin,
Hayqirsin isyonimni!
Bari aytsin alamda ado bo‘lgan jonimni!
Qanday chiday bu dardga, tosh yo temir emasman,
Men ko‘rmoq istamasman, eshitmoq istamasman!

Ko‘rib, eshitarkanman, ortar ko‘ngil dog‘larim,
O‘tdan ko‘zim bo‘lsaydi, temirdan quloqlarim...
Bari yolg‘ondir, yolg‘on! Umr g‘am karvonidir,
Qismatlar umrlarning abadiy sarbonidir!
Bo‘htonlar vodiysida umr otimni surdim,
Baxtdan dam urganlarni nuqul aldoqchi ko‘rdim.
Kimdan vafo istadim, jafo keldi shu zamon,
Ko‘zgudan sidq istadim, ayru ko‘rdim o‘zimni.
Suvga dardimni aytdim, yo‘liga oqdi ravon,
U ham qiyo boqmadi, zoe etdi so‘zimni.
Ey, osiy xayolotlar, mendan nari ketmangiz,
Ko‘nglimni maskan tuting, o‘zga makon tutmangiz.
Shoirman g‘am ichida kechar kecha-kunduzim,
Savdoli xayollarning farzandiman men o‘zim!
Uydirmadir haqiqat! Men bu haqdan tonmayman,
Men o‘z borlig‘imga-da inonib-inonmayman.
Inonmasman ko‘kka ham, inonmasman yerga ham,
Ming afsona yaratgan buyuk nabilarga ham.
Yolg‘iz bir inonganim: muhabbatdir insonda,
Men jahonni kashf qildim ishqim bilan jahonda.
Bilolmasman, na degum bu dunyoga, naylagum?
Na kecham bir kechadir, na kunduzim bir kunduz.
Ey, mening muhabbatim, ishqim, hissim, tilagim,
Siz — mening hayotimsiz, siz — mening o‘limimsiz.
Ajal, sog‘ ko‘rib meni, suqma menga panjangni,
Men-ku ko‘pdan murdaman, ohim aldamish seni!..
Oylar o‘tdi, yil kechdi, haftalar quvdi kunni,
Zamon berdi hukmini,
Yomon berdi hukmini!..
Shoh Tahmosib bir kuni hujum qildi Bag‘dodga,
Saroy chulg‘andi o‘tga.
Zulfiqorning taxtini
Ag‘dardilar boshiga.
Tushmayin deb beomon taqdirning taloshiga,
Qochardi u...
Shu zamon —

Qaytar edi Fuzuliy shu yaqin bir qishloqdan.
Yuzma-yuz uchrashdilar.
Ko‘rar ekan tanidi shoir uni:
— Zulfiqor!
Qayoqlarga qochasan, shoshma, senga so‘zim bor.
— Omon, shoir, qo‘y, ketay...
— Shoshma birpas, shoshma, xon.
Ko‘raman: ayrilibsan taxting bilan tojingdan.
Ketmish qo‘lingdan butkul shoning bilan shuhrating,
Taxt-u tojingda emish tanho kuch-u qudrating.
Bas, zulmingdan qutilib, mamlakat ozod bo‘ldi,
“Zulm ila obod o‘lan adl ila barbod o‘ldi...”
“— Podshohi mulk dinor-u dirham rishvat berib,
Fathi-kishvar qilmaga aylar muhayyo lashkari.
... Ko‘staran soatda davroni falak bir inqilob,
Ham o‘zi foniy o‘lur, ham lashkari, ham kishvari.
Ko‘r, na sultonam mani — darvishkim, fayzi suxan
Aylamish iqbolimi osori nusrat mazhari.
... Qaydakim azm etsa, marosim-u mavojib istamas
Qaysi mulki tutsa, deymiz kimsaya sho‘ri shari...”.
— Laylo qani?
— Saroyda.
— Yolg‘on gapirma menga.
— Men to‘g‘risin aytaman, saroydadir.
— Qalbimga
Sening fitnalaringdan chekildi mahshar dog‘i,
Hayfdir senga bu dunyo, insonlarning olchog‘i! —
Deya kelib shu zamon saroyga kirdi shoir,
Axtardi hujralarni, yotoqlarni birma-bir.
Kirdi haramxonaga
Topmadi Laylosini, “Qayoqqa ketmish?” — deya
Arosat ichra qolib, kalovlandi yangidan,
Ko‘nglidagi yarasi olovlandi yangidan...
U kecha Zulfiqorxon
Saroydan qochgan zamon
Eshiklarni ochdilar,

Qizlar haramxonadan chiqib, tarqalishdilar.
O‘rtoqlari qatori Laylo ham ozod bo‘ldi,
O‘ylamangkim u bundan fahrlandi, shod bo‘ldi.
Kechaning zulmatida o‘z-o‘ziga deyardi:
“Qayoqqa boray endi?
Uygami? Yo‘q, otamning nechuk boqqum yuziga?
Otam qanday qararkan iffatsiz bu qiziga?
Muhammad-chi, Muhammad!.. Shoir havasmi menga?
Ismatimni yo‘qotdim... Har kim kulmasmi menga?
Yo‘q, yo‘q, bu holim bilan ko‘kdan yerga quladim,
Bir olchoqning qo‘lida xazon bo‘ldim, qurg‘adim.
Men badbaxtni toleyim oldi achchiq qahriga,
Shoirning u muqaddas muhabbati, mehriga
Loyiq bo‘la olurmi mening sharmanda otim,
Hayhot! Ko‘zimda qoldi butun orzu-murodim.
Yo‘q! Bu yana og‘irdir qamoq, iskanjalardan,
Muhammadning ko‘ziga ko‘rina bilmaram man”,
Deya ona shahrini kecha tark etdi Laylo,
Karbalolik bir qizga qo‘shilib ketdi Laylo.
Ketdi, chiqdi shahardan,
Xiyla yurishdi... birdan:
— Yo‘q, men uni ko‘rmayin ketolmasman, — dedi-yu,
Iziga qayrildi u...
— Opa, ruxsat ber, ko‘ray ishqimning ramonini,
Yuragim sultonini!..
Oqdi bo‘tana suvlar, ziloliga yetmadi,
Unga to‘yib boqmoqni qismat nasib etmadi.
Qulog‘imda yana bir saslanmadi sasi-da,
— Ketdik, — deya qo‘shilur unga dugonasi-da.
Laylo yurar shaharning tanish ko‘chalaridan,
Armon bilan oh chiqar yuragining qa’ridan.
O‘y surar og‘ir-og‘ir: ko‘chalar, oh ko‘chalar,
Men sizning siynangizni toptaganman naqadar.
Bu yo‘llardan necha bor madrasaga o‘tganman,
Ilk visol damlarini shu yo‘llarda kutganman.
Oh... bu yo‘llar, bu yo‘llar...

Bundan necha yil burun
Kim aytardi, tushar deb boshimga bu qaro kun?
Kim aytardi, sarg‘ayib, rangim bo‘lar deb somon,
Gul sochgan yo‘llarimga ko‘z yoshlarim separman?
Kula-kula yuragim yo‘llarda bag‘rim tig‘lab,
O‘tarman yig‘lab-yig‘lab, ketarman yig‘lab-yig‘lab.
Mening bu holimga boq,
Holim — zavolimga boq!..
Laylo yurar, har yonda
Qurshaydi shahar tuni.
Dugonasi ergashib,
Ko‘zidan qo‘ymas uni.
Mana, minor yoniga,
Madrasa maydoniga
yetib, birpas tin olar,
O‘ylarga cho‘mib, yonar.
O‘par darichasini o‘sha mo‘jaz hujraning,
Evrilib, o‘tli bir oh ko‘ksiga urar uning,
Nazarlari ichkari sirg‘alib sirxonadan,
Oshiq Muhammadini izlar u ostonadan...
So‘ng u devor yonidan o‘tarkan yona-yona,
O‘sha kichik ayvonga ko‘z solar ma’yusona.
Mana, yetar nihoyat
Kichkina bog‘chasiga, sevmli Muhammadning
Muhabbati qalbida ingranar hazin-hazin.
Qadrdon panjaraga suyanar u lol kabi,
Ko‘rganlari ko‘ziga ko‘rinar xayol kabi
O‘sha, shubhasiz, o‘sha!.. Miltiroq sham oldida
Pat qalami — qo‘lida, koinot — xayolida,
Yonar, o‘rtanar, kunlar jizg‘anak bir sham kabi...
“Oh... u yozar bu nafas mening ishqimni balki, -
Deya Laylo o‘y surar:
— Shu yarim tun mahali
Muhabbatim mash’ali —
Mening buyuk shoirim yer kezar, osmon kezar,
Yo “Shabi hijron” o‘qir, yo “Shabi hijron” yozar.

Ko‘zlarimni uzolmay darichangga boqaman,
Gulim senga boqaman.
Muhabbat rishtamizga g‘animlar soldi tugun,
Boq, bu soat ishqini qog‘ozlarga to‘kkaning —
Sevgiling kelib, sening
Panjarangga suyanib,
Termular, xabaring yo‘q.
Osmoning tutash zulmat,
Boqmoqqa qonib-qonib,
Xurshid-u hulkaring yo‘q...
Boshiga tushganni kishi ko‘rar ekan, shoirim,
Qismat qonli yo‘llardan yurar ekan, shoirim!..
Ikki ko‘zim limmo-lim yosh olib ketmoqdaman.
Bosh olib ketmoqlaman!..
Istarmidi, isnodim sening uchun yuk bo‘lsin,
Qo‘y, sening buyuk oting hamisha buyuk bo‘lsin!”
Deya yana shahrini tunda tark etdi Laylo,
Qarbalolik bir qizga qo‘shilib ketdi Laylo!

## “LAYLI VA MAJNUN”

Ey Fuzuliy, qilmazam tarki-tariqi ishqkim,
Bu fazilat doxili-ahli-kamol aylar mani...

“Hosilim yo‘x sari-ko‘yinda balodin g‘ayri,
G‘arazim yo‘x rahi-ishqinda fanodin g‘ayri.
... yetdi bekasligim ul g‘oyatakim, chevramda
Kimsa yo‘x jizgina girdobi-balodin g‘ayri.
Na yonar kimsa otashi-dildan o‘zga,
Na ochar kimsa qopqam bodi-sabodin g‘ayri...”
U to‘xtatib qalamni, bir oh chekdi shu zamon,
Sahar shamollari-la Karim kirdi qopqadan.
Sevinchdan yoshlandi ko‘zlari bu dam uning,
Qalqib, otdi o‘zini quchog‘iga do‘stining.
Do‘stlar termulishib shod,

Bir-birlarin quchdilar,
Keyin so‘zga ko‘chdilar.
Fuzuliy hasratini so‘zladi yona-yona,
So‘zladi ma’yusona.
U oxirda o‘qidi do‘stiga so‘ng she’rini,
Yerga tikdi yosh to‘la qayg‘uli ko‘zlarini.
— Do‘stim, bu she’r emasdir, yo‘q,
she’r tinglamadim man,
Chaqinlar chaqnayotir sening satrlaringdan!
Yo‘qsa, yonoqlarimga tekkan subhi-nasimmi?
Ko‘kning hayqirig‘imi, tog‘larning nolasimi?
Bu — bahor chechagidir, zimistonning qoridir,
Bu — o‘z o‘tiga yongan yurakning iqroridir.
Qo‘y, do‘stingdan yashirma sen ko‘zlaring yoshini,
She’r injusiga singdir hasrating otashini!...
Men senga keltirganman ajoyib bir armug‘on,
Qalbing uchun — bir jahon,
Ruhing uchun — bir jahon.

Olar “Xamsani shoir, go‘yo daryodek chog‘lar,
O‘par, asta varaqlar,
“Layli-Majnun”ni topar... nigohlari charaqlar!
F u z u l i y:
— Bilasanmi, do‘stim, oh!..
Buni shu ahvolimda o‘qiy olmasman aslo
Karim:
— Yana teran tuyarsan, azizim, bu dostonni.
F u z u l i y:
— Men sen kabi tuygan bir do‘sti-daryo qani?
Minnatdorman senga men,
Sen Majnunning Zaydisan!..
Havoyi kechirmadi bir soniya, bir oni,
Nizomiy Ganjaviyning “Laylo-Majnun” dostoni
Yana asir ayladi... Takror-takror o‘qidi,
Alanga oldi o‘ti, samoga chiqdi dudi...
Kuydi,

Yondi,
Ko‘p nozik nuqtalar topdi unda,
Axtargan ohangini topdi o‘sha yolqinda.
Eng ado pardalarki, tiniq, otashin, asl —
Sharh ayladi shoiri Nizomiy fasl-fasl.
— Har satri bir xazina, har so‘zi bir pahlavon,
Afsus!.. Ona tilida yozilmamish bu doston.
Boq, o‘z jonini nechuk yondiribdi Nizomiy,
Bir jahon mashaqqati do‘ndiribdi Nizomiy.
Yengmish u hayotida qirovni ham, qorni ham,
“Ey, qullik zajirlari!” siz u san’atkorni ham
Chirmadingiz, bo‘g‘dingiz, unutdi o‘z tilini,
Takallum etolmadi, kuydirdi so‘z tilini.
Yashasam-da hamisha men arab o‘lkasida,
Yashataman xalqimni o‘z she’rimning sasida.
Men Ozar farzandiman... Unga ishqim-la mastman,
Mashaqqatga qoyimman, zahmatdan cho‘chimasman.
“Vatan”, “Vatan” deb urgan yuragimning qonini,
Shu buyuk afsonani — Laylining dostonini
Layloning o‘z tilida yozay husni xatimdan,
Yangi doston yaratay mulki muhabbatimdan!
Shoir mugom mavjida yozdi “Layli-Majnun”ni,
Goh u nayni yig‘latdi, goh may yig‘latdi uni.
Mug‘omning siynasidan tug‘di Fuzuliy she’ri,
Elning hijron sasidan tug‘di Fuzuliy she’ri.
Mug‘anniy tuyg‘ularning xazinasidir mug‘om,
Sevinchlar, qayg‘ularning oynasidir mug‘om.
Mug‘om — mening xalqimning mislsiz kamolidir.
Tarixdir, ishqidir, orzusi, a’molidir.
Tor sasiga quloq sol...
Bu sas — yelning nafasi,
Bu sas — ko‘zlardan oqqan yoshlarning tomchi sasi,
Bu sas sukutga tolgan ko‘kni-da tillantirar,
Yulduzlar-da bu sasning yonida bosh indirar...
Tinglarkan uni... yerdan oyog‘imiz uzilur,
Sadolar nash’asidan ko‘zlarimiz suzilur.

Goh ko‘klarga uchamiz, goh yerlarga qo‘namiz,
Daryolarda oqamiz, dengizlarda cho‘mamiz.
Ko‘zimizning o‘ngida dunyolar keng ochilur,
Shu’lalar keng sochilur...
Mug‘om, sensiz o‘tmasin umrimnig biron kuni,
Mug‘om, sening yoningda eng inja so‘z kuchini,
Eng zarif gullar hatto yo‘qotar o‘z rangini,
Sen yaratding Ozariy ash’orning ohangini!
Tuproqqa jon berursan,
Unsiz, tilsiz toshlarni tug‘yonga keltirursan!
Men seni tinglaganda, bilmayman, mudom-mudom
Ham dardim yodga tushar, ham sururim, ey mug‘om!
Yashagan kunlarimni yashamoqqa qayta man
U olis xotiralar girdobiga qaytaman.
Kuching kabi kuch qani?
Sehring band etib jonni,
Ham o‘limga chorlaydir, ham hayotga insonni!

Fuzuliy Laylosini topolmadi hayotda,
Hayot yig‘latdi uni,
Uning ohi faryodi saslandi koinotda...
U qalamga amr etdi,
Layloning xayolini xayolida yaratdi:
“Xayoli-la tasallidir, ko‘ngil
mayli — visol etmas,
Ko‘ngildin dishra bir yor o‘ldug‘in
Oshiq xayl etmas...”

## KARBALO SAFARI

Faqr emish, faqr, Fuzuliy, sharafi-ahli vujud,
O‘zingga aylama hamdam fuqarodan g‘ayri...

... ko‘rib hayotda nuqul
Alam, aza, Fuzuliy,

Keksaydi, dardlarini
Yoza-yoza, Fuzuliy...
Yillar o‘tdi birma-bir,
Yellar kabi quvishdi,
Tug‘ilgan yeri axir
Bir kun yodiga tushdi...

Karbaloning yo‘llari karvonlarga to‘liqdir,
Bu yo‘l necha yuz yilkim, “muqaddasdir”, “ulug‘dir”
Bunda bir qultum suvga tashna sudralur inson,
Taram-taram yorilmish sovuqlikdan biyobon
Samum zavvora[1]larning faryodini aytadir,
Bu yo‘ldan borgan inson “sharaf” olib qaytadir.
Emish, kim maqbul etsa imomlar azasini,
Bu dunyoda qozonur u dunyo ravzasini.
Dudog‘ida g‘azali: “Dard cho‘x, toleyim zabun” —
Muhammad Fuzuliy ham yo‘lchisidir bu yo‘lning.
U ham changli yo‘llardan soyadek sarson borar,
Insonlarning holiga termulib, hayron borar.
Sharaf deb ketmoqdami shoir ham Karbaloga!
Yo‘q sharaf etmoqda u — bokaram Karbaloga!
Bosh gangiydi issiqdan... Borliq tutash o‘t bag‘ir,
Tevalar qumga botib, tebranar og‘ir-og‘ir.
Horg‘in yotar tevarak, so‘lg‘in boqar yiroqlar,
Karvon yo‘lida birdek saslanar qo‘ng‘iroqlar.
Qo‘ng‘iroqlar jarangi aruzga monand kelur,
Shoirning xotiriga necha bayt-u band kelur:
“Manamki, g‘ofilasalori-karvoni-g‘amam,
Musofiri-rahi-sahroyi-mehnatu alamam.
Haqir boqma menga, kimsadan sog‘inma kamam,
Faqiri — podshohso, gadoyi — muhtashamam...”

Birdan savadi yomg‘ir!.. Tutash sahro aylana:
Na tikkaygan bir og‘och, na enkaygan boshpana.

[1] **Zavvora** — ziyoratchi.

Jala qo‘yib toshardi, suvlar qalqib oshardi,
Shu payt shoir bir kichik kentga yaqinlashardi.
Yog‘in pardasi aro yurdi, oshiqib yurdi,
Nogahon qarshisida ko‘rkam bir qasr ko‘rdi.
Darvozaga suyandi... Quydi, tinmadi yomg‘ir,
Keta bilmadi shoir.
Asta ochildi qasr darchasi...
Shu zamon
Bir sas keldi:
— Hoy, bobo, nega bunda turarsan?
Kirsang-chi ichkariga...
— Tashakkur,
Uy sohibi!
— Buyuring, sizni bizga yetkazdi olloh karim,
Ollohning mehmoniga ochiqdir eshiklarim!.. —
Uy sohibi so‘ng o‘zi chiqib, hol-ahvol so‘radi,
Fuzuliyning qo‘lidan tutib, ichkari yurdi.
Zarrin idish-tovoqda keltirildi taomlar,
Keyin may-non ila manzur etildi jomlar.
Qasr ziynatga botib, tovlanardi, yonardi,
Go‘yoki har devorda quyosh jilolanardi.
Anvo-anvo gilamlar, anvoyi chilchiroqlar,
Ziynat to‘la sandiqlar, ziynat to‘la ravoqlar.
Uy sohibi so‘radi:
— Kimsan, so‘zlagil, mehmon?
— Oddiy bir musofirman.
— Ko‘p yaxshi, ey musofir, etar arzi-niyoz man,
Antiqa ashyolarni sevgan antiqabozman.
Istasang, ko‘rsatayin antiqa ashyolarni,
Sevaman, ardoqlayman jonim kabi ularni.

Ular asta kirurlar muhtasham bir xonaga,
Devori zar munaqqash, xayoliy afsonaga.
A n t i q a f u r u sh:
— Mani bu uzukka boq, qiymati ming bir dinor,
Azim mulki Iroqda bunday ziynat kimda bor!..

...Mana bu olmos qilich yagonadir dunyoda,
Dastasidagi yoqut ming dinordan ziyoda!..
...Mana bu shatranjga ham bir nazar sol, musofir,
Taxtasi fil suyakdan, toshlari injudandir!..
...Endi bu kitobni ko'r, beshak aqlingni olar,
Oltin bilan ishlanmish shakllar, sahifalar...
F u z u l i y:
— Kimnikidir bu devon?
A n t i q a f u r u sh:
— Ajab, qaydasan mehmon?
F u z u l i y:
— Men sening uyingdaman.
A n t i q a f u r u sh:
— Uyimdasanki hamon —
Kitob ham menikidir.
F u z u l i y:
— Yo'q jildi senikidir,
Ichidagi ma'nilar o'zga kimsanikidir.
A n t i q a f u r u sh:
— Balli, endi angladim, ey musofir, haqlisan,
Mavlono Fuzuliyning devonidir bu devon!
F u z u l i y:
— Sen o'shanga havasmand?
A n t i q a f u r u sh:
— O'qimoqni bilmasman!

Uy sohiyui paydar-pay
Turfa-turfa bezaklar,
Zabarjadlar, ipaklar —
Ko'rsatib, ta'rifin ham
keltirar xushhol-xushhol.
Lekin shoirni quchmish tafakkur, ming bir xayol.
Uy sohibi ko'rarki, o'ylariga cho'maroq,
Uning ashyolariga e'tibor etmas qo'noq.
A n t i q a f u r u sh:
— Bir savol aylamoqqa menga izn ber, mehmon,

Bu oliy ashyolarki, shohni ham etar hayron...
Ammo bu durru-gavhar
Senga bir zarra qadar
Asar etmadi, ajab.
Balki sening davlating,
Davlat aro sarvating
Bundan ham oliy, najaf?
F u z u l i y:
Men yo‘qsil-bechoraman.
A n t i q a f u r u sh:
— G‘alati bu so‘zlaring...
Bas, shundoq ekan, nega
Boqib javohirotga
Qamashmadi ko‘zlaring?
F u z u l i y:
— Bu teskari dunyoda
Ko‘p ishlar ko‘rganimdan
Oxir, ko‘r bo‘lmisham men...
Kim bu keksa dunyoda alamlar chekmish mendek?
Bas, bu javohirotni ko‘ra bilmasman sendek.
La’li tosh ko‘rsatarsan, la’li toshdir tilaging.
Tosh emasmi yuraging?
Qonli ko‘zyoshlar to‘kib, umri ado bo‘lganning
Ko‘zida ne demakdir shu olmos uzuk qoshi?
Toshlaringni ko‘rsatma, ko‘rsat menga ko‘z yoshi!
Yo‘qsil yashasam-da men, orim-viqorim talay,
Meni dunyo ziynati asir eta bilmagay...
Ziynatga ko‘p berilma, ziynat — dunyo molidir,
Insonga asl ziynat — fikridir, a’molidir.
Sen noyob narsalarni ko‘rsatding necha-necha,
Men-chi, har gal ularning zamirida o‘zgacha
Buyuk hodisalarni ko‘raman.
Ma’nolar olamida suzib, umr suraman.
Boq, bu uzukka... balki bir paytlar bir go‘zalning
Barmog‘ida porlamish... Qani endi u kelin?
Balki uning yuragi ko‘pdan urmamish, tinmish,

Undan so‘ngra bu uzuk necha qo‘llarda yonmish?
Buni sotgan bechora nega sotmish, fikr qil,
Bu uzuk necha iqbol, necha zavolga dalil.
Nihoyat... qaydan kelib tushmish sening qasringga?
Balki mening so‘zlarim g‘arib tuyular senga?
Boq, bu qilich... Ilk daf’a kimga tuhfa etilmish,
Kimning boshini uzmish, kimning ko‘ksini tilmish?
O‘z qonini to‘kmakka uni yaratmish inson,
Ehtimol shu shamshirdir, Ibrohimni to‘g‘ragan?
Chaldiran[1]da ehtimol yarqiramish ilk bora,
Uning har zarbasidan sizib, qon oqmish qora!..
Sen noyob narsalarni ko‘rsatding necha-necha,
Men-chi, har gal ularning zamirida o‘zgacha
Buyuk hodisalarni, ma’nolarni ko‘raman,
Ma’nolar olamida suzib, umr suraman...
So‘ngra o‘z devonini ochib Fuzuliy ravon
O‘qir suhbatdoshiga... Antiqafurush hayron...
“Cho‘x tafakkur qilma jami mol ila, ey xo‘jakim,
Simu zar jamiyati ahli-g‘urur aylar seni.
Borigohi qurbdan jamiyati-mol-u manol
Har ne miqdor bo‘lsa, ul miqdor dur aylar seni”.
— Kifoyadir ey mehmon, kifoyat endi! — deya
Qichqirur uy sohibi, qichqirur shu soniya.
Og‘ir xayollar ichra yo‘qotar u o‘zini,
Noyob ashyolariga tikib ikki ko‘zini,
Tushunar... Kesik qo‘llar, kesik boshlar shu onda
Faryod etar, saslanar uninig quloqlarida...
Qiymalangan yuraklar!
Uzuklarning qoshida yongan orzu-tilaklar —
Faryod chekib, yosh to‘kib, termular ma’lum-ma’lum,
Uzuklarning qoshlari — inson boqishlaridir!
Dahshat bosar xo‘jani, bosar uni sovuq ter...
Bu noyob ashyolarni bunda to‘plaguncha to
Ming bir makr ishlatgan, ming bir razolat-riyo.

[1] **Chaldiran** — Eron shimolidagi jangoh.

U bularni his etar, u bularni tushunar,
Uning muz idrokida shuur shu'lasi yonar...
Hayajon-la, hayrat-la boqar so'l-u sog'ini,
Taajjub-la, diqqat-la kuzatar qo'nog'ini.
Bu ko'zlarda u ko'rar har hilqatning sirini,
Yer-u ko'kning sirini, tabiatning sirini.
Boqib chuqur-chuqur u,
Bu ko'zlarda o'qir u,
Bir yurakning dunyodan so'ngsiz tamannosini,
Insonning ilk ishqini, hayotning ma'nosini.
Saslanar qulog'ida hikmat to'la satrlar,
Bu ko'zlarda o'qir u boshdan-oxirga qadar
O'zi o'qiy olmagan Fuzuliy devonini,
Entikar bir qaltiroq bosar jism-u jonini.
Birdan u tilga kelar:
— Hoy mehmon, noming nadir?
— Muhammad.
— San'ating-chi?
— Shoirman.
— Shoir, shoir!
Yo olloh, bu ishga boq,
Fuzuliy emasmisan?
Sukut...
— Bu davron gardishga boq!
Deya-deya o'tdi u yon xonaga...
Bio ozdan —
Keyin qaytdi qo'lida bir tumorcha.
— Oh!.. Omon!..
Ul tumorni ko'rarkan, shoir qotdi yerida,
Go'yo o't daryosiga cho'kdi, botdi yeridan!
Bu — yigit Muhammadning
Bu dunyoda yagona
Davlati, bori edi.
Layloga baxsh aylagan yolg'iz yodgori edi.
— Sen buni qaydan olding?
Mening Laylom sog'midir?..

— Sabr aylangiz, — deya xo‘ja ochdi tumorni.
Shoir tushdi dahshatga,
gangitdi hayrat uni.
O‘shal tumor ichida Fuzuliy ko‘rinardi,
Uning shoir ko‘zlari mash’al kabi yonardi...
A n t i q a f u r u sh:
— Sen bunga boq, bunga boq.
Bu o‘ychan ko‘zlarga boq,
Bu quyuq qoshlarga boq.
Odam o‘z suvratiga monand bo‘larmi mundoq?!
... Boshida ko‘k araqchin[1], turishida qat’iyat,
Yuzida g‘am soyasi, ko‘zlarida malomat.
Muhabbat, o, muhabbat kuydirmish bo‘g‘in-bo‘g‘in
Uning tamom borlig‘in, uning tamom borlig‘in.
U bu dardni, mehnatni o‘ziga dard bilmamish,
Azoblarga yor bo‘lmish, alamdan ayrilmamish.
Dudog‘ida ishqining fig‘oni bor, zori bor.
Boshida bir savdoning tumani bor, qori bor.
Boqib majhul nuqtaga kuyinar dil qa’ridan,
Armonlarning shu’lasi suzilar ko‘zlaridan.
Nelar kechar shoirning xayolidan bu onda?
Uning shu tugunlangan muqavvas qoshlarinda
Mo‘ysafid, bobo Sharqning behisob g‘ami zohir,
O‘z xalqining g‘am to‘la buyuk olami zohir.
Qushqo‘nmas cho‘qqisini eslatar shu holida,
Ko‘z yoshi kumushlanar bejirim soqolida.
Yuzlarida ozariy tog‘larning ko‘lkasi bor,
Quloqlarida go‘yo “Vatan”, “Vatan” sasi bor.
Bir ko‘zi-la kularkan, bir ko‘zi-la yig‘lar u,
Go‘yo qo‘llari bilan dunyoni quchoqlar u.
Yuzlarida savdoli sevginig soyasi bor,
Quloqlarida go‘yo “Vatan”, “Vatan” sasi bor!..
— Bu mening suvratimdir...

[1] **Araqchin** — do‘ppining bir turi.

Ajab, kim chekmish uni?
— Buni sotgan boladan men ham so‘radim shuni,
U dediki, suvratni onam solmish...
— Oh, qani?
U hayotmi?
— Yo‘q, o‘lmish...
O‘ylaki shu dunyoni
Qo‘zg‘atdilar o‘rnidan,
U oh chekdi yurakdan.
Bu ohdan ko‘k tutildi, yel esdi, yer titradi,
Qora kiydi bog‘chalar, gul chechaklar titradi...
— Olovlardan insonni omon o‘tkazar umid,
Qirq yil bag‘rimda yongan yagona gavhar umid
Qush bo‘lib uchdi-ketdi shu yolg‘iz on ichinda,
So‘ndi umid yulduzim ul qahkashon ichinda.
Bas, qaydadir bu bola?
— Yaqin bir qishloqdadir.
— Oti?
— Oti Fazlidir.
— Oh yozmishim, oh aqdir!
Laylo yiroq bo‘lsa-da qirq yil mening ko‘zimdan,
Farzandining otini olmish taxallusimdan.
— Sen bu tasodifga boq,
Men ham Fazli qo‘ymishdim o‘z o‘g‘limning otini,
Otimga o‘xshataroq...
Shoir o‘z suvratiga yana termular hayron...
Derki: — Bu bir mo‘jiza, ajoyib sirri-nihon!
Laylo meni ko‘rmayin necha o‘n yildan beri
Ajab qaydan ilg‘amish bu monand chizgilarni?
Balli, yana muhabbat!
Sevgi — sehri-san’atmish,
Sevgisining sehri-la xayolida yaratmish
Bugungi qiyofamni,
So‘ngra surmish qalamni.
Mozoriston...
Dahshatlidir bu o‘liklar o‘lkasi,

Qosh qorayar... Unda-munda toshlarning
muz ko‘lkasi
Qabrlardan qabr sari surinar ilon kabi,
Bunday yillar, qarnlar kecharlar bir on kabi.
Quyosh botgach, bir g‘ariblik qoplab olar bu yerni,
Uchli mozir toshlarining uzangan ko‘lkalari
O‘raladi, chuvaladi qabrlarning boshiga,
Bunda zamon asar etmas
Bir vaqt jonli bo‘lganlarning —
Bu toshlarning yoshiga
Bu ko‘lkalar... Bu soyalar ro‘yomikin, uyqumi?
O‘liklarning xayolimi, ruhimi?
Bir abadiy savollardir — bu abadiy sukunat:
“Qaydan kelib qayga ketar azal kundan bu xilqat?”

Bir qabrning boshi uzra bosh egmishlar uch nafar,
Shu parishon qabr uzra parvonadir uch nazar.
Yotar bunda Fuzuliyning muhabbati, sevgisi,
Yotar bunda bir yurakning abadiy hijron sasi.
Yotar bunda insonlarga navo bo‘lgan bir tilak.
Asrlarga, zamonlarga davo bo‘lgan bir tilak,
Keksa shoir qo‘llarini qovushtirib, tebranar,
Ko‘z o‘ngida oltmish yillik umri o‘tar, tovlanar.
Bu dunyoda zulm ko‘rdi,
ko‘rdi so‘ngsiz bir zavol,
Qodir ishqi, muhabbati bitgan o‘sha bemisol —
Hasrat, hijron, kitobi,
Butun alam, azobi
Varaqlandi ko‘zida.
Ko‘zlaridan oqqan yosh
Tomdi qabr yuziga,
Tilka-tilka bo‘ldi tosh!
Ko‘zlaridan oqqan sirishk
Uning hijron kitobiga nuqta qo‘ydi, tugatdi,
Sevganlarning yuragini timsol bo‘lib titratdi!..

Soya tushar yuzlariga,
Laylo bilan so‘ng karra
Vidolashar Fuzuliy,
O‘par qabr toshini.
Shamol siypab quritar
Ko‘zlardagi yoshini...
Yo‘llar, izlar qorayar,
Mozoriston bo‘sh qolar.
Ular ketar orqadan
Bir sas kelar... Balki bu xayolidir Layloning,
Fuzuliyni chaqirar, ishiga boq dunyoning!
Shoir qaytar orqaga, qabrlarga bosh egar,
Oyoqlari yursa-da, qalbi: qol! — deb amr etar.
Antiqafurush do‘sti sudrar uning qo‘lidan,
Shoir behol, parishon qaytar kelgan yo‘lidan.
Birpas to‘xtab, qo‘ynidan chiqarar u tumorni,
— Mendan senga hadiya,
O‘g‘lim, qabul et, — deya
Fazliga tutar uni...

## VABO

Yasangiz qabrim, ey bedardlar, sangi-malomatdin
Ki, ma’lum o‘la dard ahlina qabrim ul alomatdin...

Muqaddas Karbaloga balo keldi, bir balo,
Bir haftada huvullab qoldi buyuk Karbalo.
Vabo keldi, na keldi, bu baloni, bu dardni
Ilohiyning o‘zimi bu o‘lkaga ag‘dardi?..
Balo keldi, yoyildi uning qora sharpasi
Tirik jonni quritdi, qovjiratdi nafasi.
Oshlarga soldi og‘u, boshlarga soldi qayg‘u,
Balki ko‘kning zaminga qabohati, qahri bu?
Balki ziyoratgohga “sharaf” uchun oshiqqan,
“Sharaf”ni sotib olib, havolangan, toshiqqan —

Vijdon tujjorlarining jazosidir bu balo?
O‘lim yotog‘i bo‘ldi shu muqaddas Karbalo!
Ko‘chalarni, uylarni vabo kezar birma-bir,
Qora bir arvoh kabi kezib, aylanar gir-gir.
Manzildan-manzillarga yeldek yelib esar u,
Ko‘ringan har kimsani qilich bo‘lib kesar u.
Bu yerda vabo bo‘ldi yer-u ko‘kning hokimi,
Ko‘kda uchgan qushni ham qiymalab o‘tdi dami.
Quridi ko‘k chashmalar, quridi turna suvlar,
Yotog‘ida ma’rashur yetim qolgan qo‘zilar.
So‘lar bog‘da og‘ochlar, bog‘chalarda chechaklar,
Shamollarda shaldirab uchar xazon pechaklar.
Vabo kezar cho‘llarda bir qora bulut kabi,
To‘da-to‘da odamlar to‘kilishar tut kabi.
Bir boq... jon berganlarning hazin boqishlariga,
“Ulug‘” ziyoratgohning bezabon toshlariga
Yuzini surib, undan najot so‘rar insonlar,
Vaboga yo‘liqqanlar tah-batah qusar qonlar.
Zavvorlarga o‘limdan bu yer armug‘on berar,
Sharaf uchun kelganlar “sharaf” olib, jon berar...

Bir dahmaning yonida to‘da-to‘da odamlar,
Yuraklarda xavotir, ko‘zlarda bir savol bor...
Shoir yomon xastadir,
Hayoti shikastadir.
Esma, shamol, uchma, qush, sharpa-sado — maloldir.
Qaydan yetdi bu og‘ir —
Ko‘rgulik, bu zahri mor?
Ko‘zlarda shu savol bor:
— Shoir holi nechukdir?
Qoyalarga urib bosh, shamol mubham ingranar,
Yer-u ko‘k ham ingranar,
Ingranar hazin-hazin,
O‘ylakim, xabar olur holidan Fuzuliyning.
Shivirlashgan yaproqlar so‘rar biri-biridan:
— Nechuk shoir ahvoli?

Shoir holi yomondir.
Esma, shamol, uchma, qush, sharpa-sado — maloldir,
Sizlarda insof qani?
She'ri-la millionlarning uyqusini uchirganni
Uyqudan ayirmangiz,
Shu kichkina dahmaning poyiga bosh qo'yingiz!
Sening kuching, ey vabo, shoirga aylarmi kor?
Qahring behuda bekor!
U o'limni o'ldirib san'ati-la sozi-la,
Jahonga jahon boshlab keldi qalb parvozi-la.
Layloga yetmasa-da, o'zga dunyoga yetdi,
Oqqan ko'z yoshlaridan u bir chashma yaratdi.
"Ishq chashmasi" atamish uni jumla odamlar,
Uni ichgan olamni, sorri-nihonni anglar.
Shoir so'nar sham kabi,
Shoir holi yomondir.
Uning umri abadiy,
Vaboniki bir ondir.
Dahmaning eshigida to'da-to'da odamlar...
Har ko'zda bir savol bor.
Vabo bu badbaxt elni komiga tortdi to'la,
Uning dahshatlarini yozmoq uchun bir yo'la
Fuzuliy so'zi kerak, fuzuliy o'zi kerak!
Qani shunday bir hunar, qani shunday bir yurak?
Vabo — olov tuproqda, vabo — otash havoda,
Vabo ajal yog'dirib, aylansa-da aftoda,
Shoirning dahmasini odamlar tark etmadi,
Tark etib biror kimsa, biror yoqqa ketmadi.
Hamma tikar ko'zini oq sallali hakimga,
Hakim xijolatidan boqa bilmas hech kimga.
U ne desin, ne desin?
Nechuk chora aylasin
Bu chorasiz xastaga?
Endi ayondir unga:
Zaif kuchi zaifdir falokatning kuchidan!
Yoshi oqar yuzidan, tomar soqol uchidan...

Nogoh dahma ichidan alamli bir sas kelar,
Bir sas kelar, o‘ylakim, falakka payvast kelar:
“Ishqdin jonimda bir pinhon maraz bor, ey hakim,
Elga pinhon dardim izhor etma zinhor, ey hakim.
Bor bir dardimki, cho‘x darmondin ortiqdir menga,
Qo‘y meni dardim-la, darmon aylama, bor, ey hakim.
... Kel, manim tadbiri behudamda sen bir sa’y qil
Kim o‘lay bu dardda ortiqroq giriftor, ey hakim...
... Ranj chekma, sihhat umidin Fuzuliydan ketur,
Kim qabuli-sihhat etmasbo‘yla bemor, ey hakim...”
Yumar so‘ng ko‘zlarini yona-yona Fuzuliy,
Zulmlari charchatgan shu jahona Fuzuliy!..
U davronni rad aylab, istiqbolga inondi,
Hayotda-ku yonmishdi, o‘lar chog‘da ham yondi.
Yondi, yondi Fuzuliy,
Kul bo‘lurdi yonganlar,
Yonarkan kul bo‘lmadi, oftob bo‘ldi Fuzuliy,
Yolg‘iz kunduzlar emas, kechalar ham dam-badam
Ko‘zlarida bir olam,
Vatanning ko‘klarida mohtob bo‘ldi Fuzuliy!..

Butun shahar yona-yona,
Bir sel kabi oqib borur qabristona.
Fuzuliyning orqasidan ketar hamma bu so‘ng damda
Elning dardi, elning g‘ami birlashibdi bu motamda.
Tobut ketar... Bu motamdan dillar qora qonga to‘lar,
Janozaning orqasidan giryon-giryon yel surinar.
Boq, bashariy daryoga boq;
Dalaga boq, sahroga boq,
Bir ismni etib bayroq.borisharlar qator-qator.
Bir insonni dafn etgali tantanavor —
Hindistondan, Turkiyadan, Ozarbayjon ellaridan,
Eron, o‘zbek o‘lkalari, turkmaniston cho‘llaridan
Ming-ming inson oqib kelar “U manimdir, manim!” — deya,
Fuzuliyni so‘ng manzilga kuzatmoqqa kuya-kuya...
Shoir ketar... Bugun duo evaziga hazin-hazin

O‘qirdilar “Shabi hijron” g‘azalini Fuzuliyning.
“Shabi hijron yonar jonim, to‘kar qon chashmi giryonim,
Uyotir xalqni afg‘onim, qaro baxtim uyonmasmi?..”
Bu bir qalbning sasi emas, million qalbning bir sasidir,
Umri faqat asoratda kechgan xalqning nolasidir.
“Shabi hijron” bobo Sharqning o‘z borlig‘i, o‘z otidir,
Mahkum bo‘lgan millatlarning “yondim!” degan faryodidir.
Ko‘ngil g‘amli ko‘zlar namli, takror etib buyuk nomni,
Borar barcha, olg‘a boshlar el sevgisi izdihomni.
Qay bir kimsa yura-yura yiqilgancha yerda qolar,
Vabo qahqah urib kular, vabo chalg‘i bilan chalar.
Ammo o‘lim ulug‘ oqim — izdihomga qo‘ymas qadam,
Shoirga el muhabbati g‘olib kelar o‘limdan ham.
“Shabi hijron” ayta-ayta kirar ular qabristona,
Sharqning oshiq bulublini dafn etarlar yona-yona...
Bas, u kimdir, u purviqor?
Qabr uzra so‘ng tuproqni sepalagan bir g‘amguzor?
Soqolidan yoshi oqar... Ajinlari tugun-tugun,
U qabrni quchar, ammo bosh qo‘ygancha qolar sokin...
Oh, uning ham yuragiga balo-ofat soldi og‘u,
Balli, do‘stning qabri uzra o‘z umrini tugatdi u.
Fuzuliyning dardlarini, dedi, mening o‘z dardlarim,
Fuzuliyning hasratini kuylab o‘tdi Abdul Karim.
U sehrkor nay sasi-la, nag‘masi-la umr surdi,
O‘lganda ham qamish nayi ko‘ksi uzra ko‘rinurdi...

## XOTIMA

Shoirimiz qadim Iroq tuprog‘ida orom topdi,
Karbaloda ikkinchi bir Karbaloni u yaratdi.
O‘tdi oylar, kechdi yillar,
dunyoning har burchagidan
Bu go‘shaga ziyoratga oqin-oqin keldi inson.
Bu mozor-la Iroq yana noil bo‘ldi shon-shuhratga,
Avval faqat musulmonlar kelar esa ziyoratga,
Endi butun dunyo uchun ziyoratgoh bo‘ldi bu yer,
Sharofatli bir diyorga sharaf berdi bizning shoir.
Bu ma’voda tariqatlar qo‘shilishib bo‘ldi daryo,
Kelganlarga, ketganlarga,
Karbalodan million karra
Sharaf berdi bu qadamjo...

Fuzuliyning tavalludi ma’lum emas har insonga,
U kelarkan bu jahonga,
Kim bildiki, Ozarbayjon tuprog‘ida kun tug‘ildi?
Ammo uning o‘lim kuni eng buyuk bir tarix bo‘ldi.
Hamma bir xil tug‘ilmasmi tug‘ilganda?
Tolega boq,
O‘lganda-chi, birov — undoq, birov — bundoq...

O‘tding, u zamondan kechdi to‘rt yuz yil,
Yonar qalbimizda san’at chirog‘ing.
To‘rt ming yil kechsa-da, yashildir, yashil
Sening so‘z gulshaning, sening so‘z bog‘ing.

Bashar samosida so‘zing sayrondir,
Nag‘malar yaralur da’vatlaridan.
Musibating buyuk, ishqing ummondir,
Tug‘ilding Vatanning hasratlaridan.

Ishqing bir olamdir, orzung — bir olam,
Nahot bir yurakda bari jam bo‘lsa?

Yozib, dardlaringni tugata olmam,
Mening har kiprigim bir qalam bo‘lsa.

Yashading malolat, ranj-u firoqda,
Orzu daryosida bir yelkan bo‘lding.
Zamon har insonni yondirgan chog‘da
O‘rtangan u bo‘ldi, yongan sen bo‘lding.

Yig‘lading, yoyildi sasing har yona,
Bulbul bog‘chalardan o‘tdi, dedilar.
Kelganda, Muhammad kelding jahona,
Ketganda, Fuzuliy ketdi, dedilar...

# FARYOD

YETTI KO'RINISHLI SHE'RIY DRAMA

**Ishtirok etuvchilar:**
**Amir** — Halab hukmdori.
**Valiahd** — uning o'g'li.
**Zohid** — qozikalon.
**Diyonat** — uning o'g'li.
**Luqmon** — saroy olimi.
**Oypara** — uning qizi.
**1-Nasimiy**
**2-Nasimiy**
**Vazir**
**Cholpopoq** — Luqmonning yoshlikdagi do'sti.
**Keksa shoir**
**Yosh shoir**
**Rahmon** — mahbus.
**Subhon** — mahbus.
**Karomat** — mahbus.
**Shakkok**
**Soqchi** — zindon qorovuli.
**Soqov** — lol
**Mirvon**

## PROLOG

*Mahbuslar dor qurmoqdalar. Bir chekkada soqchi kezinadi.*

**Rahmon**
Menga boltani ber.

**Karomat**
Mana, marhamat.

**Subhon**
Bu yog‘ochlar chirik...

**Rahmon**
Chirik bo‘lsa-chi?..
Asl dor og‘ochi ayon gap-ku bul
Chirik taxtalardan yasalar nuqul.
Og‘ochlar har yerda yashil erta-kech,
Yashil dor og‘ochin ko‘rganmisan hech?

**Soqchi**
Bo‘ldi, valaqlamay, ishga zo‘r bering,
Qismati dor erur isyonchilarning...

**Karomat**
Qo‘lim qichiyapti... bir ursammikan?

**Rahmon**
Qo‘ysang-chi? Janjalga ne hojat, ukam?

**Subhon**
Endi osishadi, bo‘lar ish bo‘ldi,
Xallojiy to‘dasi rosa qirildi.

**Rahmon**
Muso-chi?

*Soqchi bir chekkada turib, ularning gapiga quloq soladi.*

**Karomat**
Tirik u, hali o‘lmagan.

**Rahmon**
Demak, Muso hali taslim bo‘lmagan.
U — dono, boshlaydi bizni haq yo‘lga.

**Soqchi**
U ham sizdek tushadi qo‘lga.

**Rahmon**
Ol-a!

**Soqchi**
O‘lay agar!..

**Subhon**
Voy, tirikmisan?

**Karomat**
Bitta tushiraymi?

**Rahmon**
Qo‘ysangchi, ukam!

**Soqchi**
Qozi fatvo berdi, o‘zi kelmasa,
Nasli qiriladi... Ha, bu so‘zim chin.
Musoning boshini keltirgan kimsa
Yotmish ming mukofot oladi tayin.
Oh, mening qo‘limga tushsaydi Muso...

**Karomat**
Kuching yetarmidi unga, ey ko‘sa?

**Soqchi**
Pulning qudratidan bexabarmisan?
Pul — shunday qilichki, uning zarbidan.
Bir emas, yuz boshni kesik ko‘rganman
Va shu ko‘rganimni saboq bilganman.

**Subhon**
Sabog‘ing yomon dars.

**Soqchi**
Qani, qimirlang.
Bugunoq bu ishni tugatish kerak.

*Soqchi ketadi, chiroq o‘chadi, o‘ng tomondan Luqmon, chap yoqdan Zohid kiradi.*

**Luqmon**
Chin ila yolg‘onning taloshlarida
Ne alamlar chekar jafokash inson.
Haqiqatdir — mening dinim, kitobim,
Ham ko‘ngil quvonchim, ham iztirobim.

**Zohid**
O‘lim dag‘i haqdir... kim uni istar
Haq bo‘lgan har narsa manzurmi magar?

**Luqmon**
Yolg‘on haqiqatdek aytilgan zamon
Haqning tutunlardan ko‘zi yoshlanur.
Yolg‘on holva kabi yutilgan zamon
Haqiqat zahardek achchiq tishlanur.

**Zohid**
Ba’zan to‘g‘ri so‘z ham haqiqat bo‘lmas,
Haqiqat har yerda zarurat bo‘lmas.
Hayot tikka qalqib, bizni rad etar,
Boqmasak dunyoning aylanasiga.

**Luqmon**
Foyda deb iymondan yuz o‘girganlar
Yutib-yutib... oxir yana yutqizar...

## BIRINCHI KO‘RINISH

XIV asr. Halab. Saroyda shahzoda yotog‘i. Valiahd uxlayapti. Samoviy muzika. Valiahd tush ko‘radi... Diyonatning soyasi ko‘rinadi...

**Valiahd**
Diyonat? Bu senmisan? Yana keldingmi? Nechun?
Nega sen hayotingni qurbon etding men uchun?

*(Sukut)*

Hech unuta bilmasmen u dahshatli kunni men,
Kechalari tushimdan quvolmayman seni men.
Kunduzlar qayga borsam,sen turasan yonimda,
Oh, bu qora dog‘ kabi yashaysan vijdonimda.
Olib mening o‘rnimni, menga qilding zulmni,
So‘yla, nega o‘zingga ravo ko‘rding o‘limni?

*(Sukut)*

Nega o‘z hayotingni qurbon etding o‘zgaga?
Jimsan, og‘iz ochmaysan... Yo‘qol bu yerdan, jo‘na!
Yoki eshitmaysanmi?.. Chiroq tutinglar, chiroq!..
Nega sen zavol berding meni deb hayotingga?

**Diyonat**
Senga maslahatim shu: meni olma yodingga!

*(Keta boshlaydi)*

**Valiahd**
Nega javob bermasdan ketmoqdasan? Sabr qil.

**Diyonat**
Bu sirni anglash uchun mendek bo‘lishing zarur.

**Valiahd**
Sen bilgan hikmatlarni men ham anglab yetarman,
Sen bajargan ishlarni men ham bajo etarman!

**Diyonat**
Ne ham derdim, bajo et: mana maydon, mana sen,
Gap bor: botir savashmas ruxsat so‘rab kimsadan...
*(Sukut)*
Oqil tilga keltirmas yurakdagi har gapni.

**Valiahd**
So‘yla, nega ojiz deb hisoblaysan sen meni?
*Diyonat qah-qah urib kuladi.*

**Diyonat**
Ortdan otilgan toshning tovonga tegishini
o‘zing yaxshi bilasan.
Tashvishlaring behuda. Po‘lat sinar, egilmas.
O‘z bo‘yidan balandga hech kim sakraya bilmas.
Seni yaxshi bilaman, garchi ko‘pdir xislating,
Ojizlik xamiriga qorilgandir fitrating.

**Valiahd**
Dalil ayt, isbot ayla!

**Diyonat**
Bugun emas, ertaga
Mardona bir o‘limni bo‘yningga olarmiding?
Kecha ne bo‘ldi, kecha? Qiyin keldi shekilli?
Sen o‘limdan chekinding...
Va yuz berdi xiyonat!
Nega rostin aytmading: yo‘q, Valiahd emas, bu —
Zohid o‘g‘li Diyonat?

**Valiahd**
Yetar, bas, ayon etding yuragingni nihoyat,
Men shuni kutgan edim istar edim bag‘oyat.
O‘ylardimki, so‘z ochib,

Ko‘zlaringni yumarsan.
Ta’nalarga ko‘marsan...
Istadim, dashnomlaring eshitganda lol bo‘lsam,
Bo‘tana tog‘ suviman, shoyadki zilol bo‘lsam...

**Diyonat**
Toki topmas ekansan hayotingda g‘oyani,
Men ta’na etmasam-da hayot savalar seni.
Bir amalning yo‘lida iztirob chek, azob chek,
Orzu chechaklaridan yuragingga gulob chek!
Nash’a, sevinch yurakka shu’la yanglig‘ sochilar,
Aql-idrok cho‘qqisi ko‘zlaringga ochilar.
Yor bo‘lsin azob senga, dard senga, kadar senga,
Insondek yashamoqni azob o‘rgatar selga.
Hech bo‘lmasa yonib sev,
Ishqida yoqsin pari.
Seni yashatar shunda sevgining azoblari...

*Diyonatning soyasi g‘oyib bo‘ladi. Chiroq yonadi. Valiahd uyqudan uyg‘onadi. To‘shakdan tushib, kezinadi. Bir narsani eslab, xo‘rsinadi.*

**Valiahd**
Axir u ham sevardi, sevardi Oyparani,
Boshdan oyog‘im qadar gunoh chulg‘amish meni...
Olloh, menga madad ber,
Olloh, o‘zing najot ber!

*Uzoqdan Oyparaning qo‘shig‘i eshitiladi.*

*Qo‘shiq*

Ey yor, o‘shal lahzada yulduz kabi so‘nding,
Yoding-la yashaydir yuragim har kecha, har kun.
Uyqumda tilab, yolvoraman vaslingi har dam,
Voh, sud-u samar yo‘q emish ul xotiralardan.
Kelsin saharim, tongga yetishsin, kecha kechsin,
Sensiz menga teng tun bila tong, gar necha kechsin...
Ko‘rdimki, hayot nash’ali bo‘lmas menga sensiz,
Ko‘ngil qushining holini ko‘r, bo‘yla makonsiz.

Yodingda yonish shavqini qo‘ymas sira ko‘nglim,
Yodingda yonish shavqiga to‘ymas sira ko‘nglim.
Kelsin saharim tongga yetishsin, kecha kechsin,
Sensiz menga teng tun bila tong, gar necha kechsin...

## IKKINCHI KO‘RINISH

Oyparaning yotog‘i. Oypara qo‘shiq aytadi. Valiahd kiradi.

**Oypara**
Valiahd, ne shamol uchirdi, keling,
Nima gap, tinchlikmi?

**Valiahd**
Arosatdaman.
Qo‘zg‘oldi o‘zimga qarshi vijdonim,
Sensan bor umidim — najot qo‘rg‘onim.

**Oypara**
Ne bo‘ldi?

**Valiahd**
Sabr ila sen meni tingla.
Keldim bir dardimni aytgali senga.
Yolg‘on so‘ylamishdim o‘shanda, yolg‘on!
Endi yonmoqdaman gunohlarimdan.
Dunyo qorong‘udir hozir manim-chun,
O‘sha — Diyonatni yo‘qotganim kun.
O‘ylaki, o‘zimni yo‘qotmishdim men,
Go‘yoki o‘zimga o‘q otmishdim men...

**Oypara**
Seni tushunaman.

**Valiahd**
U kundan beri
Menga dahshat ila boqqan ko‘zlarni
Unuta bilmasman... O, u boqishlar!..

Uning o‘limiga menman sababkor:
Xallojiy to‘dasi chiqib panadan,
Bizning ustimizga yoprildi birdan.
Ortimizda — jarlik, oldinda — tepa,
Qaroqchilar epchil, hash-pash deguncha
Ko‘rdik, qilichlarni havoda sirmab,
Bizni har tarafdan olishdi o‘rab.
Qimirlay olmadik... Tutdilar bizni,
Zanjirga soldilar qo‘llarimizni...
So‘ngra Valiahdni surishtirdilar,
Men jim tura berdim... Diyonat shu dam
Dedi: Valiahdman, ne so‘zingiz bor?
Dedilar: — yolg‘ondir, u dedi: — menman.
Yana so‘radilar: — Valiahd kimdir?
Qo‘rquvdan badanim titradi dir-dir,
Qarashlar o‘q bo‘lib sanchildi menga,
Tilim tutilmishdi, jim turdim yana.
Diyonat qichqirdi: — Nima, karmisiz?
Nega Valiahdga ishonmaysiz?...
Ularning boshlig‘i...

**Oypara**
Muso?

**Valiahd**
Ha, Muso?
Bilmadim, o‘shanda nima bo‘ldi-yu
Meni bir chekkaga tortib, tikildi,
Ko‘zlari bir nima degandek bo‘ldi,
So‘ng sekin shivirlab dedi: “Ket, o‘g‘lon”
Men qochdim orqamga qaramay shu on.
Diyonat maydonda mardona turdi,
Meni deb o‘zini o‘limga berdi...

**Oypara**
Nihoyat, nihoyat, siringni sochding,
O‘zing og‘iz juftlab, o‘zing so‘z ochding.

Iqror savob erur, gunohmas ulkim...
Qo‘yding o‘z o‘rniga qorani, oqni.

**Valiahd**
Shu bilan barobar shuni ham bilkim,
Men sendan so‘ramam afv etmoqni.
Ko‘rinmoq istadim ko‘zingga bu dam
Qanday bo‘lsam, shunday borlig‘im bilan.
Lekin o‘tinchim bor: otang bilmasin —
Mening Diyonatga xiyonatimni.
Luqmon ustozimdir, avval ustozim,
Men unga munosib shogird bo‘lmadim.

**Oypara**
Otam sevar seni o‘z o‘g‘li kabi.

**Valiahd**
Ammo yuragimda alam bor bugun,
Qo‘rqaman, eshitib xiyonatimni,
Xijolat chekar deb otang men uchun.

**Oypara**
To‘g‘ri.

**Valiahd**
Men sirimni aytdim baralla,
Qilmishim hukmingga etdim havola.
O‘zim eplolmadim, urindim harchand,
Endi jazoyimni kutaman sendan!

**Oypara**
O‘zing bermasayding o‘zingga jazo,
Mendan qochar eding, kelmasding yaqin.
O‘tmishni eslagil: Diyonat, sen, men
Birga unib-o‘sdik bir qarichlikdan.
Keyin saboq oldik mening otamdan,
Yaxshi xabardormiz bir-birimizdan.
Valiahd bo‘lsang-da ammo hech qachon

Sen baland tutmading o‘zingni bizdan.
Gunohkorga jazo lozimdir zinhor
Agar u haqnimas, o‘zini suysa.
Jazo shart emasdir, agar gunohkor
Alam-iztirobga o‘zini qo‘ysa.

**Valiahd**
Shunday deyishingni bilar edim men,
O‘tkir zehni yurak sohibidirsan.
Lekin bular bari-faqat so‘z va so‘z!
Men azob chekaman kecha va kunduz.

**Oypara**
Do‘stingni yurakda yashatish bilan
Sen xalos bo‘larsan iztiroblardan.
Kel, har ishimizda, tilagimizda
O‘shanga munosib bo‘laylik biz-da.
Uning suvratini ezgu timsoldek
Ko‘tarib yuraylik yuragimizda.
Uning a’moli-la, kel, yashaylik biz.

**Valiahd**
Ba’zan Diyonat-la fikrlarimiz
Bir joydan chiqmasdi, o‘ylasam...

**Oypara**
Nega!

**Valiahd**
Uning mayli bordi xurufiylikka!
**Oypara**
Xurufiylar... Ayt-chi, ne deydi ular?

**Valiahd**
Emishki, insonda Alloh azmi bor.

**Oypara**
Magar bu yolg‘onmi?

**Valiahd**
Men ishonmayman,
Haqiqat kutmayman xurufiylikdan.

**Oypara**
Miyalar muzladi, yuraklar bo‘m-bo‘sh,
Ahkom aqlimizni kishanga soldi.
Ma’naviy poklikka intilish, parvoz
Ayt, nechun shunchalik gunoh sanaldi?

**Valiahd**
Inson-ku Allohga yetisha bilmas,
Sening “Anal-haqing” o‘zi nadir, bas?

**Oypara**
Bu so‘zda insonga ishonch bor mutlaq.

**Valiahd**
Men inson kuchiga ishonmasman, yo‘q!

**Oypara**
O‘zingda u kuchni ko‘rmaganingdan,
Inson qudratiga ishonging kelmas.

**Valiahd**
U qudrat qaydadir? U qudrat nadir?

**Oypara**
Insonning qudrati yuragidadir.
Yaxshi ham bizdadir, yomon ham bizda,
Haqiqat bizdadir, yolg‘on ham bizda.

**Valiahd**
Yolg‘oni kuchlidir haqiqatidan.

**Oypara**
Insof qil, insonga bo‘hton etma sen.
Haqiqatdan kuchli bo‘lsaydi yolg‘on
Chappa aylanardi bu charxi davron.

Vijdon baxsh etarkan insonga Tangri
Yuksalish yo'lini ko'rsatmish unga.
Har kim ichidagi yomonliklarni
O'ldirib, chiqadi, tole taxtiga.

**Valiahd**
Chiqajak — nafsini o'ldira bilsa...
Inson-ku azaldan osiy bandadir,
O'ldira bilarmi yomonliklarni?
Bu dunyoda qodir — faqat Tangridir!

**Oypara**
Inson-chi?

**Valiahd**
Ojizdir tug'ilganidan.

**Oypara**
E'tiqod yo'lida jondan kechganlar
Magar ozmunchami?

*(Valiahdning ko'ziga Diyonatning soyasi ko'rinadi)*

**Valiahd**
*(o'z-o'ziga)*
Zohid o'g'lidek!
Yo'q, menda ne qilsin bo'yla bir yurak?
U meni tiklash-chun o'zini yiqdi,
Balli, bu buyuklik, yuksaklik beshak.

**Diyonat**
Baski, shundoq ekan, unda ayt-chi sen
Nega ishonmaysan shu buyuklikka?
Chiroq yonib, soya g'oyib bo'ladi.

**Valiahd**
Jim bo'l! Eshitmayman!

*(Quloqlarini bekitadi)*

Yetar bas, endi!
G‘arazli bu so‘zlar jonimga tegdi
Yupang toparman deb kelgandim faqat,
Nasihat tinglashga yo‘q menda toqat.

**Oypara**
Valiahd, azizim!

**Valiahd**
Endi men yo‘qman.
Kecharman, kecharman o‘zim o‘zimdan.
Koshki, Diyonatga duch kelmasaydim!

*(Ketadi)*

**Oypara**
Sho‘rlik azob chekar... Balki bor gapni
Aytishim kerakdir...

*Eshikka tomon yuradi, lekin yana to‘xtaydi..*

Yo‘q, hali erta.
Ammo yuragining shaffofligi-la
Buyukdir, yuragim sharaflar uni.
Kim u, ojiz degan inson o‘g‘lini?

## UCHINCHI KO‘RINISH

*Amir yolg‘iz, u raqqosalarning raqsini tomosha qilmoqda. Vazir kiradi.*

**Amir**
Avval aytganimdek yana aytaman:
Axmoqdir dunyoning dardini chekkan!

**Vazir**
Bag‘oyat to‘g‘ridir, toki tiriksan,
O‘ylaki, abadiy yashayajaksan.
Hayot — qamchi, inson — pirildoq unga,
Pildirab-pildirab ketamiz go‘rga.

**Amir**
Yo‘q, go‘rdan gapirma, dunyodan gapir,
Otini atama yog‘in yog‘masdan.
Vazir, chuqurroq suz, yuzada suzma!
Luqmon bilan valiahd kiradi.
*Bas, endi boringlar!*
*Raqqosalar ketishadi.*
Kelingiz, picha
Hukumat ishiga bo‘laylik mashg‘ul.

**Vazir**
Ma’qul.

**Amir**
*(Valiahd bilan Luqmonga)*
Kelganingiz ko‘p yaxshi bo‘ldi,
Boshlaymiz.

**Vazir**
Hukmdor, eshikchi Mirvon
Zindonda yotibdi o‘shandan buyon.
Churq etmaydi, yolg‘iz bilgani sukut.
Sizning u nonko‘rga jazoyingiz ne?

**Amir**
Bu yoqqa chaqiring!

**Vazir**
Xo‘p, hukmdorim!
*(Soqchiga “olib kel” ishorasini qiladi).*
Fuqaro shu kunlar aynadi yomon.

**Luqmon**
Gunohi nimadir?
*Mirvonni olib kiradilar*

**Vazir**
Shu Mirvon og‘a
Qorovulda turib uxlagan.

**Luqmon**
Shumi?

**Vazir**
Keyin uyqusida vaysay boshlagan.

**Luqmon**
Ne demish?

**Vazir**
Demishki... yo‘q, aytish qiyin,
Amirning non-tuzi bo‘lgusi harom
Bunday nonko‘rlarga... U demish...

**Amir**
Gapir!

**Vazir**
Men bo‘yla yolg‘onni qanday aytaman?

**Luqmon**
O‘g‘lim, ne degansan?
(Sukut)

**Amir**
Hoy, gapirsang-chi!

**Luqmon**
Insofi ulug‘dir amirimizning.
(Sukut)

**Vazir**
Demish: zulmkordir bizning hukmdor.

**Valiahd**
Balki bu sho‘rlikka bo‘hton etmishlar.

**Luqmon**
Valiahd to‘g‘ri der.

**Vazir**
Yo‘q, bu to‘g‘rimas!
Bo‘hton bo‘lsa, aytsin, nega jim turar?

**Luqmon**
U sho‘rlik ne desin? Axir uyquda
Ne deb vaysashini bilarmi inson?
Yo‘q, bu haqsizlikni xushlamas Xudo.

**Amir**
Inson yuragini so‘ylar uyquda.
Jazoga tortamiz biz uni albat,
Toki saboq bo‘lgay bu o‘zgalarga.
Qani, fikringizni so‘ylang.

**Vazir**
Bu olchoq
O‘limga loyiqdir, o‘limga mutloq.

**Luqmon**
O‘lkada hamma ham shundoq o‘ylamas.
“Amir — zulmkordir” bu so‘z ehtimol
Uning o‘z fikridir, tushunchasidir,
Uyquda taralgan ko‘ngil sasidir.
Ammo fikri uchun dunyoda hech kas
Qonun yuzasidan aybdor sanalmas.
Inson fikri uchun emas, hukmdor,
Qilmishi tufayli gunohkor bo‘lar.
Mirvon — gunohkordir.

**Amir**
Gunohi nima?

**Luqmon**
Mirvonning gunohi qilmishidadir:
Ish payti uxlagan... Mana shuning-chun
Jazosini bering... Adolat bo‘lsin!

**Amir**
Men rozi emasman, Luqmon, sening-la,
Men kimga zulm etdim, sen shuni so‘yla!

**Luqmon**
Uyquda “zulmkor” demish u seni,
Hukmdor, sen esa inkor et buni!
Adolating-la!
Ojiz qullaringga muruvvating-la!
Hukmdor, o‘ldirsang agar buni sen,
Zolim ekanliging isbot etasan.

**Amir**
*(O‘ylanib)*
Olib chiqing... Xiyla charchadim, toldim...
Boshqa gal qaytamiz bu ishga...
*(Valiahdga murojaat etib)*
O‘g‘lim,
Ko‘rdingmi, qanchalar otang benavo,
Har kuni bir g‘avg‘o, yangi mojaro.
Bularni bilmaslik boshga ofatdir,
Hukumat ishlari ko‘p mashaqqatdir.

**Valiahd**
Ko‘rdim, mashaqqatdir.

**Amir**
Bildingmi endi?
O‘zingdan ortmasdan yurasan nuqul.
Boshimdan ortsa-da tashvishim manim,
Sarrof ko‘zlaridir, ammo ko‘zlarim
Allanechukdirsan shu so‘nggi kunlar,
So‘yla, ne darding bor, ne asroring bor?

**Valiahd**
Yashirin sirim yo‘q

**Amir**
Har qalay...

**Valiahd**
Ota!
Qo‘rqib qaraydirman men shu hayotga.

**Amir**
Qo‘rqib qaraydirsan?!. Ne deydi o‘zi!
Bormi bu o‘lkada sendan kuchlisi?

**Valiahd**
Otajon, bu kuchni qozonmadim men,
U menga baxshida shu saltanatdan.

**Vazir**
*(Amirga)*
Siz hech tashvish chekmang, yoshdir bir qadar,
Ertami yo kechdir — tushunar, yetar...

**Amir**
*(Luqmonga)*
Nelarni o‘rgatding bunga, ey Luqmon,
O‘zni yo‘qotmish u qo‘rquv-hadikdan.

**Luqmon**
Men hikmat o‘rgatdim unga, ko‘p hikmat.

**Amir**
Hikmatdan podshoga nima manfaat?
Sen unga toj-u taxt, saltanatimning
Kuchini, sirini nega aytmading?

**Luqmon**
Muallim hayotdir, o‘zi o‘rgatar,
Ey, davron sohibi, otga minmasdan.
Jilovni tutishni o‘rgansinmi ul?
Shohlikni shohlikdan o‘rgangan ma’qul!

**Vazir**
*(gapni chalg‘itib)*
Hukmdor, shoirlar kelsin majlisga,
Har biri mehrini so‘zlasin sizga.

**Amir**
Kelishsin!
*(Ikki shoir kiradi.)*

**Vazir**
Marhabo, boshlasin, avvalo, ustoz...

*Egniga qora libos yopinib, Zohid paydo bo'ladi. U vazirning qulog'iga bir nimalar deb pichirlaydi. Vazir bosh ishorasi bilan bir oz kutishga buyuradi Zohid bir chekkaga chiqadi. Keksa shoir ta'zim ado etib, she'r o'qiydi.*

**Keksa shoir**
So'zdan so'ragum men shu nafas fikrima imdod,
U ojiz esa, so'zda nechuk soz yaratsin,
Qudrati Amirning shu baland taxtiga yetsin.
Ustozi shoiri haq, Shayx Nizomiy
Ko'rsaydi agar sizdagi shu azmi rasoni,
Xusrav ishini kulgu-yu sharmanda etardi,
Iskandar — agar shoh, uni banda etardi...

**Vazir**
Voh, so'zga qara!..

**Zohid**
So'zdagi hikmatga nazar sol!

**Shoir**[1]
*(Luqmonning qulog'iga)*
Hikmatda bir Allohdi Nizomiy,
Allohga atalmish bu malomatga nazar sol!..

**Luqmon**
Valloh, bu nazm ustun erur necha nazmdan,
Lekin tilagim bor mening ustozi azimdan.
Gar mumkin esa, tegmasa Iskandara ustoz,
Ham Shayx Nizomiy boshiga bormasa ustoz...
Toshsin ko'pirib, har kuni ilhomiga botsin,
Shavkatli Amir sha'niga bir "Xamsa" yaratsin...

**Vazir**
Ko'p a'lo fikr bu!

[1] Dramada "shoir" deyilganida yosh shoir ko'zda tutiladi (tarj.)

**Amir**
Bajarasanmi?
Keksa shoir
Valloh, bilolmayman ne deyishni ham.
Agar bo'lsa edi bir qadar imkon,
Ishga kirishardim, uydan chiqmasdan
Har kun yozar edim...

**Amir**
Yo'qmi imkoning?

**Keksa shoir**
Yo'qsulman, shu falak guvohim mening.

**Luqmon**
Bir oz boyimoqqa mayli bor uning...

**Amir**
Bu yog'in bizga qo'y!
Keksa shoir ikki bukilib, qulluq qiladi.

**Keksa shoir**
Eng oliy sharafdir biz uchun andoq —
Oliy xizmatingda qul kabi yurmoq...

*Ikkinchi shoir darhol Amirning qarshisiga chiqib, badiha yo'sinida she'r o'qiy boshlaydi.*

**Shoir**
Qul bo'lsa agar shoiri, shodon bo'ladir xalq,
Qah-qah uribon har kuni xandon bo'ladir xalq.
Izzat topadir qullari, davronga tashakkur,
Insonga berilgan bu sharaf-shonga tashakkur!

**Vazir**
Ahsan!.. Tasanno!..

**Keksa shoir**
Nega ahsan? Nega tasanno?
Har satrida pinhon necha ma'nogami ahsan?

Ey, sohibi davron, buning har jumlasi qondir,
Zohirda kabutar esa, botinda ilondir.

**Amir**

*(Vazirga)*

Bular ne deydi?

*Vazir indamaydi.*

**Luqmon**

Ey qiblai olam,
Olam bunga guvoh, biladi har kas,
Bir shoir so‘zini boshqasi sevmas.
Shoirga deyilmish bari — uydirma-yu bo‘hton,
She’rida ne bor?
Sizga tashakkur ila shukron!

**Zohid**

Qo‘y, u yana bir bor o‘qisin she’rni...

**Shoir**

Ammo...
Men o‘qidim har neki keldi yuragimdan,
So‘ng tezda unutdim uni...

**Keksa shoir**

Aytganlari yolg‘on.

**Shoir**

Bir kimsa demaski anga: yolg‘onchi o‘zingsan!

**Amir**

Zindon yarashur bunga shu lahza.

**Luqmon**

Podshoga yarashmas.
Bir jumla uchun shoirni zindonga buyursa!

**Shoir**
Bir jumla haqiqat esa, qo‘rqar necha yolg‘on,
Ko‘p kuchli shu bir jumla haqiqat —
Yuz jumla agar bo‘lsa-da yolg‘on.
Bir jumlani tindirgali, so‘ndirgali har vaqt
Zolim qo‘lida bitta qurol bor: o‘sha zindon!

**Amir**
Mening zamonimda qani, ayt, o‘lka
Ochlik azobini chekdimi sira.

**Shoir**
Bir xalqqa baloning biri basdir, demish Alloh,
Sen borsan o‘zing, nega kerak boshqasi, valloh!

**Amir**
Ko‘kdan qo‘l uzib, yerda haqiqat istar o‘g‘lon,
Bitta yo‘ling bordir: hamisha isyon,
Bitta uying bordir: qorong‘u zindon!..
*(Shoirni zindonga olib ketishadi).*

**Vazir**
*(Amirga)*
Zohid afandining so‘zi bor sizga.

**Amir**
Marhamat.

**Zohid**
Hukmdor, majlisingizga
Kelishim bemavrid, bilaman o‘zim,
Lekin ko‘p muhimdir aytajak so‘zim.

**Amir**
Zohid, bu o‘lkada dinga peshvosan,
Ammo tokaygacha qora kiyinib,
Shahid o‘g‘ling uchun aza tutasan?

**Zohid**
Hukmdor, haqlisiz...Din peshvosidek
Bu motam libosin yechishim kerak.
Islomning yo‘lida shahid bo‘lganga
Gunohdir o‘rtanib, qora kiyinmoq!
Ammo... nima qilay, bir ota kabi
Unuta bilmasam Diyonatimni.
Men motam-azadan endi chiqmasman
To o‘g‘lim qotili — u kofirlarning
Ildizin dunyodan yulmasam tamom.

**Amir**
Yaxshi, ne istaysan?

**Zohid**
Hukmdor, kecha
Nasimiy she’rini yod aytib yurgan
Bir yigitni tutib oldik...

**Amir**
U kimdir?

**Zohid**
Derki, bu she’rlar — mening she’rimdir.

**Amir**
Demak, Nasimiydir o‘sha yosh o‘g‘lon?

**Zohid**
O‘zi shundoq deydi.

**Amir**
Qani, et bayon.

**Zohid**
So‘zimning davomin eshiting, illo,
Bu xabar shaharga soldi g‘ulg‘ula.
Jamoat yig‘ilib, liq to‘ldi maydon,

O‘lim fatvosini berdim unga men.
Jallod qilichini sug‘urdi, shunda
Bir kishi orqadan qichqirdi: — Shoshma!
Jallod kutarkan, u o‘rtaga chiqdi,
Bir jallodga boqdi, bir menga boqdi.
Dedi: gunohsizdir butkul bu o‘g‘lon,
U o‘qigan she’rni to‘qigan inson
Qarshingizda turar, bering jazoyim.
Hayrat tosh qotirdi, shunda maydonni,
Dediki, Nasimiy u emas, menman,
Qochmoq istamasman o‘z toleyimdan...

**Amir**
Mana bu jasorat... Juda g‘alati.

**Zohid**
Keyin ne bo‘ldi deng? Mana, eshiting:
U hali so‘zini tamom etmasdan
Boyagi qichqirdi: — Yo‘q, men — Nasimiy!..
Uning so‘zi yolg‘on!.. Bo‘ldi arosat...

**Valiahd**
Ajabo, o‘lim deb shunchalar suron,
Yashamoq nahotki shunchalar yomon?

**Amir**
Keyin-chi?

**Zohid**
O‘rtada aylandi boshim.
U bunga “jim” desa, bu unga “jim!” der
Og‘ir arosatda qoldim, gangidim.
U “Meni os!” deydi, bu der: “Os, meni!”
Tagiga yotmadim bu hangomani.

**Amir**
Zohid, u badbaxtlar balki jinnidir?

**Zohid**
Yo‘q-yo‘q, ikkisin ham fikri tiniqdir.
Bu undan oqildir, u bundan oqil,
Ikkisi ham dono, sohibi aql.

**Valiahd**
*(Amirga)*
Oqil-ku oqildir, qaysi bir axmoq
O‘zini olovga otadi bundoq?

**Amir**
Maqsadlari nima?

**Zohid**
Aziz hukmdor,
Ular-chun na mahzab, na e’tiqod bor.

**Luqmon**
Har kimning ishonchi — dinidir uning,
Ishonchi turfadir inson naslining.

**Amir**
Bizga kerak emas o‘zga iymonlar,.
Islomning bir yo‘li, bir mazhabi bor.

**Zohid**
Biz ham yo‘lchisimiz shu yo‘lning.

**Amir**
Yetar!
Bu shahri azimda yo‘qmi bir nafar
Kimsa, Nasimiyni tanigan, ko‘rgan?

**Zohid**
U — Shirvon ahlidir, surishtirganman,
Shayton uyasidan chiqqan qavmlar,
G‘alati maxluqdir ular, hukmdor.
Ulardan so‘z olish mushkuldir o‘zi,

Ulardan ko‘r bo‘ldi shahrimiz ko‘zi.
Shayx Fazlulloh loyiq tavqi la’natga,
Uning muridlari bu mamlakatga
Keltirdi shu balo — xurufiylikni,
Ost-ust etdilar, o‘lkada dinni.

**Amir**
Zohid, gapirganda, sal o‘ylab gapir,
Bizning shu Luqmon ham Shirvon ahlidir.

**Luqmon**
Zohid to‘g‘ri aytar... Men ranjimayman,
Bilganga dars berar bugun bilmagan!

**Amir**
Bir shoir shunchalar gangitdi bizni.
*(Luqmonga)*
Sen ham tanirmiding u mazhabsizni?

**Luqmon**
Yo‘q-yo‘q, tanimayman... Axir vatandan
Go‘daklik chog‘imda ayru tushganman.

**Amir**
Bas, endi ne qildik?

**Vazir**
Ulug‘ hukmdor,
Agar xo‘p desangiz, bir taklifim bor.
*(Egilib, Amirning qulog‘iga shivirlaydi.)*

**Valiahd**
Podsho otam, sizdan izn so‘rayman,
Men ham bir yaqindan ko‘rsam ularni,
Haqni nohaq degan u shaytonlarni.

**Amir**
Mayli, rozi bo‘ldim bu taklifga men
Mutlaq Nasimiydir ulardan biri,
Uni topish kerak...

**Zohid**
Lekin boshqasi
Yana-da qo‘rqinchdir, bunga aminman,
Nasimiy oti-la o‘limga borgan
Undan omonsizdir...

**Vazir**
Zohid to‘g‘ri der.

**Amir**
So‘zim yo‘q. Boringiz.

*Hamma tarqaladi. Vazir bilan Amir qoladi.*

Raqqosa kelsin!
Vazir, ikkimizga majlis tuzilsin.
Qo‘l uzib, dunyoning tashvishlaridan
Yashamoq istayman farog‘atda.

## TO‘RTINCHI KO‘RINISH

*Zindon. Mahbuslar birgalashib qo‘shiq aytmoqdalar.*

*Xor*
Alloh otli ulviyatni
O‘z qalbingda ko‘r, degaymiz.
U qudratni, u hikmatni
Ko‘rmaganni ko‘r, degaymiz...
*Yakka ovoz*
Haq yo‘lining jafosini
Chekkanlarni er degaymiz.
“Allohu akbar”-la yana,
“Inson-u akbar” degaymiz.
Qalbimizdan shu dunyoga
Yo‘l ochgaymiz, yo‘l ochgaymiz.
Idrok ila yo‘l o‘tganni,
Jaholatni tark etganni,
O‘zini anglab yetganni
Pir degaymiz, pir degaymiz...

*Navkarlar ikki Nasimiyni haydab kirishadi. Zindon soqchisi ularni zindonga soladi.*

**Soqchi**
Hay, jim!.. Bu ne qo‘shiqdir?

**Subhon**
Qo‘shiq emas, duodir.

**Rahmon**
Yerdan qo‘l uzilganda
Umid — faqat Allohdir.

**Subhon**
Nega buncha taraddud,
Nega bu chilchiroqdir?

**Soqchi**
A’lo hazrat Valiahd
O‘zi bu kun zindonga
Tashrif buyurajakdir.

**2-Nasimiy**
Xush ko‘rdik.

**Rahmon**
Salom bo‘lsin ikki yangi o‘rtoqqa.

**Subhon**

*(Nasimiylarni bir-bir ko‘zdan kechirib)*

Magar ilm ahlisiz, o‘ting yuqoriroqqa.

**1-Nasimiy**
Hamma barobarmasmi?
Insonga ziynat bergan joymi, idrok emasmi?

**Karomat**
O‘lay, bizning odamdir.

**Rahmon**
Bunda bizning odamdan boshqasiga ne gap bor?

*(1-Nasimiyga yuzlanib)*
Sizni nega tutdilar?

**1-Nasimiy**
Fikrladik, o‘yladik.

**Rahmon**
O‘yla-ya, o‘yla!.. Ajab, fikrlash ham yasoqdir?

**1-Nasimiy**
Derlarki, o‘z-o‘zingcha fikrlashing chatoqdir.

**Subhon**
Bas, unda ne yo‘sinda o‘ylash, fikrlash lozim?

**2-Nasimiy**
O‘z idroking so‘ndirish, o‘z fikringdan yuz burish,
Hokimiyat egasi nima deb o‘ylamasin,
Uning fikriga kirish!

**Rahmon**
Demak, siz o‘zingizcha o‘ylab, fikr qildingiz,
Aqldan balo chiqib, gunohkor ham bo‘ldingiz?

**Shoir**
Biznikidan buyukdir demak sening gunohing,
Sizni xalos etmoqqa kuchi yetmas Allohning.
O‘zicha fikrlagan ajrata bilur har on:
Nima chin, nima yolg‘on.
Bu yoqmaydi hech qachon haqiqatdan chekingan
Buyuk yolg‘onchilarga.
O‘lkani ichdan turib buzgan talonchilarga.

**Rahmon**

*(Bir burchakka siqilib, jimgina o‘ltirgan mahbusni ko‘rsatib)*

Demak, unda bu o‘g‘lon topmish haqning yo‘lini,
Gapirtira olmadik shu paytgacha biz uni.

Oting nimadir, desam,
Og‘iz ochib, churq etmas,
Otini ham unutgan, laqabi — Indamasdir.

**Shoir**
So‘zlashim o‘rganar bir yilda inson,
Ammo jim turishni esa — bir umr.
Uyquda gapirib, zindonga tushdi,
O‘ngida gapirib, jinnimidir ul?

**Karomat**
*(Indamasni ko‘rsatib)*
Bu atay gapirmas, tili bor ammo.
*(Soqovni ko‘rsatib)*
Bu esa onadan soqov tug‘ilmish,
Bitta badbaxt bo‘lib dunyoga kelmish.

**Rahmon**
Badbaxt? Aytganingni anglaysanmi sen?
U xushbaxt yaralmish har birimizdan.
Sening tiling bo‘lib, qaysi dardingni
Ayta olding? Jimsan bir soqov kabi.
Tiling bo‘lib, dardni ichga yutgandan,
Gung bo‘lib yurganing afzal emasmi?

**Karomat**
*(Soqovni ko‘rsatib)*
Jinim hech sevmaydi shuni, to‘g‘risi,
Qo‘lim qichiyapti, bir ursammikan?

**Rahmon**
Qo‘ysangchi! Gunohi nimadir uning?

**Karomat**
Uning gunohidir — gunohsizligi,

**Rahmon**
Unda biz hammamiz — gunohsizlarmiz.

**Subhon**
Zindonlar ichida mudom bizlarmiz.

**Rahmon**
Zamonning kundalik taloshlarida
Bilmaysan, haq qayda, harom qaydadir.
Yirik gunohkorlar lazzat ichinda,
Kichik gunohkorlar zindonlardadir.

**2-Nasimiy**
*(1-Nasimiyga)*
Eshitdingmi? Endi anglagandirsan?
Nasimiy yo‘lida o‘zga kimsaning
O‘limga borishi — gunoh naqadar,
Bu yo‘lni xalq o‘zi qo‘llar, yashatar.

**1-Nasimiy**
Ko‘raman, og‘ayni, amalimiz bir,
Ammo aniqlaylik: Nasimiy kimdir?
Senmisan yo menmi?

**2-Nasimiy**
Niyatingdan kech!
Ey mening qardoshim va fikrdoshim,
So‘yla, nega kerak bu tortishuvlar?
O‘zing haqiqatni bilasan tugal.

**1-Nasimiy**
Bilganim budirki, Nasimiy menman.

**2-Nasimiy**
Bas, unda men kimman?

**1-Nasimiy**
O‘zingdan so‘ra.

**Shoir**
Nasimiy? Ishonmoq qiyindir.

**Karomat**
Nega?

**Shoir**
Qo‘l yetmas, ko‘z yetmas u buyuklikka.

**1-Nasimiy**
Kel, shu mushuk-sichqon o‘ynashni bas qil.

**Rahmon**
She’r o‘g‘risini eshitgandim ko‘p,
Shoir o‘g‘risin ham ko‘rdim har tugul.

**Karomat**
Qaysi biri o‘g‘ri, qay biri to‘g‘ri?
Ko‘rsat, bir tushiray!

**Rahmon**
*(O‘z-o‘ziga)*
Udir yo budir?

**1-Nasimiy**
*(2-Nasimiyga)*
Aytchi, qayerliksan?

**2-Nasimiy**
Nahot, bilmasang
Nasimiy Shirvoniy qaydanligini?

**1-Nasimiy**
Yetar!

**2-Nasimiy**
Bir maqsading meni o‘limdan
Xalos etmoq erur, men tushunaman.
Ammo shuni bilki, sadaqa hayot
Men uchun o‘limdan og‘irdir, hayhot!

**1-Nasimiy**
Yalinib so‘rayman, boqiy so‘zim shul,
Bo‘yla qaysarlikni qo‘y endi, bas qil.

**2-Nasimiy**
Yigit, shuni bilki, to‘lgan to‘kilar,
Qancha yashamasin zulm dunyoda.
Nasimiy yo‘lida o‘lguvchilar bor,
Yo‘qdir Nasimiyga o‘lim dunyoda!

**Subhon**
Bu o‘lim talashib, tortishuvlardan
Men aql-u hushimni yo‘qotdim chindan.

**Rahmon**
Aql degan o‘zi bormidi senda,
Ki uni yo‘qotib qo‘ysang shu palla?

**1-Nasimiy**
Men o‘z Allohimga yetib olganman,
Unga idrokimdan yo‘l ham solganman,
Sen esa...

**2-Nasimiy**
Davom et.

**1-Nasimiy**
Sen uchun hali
Ko‘raman, majhuldir yuksalish yo‘li.

**2-Nasimiy**
Unda-chi, birodar, aytib ber menga,
Allohga yetishning ne emish yo‘li?

**1-Nasimiy**
Idrokda yo‘l ochmish kechadan kunduza Alloh,
Kuldirmasang o‘z ko‘ngligni, kulmas yuza Alloh.
Dunyoga shafaqlar kabi Tangrim taralibdir,
Qalbing ko‘zi ko‘r ersa, ko‘rinmas ko‘za Alloh.

**2-Nasimiy**
Alloh! Bilamiz, jism emas, bas nadir Alloh!

**1-Nasimiy**
Eng yuksak o‘shal haqda, haqiqatdadir Alloh,
Lol etsa seni turfa go‘zallik va malohat,
Bilgil, bu taajjubda, bu hayratdadir Alloh.

**2-Nasimiy**
Inson ne emish?

**1-Nasimiy**
Sirlidir insondagi qudrat,
Har kim uni fahm etmasa, ojizdir ul albat,
Insonning azal burchidir insonga muhabbat,
Insonga muruvvatda, muhabbatdadir Alloh.

**2-Nasimiy**
Vahdat ne demak?

**1-Nasimiy**
Tilsim erur zarrada vahdat,
Bir zarra ekan,gulga qovushmoq anga niyat.
Ko‘rganlarimiz zohiridir, botini boshqa,
Botindagi, javhardagi fitratdadir Alloh.

**2-Nasimiy**
Bas, so‘z nimadir?

**1-Nasimiy**
So‘z amali, so‘z yuki — fikrim,
Ong birla tasavvur ko‘kining yulduzi-fikrim,
Men — bitta og‘och, barglari — so‘z,
ildizi — fikrim,
So‘zlarda emas, so‘zdagi hikmatdadir Alloh.

**2-Nasimiy**
Bas, zulm nadir?

**1-Nasimiy**
Sen yaralishdan beri toqsan,
Qudrat sharafing bir kuni anglab yetajaksan,
Gar zulm yuziga haq degan tarsaki solsang,
Zarbingda muhrlanmish u shiddatdadir Alloh.
Johil kishi dunyoni ko‘rib, qalbini ko‘rmas,
Vijdonidan ul ayru tushib, nafsini qo‘ymas,
Zulmatda, jaholatda, adovatda ko‘rinmas,
Nomusda, sadoqatda, adolatdadir Alloh.

**2-Nasimiy**
So‘ng maqsad “Anal-haq”mi?

**1-Nasimiy**
Tilak so‘z bila kelmas,
Eng yuksak o‘shal cho‘qqini mutlaq deya bo‘lmas,
Bir poyaga chiqqanda “Anal-haq” deya bo‘lmas,
Yuksakka yetishmoqdagi niyatdadir Alloh.

*(Rahmon boshini changallaydi.)*

**Rahmon**
Valloh, bu so‘zlardan yorilar boshim...

**Subhon**
Nechun yorilarkan bo‘lmasa boshing?

**Shakkok**
O‘ng josus, so‘l josus, og‘ang ham josus.

**Rahmon**
Yashamoq istasang, ochmagil og‘iz.

**1-Nasimiy**
Do‘stim, kechadir suhbat-u so‘z xush sening-la,
Endi senga bir bo‘yla savol bor, uni tingla.
Idrok-ku o‘zi poyadir ulviyatu ishqning,
Har orzu-yu, har maqsad-u, har niyat-u ishqning
So‘ng sarhadi, so‘ng nuqtasi yo‘qmi?
Uchgancha ucharmiz, uning eng cho‘qqisi yo‘qmi?

**2-Nasimiy**
Idrok ila qalbingga nazar sol,
Qalbing o‘zi ko‘kdan-da terandir.
Ko‘klar ko‘rinur, ammo ko‘rinmas anga poyon,
Ruhing-ku ko‘rinmas esa, qaydan anga poyon?
Qalbingga qara,
Bir xabar ol, ko‘r, nadir inson?
Gar boqmasa ko‘ngilga, jaholatdadir inson.

**1-Nasimiy**
Qalbing sasi bir, niyati mingdir.

**2-Nasimiy**
Yolg‘iz, shu sababli u samodan-da terandir.

**1-Nasimiy**
O‘z nafsiga gar banda esa, bas, nadir inson?

**2-Nasimiy**
Dunyosiga dunyocha xiyonatdadir inson.
Mast bo‘lsa-da past bo‘lmadi haq otli sharobda,
Yo‘q zarra g‘araz xatti haqiqat — u kitobda,
O‘z nafsiga qul bo‘lsa — jahannamda, azobda,
O‘z nafsiga qul bo‘lmasa, jannatdadir inson.

Dunyoga qara, umr degan o‘zi ne narsa?
Er ul kishikim, qalbiga maydon tilar ersa,
Ruhini qo‘yib, jismiga qulluq qilar ersa,
Shaytoni lain ahliga minnatdadir inson.

**1-Nasimiy**
Bas, ishq nimadir?

**2-Nasimiy**
Oh, ne desam, ishq yengilmas.
Vasl ichra kular kimsani oshufta deyilmas,
Inson degani vasl ila inson bo‘la bilmas,
Mehnatda, mashaqqatda va hasratdadir inson.

O‘z dardiga qovrulsa, fazilatdadir inson,
Ham aks ila, ham zid ila vahdatdadir inson.

**Rahmon**
Bas, shunchaki komil esa inson,
Olchoqligi, yaltoqligi qaydan?

**2-Nasimiy**
Insonni ko‘targusi ulug‘ ishq, diyonat,
Tubanga otar... qo‘rquv, xiyonat.
Biz qo‘rqsak agar o‘lim, ajaldan,
Insonligimiz ketgusi qo‘ldan.
Gar qo‘rqsa zulmdan o‘zi haqdan kechar inson,
Zulm ahliga bir qul kabi xizmat etar inson.

**1-Nasimiy**
Fikringga muvofiq tushadir fikrim,
Ammo o‘zgarmadi, o‘shadir fikrim...

*Valiahd kiradi. U Birinchi va Ikkinchi Nasimiylarga tikilib qaraydi.*

**Shakkok**
Sizga, oz gapiring, dedim-ku axir,
Mana, valiahd ham shu yerda hozir.

**Valiahd**
Halloji Musodir bu yigit, tolega afsus,
Maydon ochib erdi kecha u, endi-chi — mahbus.

*Valiahd mahbuslarga yaqinlashadi, 1-Nasimiy o‘zini burchakka oladi.*

**Valiahd**
*(Rahmonga)*
Menga qara, ey o‘g‘lon,
Nega sen zindondasan?

**Rahmon**
Pora olganman.

**Valiahd**
Nega?

**Rahmon**
Ajab, birinchi marta so‘rashar, “nega”sini,
Nega pora oldimmi? Albatta, sababi bor.

**Valiahd**
Sababini ayt menga.

**Rahmon**
Bir oz noqulayroqda.

**Valiahd**
Qulaymi, noqulaymi, aytaver, bilmoqchiman.

**Subhon**
Hokim bo‘lsang, o‘shanda barin bilib olasan.

**Valiahd**
Men hozir bilmoqchiman.

**Rahmon**
Ochiq aytaymi?

**Valiahd**
Ochiq!

**Rahmon**
Ko‘rganing bordir: baliq
Boshidan sasir avval.
Ammo dumidan tutib so‘yarlar u sho‘rlikni.
Mana shundan boshlanar hayotning nomardligi,
Gunohkordir dunyoda urilgan ham, urgan ham,
Mendan pora so‘raydi mendan baland turgan ham.
Poraga yetishmaydi mening halol topganim,
Olmasam, ne beraman.

**Valiahd**
Sen olma ham, berma ham.

**Rahmon**
Bo‘lmas!

**Valiahd**
Nega?

**Rahmon**
Ber, deydi!
Undan baland turgan ham undan pora so‘raydi.
Meni bunda qo‘ymishki, pora beraman unga,
U ham olib uzatar o‘zidan ham tepaga.
“Uzat-uzat” o‘yin bu... Bizga qolar alami,
Oluvchi bo‘lmaganda beruvchi ham bo‘lmasdi.
*(Valiahd o‘yga cho‘madi)*

**Valiahd**
Bundan chiqdi, buyurtda yashamoqning yo‘lidir:
O‘g‘rilik ham, pora ham.
Demak, bu mamlakatda yo‘qdir halol bir odam!
*(Karomatga yaqinlashadi)*
Seni nega qamashdi?

**Karomat**
Yashash jonimga tegdi.
*(Sukut)*
Qishloq oqsoqolining qulog‘in kesib oldim.

**Valiahd**
Nega kesding?

**Karomat**
Negaki,
Hosilning ko‘p qismini olmoq bo‘ldi “o‘lpon” deb.
Meni yalinib-yolvorib, rahm ayla, desam, kuldi,
Bola-chaqam oldida meni urmoqchi bo‘ldi...

**Valiahd**
Shikoyat qilmadingmi?

**Karomat**
Kimga?

**Valiahd**
Undan balandda
Yo‘qmi, axir, biror kas?

**Karomat**
Bor! Ammo masaldirkim: qilich o‘zini kesmas.
*(Valiahd Shakkokga yaqinlashadi)*

**Valiahd**
Sening gunohing nima?

**Shakkok**
Mendan shubhalandilar,
Go‘yo jinni emishman.
Aslida-chi men o‘zim
Hammadan shubhadaman.

**Valiahd**
*(Shoirga yaqinlashib)*
Sening gunohing...
*(Shoirni taniydi)*
Shoir?
Voy, sen ham shundamisan?

**Shoir**
Qayda bo‘lardim tag‘in?

**Subhon**
Bu gap to‘g‘ridir bisyor.

**Shoir**
Taajjubi shundakim,
Bu zindon hujrasida,
Valiahdga ne gap bor?

**Valiahd**
Men... Men...

**Shoir**
Balki kelmishsan, bizga najot bermoqqa?
Yo‘q, kelmishsan bu yerda hukmingni yurgizmoqqa.
Bas, shusiz ham ma’lumdir, ayon erur hammasi,
Xushbaxtlarga yetishmas badbaxtlarning nolasi.

**Rahmon**
*(Shoirga)*
Tiriklar holva yer deb o‘ylar emish o‘liklar,
Erkin-ozod yurganlar chindan ozodmi magar?

**Shoir**
Balki, haq gapni aytding, anglayman bu tamizni,
Biz-ku ayta olarmiz yurakdagi har so‘zni.
Erkin-ozod yurganlar bundan-da marhumdirlar,
Ular — zulm qo‘lida bamisoli mumdirlar.
Biz — zindon zulmatida vijdon yog‘dusidirmiz,
Zindon mahbusi emas, fikr mahbusidirmiz...

*Valiahd yana o‘yga cho‘madi. Chiroq o‘chadi, uning shu’lasi yolg‘iz Valiahdning yuzini yoritadi. Uning ko‘zlariga Zohid o‘g‘li Diyonat ko‘rinadi.*

**Valiahd**
Demak, shunday...

**Diyonat**
Xo‘sh, nima? Eshitdingmi? Lol qolding.
*(Sukut)*
Yana o‘ylarga tolding.
Yuqoridan boqarding hayotga sen hamisha,
Bu zindonda endi sen
Hayotning qa’ridasan.
Ko‘rding, bilding, anglading,
O‘lik eding... Tirilding...

**Valiahd**
Bilmasam erdi koshki,
Ichimda kurash ketar, shunday og‘ir savashki...

**Diyonat**
Ko‘ramanki, yonarsan,
Ammo ne ilojing bor, bilganingdan tonarsan.
Zamonga boq, zamonga,
Endi anglab yetishning azobi bor insonga.

*(Zohid o‘g‘li g‘oyib bo‘ladi. Valiahd soqchini chaqiradi.)*

**Valiahd**
Soqchi!

*(1-Nasimiyni ko‘rsatadi)*

Mana bu qolsin.
Qolgan mahbuslarni sen ko‘chir boshqa zindonga.

*(2-Nasimiyni ko‘rsatib)*

Buni bir hujraga sol,
Ayricha.

**Soqchi**
Bosh ustiga!

**2-Nasimiy**
Shahzodam, sabr qiling,
Sizga arzim bor...

**Valiahd**
So‘yla.

**2-Nasimiy**
U — Nasimiy emas, yo‘q...

**Valiahd**
Biz ham bilamiz buni,
Bilamiz hatto uning aslida kimligini.

*2-Nasimiy va mahbuslar chiqishadi. Soqov o'zini yon tomondagi hujraga uradi. Buni ko'rgan Rahmon boshqa bir hujraga yashirinadi.*

Ochiq gaplashaylik: sen — hallojiysan,
U esa — Nasimiy.

**1-Nasimiy**
Durust.

**Valiahd**
Ne uchun
Sen uning o'rniga o'lmoqchi bo'lding?

**1-Nasimiy**
Sen uchun Diyonat — u Zohid o'g'li
O'limga borganda qasdi ne edi?
Do'stlik deb o'zini o'limga bergan
Bir Zohid o'g'licha emasmanmi men?

**Valiahd**
Men qo'lingga tushganda
Aytchi, ne uchun meni shu zahot o'ldirmading?
Magarki, o'limga ham meni loyiq ko'rmading?

**1-Nasimiy**
Magar o'shandan beri sen bir qahramondirsan?
O'lmay qolganingga ham balki pushaymondirsan?

**Valiahd**
Yo'q, sendan minnatdorman,
Toki tirik ekanman, xizmatingga tayyorman.
Toleimga ming shukur,
Qarzimni qaytarmoqqa
Imkoniyat o'ng kelib, turibman hozir-nozir.

**1-Nasimiy**
Xo'sh, niyating nimadir?

**Valiahd**
O‘limdan tuban sanab,
Meni sen o‘ldirmading.
Men-chi, seni o‘limdan juda yuksak sanarman,
Sening buyukligingni o‘limdan qizg‘anarman.
Xallojiy ekanliging yolg‘iz men bilaman, men!
Buni tamom sir tutib qoningga tashnalardan,
Seni xalos etmoqqa tayyorman.

**1-Nasimiy**
Ishonmasman.

**Valiahd**
Nega?

**1-Nasimiy**
Amir o‘g‘lini bunga qodir demasman.

**Valiahd**
Marhamat, sen ozodsan...
*(Qo‘lidan tutib, tashqariga yetaklaydi)*
Qani, chiq...
1-Nasimiy qimirlamaydi.

**1-Nasimiy**
Xo‘sh, shoir-chi?

**Valiahd**
Shoir... hmm... o‘lajakdir.
Sen-chi yo‘q... Yaxshilikka yaxshilik etish ila
Javob berilajakdir.
*(1-Nasimiy kuladi)*
Nega kulasan?

**1-Nasimiy**
Senga —
Kulmayin naylayin men?
O‘lim saltanatiga

Qo‘l cho‘zgan bir insonga
Go‘yoki shu yo‘l bilan yaxshilik etmoqchisan.
Qarzingni qaytarma, qo‘y;
Men yuksak bir poyaga chiqmoqchiman, sen meni
U taxtdan ag‘darma, qo‘y...

**Valiahd**
Ayt-chi, shu dunyoga sen o‘zingcha kelganmisan,
Ki istagan mahalda
O‘zing uni tark etsang?

**1-Nasimiy**
Yo‘q, u buyuk insonning yashamog‘i yo‘lida
O‘lim — hayotdir menga!

**Valiahd**
O‘z hayoti o‘ziga qimmatli bo‘lmagan kas
Valloh, o‘zga inson deb ko‘z yoshi ham to‘kolmas.

**1-Nasimiy**
Hayot — a’mol uchundir, sen-chi bu haqiqatni
Anglamay, rad etasan.

**Valiahd**
Sen-ku o‘limni yuksak bir martaba sanarsan,
O‘limga mahkumsan-ku axir bir hallojiydak.
Nasimiyning nomi-la o‘lmoq senga ne kerak?
Nega o‘lmoqchimassan o‘z noming bilan, nega?

**1-Nasimiy**
Bu murakkab nuqtani qanday anglatay senga?
Axir, yuksak sanalmas bu dunyoda har o‘lim.
Haqiqatga qovushgan bir o‘lim bor, bir o‘lim:
Mutlaq abadiyatdir —
“Mutlaq ishq”ning yo‘lida jom kabi to‘lar bo‘lsang,
Nasimiydek Allohning yo‘lida o‘lar bo‘lsang!
Agar shu muddaoni bajarolsam, unda men —
Uni asrab qolurman bir bemahal o‘limdan!

**Valiahd**
Haqiqatga yetmoqning yo‘li agar shu bo‘lsa,
Nasimiyning nomi-la bu dunyodan ko‘z yummoq —
Yuksak martaba esa,
Tushunmayman seni men,
Nega mahrum etarsan Nasimiyning o‘zini
Shunday buyuk sharafdan?
Bu xudbinlik bo‘lmasdan, nimadir, o‘zing so‘yla?

**1-Nasimiy**
Nasimiydek o‘lishdan uning yo‘lida o‘lmoq —
Menga buyuk saodat.

**Valiahd**
Yaxshi, aytganlaringga mayli, biz rozi bo‘ldik.
Aslida kimligingni bu dunyoda shu soat
Mendan o‘zgasi bilmas.
Lekin u dunyoda-chi, seni yaxshi bilishar.
Bundan chiqdimi, oshnam,
Hattoki Allohni ham
Aldamoqchisan magar?

**1-Nasimiy**
Kulguli bu gapni qo‘y,
Alloh menda yasharkan.
O‘zimni aldamoqqa nechuk ehtiyoj bo‘lsin?
Ha, aldamoq istayman yolg‘iz shu dunyoni men.

**Valiahd**
Agar eplolmasang-chi?

**1-Nasimiy**
Sen ko‘maklash, madad ber!

**Valiahd**
Aldamoqqa undarmi magar sizning tariqat?

**1-Nasimiy**
Nasimiyni o‘ldirgan haqiqatdan, chin so‘zdan
Ming-ming marta afzaldir uni yashatgan yolg‘on.
Jamoamiz yengilgach,
Nasimiy she’rlarini
Tilimda takror etib,
Qadam-qadam kezdim men o‘lkalarni, ellarni.
Uning so‘zlari bilan
Yoritdim lahza-lahza qorong‘u ko‘ngillarni.
She’r aytib, qilich sirmab, solishdim men damo dam,
Amalimga, ishqimga berdim kuchimni har dam.
Ortiq ado ayladim vazifamni dunyoda,
Bundan keyin manim-chun yashamoqdan ne foyda?

**Valiahd**
Men har holda tushundim, endi bir o‘tinch senga,
O‘limdan qo‘rqmaslikning sirini anglat menga.

**1-Nasimiy**
Bu dunyoda hayotdan azizroq narsalar bor,
Bu nuqtaga yetmagan so‘zimni nechuk anglar?

**Valiahd**
Ayt, u nuqta nimadir?

**1-Nasimiy**
Ishqqa yetmaganlarga bu nuqta — afsonadir!

**Valiahd**
Hayotdan aziz bo‘lgan bir narsani bilmasman.

**1-Nasimiy**
Nechun yashayotganing anglab yetmaganingdan
O‘limning o‘z o‘rnida zarurat ekanligin
Anglash senga qiyindir.
Hayotni anglaganning o‘z nafasi, o‘z umri
O‘ziniki emasdir.
Bilsang, u hayot endi — muhabbatning mulkidir.

Men ham shu muhabbatning, shu a'molning quliman,
O'lsam agar shu yo'lda — ulug' bo'lib o'laman.

**Valiahd**
Axir, mening yuragim tosh emas-ku har qalay,
Menga hayot baxsh etgan bir odamning qatliga
Nechuk ijozat beray?

**1-Nasimiy**
Unda har ikkimizga: ham unga, hamda menga
Najot baxsh eta olsang, roziman aytganingga.

**Valiahd**
Yo'q, faqat bittangizni...

**1-Nasimiy**
Unda-chi, qutqar uni!
Bu bilan menga butkul qaytarasan qarzingni.

**Valiahd**
Yolboraman men senga,
Yolboraman shu buyuk ishqingga, imoningga.
Qo'llarimni botirma —
Mening xaloskorimning qoniga, qoning bo'lsin,
Senki inson o'g'lisan, bir oz vijdoning bo'lsin!

**1-Nasimiy**
Yo'q!

**Valiahd**
Inson shaklida yurgan iblis ekansan, iblis,
Sen — qudratli, men — ojiz.
Ko'nglingdagi bir fikr qalbingni bo'g'ovladi,
Insofingni ovladi.
Men — Allohning bandasi, sen — iblisning avlodi!..
*(Tiz cho'kib, qo'llarini ko'kka ko'taradi).*
Nega ojiz yaratding meni, yo Rab, sen nega?
Ko'zlarimni bekitding haqiqatga, sevgiga!

Nega qudrat bermading?
Saroy ostonasidan narigi go‘shalarni
Nega sen ko‘rsatmading?
Dunyo bildim saroyni, bilsam, dunyo keng ekan,
Dunyoning o‘zi qadar murakkab avlodini
Anglamoq qiyin ekan!
O‘zing madad ber menga, ko‘zlarimni och butkul
Yaxshi-yomonga, yo Rab!
Nechuk o‘lim baxsh etay menga hayot baxsh etgan
Bo‘yla shaytonga, yo Rab?

**1-Nasimiy**
Ey sho‘rlik! Bilarmisan mashaqqat soatida
Allohning madadiga sig‘inmoq ne demakdir?
Bu — o‘zingga ishonmay, ishtiboh aylamakdir.
Seni xalos etganda men umid aylagandim
Saboq olarsan, deya, sen u mudhish tuyg‘udan...
E voh, men adashibman! Avvalgicha qolibsan:
Men o‘lim eshigida turarkanman bu zamon,
Yana arosatdasan.

**Valiahd**
Unda mening o‘rnimga qurbon bo‘ldi Diyonat,
Jim turdim... Bu xiyonat —
Ko‘ksimga otilgan o‘q.
U eski azoblardan xalos bo‘lshganimcha yo‘q.
Nechuk yana jon beray?
Nasimiyning o‘rniga seni qatl etmoqqa
Men nechuk farmon beray?
Mushkuldir bu!
Qo‘rqaman —
Allohning g‘azabidan!

**1-Nasimiy**
Netarding Zohid o‘g‘li agar qayta tirilsa?

**Valiahd**
Yo‘q, bu mumkin emasdir.

**1-Nasimiy**
Agar mumkin bo‘lsa-chi?

**Valiahd**
Men unga o‘z umrimni bag‘ishlardim!

**1-Nasimiy**
Qasam ich!

**Valiahd**
*(Cho‘ntagidan “Qur’on” chiqarib)*
Men qasamyod aylagum Allohning kalomiga!

**1-Nasimiy**
Yaxshi! Endi qasam ich, meni Nasimiy deya,
Zohidga tanitmoqqa.
*(Sukut)*
Jim turma, bo‘l, qasam ich, Nasimiy o‘lmaydi, deb.

**Valiahd**
Qasamsiz bo‘lmaydimi?

**1-Nasimiy**
Yo‘q! Shoir yashasin deb
Men majburman bu ishga.

**Valiahd**
Yaxshi, men ont ichaman!

**1-Nasimiy**
Qo‘y, seni qo‘rqitmasin na shartlari, na ontim,
Sening azoblaringga ishondim men, ishondim.
Yana bir tilagim bor, agar qabul aylasang,
Luqmon bilan uchrashib, yolg‘iz gaplashsam deyman.

**Valiahd**
Nahot u ham...

**1-Nasimiy**
Yo‘q, aslo... O‘zga bir niyatim bor,
U el oqsoqolidir, unga vasiyatim bor.

**Valiahd**
Bo‘lmasa, yur, hoziroq uchrashtiray...

*(Valiahd bilan 1-Nasimiy ketishadi. Soqov yashiringan joyidan chiqadi.)*

**Soqov**
Ketishdi.
Bu hallojiy-yetmish ming, Nasimiy — yuz ming dinor,
Qandingni ur, ey soqov, tag‘in ne tilaging bor?
Hey, soqchi!

Soqchi kiradi.

**Soqchi**
Men hozirman.

**Soqov**
Bor, Zohidga xabar qil.

**Soqchi**
Qaysi biri Nasimiy?

**Soqov**
Bu xabarga xaridor senmisan yo Zohidmi?
O‘z haqidan kim kechar? Topibsan axmog‘ingni!

**Soqchi**
Yo‘q, men unda jinniman!
Sening foydangni ko‘zlab,
Zohidga choparmishman...
Bor, tushingni suvga ayt.

**Soqov**
Sen... Zohiddan olasan.

**Soqchi**
Zohiddan sen olasan.

**Soqov**

*(Bir tanga aqcha irg‘itib)*

Ma, ol, haroming bo‘lsin.

**Soqchi**

Bu oz...

**Soqov**

Eh, sen vijdonsiz!..

*(Yana bir tanga aqcha irg‘itadi)*

**Soqchi**

Bu dunyoda dinsizga bas keladi imonsiz...

*(Soqchi ketadi. Rahmon bekingan joyidan chiqadi.)*

**Rahmon**

Ey iblislar iblisi, boya soqov-lol eding,
Nega bizni aldading?

*(Hujralarni birin-birin ochib)*

Hoy, chiqinglar, chiqinglar!

**Subhon**

Nima gap? Xo‘sh?

**Rahmon**

Bunga boq,
Josus ekan bu olchoq!

**Shakkok**

Sizga aytmabmidim, hamma josus, deb,
Yashash istasangiz, ochmang og‘iz deb...

**Karomat**

Uraymi?

**Rahmon**

Ha, ur buni!
O‘ldir ko‘ppak o‘g‘lini!..

*("Inson-u akbar" qo'shig'ini aytib, mahbuslar Soqovni bo'g'adilar.)*

**Shoir**
Boshing gir aylanar bu mojarodan,
Yaxshilik-yomonlik! Bitta-ku bashar:
Ulug' Nasimiydek yuksalgan inson
Nega shu josusdek tubanga tushar?

*(Mahbuslar soqchining qo'llarini bog'lab, zindindon qochadilar.)*

## BESHINCHI KO'RINISH

Luqmonning uyi. Oypara bilan Diyonat bog'chadan chiqib kelishadi.

**Oypara**
Xayriyat, azobning keldi oxiri,
Agarchi bilsam-da tirikligingni,
Bor edi bag'rimda bir og'riq, alam,
Ignadek sanchilib turardi har dam.

**Diyonat**
Endi ishondingmi?

**Oypara**
Ishondim.

**Diyonat**
Shoshma,
Bir boqay, yashnabsan go'yoki bahor.
Senga yarashibdi shu moviy ko'ylak,
Axir moviy tusda samo rangi bor...

**Oypara**
Qo'ysangchi, samoning mendek qiz bilan
Qayda o'xshashligi?

**Diyonat**
Bexabarmisan?
Teransan, sirlisan sen ham ko‘k kabi,
Shu go‘zal asroring yondirar meni...

**Oypara**
Diyonat, bilarsan, buyuk sevgining
Qalbi ochiq bo‘lar, ko‘zlari bog‘li.
Na xush teran bo‘lsa, ko‘klardan teran
Ma’shuqa yuragi, oshiqning aqli...
Sening idrokingga bog‘landim tamom.

**Diyonat**
Sensan shu idrokni menga baxsh etgan
Bu sevgi o‘t bermish, so‘z bermish menga,
Dunyoni ko‘rishga ko‘z bermish menga.
Ishq ila aylanar oy-da, quyosh-da,
Borliq azal kuni yaralmish ishqdan.
Idrokim uchun ham, qalbim uchun ham
Shu buyuk ishqingga shukrona deyman.

**Oypara**
Ammo unutmaki, yuziga boqib,
Mahbubni hech qachon ta’riflamaslar.

**Diyonat**
O‘zni unutarmi?

**Oypara**
Balki...

**Diyonat**
Agarda
Qalbi teran esa samolar qadar,
To‘pig‘iga chiqmas maqtovlar uning.

**Oypara**
Har so‘zi tillodir Zohid o‘g‘lining.

*(Rahmon kiradi.)*

**Rahmon**
Assalom!

**Oypara**
Xush ko‘rdik!

**Rahmon**
Sen bo‘lmasayding,
Oypara, biz kimga chopardik? Zohid
Vaqtni o‘zgartirmish... Bu it o‘g‘li it...

**Diyonat**
Ne deding?

**Rahmon**
Kechirgil, bilmasdan aytib qo‘yibman,
Dadang ekanligin men unutibman...

**Diyonat**
Yaxshi!

**Rahmon**
Muso erta osilmoqchiydi.
Bilmadimki, kecha uyqusidami,
Har qalay, qarorni o‘zgartmish dadang.
Bugun osmoqchilar.

**Diyonat**
Yutqizdik demak.

**Rahmon**
Hali ma’lum emas, kurashmoq kerak.

*(Ketadilar)*

**Oypara**
Boring, toleingiz sizga yor bo‘lsin,
Tangri o‘zi sizga madadkor bo‘lsin.

*(Luqmon kiradi.)*

**Luqmon**
Yaxshimisan, qizim...

**Oypara**
Assalom, dada!
Ko‘rishdingizmi?

**Luqmon**
Ha, qizim, ko‘rishdim!
Zindondan kelishim hozir bu yerga,
Xushxabar keltirdim senga, xushxabar.

**Oypara**
Nechuk?

**Luqmon**
Ozmunchami, axir,kuydik g‘am yedik,
Diyonat o‘lmagan, Diyonat tirik.

*(Sukut)*

Hallojiy dediki, Diyonat ko‘pdan
Bizning e’tiqodga iymon keltirmish.
Bilsang, Valiahdni shu maqsad uchun
Diyonat u kun
Urush maydoniga — janggohga burmish...
Nega suyunmading?

*(Sukut)*

Senga ne bo‘ldi?
Gapirsangchi axir!

**Oypara**
Ko‘pdan bilardim...

**Luqmon**
Nimani bilarding?

**Oypara**
Bor gapni.

**Luqmon**
Nechun
Jim turding, otangga bir so‘z demading?

*(Sukut)*

Otasi Zohid-chi, bilarmi buni?
Bilarmi o‘g‘lining tirikligini?

**Oypara**
Yo‘q, bilmas.

**Luqmon**
Ochilar bir-bir tugunlar.

**Oypara**
Ota, bilasizmi, xuddi shu kunlar
Shu haqda siz bilan kengashmoqchiydik.
Aytsak, nima bo‘lur? U bir otadek
Yordam berarmikan o‘g‘liga?

**Luqmon**
Yo‘q-yo‘q!
“Shahid otasiman” deya faxr etar,
U qabul etarmi bu qabohatni?
Yo‘q, qabul etmoqqa yetmas jur’ati...

**Oypara**
Qo‘ying o‘zni uning o‘rniga bir on,
Siz kecharmidingiz avlodingizdan?

**Luqmon**
Har kimsa o‘zicha boqar hayotga.

**Oypara**
U esa — o‘g‘lini yo‘qotgan ota!

**Luqmon**
Diyonatning o‘zi, men tushunmayman,
Nega otasi-la ko‘rishmas ekan?

**Oypara**
U derki, otamda bor ul e'tiqod,
Bilsa xallojiyga qo'shilganimni.
Yuragi yorilar uning shu zahot,
Yaxshisi, bilmasin tirikligimni.

**Luqmon**
Ko'rdingmi, o qizim, dunyoda hech kas
Uni bolasidan yaxshiroq bilmas.
*(Sukut)*

**Oypara**
Ota, hallojiydan gapiring picha...

**Luqmon**
Qizim, qancha desang, oz erur shuncha.
U tushib dunyoning qil-u qoliga,
Umrini baxsh etmish o'z a'moliga.
Bugun viqor ila u buyuk inson
Nasimiy yo'lida taslim etar jon...
Cholpopoq kiradi.
*Cholpopoq*
Assalom, el o'g'li!

**Luqmon**
Xush ko'rdik seni.
*(Ko'rishadilar)*

**Cholpopoq**
Ha, tanimadingmi?

**Luqmon**
Hech ziyoni yo'q,
Bu uyning eshigi hammaga ochiq.

**Cholpopoq**
Malham qishlog'idan, ismim Cholpopoq

**Luqmon**
Ha, endi tanidim... Voy, dunyoga boq!
Neki bergan bo‘lsa, bir-bir olarmish,
Dunyoning g‘alati o‘yini bormish...
*(Luqmon Cholpopoqni bag‘riga bosadi)*
Ancha o‘zgaribsan, tanimadim men.

**Cholpopoq**
Bormi bu dunyoda hech o‘zgarmagan?

**Luqmon**
Bu keksa lochinga, qizim, yaxshi boq,
Yoshlik qadrdonim mening Cholpopoq.
Og‘ayni, bu uyga xush kelding, buyur,
Kelgan yo‘llaringga qurbon bo‘lay men,
Xo‘sh, ishlaring qalay? Vatandan gapir!

**Cholpopoq**
Shayx Fazlulloh ketgach, Xo‘ja Shirvonning
Avvalgi shukuhi, fayzi qolmamish...

**Luqmon**
Men chiday olmadim bu musibatga
Va o‘zimni soldim bo‘yla g‘urbatga.
Kelishing tinchlikmi?

**Cholpopoq**
Bir o‘g‘lim bordi,
Sokin, yuvosh edi va beozordi.
Ekardi, yig‘ardi... Bir kun to‘satdan
O‘zgardi, qo‘shildi xurufiylarga.
Nasimiy savdosi tushdi boshiga,
Yot-begona bo‘ldi yor-yo‘ldoshiga.
Qishloqni tark etib, o‘tsa-da yillar
Nasimiy ishqi-la kezadi ellar...

**Luqmon**
O‘zingga tortibdi.

**Cholpopoq**
Balki shundoqdir,
Uni ayblamayman, bir payt xayollar
Meni ham uchirib ketmishdi baland.
Haq ishqi, haqiqat talabi bilan...
Endi, qayda o‘g‘lim, qayda deb sevinch.
Kezarman dunyoni qarichma-qarich.
Bursada duch keldim bir el o‘g‘liga.
Boshimdan kechganni so‘yladim unga.
Menga bu shaharni nishon berdi u,
Meni o‘g‘il dardi bu yon keltirdi.
Yolg‘iz Tural tushsa edi bu dardga,
Jinni bo‘lgan deya ishonardim men.
O‘g‘limni axtarib ko‘rdim har yonni,
Bu savdo chulg‘amish Ozarbayjonni,
Yuksalar kun sayin, ortar kun sayin...

**Luqmon**
Shu dard ila yashar bugun Halab-da,
Demak, bu talabdir, bir savdo emas,
Haqiqat yashaydi har bir talabda!

**Cholpopoq**
Shundoq bo‘lsa kerak.

**Luqmon**
O‘zgardi zamon.

**Cholpopoq**
Yordamlash, bolamni topay.

**Luqmon**
Ertaga
Bir odam qo‘shaman senga.

**Cholpopoq**
Tashakkur.

**Luqmon**
Mening mehmonimsan bugun, qani, yur.

*(Luqmon va Cholpopoq yon tomondagi bir xonaga kirishadi. Valiahd keladi.)*

**Oypara**
Valiahd, ne bo‘ldi?

**Valiahd**
Ne ham bo‘lardi?
Shuncha harakatim behuda ketdi.
Shunchalar urindim — bir ish chiqmadi.
U o‘lim vahmidan zarra qo‘rqmadi.
Bildim, u o‘ziga chin dushman ekan,
Men nima qilardim yolvormoq bilan?
Duo o‘qidilar — qabul etmadi,
Uch marta ketma-ket “Anal-haq” dedi.
Rozilik so‘rganday tikildi menga,
Keyin sirtmoq soldi o‘zi bo‘yniga.
Keyin... bir umrga nuqta qo‘yildi,
Shuurli bir inson yo‘q bo‘ldi, o‘ldi...

**Oypara**
Yo‘q, u yo‘q bo‘lmadi, “yo‘qu bor”nadir,
Yo‘qlik ham, borlik ham fikrimizdadir.
Aslida na “yo‘q” bor, na “bor” dunyoda,
Inson o‘z-o‘zini izlar dunyoda...

**Valiahd**
Zohid fatvo berdi qonun nomidan:
Osilib tursin deb, dor og‘ochida
Kofirning jasadi uch kecha-kunduz.

**Oypara**
Men hech tushunmayman, odamlar nechuk —
Bardosh berisharkan bo‘yla zillatga?
Men faqat hayronman bu jaholatga!

**Valiahd**
Jim bo‘l, eshitmayman, gapirma, karman
Musoning qatliga men sababkorman.
Yomg‘irdan qochgandim, qorga tutildim,
To‘rdan qochib, yana to‘rga tutildim...
*(O‘yga cho‘madi.)*
U nechuk insondir, men tushunmayman,
Qanday voz ketarkin inson umrdan?
Uning ham bizimdek yuragi bormi?
Insonda shunchalar qudrat bo‘larmi?
Menimcha, bundaylar har kun tug‘ilmas,
Har kun tug‘ilganda bu qudrat bo‘lmas.
O‘yla, boshdan-oyoq bir amaldi u,
Mening ham qalbimga larza soldi u...
*(To‘satdan Oyparaga o‘girilib)*
Yo‘q-yo‘q, ishonmayman “Anal-haq”qa men!
Allohga osiydir “Anal-haq” degan!
*(Yana sukut, yana o‘yga tolib)*
Ammo ulardagi ishqqa, jur’atga,
Ma’naviy qudratga va diyonatga
Men hayronlar qoldim... Bu ne demakdir?

**Oypara**
Allohni o‘zida his aylamakdir!

**Valiahd**
“Anal-haq” so‘zini takror etarkan,
U mening ko‘zimga tog‘dek tuyuldi...
Mening ko‘z o‘ngimda yuksalarkan u,
Buyuklar kichrayib, tuproqqa kirdi.
Men shunda angladim nadir jasorat!
Ma’naviy buyuklik, ma’naviy qudrat
Yuksaltirar ekan inson o‘g‘lini...

**Oypara**
Xuddi shu qudratdir yuksaltgan uni.

**Valiahd**
Men inson zotini hech tushunmayman,
Bu qudratni unga bermishmi Alloh?
Odamzod kuch yig‘ib o‘z qudratidan,
Yuksalib, yanada o‘sarmikin yo?

*Luqmon kiradi.*

**Luqmon**
Valiahd, azizim:

**Valiahd**
Assalom, ustoz,
Qayerda edingiz?

**Luqmon**
Muso-la ko‘rishdim... ammo na iloj,
Men u qabohatga boqa bilmadim.

*Diyonat bilan Rahmon kiradi. Valiahd Diyonatga diqqat bilan tikiladi.*

**Luqmon**
Diyonat!

**Diyonat**
Muallim!

**Luqmon**
Allohga shukur,
Seni ko‘rdim, to‘ldi ko‘zlarimga nur!...

**Valiahd**
Nima bu? Uyqumi yo haqiqatmi?
Bu — Diyonatmi?
Yoki bir bosiriq bosmoqda meni?

**Diyonat**
Yo‘q, bu — men, o‘zimman...

*(Valiahdga yaqinlashib)*

Afu et meni...
Sirimni u zamon aytolmadim men,
Ogoh etolmadim seni bu ishdan.
Aytib bo‘lmas edi unda bu so‘zni.

**Valiahd**
Ishonmayman... Yo‘q, bu o‘zidir, o‘zi!

**Diyonat**
Men unda, to‘g‘risi...

**Valiahd**
Shoshma, bir nafas!
Tangriga shukrki, sog‘-salomatsan.
*(Quchoqlashadilar)*

**Valiahd**
Endi ravshan bo‘ldi ko‘p ishlar menga,
Ammo ko‘p nuqtalar sirlidir yana...

**Diyonat**
Nechuk sir?
*(Sukut)*
Fikrli bir inson kabi,
Xurufiy yo‘liga mening maylimni
Magar bilmasmiding?

**Valiahd**
Bilardim, balli!
Lekin anglamasman, bu ishga endi
Yig‘lamoq kerakmi yoki kulishmi?
Xurufiy o‘larkan Zohid o‘g‘li-da,
Qayga borayapmiz, qayga, ey Xudo?

**Diyonat**
Xurufiy maslagi sevar Xudoni.

**Valiahd**
Bas, o‘sha Xudoga sevgingiz qani?

**Diyonat**
Insonga muhabbat bo‘lmagan joyda
Ollohga sig‘inmoq tamom befoyda.
Allohga yetishmoq yo‘lidir mangu
Inson yuragida gupurgan tuyg‘u.
Allohga muhabbat, unga itoat —
Insonga sevgidan boshlanur faqat.

**Luqmon**
Inson qudratiga shak keltirma sen,
Hech kim onasidan botir tug‘ilmas.
Ba’zida ko‘rsatgan shijoatidan
Balki o‘zining ham xabari bo‘lmas.

**Oypara**
Nasimiyni o‘qi... Uning har so‘zi
Oshib keta olur tog‘lardan nari.
Chorasiz o‘limga mahkumdir o‘zi,
Ammo abadiydir yaratganlari.
Alloh yaratgani inson-la gohi
Yuzma-yuz turadi, qaragil, hayhot:
Allohning asari — inson o‘ladi,
Insonning san’ati yashar umrbod!

**Valiahd**
Barhayot san’atni yaratgan inson
Alloh qarshisida burchlidir.

**Diyonat**
Shoshma!
Shu qadar insonga bormi, o‘zing ayt,
Zarra bir e’tibor bu mamlakatda?

**Valiahd**
Ne deyman? Sen bunda haqlisan butkul,
Taqdirning hukmiga chap berish mushkul.

**Diyonat**
Balli, yuksaklarga parvoz etarkan,
Yangidan yaratur o‘zini inson.

**Valiahd**
Demak, ham xoliqdir, ham maxluq inson?

**Diyonat**
Balli, ham borligu ham yo‘qlik — inson.

**Valiahd**
Mushkul masala bu, judayam g‘aliz,
Allohning yo‘lidan adashmaylik biz.

**Diyonat**
Allohning yo‘li ham xuddi shu yo‘ldir.

**Valiahd**
Yo‘q, odamzod o‘g‘li Allohga quldir,
Uning sharafidir Allohga qullik.

**Diyonat**
Allohning qullikka ehtiyoji yo‘q!

**Luqmon**
Alloh insonlarga tafakkur bermish,
Qudrat ato etmish, fahm etgaymiz.
Alloh insonlikni yaratmish, tokim
Biz ham yuksalgaymiz, unga yetgaymiz...
*(Rahmon kirib ularga quloq soladi.)*

**Valiahd**
Ey ustoz, vaqtida ne uchun sizdan
Bu sirli hikmatni eshitmadim men?

**Luqmon**
Ko‘p gaplar aytganman — yetmagan senga,
Aytganman, ey o‘g‘il, aytgayman yana:

Men na xurufiyman, na bir dindorman,
Qayda haqiqatdir — men shunda borman.
Yolg‘ondir, riyodir — mening dushmanim,
Yolg‘iz haqiqatdir — Allohim manim.
Shu idrok tufayli insondirmiz, bas,
Sen idrokka suyan, e’tiqodgamas!

**Valiahd**
Demak, hammangizda fikr bir emish,
Saroy bu o‘lkadan bexabar emish...

**Luqmon**
Na xush, yana ko‘rdim bir yerda sizni,
Seving va tushuning bir-biringizni.

**Diyonat**
Bir-birni tushunmoq qiyindir bir oz.

**Oypara**
Nega?

**Diyonat**
Suvlarimiz bir joydan oqmas...

**Rahmon**
Valiahd ariqni bir yoqqa bursa,
Bizga qo‘shiladi...

**Valiahd**
Men yo‘limni nari-beri burmasman.

**Diyonat**
U o‘z g‘ururini sira egmasdan,
Balolarga qoldi, bo‘yladir zamon.

**Valiahd**
Tanish ko‘rinadi menga bu o‘g‘lon
Ayt-chi, biz sen bilan qayda ko‘rishdik?

**Rahmon**
Biz o‘z tilimizdan tuzoqqa tushdik,
Qishloqi dehqonman, rostini aytsam.

**Valiahd**
Pora olishgayam ammo farangsan...

**Rahmon**
Valiahd, kechiring, bir oz ilgari
Eshitdik zindonga kelishingizni.
Istadik: ko‘raylik, sinaylik, qani,
Bormi xabaringiz o‘lkangizdagi —
Qabohat ishlardan... Shu niyat bilan
Yolg‘ondan dedimki, men poraxo‘rman...

**Valiahd**
Xulosa?

**Rahmon**
Ko‘rdikki, bexabardirsiz,
Hali boshlanmagan hayot darsingiz.

**Valiahd**
Boshlandi... Shoshmay tur... Ko‘raman hali...
Ortga ham qarayman...

**Luqmon**
Maqsadga endi
Ko‘chsak, yaxshi edi.

**Valiahd**
Marhamat.

**Luqmon**
O‘g‘lim!..

**Valiahd**
Uzr, boshqa gapga chalg‘idim.

**Luqmon**
Bir oz
Nafasingni rostla, fikringni jamla,
Sen Muso oldida qasam ichgansan...

**Valiahd**
Ha, qasam ichgandim hallojiyga men:
Nasimiy zindondan ozod bo‘lur, deb.

**Diyonat**
Endi qasamingni bajo et.

**Rahmon**
Ammo...
Men boshqa bir xabar eshitdim boya.

**Oypara**
Ne xabar?

**Rahmon**
*(Diyonatni ko‘rsatib)*
Dadasi — Zohid afandi
Ortdi boshimizga yangi bir alam.
Hallojiy Musoning onasini ham
Tutdirib, kishanlab, zindonga soldi,
Bo‘yla bir ablahni ko‘rmagandim men.

**Luqmon**
Bu — xunuk gap.

**Rahmon**
Endi mahbusdir ona.
Bugun jarchi qo‘yib Zohid har yona,
Demishki, Musoning bo‘lsa nomusi,
Tutqun onasiga rahm qilgusi,
O‘zi kelib, bizga taslim bo‘lgusi...

**Oypara**
Voy, chappa ketibdi ishimiz, yomon.

**Diyonat**
Ular o‘ylasharki, xallojiy tirik,
Shu yo‘l bilan qo‘lga tushar deb tamom.

**Oypara**
Xalos etmasangiz agarda uni,
Zindonda chiriydi onaning umri.

**Luqmon**
Xo‘sh, bunga ne chora-tadbiringiz bor?

**Diyonat**
Yana Valiahddir bizga madadkor.

**Valiahd**
Xo‘sh, unda so‘ramoq istayman sizdan:
Musoning jasadin kim o‘g‘irlar?

**Rahmon**
Men!

**Diyonat**
Shoshma! Men ham buni o‘yladim jindak,
Jasadni shu kecha o‘g‘irlash kerak.

**Luqmon**
Uni dafn etish — vojibdir bizga,
Tangri quvvat bersin irodangizga...

## OLTINCHI KO‘RINISH

*Zindon. Boshi bog‘liq soqchi 2-Nasimiyni haydab kiradi.*

**Soqchi**
Qani, yur, sendan ham suv ichmas ko‘zim.

**2-Nasimiy**
Shoshma, zindoningga kiraman o‘zim,
Nega turtkilaysan?

**Soqchi**
Bas, aljirama,
Men ham shu dunyoda o‘z aqlim bilan
Bir ish qilsam, nima bo‘pti?

**2-Nasimiy**
O‘z aqling —
Ishlarmi mahbusni tutrkilaganda?

**Soqchi**
Hoy, muncha ustimdan kulaverma sen,
Aqlim bo‘lmasaydi aqllilarning
Aqliga qorovul bo‘larmidim men?

**2-Nasimiy**
To‘g‘ri, bu ayondir harakatingdan,
Boshingga ne bo‘ldi?

**Soqchi**
Bilmassan nahot?
Aqlli boshlarga yog‘ilar bedod.
Ha, eshitmadingmi? Mahbuslar u kun
Meni kaltaklashdi.

**2-Nasimiy**
Ne aybing uchun?

**Soqchi**
Gap borki: qo‘chqorlar kuch sinashganda...

**2-Nasimiy**
Tayoq sinar emish itning boshida.

**Soqchi**
Kaltaklab, qochishdi.

**2-Nasimiy**
Unga.. ne bo‘ldi?

**Soqchi**
Kim u?

**2-Nasimiy**
Anavi-chi... mening yo‘ldoshim.

**Soqchi**
Uni haligidek... hukm etishdi.
*(Birdan hushyor tortib)*
Hoy, men qaydan bilay, so‘ng nima bo‘ldi?
Agar buni juda bilmoq istasang,
Hamyoningni chaqir, chiqsin cho‘ntakdan,
Uch tanga kifoya.

**2-Nasimiy**
Yo‘qol, ey olchoq!

**Soqchi**
Pulsiz u buyuklik menga ne darkor,
Pulli olchoqlikka, mana, men tayyor...
*(Valiahld kiradi. Soqchi uni ko‘rib, dovdiraydi.)*
Mening og‘zim mahkam: gap olib bo‘psan!
Uyalmasdan, gapni chuvalashtirib,
Sir olmoqchi bo‘lar...

**Valiahd**
Bo‘ldi, chiq bundan!..

*Soqchi ketadi.*

**2-Nasimiy**
Ayt-chi, unga ne bo‘ldi?
*(Sukut)*
U — Nasimiy emasdi...
Nasimiy — qarshingdadir.

**Valiahd**
Bilaman.

**2-Nasimiy**
Xo‘sh, qani u? Jim turmay, gapirsangchi!

**Valiahd**
O‘lim ila, o‘ylakim, u chin orzuga yetdi,
O‘zini qurbon qilib, Nasimiyni yashatdi.

**2-Nasimiy**
U aslida kim edi?

**Valiahd**
Xallojiy Muso edi: Busiz ham ertami-kech
O‘limga mahkum edi.

**2-Nasimiy**
Muso? Yo‘q, haqiqatni mendan yashirmoqdasiz,
Yo u sizni aldagan.

**Valiahd**
Ustoz, ishoning, uni yaxshi tanir edim men,
Bir zamonlar u meni qutqarmishdi o‘limdan.

**2-Nasimiy**
Shu bo‘ldimi oqibat yaxshilikka javobing?
So‘yla, seni o‘limdan xalos etgan kimsani
Nega xalos etmading?

**Valiahd**
Ko‘p yalinib-yolvordim, aytganidan qaytmadi,
Siz Nasimiy nomi-la meni o‘ldiring, dedi,
Toki shoir o‘lmasin!..

**2-Nasimiy**
Yetar, bas! Cho‘zmoq nega?
Shumidir hurmatingiz, ixlosingiz Allohga!
Koshki men bo‘lsam edi u sho‘rlikning o‘rnida.

**Valiahd**
Buning ne foydasi bor?
Bu e’tiroz — nohaqdir,
Vijdoningiz oldida sizning yuzingiz oqdir.

**2-Nasimiy**
Men yutqazdim, boq, mana,
G‘olib keldi u yana!

**Valiahd**
*(Xayratlanib)*
O‘lim va g‘olibiyat sig‘armi bir o‘lchovga?

**2-Nasimiy**
G‘olib kelar o‘zidan ming bora kuchlilarga
O‘limdan chekinmagan —
O‘limi-la ish ko‘rib, o‘limi-la so‘z degan!

**Valiahd**
Demak, o‘limdir sizning yo‘lingiz so‘ng g‘oyasi?

**2-Nasimiy**
Yo‘q, aksincha, hayotdir — yo‘limiz nihoyasi.
G‘oya — bir ehtiyojning, bir talabning o‘g‘lidir,
Ko‘kdan tushmaydi g‘oya, u hayotdan tug‘ilur.
Bizning tariqatimiz gunohsiz oqizilgan

Ko‘p qonlardan yaralmish.
Inson tabiatini tahqirlab, yerga urgan
Zindonlardan yaralmish.
Sharafini, shonini qaytarmoq-chun insonga,
“O‘zingni inson kabi his ayla!” — dedik unga.
Fikr ham, orzular ham yurakda qamoq ekan,
Fikrlashning o‘zi ham hattoki yasoq ekan,
Bizning layoqatimiz, ishqimiz toptalarkan,
Yolg‘onlar xuruj qilib, haqiqatni talarkan,
Nega Alloh indamay, qarab turar bu ishga?
O‘zi yaratgan zotning qulga aylanishiga?
Ko‘klarda parvoz etmay, yerda sudralishiga?..
Ozod inson bu ayyom istibdodga qul o‘lmish,
Inson layoqatining asosiga qurilmish
Asos tariqatimiz — dunyo uzra qoyamiz,
Magar ravshan bo‘ldimi endi senga g‘oyamiz?

**Valiahd**
Bir narsa ayon endi:
Zamon chappa aylandi.
Hallojiyga berganim o‘sha so‘zim — ontimni
O‘rniga keltirgayman!
Sizga najot bergayman!
Endi eshiting meni:
O‘lgan Muso emasdi.

**2-Nasimiy**
Bas, kim edi?

**Valiahd**
Nasimiy!
Sen esa bir boy qizning ishqida yongan jonsan.
Shu muhabbat tufayli
Berilmishsan yurakdan Nasimiy kalomiga.
Otamga kecha oqshom
Men seni, ey Nasimiy, tanishtirdim shunday deb.

*(Sukut)*

Xo‘sh, ne deysan? Yo boshqa so‘zing bormi?

**2-Nasimiy**
So‘zim yo‘q!
Ammo... Lekin...

**Valiahd**
Bo‘ldi, bas! Ammolarga o‘rin yo‘q!

Zohid kiradi.

**Zohid**
*(2-Nasimiyga)*
Hanuz... Nasimiymisan?
Yo noming o‘zgardimi?
Alloh haqi, javob ber.

**2-Nasimiy**
Nasimiyman men hamon,
Bu dunyoning dardlari ko‘ksimda tutmish makon.

**Zohid**
Bu dunyoning dardlari ko‘ksingga sig‘armikin?
Dunyo bilan ne ishing?
O‘z qismatingga yig‘la.
Kulgilidir... O‘ziga o‘moch kesa bilmagan
Qanday qilib dunyoga un oshi — ugro kesar?
O‘ylab qara, boshingda qanday shamollar esar...

**2-Nasimiy**
Behuda bu gapni qo‘y, men qo‘rqmayman o‘limdan.
Barmog‘ingni kessalar, chidolmasding bunga sen.
Zohid, sig‘inganingga ishonsayding agar-da,
Chekinmasding o‘limdan, ko‘rinmasdi xatar-da...

**Zohid**
Bular — iblis insonga shivirlagan hiyladir,
Sening aytganlaring ham Alloh hukmi iladir.
Yaratganning o‘z hukmi, hukmning nizomi bor,
Bir tarafdan yaralsa, bir tarafdan yo‘qolar.
Insonning irodasi shunchalar qodir esa,
Unda buyur, hukming-la
Bahor ketib, qish bo‘lsin
Axir inson nadirki, uning irodasi-la
Allohning nizomida bo‘yla o‘zgarish bo‘lsin?

**2-Nasimiy**
Dunyoning nizomini tuzmoq uchun yangidan
Inson bo‘lib tug‘ildim.
Falak kahkashonida charaqlab, shu’la ochgan
Yulduzman, to‘lin oyman,
Buyuklardan, buyukman!

**Zohid**
Ayt-chi, tog‘ deyish bilan tepa yuksalarmikin?
Agar inson yuksalsa, uni yuksak deyishning
Nechuk bir ma’nosi bor?

**2-Nasimiy**
Inson maydalasharkan, uning yuksakligini
Eslatib turish darkor.
Axir, o‘z idroki-la yuksala bilar inson!

**Zohid**
Senki, o‘z kamoling-la shunchalar maqtanarsan,
So‘yla, kimni dunyoda eng aqlli sanarsan?

**2-Nasimiy**
O‘z aqliga suyanib, ishqi bilan yurganni.

**Zohid**
Men aqlli sanardim aqlini yashirganni.

**Valiahd**
Keling, ishga ko‘chaylik, tortishuvga ne hojat?

*U Nasimiyni ozod qilish haqidagi farmonni Zohidga uzatadi.*

**2-Nasimiy**
Lekin zulm toshiga qurilgan bir saltanat
Insonni xo‘rlamasa, o‘zi yuksala bilmas.

**Zohid**
Kimdir u xo‘rlangan kas?

**2-Nasimiy**
*(Zohidga)*
Islom sharoitida bormi xotinga qamoq?

**Zohid**
Bor!

**2-Nasimiy**
Shariat sha’niga bo‘hton yog‘dirma bundoq.

**Zohid**
Xo‘sh, ne deysan?

**2-Nasimiy**
Musoning onasi zindondadir?

**Zohid**
Balli, hallojiy kelsa, onasi omondadir.

**Valiahd**
Ozod ayla sen uni!

**Zohid**
Ozod bo‘lar... Agarda topib olsak o‘g‘lini.

**2-Nasimiy**
Sen uni topolmassan.

**Zohid**
Xo‘sh, nega?

**2-Nasimiy**
Shumqadamsan!

**Zohid**
Gapir, ne demoqchisan?

*(Valiahd hayajonlanadi, Nasimiyga “jim bo‘l” deb ishora etadi.)*

**2-Nasimiy**
Muso tirikmas, o‘lik.

**Zohid**
Oldinroq aytganingda ma’raka o‘tkazardik.

**Valiahd**
Ha... Menga ham aytishdi. O‘ldirmishlar Musoni.

**Zohid**
O‘ldirmishlar? Chin bo‘lsa, uning jasadi qani?
Qani uni o‘ldirgan? Kelsin, ko‘raylik hozir.
Bas, yetmish ming dinordan nega qochar u botir?
Bular — quruq so‘zdir, so‘z!

**2-Nasimiy**
Yo‘q, Nasimiy emasdi kecha o‘ldirganingiz.

**Zohid**
Nega?

**Valiahd**
(2-Nasimiyga)
Axir...

**Zohid**
Ne deding?

**2-Nasimiy**
Aytganimni aytdim men.
*(Valiahd Zohidni bir chekkaga tortadi)*

**Valiahd**
Valloh, u jinni bo‘lmish muhabbati zo‘ridan...

**Zohid**
Ajab, kim bo‘ldi ekan bu jinnini sevgan qiz?

**Valiahd**
Bittasi bor...

*(Zohid ularga shubhalanib tikiladi, so‘ng Nasimiyga kim edi kecha biz osganimiz?)*

**2-Nasimiy**
Xallojiy Muso!

**Zohid**
Nima?
Unda kimdir Nasimiy?

**2-Nasimiy**
Men!

**Valiahd**
*(Zohidni bir chetga tortib)*
Ko‘rmaysizmi? O‘ynatar bir bola kabi...

**Zohid**
Yo‘q-yo‘q! Bunda bir sir bor...
Demak, sensan Nasimiy?

**2-Nasimiy**
Balli, menman!

**Zohid**
Xo‘p, yaxshi!
Ortiq dardi sarim yo‘q.
Demak kecha Musodan
O‘g‘limning qasosini olibman, xabarim yo‘q.
Kecha osdik Musoni,
Erta osarmiz seni...

**Valiahd**
Dalil?

**Zohid**
Dalildir... Ona!

*(Zohid o‘yga cho‘madi. Birdan bir to‘xtamga kelgan kishidek 2-Nasimiyga o‘giriladi.)*

Topdim! Kampirni hozir yetkazaman maydonga,
Hallojiy jasadini ko‘rsataman men unga.
Agarda u o‘g‘lini tanigay, bas, gap tamom,
Demak, u — hallojiydir,
sen — Nasimiy, vassalom!

*Zohid ketadi. Valiahd 2-Nasimiyning yoqasidan tutib, silkiydi.*

**Valiahd**
Hoy, sen ne qilib qo‘yding? Nega kerak bu so‘zlar?
Sening xalosing uchun o‘ynalgan bu o‘yinlar
Barisi bekor ketdi... O‘zing buzding, sovurding.
Senga umr baxsh etgan u buyuk insonning ham
Niyatin yerga urding.
Tahqir etding sen uni,
Chirqiratding bu bilan marhumning pok ruhini.

**2-Nasimiy**
Po‘lat edim...
U mening o‘rnimda jon berganda
Tamom egildim, sindim.
Jonimga alam singdi...
Bas, oqsoch onasini nechuk o‘ylamay endi?

**Valiahd**
*(O‘z-o‘ziga)*
Oh! Naqadar sobitsan! Bu kuchni qarshilashga
Menda kuch yo‘q, to‘zim yo‘q.
Sendagi bu mantiqqa, sendagi bu yurakka
Munosib bir so‘zim yo‘q.

*(Valiahd tiz cho‘kadi.)*
Meni ko‘kka ko‘tarding, tuproq edim, xor edim,
Muriding bo‘lay endi, qabul ayla, murshidim.
Buyuk sir dunyosiga o‘zing qaratding meni,
Allohimsan, yangidan o‘zing yaratding meni!

**2-Nasimiy**
Tur! Amal balqib tursin har kalomda, har so‘zda,
Ey bo‘lajak hukmdor, bizning nazarimizda
Shohlik — yerga urganda, muridlik — yuksaltirar.

**Valiahd**
Shohlik endi ma’nosiz... Undan menga ne samar...

**2-Nasimiy**
Boq, bir lahza ichida
Ruhingda g‘olib keldi yaxshilik yomonlikka.
Dunyoviy sultonlikni ma’naviy sultonlikka
Alishmoq istaganlar
“Haqqa - qulman” deganlar
Bilki, so‘zidan oldin o‘zini o‘zgartirsin.
Iztirob o‘tlarida yona bilgancha yonsin.

Sen-chi, hali yonmasdan, kuyib-o‘rtandim, dersan,
Tariqatni bilmasdan, muridlik istayursan?

**Valiahd**
Men oddiy bir insonman jumla insonlar kabi,
Ammo shu necha kunda mening ko‘rganlarimni
Avval aytar bo‘lsalar, sira ishonmas edim,
Qasam ichib, barini uydirma, deb aytardim.
Lekin... shu ko‘zlarim-la ko‘rdim o‘zim ularni,
Ko‘rdim: o‘zi haq bo‘lib, haqsiz sanalganlarni.
Buyuk deb o‘ylaganim rutbasi kuchlilarning
Ko‘rdim kichikligini, qalbi chirikligini.
Ammo kichik atalgan siz kabi kuchsizlarning
Ko‘rdim diyonatini, ko‘rdim buyukligini.
Uyqudaydim, ey ustoz, endi-chi uyg‘onibman,
Qonmagan ko‘p ajoyib ma’nolarga qonibman.
Umr bo‘yi sig‘inib, ne-ne sajdaga tushdim,
Ammo bugun, ayniqsa, yondim, larzaga tushdim...

**2-Nasimiy**
Mayli. Unda bir necha savolimga javob ber.

**Valiahd**
Buyur, bir murid kabi men xizmatingga hozir.

**2-Nasimiy**
Ona sho‘rlik maydonda jasadni ko‘rgan zamon
Taniydi, shundoqmasmi?
Ma’lum bo‘lar Zohidni aldaganing... O‘yla, sen
Buni surishtirsalar, ne deb javob berasan?

**Valiahd**
Orzu ila maqsadi yetaklaydi odamni,
Ular uchun dardmidir —
Nasimiyning o‘rniga hallojiy osilgani?
Saroy uchun ularning ikkisi ham qo‘rqinchli!
Bu qo‘rquvdan bir yo‘la qutilishning chin yo‘li...

Ularning o‘limidir...
Zohid uchun hech narsa:
Bittasi avval o‘lib, bittasi keyin o‘lsa.

**2-Nasimiy**
Desalarki, bas, nechun bizni bo‘yla aldading,
Nasimiyning o‘rniga hallojiyni yo‘llading?
Bunga nadir javobing?

**Valiahd**
Derman, kimligin bilib, uni shu ko‘yga soldim,
Undan Zohid o‘g‘lining intiqomini oldim...

**2-Nasimiy**
Umidlaring buyukdir magar shu bo‘sh hayotdan,
Qo‘rquv yo‘qmish o‘limdan, qo‘rquv yo‘qdir hayotdan.
Ko‘ngil kishisi lekin kechar darddan, zulmdan,
Qo‘rqar shu bo‘sh hayotdan, qo‘rqmas ammo o‘limdan...

**Valiahd**
Ey murshidim!

**2-Nasimiy**
Quloq sol!
So‘yla, meni sen nechun
Xalos etmoq istading?

**Valiahd**
Boya aytdim chamasi, yo‘q edi bir maqsadim,
Men yolg‘iz qasamimga amal etmoq istadim.
So‘ngra... Seni ko‘rarkan, unga tan berdim, ustoz,
Men ham sening ishqingga imon keltirdim, ustoz.
Endi seni o‘limdan o‘zim xalos eturman.
Ustoz, hallojiy Muso
Nasimiyning yo‘lida
Shirin jonidan kechib, to‘g‘ri qildi... Sen esa

Bitta qari kampirga tikmoqchisan umrni,
Olishing berishingga arzirmi, o‘yla shuni.

**2-Nasimiy**
U — onadir, xoliqdir, u — tuproqdir, u — yerdir,
Yaralganlar ichida u — yuksak, mo‘tabardir.
Muso ketdi o‘limga —
Mening kabi yaralmish bir insonning yo‘lida.
Men ham borgum o‘limga —
Seni, meni, Musoni yaratganning yo‘lida.

**Valiahd**
Men ikki zid tilakning orasida qolmishman,
Ham senga, hamda unga yaxshilik tilash bilan
Qabohat-la yuzlashdim.
U meni tushunmadi, hech bo‘lmasa sen tushun.
Axir men ham insonman, ko‘p og‘irdir men uchun:
Senga “haqlisan” desam,
Seni qutqazish ila unga bergan so‘zimni
Agar ado etmasam...

**2-Nasimiy**
Bu yaxshilik emasdir, yaxshilikka evazdir,
Qarzni qaytarishlik ham insonga bir g‘arazdir.
Beg‘araz yaxshilikdan sen hali yiroqdirsan,
Yaxshilikka tug‘ulding, ammo chaqaloqdirsan...

**Valiahd**
*(Tiz cho‘kadi.)*
Men hozirman ey ustoz, muridlikka qabul qil,

**2-Nasimiy**
Hozirliksiz, ey yo‘lchi,
yo‘lga chiqish ko‘p mushkul!
Qani, tur!
*(Zohid kiradi.)*

**Zohid**

*(O‘z-o‘ziga)*

Bu nimadir?
Nelar ko‘rar ko‘zlarim?
Kundan-kun ziyodadir sanog‘i dinsizlarning.
Valiahd o‘z taxtini murtadlarga sotarkan,
Allohga sadoqatni kimdan kutamiz, kimdan?
Ko‘rgan zamon tanidi hallojiyni onasi,
Ko‘kka chiqdi nolasi.

*Pauza*

U Nasimiy emasdir, biz endi rasvo bo‘ldik,
Jamoatning oldida yuzlari qaro bo‘ldik.

*(Valiahdga)*

Yagona bolamni ham senga fido etdim men,
Biz sening foydangni deb foydamizdan kechgan dam
Sen nega suv quyasan yotlar tegirmoniga?
Nega sen g‘anim bo‘lding saltanat qo‘rg‘oniga?
O‘z oshingga suv qo‘shding, ayt-chi, nadir muroding?
Bizni aldading, ammo o‘zingni ham aldading.
Xo‘p, mayli, men ketdim, bas,
Allohning buyrug‘iga bandasi chap berolmas!

*(Zohid chiqadi, boshqa hujraga yashirinib, ularning gapiga quloq soladi.)*

**Valiahd**

Xalos bo‘libdi ona,
Xo‘sh, endi nima deysiz?

*(Sukut)*

Hozir bo‘ling bu oqshom
Sizni ham qutqaramiz...

*(Valiahd ketadi. 2-Nasimiy xayolga cho‘mib, nari-beri yuradi. Zohid yashiringan joyidan chiqib, soqchiga yuzlanadi.)*

**Zohid**
Buni olib hoziroq
Sol u maxfiy zindonga,
So‘ng kalitni ber menga!
*(Zohid zindonga tushadi.)*
Demak, sen Nasimiysan?

**2-Nasimiy**
Xuddi shunday.

**Zohid**
Ko‘p a’lo.
Alloh eding sen avval,
Lomakonda ruh eding,
Nafas eding, sas eding,
Ko‘zga ko‘rinmas eding.
Nega ko‘zga ko‘rinding, tushding bo‘yla havasla,
Allohga boq, allohga, Alloh tushmish qafasga.
Ammo o‘ylamagilki, sen xalos bo‘lajaksan,
Ertaga o‘lajaksan.
Suv toshar ko‘p to‘lganda,
Sening quyoshing botar u quyosh tug‘ilganda!

## YETTINCHI KO‘RINISH

*Maydon. O‘rtada — dor. O‘ngdan — Luqmon va Oypara, chapdan — Valiahd kiradilar.*

**Oypara**
Valiahd, ne xabar?
*(Sukut)*
Ne bo‘ldi senga?
*(Sukut)*

**Luqmon**
O‘g‘lim, gapirsang-chi!

**Valiahd**
Eplolmadim men...
Zohid soya kabi yurib izimdan,
Nasimiyni soldi maxfiy zindonga.

**Luqmon**
Balki soqchi bilan...

**Valiahd**
Gaplashib ko‘rdim,
Ko‘p va’dalar qildim, kulib dedi u:
Kalit menda emas, Zohidbeydadir...

**Oypara**
Endi nima qildik?

**Valiahd**
Men ham hayronman,
Zohid fatvo bergan, hukm aylagan.
Bugun osishadi...

**Oypara**
Nimalar deysan?

**Valiahd**
Mana, dor ham tayyor...

**Luqmon**
Boshqa bir umid
Yo‘qmikin?

**Valiahd**
Bor ishni o‘zi buzdi u,
Agar kimligini bildirmasaydi,
Ish silliq bitardi... O‘lgudek qaysar,
Ha, o‘zi o‘zini olovga otdi.
*Dehqonlar kirishadi.*

**Luqmon**
Bir chetga o‘taylik.

*Valiahd, Oypara va Luqmon ketishadi.*

**Subhon**
Qoyil qoldim men:
O‘g‘irlab ketmishlar
Jasadni bundan!
Soqchi yo‘q ekanmi?

**Rahmon**
Qorovullardan —
Biriga bir muncha pora bermishlar,
Boshqasiga esa may ichirmishlar...
Hoy, ana, qaranglar:
Olib kelishmoqda!

**Karomat**
O‘shami chindan?

**Subhon**
Kim biladi, deysan...

**Karomat**
Men ishonmayman.

*Avval duo o‘qib Zohid, uning ortidan soqchilar qurshovida 2-Nasimiy kiradi.*

**Zohid**
Ey mo‘min bandalar, ey musulmonlar,
Qatldan ilgari sizga so‘zim bor.
Payg‘ambar sha’niga, imom sha’niga
Salovat zikr eting!..
*Hamma salovat o‘qiydi.*

Qur'onga, dinga —
Shak keltirgan olur o'z jazosini.
Yo'qotar bu dunyo, u dunyosini...
Qatl etilmishdi necha yil avval
Fazlullohi murtad, olim beamal...

**Shoir**
Fazlulloh hech qachon murtad bo'lmagan!

**Rahmon**
Hamon yuraklarda yashaydi yodi!

**Subhon**
Uni unutmaymiz!

**Shakkok**
Yo'q, unutmaymiz!
Nasimiy nomi-la kecha Musoni
Qatl qildik...

**Rahmon**
Bunda haqiqat qani?

**Zohid**
Bizni aldashibdi.

**Karomat**
Kim aldabdi, kim?

**Zohid**
O'sha hallojiyning o'zi.

**Rahmon**
Bas, hokim —
Nega adashadi? Nega aldanmish?

**Karomat**
Balki ataylabdan qilingan bu ish?

**Subhon**
Ayting, qayda edi sizning ko‘zingiz?

**Zohid**
Jamoat, sabr eting, aldansak-da biz,
Ziyonsiz... Haqiqat yana bizdadir,
Haqiqiy Nasimiy — qarshingizdadir.

**Rahmon**
Nechanchi Nasimiy?

**Karomat**
O‘n uchinchisi.

*Amir, Valiahd, Vazir, a’yonlar va Luqmon kiradi. Xaloyiq amir oldida bosh egib, ta’zim qiladi.*

**Zohid**
Bugun bu maydonga a’lo hazratning
Tashrif buyurgani — sharafdir bizga.
Jamoat, shu tashrif sharofati-la
Nur to‘ldi toriqqan ko‘zlarimizga...

**Rahmon**

*(Karomatning qulog‘iga)*

Sharaflar yukidan sindi belimiz,
Tokay ko‘taramiz bu minnatni biz?

**Zohid**
Olim, allomalar avomligidan
Kofirlar qo‘lida o‘yinchoq bo‘ldik.
Jamoat, bilingkim, ahkomdir Qur’on,
Uning bir tafsirga ehtiyoji yo‘q!
Tafsirdan shakkoklik tomon o‘tishar,
Qur’oni karimni taftish etishar...

**Shoir**
Qalbini bag‘ishlab haq, haqiqatga,
Axtarar, izlanar hamisha inson.
Xo‘sh, nega qo‘rqasiz, nega cho‘chiysiz —
Hamisha haqiqat axtarsa inson?

*Cholpopoq kirib, 2-Nasimiyga sinchiklab razm soladi.*

**Zohid**
Biling, ogoh bo‘ling: islom-da birdir,
Shariat-da birdir, Qur’on-da birdir.
Shariatdan o‘zga yo‘qdir tariqat,
Bunga ne hojat?
Islomda vohid bor, bir-ikki yo‘qdir,
Alloh yagonadir, sherigi yo‘qdir.
Alloh kalomidir — muqaddas Qur’on,
Uni tafsir etib, taftish aylagan
Dinning dushmanidir azaldan-azal,
Dahriydir Qur’onni tafsir etganlar.

**2-Nasimiy**
Zohid, bilasan, ro‘zi azaldan, yaralishdan
Allohning aziz zotidir inson.
Insonni so‘kib, Allohni sevmoq — bu ne bo‘ldi?
Maktubni o‘qib, mirzoni quvmoq — bu ne bo‘ldi?
Odamni urib, Tangriga qulliq — ne demakdir?
Haqdan adashib, haqqa chug‘ullik — ne demakdir?

**Zohid**
O‘limga mahkumdir ko‘kka ishonmay,
Yerda go‘ng titkilab yurgan qarg‘alar.
Men — Allohman deya, Anal — haq, deya
Allohlik fikriga tushgan qarg‘alar.
Ulardan bittasi qarshingizda, bas,
U Qur’onni bilmas, dinni tan olmas.
Shariat nomidan, Qur’on nomidan

Dorga osilajak bugun bu nodon —
Nasimiy Shirvoniy!

**2-Nasimiy**
Ko‘ring, kimni kim
Nodon deb ataydi...

**Cholpopoq**
(Luqmonga)
Shu Nasimiymi?

*Luqmon boshi bilan tasdiq ishorasini beradi. Cholpopoq Luqmonning qulog‘iga bir nimalar deb shivirlaydi. Luqmon 2-Nasimiyni diqqat bilan kuzatadi.*

**Luqmon**
Hoy, nimalar deysan?

**Cholpopoq**
Ha, aytganimdak!..

**Luqmon**
(Cholpopoqqa)
Xo‘p, shoshma!
Hukmdor, so‘zim bor...

**Amir**
Buyur...
Hoy, bola, chindanam Nasimiymisan?

**2-Nasimiy**
Demishman, deymanki, men Nasimiyman.

**Luqmon**
Hoy, o‘g‘il, o‘jarlik yo‘lini tutma,
Yoshgina joningga o‘zing javr etma.

*(Zoxidga o‘girilib)*
Maqsad — shu yigitni o‘ldirish esa,
O‘ldiring, so‘zim yo‘q! Nima ham deyman.
Lekin bu o‘g‘lonni yaxshi taniyman,
Nasimiy emas bu! Tangriga qasam!

**Subhon**
Nima?

**Karomat**
Voy, nega?

*Valiahd o‘rnidan turadi va hayrat ichida Nasimiyga tikiladi.*

**Luqmon**
Dalil talab qilar hamisha qonun.

**Zohid**
Sen buni o‘zidan so‘rading bugun,
Xo‘sh, u nima dedi?

**Luqmon**
Mahkumning so‘zi
Doim o‘tavermas dalil o‘rniga,
Qotil bo‘lavermas, qotilman, degan.
Men buyuk Ka’baga qasam ichaman,
Bu odam Nasimiy emas, hukmdor,
Buning isbotiga dalillar darkor.

**Zohid**
Kishi o‘z gunohin olsa bo‘yniga.
Yana qanday dalil lozimdir unga?
Kel, bu o‘jarliging qo‘y endi, Luqmon.

**Luqmon**
Men talab qilaman qonun nomidan.

**Zohid**
Men — din peshvosiman, qorishma, Luqmon.
Mana, hukmdor ham indamay turar,
Dinning fatvosini buzish yaxshimas.

**Luqmon**
Biz ham bu ishlarni bilamiz bir oz,
Dalilsiz ish ko‘rmas qonun ham, din ham.
Sen avval isbot qil!

**2-Nasimiy**
O‘lmoq uchun ham
Ajabo, odamga kerakmish dalil,
U mening o‘rnimga o‘lmoqchi shekil!

**Zohid**
Aytmaysanmi, senga nima, deb?

**Rahmon**
O‘zi o‘ldirmoqchi bo‘lgan kimsaga
Yana uyalmasdan “yasha!” deydi-ya!..

**Zohid**
*(Luqmonga)*
Nari tur!

**Valiahd**
*(Amirga)*
Shoh otam, buyuring unga, jim bo‘lsin!
Nasimiy bo‘lmasa bu shaxs, hukmdor,
Uni o‘ldirishda nechuk ma’no bor?

**Zohid**
Nasimiy nomi-la o‘limga borgan
Yuz karra qo‘rqinchdir chin Nasimiydan.
Bu odam Nasimiy bo‘lmasa-da chin,
O‘limga loyiqdir qilmishi uchun.

**Luqmon**
Ammo shaxsiyati noma'lum bir kas
Shariatga ko'ra, dorga osilmas.

*Zohid o'zini tamom yo'qotib qo'yadi. O'rtaga chuqur jimjitlik cho'kadi. Xaloyiq ichidan Cholpopoq chiqib keladi, u Amirga yuzlanadi.*

**Cholpopoq**
Meni ham eshiting, buyuk hukmdor,
Shirvondan kelmisham, sizga arzim bor.

**Amir**
Yaqinroq kel.

**Cholpopoq**
Shohim, rost aytar Luqmon,
Mening farzandimdir mana shu o'g'lon.
Oti Tural, shohim, so'rang o'zidan.
U Nasimiy emas, men yolboraman,
Uni ozod eting.
*(Chuqur sukunat)*
O'g'lim, gapirgil!
Hukmdor, o'g'limni ozod ayla, bas,
Uni o'ldirish-la bir ish tuzalmas.
*(Amirning oyog'iga yiqiladi)*

**Tural**
Tur, ota!

**Cholpopoq**
O'g'limga rahming kelmasa,
Menga rahming kelsin!

**Tural**
Ota, tur, ota,
Senga yarashmaydi egilmoq, ota!

**Zohid**
Bunga nima deysiz endi, hukmdor?

**Amir**
Mening bu yigitga savollarim bor:
O‘limni hayotdan ustun qo‘yarsan,
Yashamoq shunchalar yomonmi, o‘g‘lon?

**Tural**
Zulm-la hamisha yuzma-yuz keldim,
Bir kimsa tutmadi qo‘limdan bir kun,
Oqibat shunchalar hordim, toliqdim,
Sitam istamasman zulmdan yana...

**Amir**
G‘oyai a’moling ne emish sening?
Kimdir bu dunyoda do‘sting, dushmaning?

**Tural**
Bisotim yo‘q manim, so‘zimdan o‘zga,
Tayanchim yo‘q, sabru to‘zimdan o‘zga,
Dushmanim yo‘q manim, o‘zimdan o‘zga,
Endi men qo‘rqarman, ayt, kimdan yana?

**Amir**
Men hayronlar qoldim shijoatingga,
O‘limdan qo‘rqmaysan — siring ayt menga.

**Tural**
Sakradim Arazdan, kechdim Firotdan,
Bugun piyodaman, tushganman otdan,
Shunchalar qo‘rqimdiki men bu hayotdan,
Endi qo‘rqarmidim o‘limdan yana?

**Amir**
Zohid, bu yigitning kini, nafrati
Boshqachadir, u — inkori din emas.

Mening zulmimdandir — har shikoyati,
Mening mahbusimdir, u sening emas.

**Tural**
Sening zulmingga chin suyanchiq bo‘lgan
Zohidning qilmishi.

**Zohid**
Ko‘rdingmi, sulton?
Ilon qonidan ham qoni sovuqdir,
O‘limdan o‘zga bir chorasi yo‘qdir.

**Amir**
Hukming — to‘g‘ri hukm, Zohid afandi,
Osilsin!

**Cholpopoq**
Qo‘llarim cho‘zaman senga,
Otaga cho‘zaman, hukmdorgamas.
Uch yilkim dunyoni kezdim, adashdim,
Bolam deb daryolar, tog‘lardan oshdim.
Na kunim kun bo‘ldi, na kecham kecha,
Axtarib, nihoyat, topdim deguncha —
Yana yo‘qotaymi shu lahza uni?
Yo‘q, ko‘k ham, zamin ham ko‘tarmas buni!

**Tural**
Yalinma!

**Cholpopoq**
Ey o‘g‘lim, o‘zga chora yo‘q!

*(Hukmdorga qo‘l cho‘zib)*

Sen ham otasan-ku!..

**Zohid**
Biz sening nechuk —

Ota ekanliging ko‘rib turibmiz.
Sening tarbiyangdan kofir yaralmish!

**Cholpopoq**
Uni yaratgan shu zamon, shu gardish...

**Zohid**
*(Amirga)*
Do‘ppi tor kelganda, butun gunohni
Zamonga ortishar...
*(Cholpopoqqa)*
Men ham otaman
Bolamni haq yo‘lga o‘zim shayladim,
Uni din yo‘lida qurbon ayladim.

**Cholpopoq**
*(Amirga)*
Shu oq sochlarimning har tuki bilan
Duoyi joningni etaman chindan.
Avf ayla, esga ol, muruvvatingni,
Ko‘rsat, shohim, ko‘rsat adolatingni...

Soqchilar qo‘llari bog‘li Zohid o‘g‘li Diyonatni olib kiradilar.

**Zohid**
*(Diyonatga tikilib)*
Yo rab, bu senmisan? Allohga shukur!
Qolmadi dardim...
*(Zohid Diyonatning bo‘ynidan quchoqlaydi)*
Qo‘llaring bog‘lidir?
*(Vazirga)*
Bu ne demakdir?

**Vazir**
Zohid, bu savoling nega kerakdir?
Uning o‘zidan so‘r.

**Amir**
Vazir, kimdir bu?

**Vazir**
Shohim, Diyonat bu, Zohidning o‘g‘li.

**Amir**
O‘lgandi shekilli?

**Vazir**
Yo‘q, tirik hali.
U sotilgan ekan hallojiylarga,
Kecha jasadni ham o‘g‘irlagan shu.

**Zohid**
Ey mening ko‘z nurim, hayot chirog‘im,
Vazir so‘zi chinmi?
*(Sukut)*
Yo‘q, bu mumkinmas,
Zohidning bolasi sira sotilmas.
Yolg‘ondir, bo‘htondir, bu aytganlari,
Ayt, shundoq emasmi, o‘g‘lim?
*(Sukut)*

**Amir**
Bas, yetar!
Vo ajab, ko‘zlarim ko‘rmidir manim,
Uyimning to‘rida ekan dushmanim.

**Vazir**
O‘g‘ling yuragini shaytonga bermish.

**Zohid**
Xayolga kelmagan boshga kelarmish...

**Karomat**
Zohid afandining tarbiyasidan
Kofir ko‘karmamish...

**Rahmon**
Nima ko‘karmish?

**Shakkok**
O‘g‘il otasining tarbiyasini
Shamolga sovurmish.

**Shoir**
Zohid ko‘karmamish, inson ko‘karmish!

**Amir**
Zohid, endi nechuk ishonay so‘zga?
Har to‘yda, azada — duch kelgan ko‘zga.
Shu shahid o‘g‘lingni sanchar eding sen,
O‘g‘ling xoin ekan, ko‘rib turibsan,
Endi javob bergil xiyonatiga.

**Zohid**
Ma’zurman, hukmdor, nima dey senga?

**Oypara**
Valiahd, madad ber, ko‘maklash unga,
Sen ham qo‘lingni cho‘z xaloskoringga.

**Diyonat**
Ota, mening umrim haddiga yetdi,
Bu dardni mardona qabul et endi.
Sening o‘z yo‘ling bor, mening o‘z yo‘lim,
Ota, endi menga muqarrar o‘lim...

**Zohid**
Daf bo‘l! Hoy, sen bo‘yla jasoratga boq!
Otani sharafini toptagan olchoq!
Muqaddas islomni taftish aylagan,
Xurufiy atalmish u yo‘lga la’nat.
Ota g‘ururini bukib, sindirgan
Sendek bir naslga, o‘g‘ilga la’nat!

**Amir**
Endi o‘zing aytgil, ey din otasi,
Dinga tupurganning nadir jazosi?

**Zohid**
Uning dinimizga xiyonatida
Men ham gunohkorman, hukmdor, men ham.
Shuning-chun, avvalo, o‘ldiring meni,
Ko‘zlarim ko‘rmasin bu fojiani...

*Hamma hayrat va hayajon ichida Amirning qarorini kutadi.*

**Amir**
O‘zing osajaksan uni, sen o‘zing!

**Luqmon**
Jazo ortiq bo‘lmas, axir, gunohdan.

**Valiahd**
Ota, qo‘rqmaysanmi magar Allohdan?

**Amir**
Allohning amridir — Amirning amri.

**Luqmon**
Omondir, hukmdor, otaning qo‘li
Farzandi qoniga axir bo‘yalmas.

**Amir**
Qon nechun? Osadi!

**Valiahd**
Avf aylagil!

**Amir**
Bas!

*(Zohidga)*

Hammaga ibratsan amallaring-la,
Endi os o‘g‘lingni o‘z qo‘llaring-la.

**Zohid**

Qirq yil men taxtingga sodiq qul bo‘ldim,
Amr-u farmoningga ravon yo‘l bo‘ldim,
Senga tikilganni qulatdim necha,
Sahv-u xatoyingni tuzatdim necha —
Magar shu bo‘ldimi mening gunohim?
Munchalar xo‘rlama, ey qiblagohim!

**Amir**

Men bunday o‘g‘ilni o‘z qo‘llarim-la
Chopib, burdalardim, har yon otardim.
Uning o‘limiga emas, yo‘q, aslo,
Nonko‘r ekaniga aza tutardim.

**Cholpopoq**

Hukmdor, tutgaymiz biz etagingdan,
Avf ayla o‘g‘illar gunohini sen.
Xo‘rlama otaning otaligini,
Rahm qil, Xudoyim qo‘llagay seni...

**Amir**

*(Zohidga)*

Amrimni bajo et!

**Zohid**

Bu ne musibatdir, ey Parvardigor,
Nechun bu baloga aylading duchor?
Egilmas boshlarni qayirdim senga,
Nega bu zulmingni ko‘rsatding, nega?
Sen xo‘rlading meni, sindirding meni,
Jahannam o‘tida yondirding meni.
Qo‘y, alam bo‘roni tushib qasdimga,

Dunyoning la'nati yog'sin ustimga!
Jafokash qulingga shumi shafqating?
Allohim, shumidir ul adolating?

**Shoir**
O'zing yiqilganda, ey din otasi,
Darrov bo'la qolding Allohga osiy...

**Diyonat**
Ota, o'rningdan tur!
*(Amirga)*
O'g'li oldida
Otani bu qadar xo'rlamoq bo'lmas,
Gar qo'lingdan kelsa, meni o'zing os!

**Amir**
Gap bitta, osadi o'z otang seni,
Yaramas yaratmish Yaratgan seni.
Hukmdor qo'llari pok va muqaddas,
Murdorning taniga to'qina bilmas.
O'g'il otasini sotibdi, faryod,
Ota o'z quliga qul bo'lajakdir.
Ota maslagini toptagan avlod
Otaning qo'li-la bo'g'ilajakdir.

**Valiahd**
Shoh otam, so'rashga izn ber menga,
Ishonching kattami o'z avlodingga?

**Amir**
Ne deding?

**Valiahd**
Diqqat nazaringni menga bur, ota,
Eng katta gunohkor o'g'lingdir, ota.

**Amir**
Aqldan ozdingmi, nimalar deysan?

**Valiahd**
Endi har narsani men tushunaman,
Balki hukmdorga og‘ir botar bu,
Meni bir insondek tinglagil, ota...

**Amir**
Zohid, qani boshla!

**Zohid**
Men yolboraman,
O‘tinchim qabul et, kech bu amrdan...

*Oypara xaloyiq ichidan chiqib, Amir oldida to‘xtaydi va Zohidga yuzlanadi.*

**Oypara**
Ota! Otaga boq, nolishiga boq,
Davron yomonlikka to‘libdi bundoq.
Zor chekkan tilmas bu bag‘ri xun dildir,
Diyonatni ossang, meni ham o‘ldir!

**Valiahd**
Yo Xudo!

**Amir**
Ne deydi? Ne ko‘rgilik bu?
Vazir, so‘yla, kimning kuchugidir bu?

**Luqmon**
Har kimning o‘z oti, o‘z unvoni bor,
Men it bo‘lmaganman sira, hukmdor.
Ammo it quturib, vovullagan dam
Men uning ipidan tutganman mahkam...

**Amir**
Sen bir ko‘ppak eding, qo‘ydim qoshimga,
Sen bu savdolarni solding boshimga.

Vazir to‘g‘ri demish, qattol dushmanim
Hallojiy emasdir, o‘zingsan g‘anim.
Vazir, qani jallod, buyur, shay bo‘lsin!

**Vazir**
U shaydir, hukmdor!

**Amir**
Bo‘yni chopilsin
Avval bu kuchukning, keyin bu itning,
Jazosi o‘limdir har xiyonatning!

**Valiahd**
Ota, bir arzim bor...

**Amir**
Yo‘q, eshitmayman!

**Valiahd**
Pichoq bo‘ynimdadir, eshitajaksan,
Dunyoda har ishning bir sababi bor.
Diyonat-la meni asir oldilar,
So‘ragil, men qanday qochib qutuldim?
Unda to‘g‘risini aytmagan edim...

**Amir**
Barini bilaman.

**Valiahd**
Izn ber...

**Amir**
Shoshma!
Seni xalos aylab bir qahramondek,
Shahzodaga o‘zni etarkan fido,
Boqiy umr edi ulushi... Ammo

Mazhabdan kechishi — nima demakdir?
Musoning jasadin o‘g‘irlab, uni
Mozorga ko‘mishi — nima demakdir?

**Valiahd**
Ota, gunohsizdir bunda u tamom
Unga bu yumushni men buyurganman.

**Amir**
Nima? Nima deding? Axir, sen kimsan?

**Valiahd**
Tirikka jazoni eshitganim bor,
O‘likka jazoni eshitmaganman...

**Amir**
Javob ber, sen kimsan? Bir ko‘rnamaksan!
Unda biz kim bo‘ldik? O‘lgan edikmi?
Nega sen bilmaysan, axir, haddingni?

**Valiahd**
Chunki men kechadan kunduzga keldim,
Buyuk zotlar, ahli tamizga keldim.
Hayot ular uchun bir og‘ir yukdir,
Ko‘rdim, ulardan ham necha buyukdir
Ularning ishonib, topinganlari,
Tariqat ne emish? Sino tog‘lari!
Fikr sohibidir ular, hukmdor,
Aytgil sen, fikrda ne qabohat bor?
Men kimman — qulmanmi, navkarmanmi, ayt,
Nega xuddi sendek o‘ylamog‘im shart?
Nega meni mendan olarsiz, nega?
Nega iskanjaga solarsiz, nega —
Mening tushunchamni, mening fikrimni?
O‘zimcha o‘ylashga qo‘yingiz meni!
Nimadir bu sizning qonun, nizomlar?

Axir, o‘z fikriga ishonar ular,
Axir, o‘z ishonchi, fikri yo‘lida
O‘limga hozirdir bu qahramonlar!..
Siz-chi? E’tiqod deb, g‘oya deb yolg‘iz
O‘limga mardona borarmidingiz?
Yo‘q!..

**Diyonat**
Chunki quldirsiz o‘z nafsingizga,
Bir amal ishqida siz yonolmaysiz.
Chunki maslagingiz, imoningizga.
Biz ishongan kabi ishonolmaysiz.
Sizning yuragingiz muzdek sovuqdir,
Din ham bir bahonasizga, sir emas.
Fikr, gar yo‘lida fidoyilar yo‘q,
Demak, uydirmadir, u fikr emas...
Xaloyiq to‘lqinlanib, harakatga keladi.

**Valiahd**
Hukmdor, umringda yolg‘iz bir karra
Boq qo‘li qadoqli shu badbaxtlarga.
Ularga boq, ular ne ahvoldadir,
Ularning Allohi yuragidadir...
Sizning Allohingiz qaydadir, bilmam,
Sizning Allohingiz yo‘qdir azaldan!..

**Zohid**
Tingla, ey hukmdor, bu tahqirlarni,
Din-u mazhabimiz toptaldi tamom.
Men ko‘pdan kutgandim bu daqiqani,
Men ko‘pdan bilardim Valiahdni ham,
Uning haq yo‘lidan imtinosini...
U — sening o‘g‘lingdir, ber jazosini!

*Xaloyiqda hayajon ortadi.*

Xaloyiq xori
Alloh otli ulviyatni

O‘z qalbingda ko‘r, degaymiz.
U qudratni, u hikmatni
Ko‘rmaganni ko‘r degaymiz.
Haq yo‘lining jafosini
Chekkanlarni er degaymiz.
“Ollohu akbar” deb yana,
“Inson-u akbar” degaymiz...

**Amir**
Ularni tinchiting!..

*Soqchilar xaloyiqqa tashlanadilar, lekin xaloyiq ularni bir chetga surib tashlaydi.*

**Tural**
Endi behuda!
Uyg‘ongan fikrni tinchitib bo‘lmas.
Fikr o‘limni ham qayiradi, bas.
Haqiqat atalmish iymon yo‘lida
Qurbonlar ko‘rdik biz millionlar qadar
Va lekin nohaqlik, yolg‘on yo‘lida
O‘lganni ko‘rmadik hali bir nafar.

**Amir**
Demak, butun saroy nasimiylashmish,
E voh, qayga eltar bizni bu gardish?
Xurufiy maslagi tutib o‘lkani,
Arosatga soldi o‘z bolam meni...

**Rahmon**
To‘rt ota, to‘rt farzand turar yonma-yon!
Ey Amir, ey Zohid, insonga inson
Yondosha bilmasmi bir inson kabi?
Siz farzand dog‘ining og‘irligini
Endi bular kabi his etdingizmi?
Balli, his etdingiz! Nega yetmadi

Bas, bu insonlarning dardi, faryodi
Sizning u tosh bitgan qulog‘ingizga?
Mana, qovrildingiz o‘z yog‘ingizga...
Dard chekib, kaytadan siz tugildingiz,
Mansabni unutib, odam bo‘ldingiz!..

*Saroy axli bir-birlariga xayrat ichida tikilishadi, ammo ne kilishni bilishmaydi. Shu alpozda parda yopilarkan …*

**Lukmon**
Chin ila yolgonning taloshlarida
Asrlarga tengdir yili dunyoning.
Haqiqat egilar va lekin sinmas,
Faryod-la ochilar dili dunyoninig.

**Shoir**
Hayotning nash’asi bizni shoshirar,
Tafakkur yo‘llarda dovon oshirar,
Bizni qadam-qadam ulug‘lashtirar
Mehnati, zahmati ulug‘ dunyoning.

**Tural**
Mardlikka chaqirar mardning narasi,
Terisi shilingan shoirning sasi!
Uzoq asrlardan kelar nafasi —
Tirik dunyomizga o‘lik dunyoning…

*(Parda tushadi).*

# GULISTON

## Doston

*Ozarboyjonning birligi va egamanligi yo'lida kurashgan Sattorxon, shayx Muhammad Xiyoboniy va Pishovariylarning aziz xotirasiga*[1]

Ipak ro'molchasi ila ohista
Artib, oynagini ko'ziga taqdi.
Shoshilmay egilib xontaxta uzra
Bir muhrga boqdi, bir qo'liga boqdi.

Labining cheti-la sal kulimsirab,
Qog'ozga havas-la u imzo otdi.
Bir xalqni ikkiga bo'ldi qilichdek,
Bir qalam asrlik hijron yaratdi.

O'tkir uchi bilan bu patli qalam
Siynasini tildi Ozarbayjonning.
Boshin ko'targanda, ellar dambadam
Unini o'chirdi Ozarbayjonning.

U kuldi qog'ozga qo'l qo'ygan zamon,
Achinmay yuraklar hijron sasiga.
U kuldi haq uchun tinmay kurashgan
Bir xalqning tarixiy fojiasiga.

Qirg'oqda kezinib to'psoqol og'a,
Goho tilmochiga savollar berar.

---

[1] 1804–1813-yillarda davom etgan rus-eron urushidan so'ng 1813-yilning 12-(24)-oktyabrida Qorabog'ning "Guliston" qishlog'ida Ozarbayjon hududini bo'lib olish yuzasidan kelishuv imzolangan. Doston ana shu mash'um voqeaga munosabat sifatida bitilgan. Shartnomani Rossiya tomonidan general-leytenant N.F. Rtishev, Eron tomonidan tashqi ishlar vaziri Abulhasanxon imzolaganlar.

Sattorxon (1867/68–1914) Eron ozarbayjonilik siyosiy arbob. Eronda Milliy sardor, deb ulug'langan shaxs.

Muhammad Xiyoboniy (1879/1880–1920) ozarbayjonlik jamoat arbobi.

Said Ja'far Pishavoriy (1892–1947) ozarbayjonlik siyosiy arbob.

Goh so‘lga burilar, goh o‘ngga boqar.
Goh boshin chayqatib, tasbeh o‘girar.

Qo‘yilgan shartlarga rozimiz deya,
Taraflar qo‘l qo‘ydi bu ahdnomaga.
Taraflar kim edi? Har ikkisi yot!
Yotlar beradimi bu xalqqa imdod?

Qaniydi, To‘maris oyoqqa qalqsa,
Bobakning[1] qilichi porlasa yana.
Ular bu shartlarga so‘zini aytsa:
“Zanjirni kim urdi sher bilagiga?”

Buzing to‘siqlarni, oching yo‘llarni.
Qani bu millatning mard o‘g‘lonlari?
Xo‘sh, qani bu asrning o‘z Go‘ro‘g‘lisi?
Qilich Go‘ro‘g‘lisi, so‘z Go‘ro‘g‘lisi?

Bobolarning shoni, sharafi, albat,
Bizga omonatdir, buyuk omonat.
Yo‘qmi qonimizda xalqlik g‘ayrati?
Shunday saqlarmilar, xo‘sh, omonatni?

Mayli, chaqmoq chaqsin, titrasin jahon!
Yuraklar g‘azabdan jo‘shsin, portlasin!
Doim haq yo‘lida qilich ko‘targan
Botir bobolarning go‘ri chatnasin!

Mayliga, bosh egsin viqorli tog‘lar,
Motami boshlandi buyuk bir elning.
Marsiyalar aytsin oqar buloqlar,
Yig‘ilar chiqarsin bugun qiz, kelin.

Taraflar sokindir, g‘azabnok emas,
Yengilganlar o‘lsa, ularga nima?

[1] **Bobak** (798/800–838-yillar) — Ozarbayjon milliy qahramoni.

Qo‘llar qo‘yiladi birma-bir, go‘yo
Imzo chekilgandek ishq maktubiga.

Har biri imzosin qo‘yib varaqqa,
Xotirjam o‘tirar borib joyiga.
Ko‘zoynakli janob, tasbehli og‘a,
Turib qo‘l ham berar biri-biriga.

Ularning birlashagan qo‘llari ila
Ikkiga ayrilar bir el, bir Vatan.
Oqizib ko‘zidan yosh jala-jala,
Bu dahshatli holga ne deydi Vatan?!

Bir kishi demadi: “Turing, og‘alar!
Axir bu o‘lkaning o‘z egasi bor!
Siz ne yozmoqdasiz boyadan beri?
Xo‘sh, qani bu yurtning o‘z egalari?!

Xo‘sh, qani haqiqat, xo‘sh, qani qonun?
Qadim-ku bu yurtning tarixi, yoshi!
Xo‘sh, qani ko‘ksiga sarhad qo‘yganing,
Bir butun o‘lkaning ikki qardoshi?

Qaraylik bu hijron, bu musibatga,
Ularning so‘zi ne, maqsadi nadir?
Bu xalq azal kundan tushib zillatga,
O‘z ota yurtida yo‘qsa qulmidir?!

Nega ayirdingiz tirnoqni etdan,
Yurakni badandan, jonni jasaddan?
Axir bu huquqni kim bergan sizga?
Sizni kim chaqirdi Vatanimizga?”

Necha vaqt handaqda xo‘p uvlashdilar,
Guliston kentida savdolashdilar:
Bir o‘lka ikkiga
Ayrilsin deya!..

Gumburladi demishlar u kun osmonlar,
Cho‘l-u dalalarni bulut qoplamish.
Bu gumburlash buyuk Bobak ruhining
Zor ho‘ngrab, faryodlar chekkani emish.

Guliston kentining gul-chechaklari
Bir kunning ichida so‘ldi-sarg‘ardi.
“Guliston” to‘sildi shu kundan beri,
U kent manglayida bir lanqa[1] qoldi.

Bag‘ri ko‘z-ko‘z bo‘ldi “Yoniq karam”ning[2],
Torlar ingradilar, yondi, xo‘p yondi.
Oshiqning sozida yanada hazin,
Yana bir yonguvchi parda yarandi.

O‘sha kun o‘lkani oldi sel-u suv,
Qoraydi chehrasi kunning, oyni-da.
Xo‘ja Nabatiyning[3] ishqi, orzusi,
U kun cho‘kib ketdi Arpa soyida.

Yig‘lashib tog‘lardan esgan shamollar,
Bu mash’um xabarni olamga yoydi.
Go‘yo tilga kirar gullar, chechaklar:
“Bu ishga qo‘l qo‘ygan qo‘llar sinsaydi”

Orazning[4] suvlari g‘azabli, toshqin,
Sirli nag‘malari ohdir, dod-voydir.
Vatan qushga mengzar: ikki qanotin
Biri u tay[5] bo‘lsa, biri bu taydir.

Qush ikki qanot-la uchar, yuksalar,
Men qanday yuksalay yolg‘iz qanot-la?

---

[1] **Lanqa** — qora dog‘.

[2] **Yoniq karam** —ozarlarning g‘amgin musiqasi.

[3] **Sayid Abulqosim Nabatiy** — ozarbayjon mumtoz shoiri.

[4] **Oraz** — daryo nomi.

[5] **Tay** — juftning bir bo‘lagi. Bu yerda qush qanotining biri ma’nosida kelgan.

Yuraklar bu darddan tug‘yonga kelar,
Ko‘zimdan tinmayin tomchilar yoshlar.

Janoblar biron on his qildingizmi,
Bergan hukmingizning og‘irligin siz?
Xo‘sh, ellik yo yuz yilmi hukmning kuchi?
Qanday yuvajakmiz yurak dog‘in biz?

Boshi kesilganda bu mag‘rur elning
Qalbi og‘rishini o‘yladingizmi?
Ustoz Fuzuliyning, botir Bobakning
E’tiroz sasini tingladingizmi?
Janoblar, bir tomchi siyoh bilan siz
O‘ylang-chi, nelarga imzo chekdingiz?

Bir tomchi siyoh bir vatandoshning
Qoniga kirdi-yu ikkiga bo‘ldi.
O‘sha tomchi siyoh ko‘zyoshga do‘nib,
Yillar-la ko‘zlardan oqdi, to‘kildi.

Minglab dog‘ tushirdi sharafimizga,
Berdik, xo‘jayinlar: Yana ber!- dedi.
Yaxshilik qilgani shu-da ularning,
Biri: “Baran”[1], — dedi, biri: “Xar”[2], — dedi.
Bizni ham yeyishar, ham minishardi,
Hamda tinim bilmay yomonlashardi.

Hukmining naqadar buyukligin ko‘r,
Muhr ham bosdilar varaqqa takror.
Yo‘q, varaqqamas, Ozarboyjonning
Ko‘ksiga tog‘ kabi dog‘ bosdi ular.

Imzoli, muhrli, ey jonsiz varaq,
Naqadar buyukdir quvvating, kuching.

[1] **Baran** (o‘rischa) — qo‘y.

[2] **Xar** (forscha) — eshak.

Asrlar bo‘yicha kurashdik, biroq
Qo‘zg‘ata olmadik hukmingni bir kun.

Ey qog‘oz parchasi, avval yo‘q eding,
Yozilib, qo‘l qo‘ygach, yo‘qdan bo‘lding bor.
Buyuk bir millatning boshini kesgan,
Qo‘lini bog‘lagan sensan hukmdor.

Bir elni ikkiga poralading sen,
Bir qog‘oz esangda poralanmading.
Ko‘ksingga bitilgan qalb otashidan
Nega tutashmading, nega yonmading?

Oraz sarhad bo‘ldi, esdi shamollar,
Suvlar o‘zanida qalqdi, ko‘pirdi.
Usti tasma-tasma taxta tirgaklar,
Daryo qirg‘og‘ida saf chekib turdi.

Ey suv, sendan pokroq ne bor dunyoda?
Loyqadan xolidir, tozadir qalbing.
Bu chirkin amalga qo‘l qo‘yilganda,
Bag‘ring otash bo‘lib nega yonmading?

Ey Oraz, to‘karsan ko‘zyoshi sen-da,
Ustidan o‘tganda cho‘lning, chamanning.
Seni ozodlikka to‘siq qilishsa,
Nega qurimadi suvlaring sening?

Men kelib Orazning bu qirg‘og‘iga:
“Jon qardoshim”, — desam, u ham: “Jon”, — deydi.
Ey zamon, sen menga javob ber nega,
Tovshim yetgan joyga qo‘lim yetmaydi?

Ko‘zlarim adashgan, olam adashgan,
Dard dardni to‘g‘raydir, g‘am g‘amdan o‘tar.
Orazning ustidan o‘ta bilmasman,
Oraz dardim olib, ko‘ksimdan o‘tar.

Taxta tirgaklarni tuproqqa emas,
Qoqdilar Fuzuliy devoni uzra.
Ikkiga bo‘lindi yuz, yuz ellik yil
Gerayli[1], bayati[2], mug‘om[3], shikasta[4].

Temir to‘siqlarni ishqim, tilagim,
Tarixim, an’anam uzra qoqdilar.
Ikkiga bo‘lindi jonim, yuragim,
Ikkiga bo‘lindi Orazda suvlar.

Taxta tirgaklarni qoqdilar, e voh,
Qalbim-u, ruhim-u, tilim ustiga.
Biz kuldik, yig‘ladik, birlashdik, ammo
Bitta soz, bir chertmak, bir tor ustida.

Yurakdan yurakka ko‘prik? Bir to‘xta!
Dardimiz tinglansa bir soz ustida.
Shahriyor[5] yarali misralaridan
Ko‘prik solmadimi Oraz ustidan?!

Qirg‘oqdan qirg‘oqqa oqadi seldek,
Ko‘zga ko‘rinmagan ko‘ngil torlari.
Bu selning yo‘lini na soy, na tirgak,
Kesa olmayotir yuz yildan beri.

Og‘alar bilmaydi, birdir bu tuproq,
Tabriz ham, Boku ham Ozarboyjondir.
Bu elning ruhini, tilini faqat
Qog‘ozlar ustida bo‘lmoq osondir.

---

[1] Har bandi to‘rt misradan iborat sakkiz bo‘g‘inli she’r shakli.

[2] Aaba shaklida qofiyalanadigan, har misrasi yetti bo‘g‘indan iborat to‘rt qatorli xalq lirik she’r shakli.

[3] Ozarbayjon maqomi.

[4] Ozarbayjon maqomining bir turi.

[5] **Muhammad Husayn Shahriyor** — Eronga qarashli Tabriz shahrida yashab o‘tgan ozarbayjon shoiri.

Bo‘l qog‘oz ustida, bo‘l kecha-kunduz,
Tuproqning ustiga tirgaklar qoqqin.
Kuchingni, azmingni to‘kkin maydonga,
Qo‘shindan, quroldan to‘siqlar chekkin.
Tuproqni ikkiga bo‘larsan, ammo
Qiyindir badanni jondan ayirmoq!

Ayirmoq hech kimga bo‘lmaydi oson,
Bir xalqning bir bo‘lgan hasratlarini
U yurtdan bu yurtga Mustafo Poyon[1]
O‘qiydi Vohidning[2] g‘azallarini.

Zamonlar aylandi, do‘ndi o‘tmishga,
Shoirlar o‘t sochdi yana tilidan.
Vurg‘unning[3] hasratli nag‘malariga
Shahriyor sas berdi Tabriz elidan:

“Haydar bobo[4], osmon qora tumandir,
Kunlarimiz bir-biridan yomondir,
Bir-biridan ayrilmagan omondir.
Yaxshilikni qo‘limizdan oldilar,
Biz yaxshini yomon kunga soldilar.

Bir uchsaydim, bu chirpingan yel bilan,
Qovushsaydim tog‘dan oshgan sel bilan.
Yig‘lashsaydim uzoq tushgan el bilan.
Bir ko‘rsaydim ayriliqni kim soldi,
O‘lkamizda kim qirildi, kim qoldi?”

*1959*

---

[1] Eronlik ozarbayjon hofizi.

[2] **Aliog‘a Bohid** — ozar shoiri, Ozarbayjonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi.

[3] **Samad Burg‘un** (1906–1956) — Buyuk ozar shoiri.

[4] Tabrizlik shoir Shahriyorning “Haydar boboga salom” dostonining qahramoni bo‘lmish yuksak tepalik nomi. Ushbu tepalik ozarbayjonlarning ramziy himoyachisi sanaladi.

## OZARBAYJON

Ozarbayjon, sensan mening
Ulug‘ligim, shon-shuhratim.
Noming mening o‘z nomimdir,
Sensiz bormi hech qiymatim?
Nafasimiz Bobaklarning
Sobirlarning o‘t nafasi.
Navomizda yashar bizning
Bobolarning oyoq sasi.
Biz tarixga sig‘inmadik
O‘tmishimiz garchi uzoq.
Goh kechmishni o‘ylasak-da,
Kelajakda erur nigoh.
Ozarbayjon — mening ishqim,
Mening ontim, mening onam.
Biz ikkimiz bir tuproqmiz,
Bir parchangman axir men ham.

## LOTIN TILI

Lotin tili!
Har so‘zingda dunyo qadar ma’no nihon.
Lotin tili!
Millat o‘lmish, ammo tili yashar hamon.
“Ona” degan,
“Zamin” degan,
“Vatan” degan
Kalimalar yo‘q bu tilda.
Lekin yana yashar bu til.
Tonglar bizning chegaradan
O‘zga yurtlar hududiga oshar bu til.
Balki... butun yulduzlarni kezar bu til.
Cho‘ng janglarda g‘olib chiqib,
O‘lgan mardga mengzar bu til.
Vatani yo‘q,

Millati yo‘q,
Yashar o‘zi.
Bilimlarning tamalidir
Lug‘atdagi har bir so‘zi.
Kim ham degay uni o‘lik,
Tabiblarning,
Olimlarning tilidir u,
Doim tirik.
Oy oti ham, yil oti ham bu tildadir.
Nabotot-u hayvonotning,
Tabiat-u samovotning
Nomlari ham ushbu tilda bitiladir.
Kim ham degay: “o‘likdir u”,
O‘liklarning tili emas,
Tiriklarning tilidir u.
Atlantika sohilida
Jo‘sha-jo‘sha,
Tosha-tosha:
— Men ozodman,
men baxtliman,—
Deydi notiq chet tilida.
So‘zla, notiq,
Ishonaylik endi nega —
Quloqqami
Yo ko‘zgami?
Amalgami
Yo so‘zgami?
“Men ozodman, baxtiyorman” so‘zlarini
O‘z tilingda aytmoqqa ham
Ixtiyoring bo‘lmasa gar,
Kim ham seni ozod atar?..
So‘zla, qanday ozoddirsan
Tor kulbada qolib ketsa ona tiling?
Necha ulkan anjumanlar, yig‘inlardan
Gungday chiqsang, yonib diling.
Majlislarda ona tiling so‘zi yo‘qdir,

Balki... uning ulkan, rasmiy majlislarga
Chiqmoq uchun tuzi yo‘qdir?
So‘zla, balki sun’iydir u
Otasidan yo‘q xabari?
Balki bu til juda nochor,
Og‘ushiga sig‘magaydir
Buyuk olam fikrlari?..
Ajab holat:
Vatan ham bor,
Millat ham bor,
Ammo uning tili yo‘qdir.
Go‘yo ko‘zgu kabi porloq yuzi bor-u
Dili yo‘qdir...
O‘zing aytgil,
Qaysi tilni o‘lik deymiz?
Vatani bor,
Millati bor,
Kichik, yo‘qsil kulbalarda
asir bo‘lgan bir tilgami?
Yoki uzun asrlardan
o‘tib kelgan,
Xalqi o‘lgan,
O‘zi qolgan bir tilgami?

## TILSIMLI OLMA

Mitti bola edim, sig‘masdim yerga,
Xayollar parvozi bilmasdi tinim.
Ne qadar baxtliydim, mo‘jizalarga
Haqiqat singari ishonar edim.
Chorlardi ertaklar sirli olami,
Tog‘lar cho‘qqisida nur bordi suyuk.
Qushday yengil edim, orzu odami,
O‘zim kichik edim, xayollar — buyuk.
Umidlar ortidan yelib misli o‘q,

Toshqin daryolardan ishonch-la kechdik.
Ulg‘aydim...
Ertakka endi ishonch yo‘q,
O‘zim katta bo‘ldim, xayolim — kichik.
Go‘zal ertaklarga ishonchim qani?
Ishonch orzular-la qo‘sha yasharmish.
Ishondim, tilsimli qizil olmani
yegan zahot inson ham yashararmish...
U payt go‘dak edim,
Bu go‘zal ishonch
Nega kerak edi menga o‘sha dam?
Ulg‘aygach angladim: qanday zo‘r quvonch
Yasharish baxtiga erishsa odam...
Derlarki fazoda sust kechar zamon,
Yo‘q, keta bilmasman ona zamindan.
Menga ishonchimni qaytaring bir on,
Zamon oqimini to‘xtatay chindan.

## BIR KEMADA

“Dunyo” degan bir kemada safardamiz
Sen ham, men ham, u biri ham.
Yaratgan ham asli bizmiz
Sevinchni ham, kadarni ham.
Toleimiz azal-abad mushtarakdir.
To‘fon erur bizlar uchun tanho dushman.
Hamrohlarim taqdirimga javobgardir,
Barchasining qismatiga men ham eshman.
Bir kemada safardamiz,
Birlashtirar yo‘llar bizni.
O‘zgan kema, suzgan kema
Qaylargadir yo‘llar bizni.
Biz sherikmiz dengizdagi to‘fonga ham,
Saboga ham,
Xush, yoqimli havoga ham.

Kema suzar,
To‘fonlardan hurkib qochgan to‘lqinlarning
quchog‘ida
qalqib-qalqib, enib-chiqib...
Eh, ne qadar ayanchlidir
Bir kemaning yo‘lchilari tish qayrasa
bir-biriga,
urib-yiqib.

## BIR LAHZA SUKUT

Maktabim — sukutdir,
Qalamim — fikr.
Bu ne sas,
Bu ne kuy?
Menga sukut ber.
Cho‘kay o‘z fikrimning teranlariga,
Bilay, fursat nedir, abadiyat ne?
Sukut istagayman...
Til lol,
Quloq kar.
Bir lahza sukutga ming yillar sig‘ar.

* * *

To‘ldir, yuragingni sevinchga to‘ldir,
Bu hayot goh tikka, goh chikka yo‘ldir,
Dunyoda dard ham mo‘l, lazzat ham mo‘ldir,
Qaysini ololsang o‘z qismatingdir.
Shodlik kerak bo‘lsa, ol, yasoq[1] emas,
Dard chekkan yurakdan dard yiroq emas,
Dunyo ikki rangdir, faqat oq emas,

[1] **Yasoq** — taqiqlangan

Yolg‘iz birin ko‘rmoq jaholatingdir.
Poyga maydonidir bu hayot, gulim,
Marraga mardona surgil ot, gulim,
Umr tekin kelgan, qimmat sot, gulim,
Tengi yo‘q bu boylik — o‘z sarvatingdir.
Baxtiyor, bildingmi, sen kimsan, nesan?
Ayt, ne shamollardir boshingdan esgan,
Dunyo motamida gar g‘am chekmasang,
Dunyoning to‘yi ham musibatingdir.

* * *

Hududsiz anglardik bir vaqt dunyoni,
Tarqaldi u ko‘hna tasavvur, gumon.
Soatlarda kezib cheksiz samoni,
Angladik, ne qadar kichik bu jahon.
Dunyoni qaytadan bo‘lishmoq uchun,
Qon to‘kdi qirollar, shohlar bir zamon.
Bugun bir bombada qalqiydi ochun,
Gohida ne qadar kichik bu jahon.
Yerning u burchidan lahzalar aro
Xabarlar yetadi bizga ko‘p oson.
Ming yillar yashadik, sir edi dunyo,
Bilguncha ne qadar kichik bu jahon.
Dilda umidlari, orzusi cheksiz,
Xayollar ortidan ulg‘aydi inson.
Oqillar dunyoga sig‘madi hargiz,
Eh, gohi ne qadar kichik bu jahon.

* * *

Chamandagi gul, chechakning
Sog‘-so‘lida alafi bor.
Dunyoda har baxtsizlikning

Ham zarari, ham nafi bor.
Vaqt — tabiblar tabibidir,
Hayot inson habibidir,
Yoydan chiqqan o‘q kabidir,
Har umrning hadafi[1] bor.
Yurakdadir so‘z ildizi,
Mangu qolar unda izi,
Ko‘p og‘irdir mehnat o‘zi,
Ado etsang sharafi bor.
Yurak — tilsim, yonar par-par,
Har burjida minglab gavhar,
Inson ko‘kda oyga mengzar,
Ko‘rinmagan tarafi bor.

## KEKSALIK

Muddat — shu, qismat — shu, shumidi qadar?
Umr yo‘g‘rilganmi g‘amga sar-basar,
Tanholik dardini yurak ham sezar,
Hozir bo‘l, eshikni qoqar keksalik.
Zamon oqishidan aylanadi bosh,
O‘zim ham bilmasman, nedan bu talosh,
Faqat qomatingni emas, ey qardosh,
Insonlik sabotin egar keksalik.
Bahorni beribman, qishni olibman,
Yillarni beribman, yoshni olibman,
To‘lani topshirib, bo‘shni olibman,
Kim aytar: “keltirar samar keksalik”
Vaqt umr gulin bir kun so‘ldirar,
To‘lani bo‘shatar, bo‘shni to‘ldirar,
Baxtiyor yoshlikni g‘urur bildirar,
Kechmishdan xotira bo‘lar keksalik.

[1] **Hadaf** — maqsad, nishon.

## NOMSIZ SHE'R

Ko'zimda ko'l bo'ldi, gul bo'ldi yoshlar,
Tark etdi birma-bir do'stlar, tanishlar...
Baxtsizlik — yurakka sanchilgan tikan,
Udir yolg'izlikning egiz qardoshi;
Yolg'izlik — tog'day yuk, bellarni bukkan,
Dunyoning eng ulkan, eng og'ir toshi...
Yolg'on — ming bo'yoqli,
Haq-chi, bo'yoqsiz.
Yolg'on qip-qizildir, haqiqat oqdir.
Yolg'on — shir yalang'och, yolg'on hayosiz,
Haqiqat har zamon sal tortinchoqdir.

*2001*

## VIJDON

Ikki yo'lning o'rtasida turgancha,
Goh u yondan, goh bu yondan qo'rqaman.
Devdan emas, pashshachalik kuchi bor,
O'zini dev sanagandan qo'rqaman.
Ul dargohda Haq devoni qurilgay,
Ne topgansan, bari bir-bir so'rilgay;
Iddaosi bo'ynimizga yuk ilgan —
Avf etilgan sharaf-shondan qo'rqaman.
Bu dunyodan bir umidim mezondir,
Men qo'rqqan kas u mezonni buzgandir,
To'q kimsaning quturishi yomondir,
Ochdan emas, men to'ygandan qo'rqaman.
Kim hamkordir nafs degan shaytonga,
U tupurar haqiqat-u vijdonga;
Axir vijdon qiymat bergay insonga —
Vijdonidan qo'rqmagandan qo'rqaman.

## AQLNING KO‘ZI BOR

Do‘stim, bir g‘alati so‘z aytding, zotan
Dedingki, ko‘rmasam — hech ishonmayman.
Dedim, sen orifsan, men bir avomman,
Men ko‘z-la ko‘rsam-da, inonmam, ammo.
Bilmayman — ko‘zimga ko‘ringan dunyo
Aslan haqiqatmi yo sirli ro‘yo?..
Baland-past dunyoda men yashab yurib,
Angladim o‘ng-chap ne, ne butun-yarim.
Bildim — haqiqatdir aqlim-la ko‘rib,
Ammo ko‘zlarim-la ko‘rmaganlarim.
Aqlning ko‘zi bor, u yo‘l ko‘rsatar,
Ko‘zda-chi, aql yo‘q, u bizni aldar.

## ALVIDO

Do‘stlarim, umrimning safosi bitdi,
Toqqa ketdim, dala-tuzga alvido.
Ko‘zga tuman cho‘kdi, boshga qor yog‘di,
Bahorga alvido, yozga alvido.
Sen ishqni har zamon muqaddas deding,
Kunlarga yopishmoq puch havas deding,
Ko‘pni istamading, ozga bas deding,
Derman: ko‘p yo‘q esa, ozga alvido.
Endi tomiridan uzilgan menman,
O‘rgangan oshyoni buzilgan menman,
Endi na sen sensan, na-da men menman,
Endi biz bizmasmiz, bizga alvido.
Baxtiyor, yarangdan oqqan qon har on
Seni kechmishingga bog‘lar har zamon;
Zulmat yuragingni yog‘dulantirgan,
Yo‘lingga sham tutgan ko‘zga alvido.

## AQL BOSHQA, YURAK BOSHQA

Bir-biriga o‘xshasa ham,
Yel boshqadir, yelak boshqa.
Atri ham xush, rangi ham xush,
Gul boshqadir, chechak boshqa.

Tik yo‘l ko‘rib, noxush deysan,
May ichganni sarxush deysan,
Har uchganni bir qush deysan,
Qush boshqadir, kesak boshqa.

Har dardingga darddosh bo‘lay,
Og‘iringni yengil qilay,
Sen tortsang gar, men tortilay,
Kema boshqa, yetak boshqa.

Haq, haqiqat o‘z yo‘limdir,
Egilmagan tik ko‘nglimdir,
Yaxshi-yomon sog‘-so‘limdir,
Shayton boshqa, malak boshqa.

Tilak, maqsad deb o‘q otdim,
Goho topdim, goh yo‘qotdim,
Umrimda har neni totdim,
Aql boshqa, yurak boshqa.

Orzu, istak — uchar otim,
Parvozlarda qo‘l, qanotim,
Nega yetar bu hayotim —
Amal boshqa, tilak boshqa.

## DUNYONING

Baxs ochmadim, umrim bo‘yi men, afsus,
Iblisidan, malagidan dunyoning.
Sotdi Odam bir olmaga jannatni,
To‘rga tushdi yuragidan dunyoning.

Ko‘ngling ochsang, so‘z keladi quyulib,
Kun kechirma yengil-yelpi, suyulib.
Azob degan tegirmonda tuyulib,
O‘tadirsan elagidan dunyoning.

Orzu qildim, bir malak deb charx urdim,
U tepadan bu tepaga yugurdim;
Nega qo‘rqay kafanidan, ne ko‘rdim —
Beshigidan, belagidan dunyoning.

Biz o‘zimiz o‘zimizdan o‘ch oldik,
O‘tar kun deb kelar kundan boj oldik,
Umrimizning yarmidayoq chol bo‘ldik
Chop-chopidan, chapagidan dunyoning.

Ko‘ngul uzgun, xayol mahzun, darbadar;
Zulm degan, ayt, bo‘larmi shu qadar?!.
Yetaklanib qayga bordi qanchalar?
Tutsang tut-a etagidan dunyoning!

Ko‘ngil tushdi ming orzuning iziga,
Hayron bo‘ldi egrisi, to‘g‘risiga;
Endi esa, kafan bichar o‘ziga
O‘z kulidan, chechagidan dunyoning.

## ONAM O‘LDIMI

Oh, onam, nahotki dunyodan o‘tding?
Meni yolg‘iz tashlab qaylarga ketding??
Inson birdaniga yo‘qolar qanday,
Xuddi bu dunyoda hech bo‘lmaganday???

Kun botdi... Shom tushdi... Qorong‘u xonam...
Birdan g‘oyib bo‘lding sen xayol kabi.
O‘ylayman, sendan ne qoldi deb, onam,
Qalbimda xotirang qora xol kabi...

O‘stirding, ulg‘aytding, qo‘llading, onam,
Biz esa o‘rtadik har zamon seni.
Sen meni dunyoga yo‘llading, onam,
So‘ng yo‘lga soldim men dunyodan seni...

Beshigim tebratib, aytganding alla,
Tobuting tebranib bormoqda bunda...
Men alla aytaymi, yig‘lay bu palla,
Neni ham qaytaray bu janozangda?..

Uyqung shirin bo‘lsin, der eding menga,
Uyqung shirin bo‘lsin, desammi senga?
Bir paytlar erkalab, uxlay qol, derding;
Meni yashash uchun uxlatar erding.

Endi o‘lim uchun uxla sen, onam,
Ne ham deb uxlatay men seni bu dam?..

Hech anglay olmadim, bu qanday dunyo,
Jilva, jozibasi, ranglari a’lo!
Kecha o‘z nafasi bilan isitgan
Muzlatib qo‘yishi bugun, ayt, nedan?..

Bu qanday dunyoki,
Insonni bukir!

Ko‘zi ko‘kda, o‘zi ko‘lkalardadir.
Sog‘ ekan, yelkada hayotning yuki,
O‘lganda jasadi yelkalardadir...

Bu qanday dunyodir, bu qanday dunyo,
O‘limi haqiqat, hayoti ro‘yo!
Dardimning, g‘amimning sherigi sending,
Nega yuz o‘girding nogahon mendin?..

Darding menga kelsin, der eding axir,
Nega dard qo‘shding sen dardimga oxir?..

Onam, kimsa seni qiynamagandir,
Xafa qilmagandir seni menchalik.
Endi kimga aytay pushmonim bir-bir,
Kim mening holimdan kuyar senchalik?..

Uyning har yerida sezilar sharpang,
Ko‘zimning oldidan ketmaysan, onam.
Buvim qani, deydi mitti nevarang,
Javobim alamli, mujmal-u mubham.

O‘lim ne — bilmadim. Bilarmi inson?
Bilarmi, hayot ne bu yer ustida?
Ey, onam, nafasing uydadir hamon,
Tosh qotgan bo‘lsang ham tuproq ostida.

...Yettingni o‘tkazdik bugun.
yetti kun
Biz bilan yig‘ladi ko‘cha, bog‘, uylar.
Senga,
Faqat senga
Aytmoqlik uchun
Bilsayding, ko‘nglimda qancha gapim bor...

Onamni topshirdik ona tuproqqa,
Bu o‘lim ko‘ksimda qoldi dog‘ bo‘lib.

O‘xsharding orqamda turgan bir toqqa,
Oh, onam, umrimdan ketding tog‘ bo‘lib.

Umringni tugatding oltmish yoshingda.
Oltmishda to‘xtadi u ko‘z yoshing-da.

Endi sen uchun vaqt, zamon ham yo‘qdir,
Men uchun charx urar davron... Shom cho‘qdi.
Vaqt o‘tar — sen mendan uzoqlashursan,
Men senga kunma-kun yaqinlashurman.

## MENDAN XABARSIZ

Umrim fasllari tez keldi, ketdi:
Yozi mo‘l hosilli, qishi samarsiz.
Bir kuni ko‘rdimki, kuchdan qolibman,
Yillar o‘z otini surmish egarsiz.

Ey, ufqi bor yerga bosh qo‘ygan yillar,
Qayg‘ulik ko‘zimga yosh qo‘ygan yillar!
Ey, yoshim ustiga yosh qo‘ygan yillar,
Qayoqqa qochyapsiz mendan xabarsiz?

Ey, umrim! Ko‘rindi endi sohiling,
Qo‘ling qisqararkan, uzundir tiling,
Muhitda berganing yetmish uch yiling,
Boq, zahri yetarli, boli yetarsiz.

Har kimning o‘z yuki umri-yu yoshi,
Dardi sirdoshidir, fikri — yo‘ldoshi,
Har ne unutilar — alam, ko‘z yoshi,
Sevinch ham, qayg‘u ham o‘tmas xatarsiz.

Fikrlar selida qiynadim jonni,
Ajrata olmadim yaxshi-yomonni,
To‘kildi umrimning yil-yil xazoni —
Vayrona bog‘larda eslab o‘tarsiz...

Ko‘ngil o‘sha ko‘ngil, keksa yoshimda
O‘ylarim qaynaydi yana boshimda,
Yana hujumdaman,
So‘z savashimda
So‘zim beshotardir, o‘zim otarsiz.

*Avgust, 1998*

## NE QILAMIZ

Qush sayrar-u alyor o‘qir,
Tosh o‘qisa, ne qilamiz?
O‘rgimchak ham to‘rin to‘qir,
Yel to‘qisa, ne qilamiz?

Dedim, dunyo bir tomosha,
Kim yiqilar, kim tom oshar;
Deganlarim boshdan-bosha
Yo‘q gap chiqsa, ne qilamiz?

E, yo‘qsil yo‘q, boyimiz bor,
O‘qimiz yo‘q, ‘yoyimiz bor,
Zo‘r dam yegan choyimiz bor,
Shakar yo‘qsa, ne qilamiz?

Yolg‘onlar deb jondan to‘ydik,
Goh kuldik, goh qovoq uydik,
Et aynisa, tuzga qo‘ydik,
Tuz muz chiqsa, ne qilamiz?

*12.02.2000*

## SUKUT, XAYOL, MUHABBAT

*Musulmonning bir soatlik tafakkuri*
*bir yillik ibodatdan avlodir*
***(hadisdan)***

Men sukutga berildim.
Sukut — o‘yim, o‘ylog‘im.
Xayol surib, jim qoldim,
Xayol — orzularimni

Haqiqatga yetkazgan
Qo‘limdagi bayrog‘im.
Xayol — ko‘kda qanotim,
Yerda chopgan G‘irotim,

Dengizda — oq yelkanim;
Sukut — ma’badim manim!
Biqdim eski dunyoning
Hayyo-huyi, puchidan;

O‘ylaymanki, qutuldim
Yerning tortish kuchidan.
Yerda har ne o‘lchoqli,
Har nening o‘z haddi bor.

Yerda daryo, dengizning
Chagarasi, saddi bor.
Yerning qonunlariga
Bosh egmagan xayolim

Mening so‘ngsiz ishqimni
So‘ngsizlikka tashiydi.
Sukutim bilan unda tinch,
Oromda yashaydi.

U hayotning sharti yo‘q,
Bor-u yo‘qning dunyoda

Mening uchun farqi yo‘q.
Qovushganim sukutning

Tovushi bor, tinglayman.
U kundan kun ichimda
Balandlashib boradi,
Qo‘rqamanki, bu tovush

Yuraklarni yoradi!..
Orzumning qarshidagi
Qarshilikka uzilgan
Zarbasidir bu sukut.

Xayol, sukut, muhabbat —
Sharaf yo‘lim, shan yo‘lim,
Ollohning dargohiga
Meni tashigan yo‘lim.

Sukutni anglamagan
Abadiy g‘aflatdadir.
Bir yumaloq ichida —
Cheklangandir, haddadir.

Sukutning faryodini
Eshitganlar, tuyganlar
So‘ngsiz ibodatdadir.

*04. 2001*

## SO‘NGGI TEPA

Bu yo‘llardan karvon kechdi,
Qulog‘imda sasi qoldi.
Tugasa ham jonda toqat,
Yashamoq havasi qoldi.

Sayozda ko‘rdim teranni,
Bir yaxshi-la bir yomonni,
Qazdim hayot degan konni,
Oltin ketib, misi qoldi.
Umr axir oz, bir qarich,
Boshi urush, so‘nggi yarash,
Karvon o‘tdi chang aralash,
Yuz-ko‘zimda xasi qoldi.

Unutilmish ko‘pdan beri
Dunyoning to‘y-tugunlari,
O‘tib ketdi shan kunlari,
Dardi, g‘am, g‘ussasi qoldi,

Karvon ketdi yor qoshiga,
Men yetdim keksa yoshiga,
Borurman manzil boshiga,
Eng so‘nggi tepasi qoldi.

*30.06.1996*

## YETARMI?

Ollohning bergani shu ojiz aql,
Bir oz aqllansak, bizga yetarmi?
Qanchalar istasang ko‘kka sajda qil,
Ko‘rinmasni ko‘rmoq ko‘zga yetarmi?


Qo‘limiz uzun-u, aqlimiz qisqa,
Istaymiz — tosh uzra bog‘-rog‘lar o‘ssa,
Inson yuragining rasmini chizsa —
Ollohim, bitta rang, bo‘zga yetarmi?

Qalbimni she’rimga qo‘ygandan beri,
O‘ylayman: so‘zimda fikrim javhari.
Ne o‘zi ko‘rganim, so‘rganim bari —
Hissimni so‘ylasam, so‘zga yetarmi?

*10. 2001*

# XALIL RIZO





## OZARBAYJONNING QAHRAMON SHOIRI

Xalil RIZO (1932-1994) — atoqli millatparvar shoir, mohir tarjimon, ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalariga o'ziga xos xissa qo'shgan olim. U 1960-yillardan beri sho'ro tuzumiga muxolifatda yashab ijod qilgani, xususan, umrining oxirgi o'n yilida, Ozarbayjonning milliy mustaqilligi uchun kurashdagi, adabiy ijoddagi jasorati bois, menimcha, nafaqat Ozarbayjonda, balki butun turk dunyosidagi nodir, qahramon shoirdir.

Xalil Rizo Salyan tumanida tug'ilgan, o'rta maktabni, 1954-yilda Boku davlat universiteti filologiya fakultetini bitirgan, shu yili Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilingan. Matbuotda ishlagan, Moskvadagi jahon adabiyoti instituti oliy kursida o'qigan; Bokuda aspiranturani bitirgan, nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan, institutda dars bergan, ko'p yillar Ozarbayjon FA Nizomiy nomidagi adabiyot institutida ishlagan. "Maqsud Shayxzoda she'riyati va ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalarining muhim masalalari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. (1985). Jahon adabiyoti namunalarini ozarbayjon tiliga o'girgan. Jumladan, o'ttizdan ortiq o'zbek shoirlari asarlarini ozarbayjonchaga tirjima qilgan, ulardan ayrimlari "Turon chalangi" ("Turon guldastasi") kitobidan o'rin olgan.

1990-yil 20-yanvar voqyealaridan keyin u Moskvadagi KGB qamoqxonasiga, Lefertova zindoniga tashlandi. Shunda butun Ozarbayjon "Xalil Rizoga ozodlik" harakatini boshlatdi. Hukumat tashkilotlariga jamoatchilik nomidan shoirning ozodligi talab qilingan bir yarim milyo'n talab xati va telegramma yuborildi.Ular ichida tarafimizdan yozilgan va o'zbek ziyolilarining 15 tasi imzolagan xat o'sha paytda Bokuda, "Adabiyot va injasan'at" gazetasida, keyin X.R.Ulug'turkning "Lefertovo zindonida" xotiralar kitobida bosildi(Boku 2006, 445-447 b.).

Nihoyat, shior ozod qilindi, Ozarbayjonga turmada yozilgan to‘rt jild qo‘lyozma bilan qaytdi. Biroq o‘ttiz yillik oqimga qarshi suzish, umrining Lefertovo panjasidagi so‘nggi davri uning sog‘ligini yemirib qo‘ygandi. Xalq sevgan shoirga endilikda munosabat o‘zgarib, yangi uy, mashina, xalq shoiri unvoni berildi, kitoblari qayta-qayta nashr etildi. Hukumat hay’atida chet ellarga safar qildi. Afsuski, dunyo uning ruhini yengolmasa ham, vujudini hukmiga oldi: shoir 1994-yilda vafot etdi. Xalq sevgan shoirga yarasha hurmat bilan Faxriy xiyobonga dafn etildi.

X. Rizo ijodining uch qanoti bor: she’r, ilm, tarjima. U bu uch sohada o‘z yo‘lini ochgan, o‘ziga xos maktab yaratgan ijodkor. Ilk she’ri 1948-y. bosilgan. O‘z davrida shov-shuv yaratgan, sevib o‘qilgan va o‘qilayotgan yigirmadan ortiq she’riy kitoblari bor; “Bahor kelur” (1957), “Ko‘zlar sevsa” (1959), “Muhabbat dostoni” (1961), “Mening quyoshim” (1963), “Qo‘llaringni keng och” (1965), “Yangi cho‘qqilar” (1971), “Buyuklik” (1973), “Qondoshlik” (1977), “Seni topurman” (1980), “Umrdan uzun kechalar” (1982), “Qayon ketur bu dunyo” (1983), “Vatan mendan boshlanar” (1988), “Davom etar 37” (1992), “Oy va quyosh orasida” (1992), “Qahramon Tabriz” (1994), “Turon chalangi” (1994), “Men Sharqman” (1994), “Alvido, Vatan” (1996), “Lefertova qamog‘ida” (xotiralar,1998) va b. U vatanparvarlik, millatparvarlik mavzusida ijod qilgan shoirlar orasida alohida ajralib turadi. Vafotidan keyin uning ikki jildlik “Tanlangan asarlar”i, xotiralari, kundaliklari jild-jild holida bosildi.Tadqiqotchi Mohira Askarovningyozishicha, 1957—2017-yillar orasida shoir ijodi haqida 690 maqola, 22 ta kitob nashr etilgan.

Shoirning so‘nggi yillardagi hayotiga, shubhasiz, unga Ozarbayjonning atoqli rahbari, umummilliy lideri Haydar Alievning yaxshi munosabatda bo‘lishi ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Xalil Rizo Ulug‘turk, “Tanlangan asarlar” (Boku, 2014) kitobi Haydar Alievning quyidagi so‘zlari bilan ochiladi: “Ozarbayjonning buyuk shoiri Xalil Rizoning xalqimiz madaniyati ravnaqida ulkan xizmatlari bor. Uning boshqa ijodkorlardan muhim farqi shundaki, asarlari milliy mazmun, milliy ruh bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchunmi, ba’zilar uni “millatchi” deydi. Mening fikrim-

cha, u millatchi emas. U hamisha millatini sevgan, millatining ozodligi yo'lida kurashgan shoirdir. Xalil Rizo buyuk dissidentlardan edi. Zotan uning asarlari haqiqatni hayqirardi. Ammo bu haqiqat u zamondagi kommunistlar mafkurasiga zid edi — ana shunga ko'ra u dissident hisoblanardi. Shunday bo'lsa ham, biz Xalil Rizoni qo'riqladik, saqladik."

Haqiqatan ham, Xalil Rizo nodir ijodkor edi: u shoir sifatida dong qozonish bilan birga, boshqalardan farqli o'laroq, so'zi va ishi bir bo'lgan, temir irodali, chin milltaparvar, qahramon shaxsdir. Shu o'rinda uning ayrim she'rlarini, otashin misralarini eslash foylalidir deb o'ylaymiz.

*...Siqib qo'ydi eskini bugun yangi Moskva.*
*Panjasiga urilar bayroqlarning epkini.*
*Men o'zi ne istayman? Bir yutum toza havo!*
*Ozod ko'rmoq istayman zindonlashgan o'lkani!..*
***("O'ksinma")***

Birinchi jahon urushida yengilgani bois chor Rusiyasi qanday cho'kkan va o'rniga sho'rolar tizimi o'rnatilganini, uning dohiysi "Chor imperiyasi xalqlar turmasidir" deganini bugunda ko'pchilik yaxshi biladi. Sho'rolar chorning mustamlakachilik siyosatini qoralagan, unda qulga aylantirilgan Qofqoz va Turkiston musulmonlariga ozodlik, o'z huquqini o'zi belgilashni va'da qilgan va Asosi qonunida belgilagan bo'lsa ham, mustamlakaqchilik va xalqlarni talash yo'lidan borgani ham endilikda ommaga ma'lum. Xalil Rizo sho'rolar saltanatini "zindonlashgan o'lka" bir jumla bilan, bomba kabi so'zlar bilan ifodalagani uningbuyuk va jasur zakosidan darak beradi"Vatanimni o'ylayman" she'rida 90-yillarda Bokuning markaz qo'shinlari tomonidan xujumga uchrashi, qurolsiz xalqni, bolalaru keksalarni tanklar tiriklayin bosgani, askarlar xalqni qirib, qo'rqitmoqchi, mustamlaka zanjiriga yanada qattiqroq bog'lamoqchi bo'lgani fo etiladi:

*Tirik-tirik bolalarni tankda bosgan yangi chorlar —*
*Qotillarning qarshisida tiz cho'kkan qul mansabdorlar!*

*Na joni bor, na qoni bor bu yeb-ichar chirimsoqlar!*
*Chuqur go'rga muhtoj ekan, hukm aylagan qurumsoqlar!*
*...Ammo, afsus, yuraklarda u qo'rquv bor, lak-lak, lak-a!*
*Qo'rquvlarga asir tushgan inson - o'zi mustamlaka!*

Shoir o'sha Boku qatliomini eslatarkan, yangi chorlarga qarshi kurashish qo'rqmaslik kerakligini eslatadi. Har bir qo'rqoq vatandosh (ichidagi mustamlakachalik, qullik qo'rquvini yengolmagani uchun, ichini vahima va jaholat bosgani bois), o'sha "yangi chorlar" qarshisida "tiz cho'qqan qul mansabdorlar", bari qo'rqoqlarninng har biri — "Qo'rquvlarga asir tushgan Inson - o'zi mustamlaka!"deya xalqni jasoratga chaqiradi.

Shoir turmada vatani, millati bilan yonma-yon eng qadrdon kishilarini, xususan umr yo'ldoshi Farangiz xonimni o'ylaydi, u bilan xayolan suhbatlashadi, unga xitob yoki maktub shaklida she'rlar bitadi. Shulardan birida u eri qamalgan xotin obrazini shunday gavdalantiradi:

*Bilaman, o'qiysan, yarim tun o'tar,*
*Jumboqlar yechasan, qayg'ung tarqatar,*
*Bilaman, tong sening bag'ringda otar,*
*Bag'ri shafaq kabi qon Farangizim!*
***("Qo'rqma, men tog'dayman").***

"Alvido, Lefertovo" she'ri "Tutqun" kitobining so'ng bobi kabi tasavvur yaratadi.... Unda chor imperiyasi kemirgan o'lkalarni, u tarqalib, tarixga ko'milganidan keyin ham, boshqa millatlarni aldab, "tenglik, erkinlik" beramiz deb , soxtakorlarcha sovetlar davlatini qurgan yangi chorlar - bolshevik-kommunistlar imperiyasini xalqaro maydonda bosqinchi, soxtakor saltanat asoschisi sifatida fosh etadi:

*Yiqamiz bir senimas, butun imperiyani,*
*Soxta qonuniylashgan mal'un imperiyani!*

Ozarbayjon istiqloli uchun 60-yillardan boshlab so'z bayrog'ini yuksaltib maydonga tushgan va umrining oxirigacha maydondan chiqmagan, egilmagan, sinmagan mag'rur shoir

edi. Uning ozodlik haqidagiOzodlikni iatamayman zarra-zarra, gram-gram,Qo'limdagi zanjirlarni parchalayman, sindiraman!.. degan satrlari nafaqat Ozarbayjonda, balki sho'roning barcha qullashtirilgan respublikalarida og'izdan-og'izga o'tib yurdi, Xalil Rizoni millatsevar shoir sifatida tanitdi. Bugunda, turkiy davlatlar kengashi rasman ish boshlagan yangi davrda, menimcha, Xalil Rizo kabi millatparvar shoirlarimiz ijodi barcha qardosh tillarga tarjima qilinishi kerak, chunki ular havoday zarur ma'naviy ozuqadir.Quyidagi she'rlar shoirning "Vatan mendan boshlanar", "Tanlangan asarlar" kitobidan o'zbekchaga o'girildi.

**Tohir Qahhor,**
*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi*

## ISH JOYIM

Ish joyim o‘zgaruvchan: Bokuda, Solyondadir,
Samarqandda, Toshkentda, Qozondadir ish joyim.

Uyda siqib qo‘yishdi,
ayvondadir ish joyim.

Teleko‘zgu, radio, raqs, musiqa, to‘polon —
Bir uyga sig‘ar qanday? Bormi tinchlik biror on?

Ba’zi paytlar ucharman chaqmoqday uchoqlarda,
Uchoq, chaqmoq — ish joyim.

Tilimni qo‘riqlarkan,
qoya, so‘qmoq — ish joyim.

Ikki tosh orasida qolganga yordam bersam —
Tosh orasi — ish joyim.

Jasur bir odim otgan talabamni, o‘g‘limni
O‘pgan paytim, ko‘z bilan qosh orasi — ish joyim.

Umrimning har bir oni —
jang, inqilob zamoni,
Qayda g‘ov, devni ko‘rsam,
Jasurcha zarba bersam,
O‘sha kunim — ish joyim.

Bir kun qabrim boshida to‘plansalar do‘stlarim,
Xotiramning nuriga qoplansalar do‘stlarim,
“Xalil Rizo” yozuvli oq-oppoq marmarimdan,
Eng so‘nggi yodgorimdan jur’at, qudrat olsalar,
Hatto qabrim — ish joyim.

*1986*

## FUZULIYONA

Ne zamondir bu qayg‘ular karvonining sorboniman,
Hasrat, mehnat saxrosining nolasi-yu noloniman,
Haqir, faqir bo‘lsa hamki, shohman, shohlar farmoniman,
Qul va yo‘qsul bo‘lsam hamki, yo‘qsullarning sultoniman,
Ko‘zyoshim — taxt, dardlarim — toj,
ohim — bayroq, sham joniman,
Jafolarim xizmatchimdir, balolarning ummoniman.

Falak davlat bersin menga, yo qolmasin eng so‘ng tiyin,
Hech farqi yo‘q, yashagayman bir xondayin, sultondayin,
Charx boshimdan bossa-bossin,
yoqsa-yoqsin — bo‘lmas qiyin,
Men ham bitta Horundirman, o‘zligimdir la’l, dur tayin,
Ko‘nglim vafo dafinasi, yashirin u, sal xilvatda,
Ko‘zim gavhar xazinasi, tuproq bo‘lmoq bor qismatda.

Umrim berib, bir boshimga ming-ming mehnat oldim, netay,
Ko‘z yoshimni to‘kib, dilga ranj-u alam soldim, netay,
Yuragimning ko‘zgusida changlar bilan qoldim, netay,
Egasiz it kabi kun-tun sarson kezib, toldim, netay,
Kunduzim-u kecham qora, saharim ham nola, faryod,
Ne bersalar bo‘lurman shod, bermasalar — yana-da shod.

Ko‘ngli ko‘rlar boqa olmas mening quyosh suvratimga,
Vafosizlar jafo aylar shu bechora xilqatimga,
Tushgay o‘tli ohimdan o‘t zulmatiga, illatiga,
Vayron qilar nolam barin, o‘t tushar yov millatiga,
Mutloq qasos olar bunda har zolimdan odil zamon,
Yaxshi yetar yaxshilikka, yomonga kun kelgay yomon.

Xushbaxtmanki, ulug‘ tangri hukm etarkan, chekib qalam,
Vujudimning lavhasiga suvratimni etmish mahram,
Bu olamda yaratsa gar meni egam ko‘r yo ko‘rkam,
Bo‘lmas uning yozug‘ida o‘zgarish yo xato hecham,

Bu azaliy saodatga hech bir zamon zavol yetmas,
Quyosh ko‘kdan ensa hamki, tuproq uni poymol etmas.

Olloh aziz qilsa kimni, uni hech kim xor etolmas,
Baxti kulgan ezgu zotni zo‘ravonlar zor etolmas,
To‘g‘ri, so‘lar xazon fasli har yashnoq gul, har gulnafas,
Har ne bo‘lar o‘z vaqtida, bevaqt bir on epkin esmas,
Bilki, tangri dargohidan kim davlatli kelgan ekan,
Uni yo‘qsil qila olmas na bir chayon, na bir ilon.

To‘g‘ri, olchoq, ters falakning yuz jabri bor, ming qazosi,
Oq baxtimni qora qilsam deydi qora kun jazosi,
O‘z yo‘limdan qaytarolmas zamonning qish, kuzi, yozi,
Ranglar qizi — buqalamun turlanarkan, ortar nozi,
Past ishidan, qilmishidan pushaymondir, pushaymondir,
Kecha kofir edi, bugun musulmondir, musulmondir.

## INSON XUSHBAXT BO‘LGANDA

Inson xushbaxt bo‘lganda,
ba’zan hech yota olmas,
Qalbga ummon to‘lganda,
ko‘ziga uyqu kelmas.

Inson jasur bo‘lgan payt,
nuqta qo‘yar hasratga,
Dardlarni yengar har vaqt,
erishar kuch-qudratga.

Yigit bo‘lsa, sig‘dirar
qo‘liga oy-u kunni,
Ayirmay, bog‘lab qo‘yar
kunduzga qora tunni.

Inson baxtiyor, dono,
jasur bo‘lsa, bu ne baxt.

Bir kishida bo‘lsa jo,
ne baxt, bu uch fazilat.

Har odam xotirlatar
olib bo‘lmas qal’ani,
Yangi umr yaratar,
yashamas xor, talanib.

Men bir qudrat zarrasi,
bir qudratning sasiman,
Ehtimol, yer kurrasin
yettinchi qit’asiman.

*1986*

## OPKETDI SELLAR SARANNI

Arpachoy bir oshdi-toshdi,
Sel Saranni oldi-qochdi.
Surma ko‘zli, qalam qoshli,
Olib ketdi sel Saranni,
Qora ko‘zli, bo‘z bolani.

Keting denglar Xoncho‘ponga,
Kelmasin bu yil Mug‘onga,
Mug‘on botdi sahar qonga,
Opketdi sellar Saranni,
Uzun bo‘yli bir bolani.

Yo‘q, buni ko‘rmangiz hech Arpachoydan,
Kim deydi, Saranni sellar opketdi,
Shahanshoh bog‘idan, qishki saroydan
Yurtimga cho‘zilgan qo‘llar opketdi.

Nayzalar bag‘rimiz teshib o‘tarkan,
Qonsiz jallodlarning g‘azabi toshar,

Boku bog‘lariga kelib-ketarkan,
Shavkatin ko‘rib, yov hasadi oshar.

Quchog‘i safoli go‘zal bog‘larim,
Suvlari muzdayin, sof bulog‘larim,
Har mavji ming oltin Orazim, Kurim,
Zar uvildiriqli serbaliq yurtim;
Cho‘llarga yarashgan sho‘x jayronlarim,
Salqin yaylovlarim, zich o‘rmonlarim,
Marandning, Shakining gul-u gulzori,
Buyuk Fuzuliyning qo‘lyozmalari,
Aran qirg‘ovuli, tog‘ kakliklari,
Qazvinning, Makunning go‘zalliklari,
Dillarga zavq bergan kamonim, torim,
Yerosti, yer-usti ermitajlarim,
Xo‘kiz terisida qolgan xat, rasm,
U Bobak qal’asi, u Qiz qal’asi —
Har toshning ostida bor boylik, zarim,
Bo‘xchada tuguklik marvaridlarim,
U kumush idishlar, oltin qozonim —
Dunyoning jannati Ozarbayjonim
Ishtaxasin ochdi jonivorlarning,
Yer izlab, och kezgan yurtga zorlarning.

Tindi chamanlarda bulbul ovozi,
Yot otlar toptadi bog‘-u bo‘stonni,
Bitildi “Guliston muqobalasi”[1] —
Quridi o‘lkamning ming gulistoni!

[1] Chor Rusiyasi XVI asrdan Qafqazni bosib olishga kirishgandi; bu davrda Ozarbayjon bir necha xonliklarga bo‘linib ketgandi: u paytda hozirgi Ozarbayjon va Gurjistonda 1794-y.da Eron davlati boshiga kelgan qajarlar xonadoni hokim edi, ular chor qo‘shinidan yengilgach, 1813-y.dagi “Guliston shartnomasi”ga ko‘ra Shimoliy Ozarbayjon va Gurjistonni ruslarga bergan. Natijada ozarbayjonlar o‘lkasi ikkiga bo‘linib, janubdagi uchdan ikkisi Eronga, shimoldagi bir qismi chor hukumatiga bog‘langan (*tarj.*).

Bir yonda shahanshoh, bir tomonda chor,
Qon bilan yozdilar sulh qarorini.
Tikanli malham-la o‘rashdi takror
Buyuk bir millatning yaralarini.

Gurshad toshdi, to‘fon bo‘ldi,
Oraz toshdi, ummon bo‘ldi,
Qoyalar ham ol qon bo‘ldi
U qirg‘oqda, bu qirg‘oqda.[1]

O‘lka yondi, vatan yondi,
Oltin yombiday talandi,
Davlat ketdi, el tilandi,
U qirg‘oqda, bu qirg‘oqda.

Bir xalq ikki yurtga tushdik,
Ko‘zlar ochiq o‘tga tushdik,
Biz yotlarga naylamishdik
U qirg‘oqda, bu qirg‘oqda.

Fuzuliy bir g‘amli naydi,
U ham nechun qora kiydi?
Qorasini kimlar deydi
U qirg‘oqda, bu qirg‘oqda?

“Shabi xijron yonar jonim,
To‘kar qon chashmi giryonim,
Uyg‘otar xalqni afg‘onim”
U qirg‘oqda, bu qirg‘oqda.

Yurak tutqun, vatan mahbus,
Qani Bobak, Javonsher, bas!
Hayot bunday qola olmas
U qirg‘oqda, bu qirg‘oqda.

[1] Chegara daryolarning ikki qirg‘og‘ida bo‘linib qolgan shimoliy va janubiy Ozarbayjon xalqi ko‘zda tutilmoqda (*tarj.*).

Bitsin hasrat, bitsin hijron,
Bo‘lsin bitta Ozarbayjon!
Qo‘y, birlashsin, bo‘lsin bir jon,
U qirg‘oqda, bu qirg‘oqda.

*1960*

## MENING MUKOFOTIM

Bu olomon-talamon, bos-bos, o‘g‘ri muhitda
Qorishib ketdi bari,
bo‘shang-u chin yigit-da,
Qorishdi past-tepada halok-u yaloq it-da,
Istagim —
shu muhitda mardga nomard kulmasin,
Har mo‘ltoni, past maddoh
Ustimizga chiqvolib, bizni masax qilmasin.

Istamadim mukofot,
Faqat xurmat istadim aytganim haq so‘zimga,
Istadim, aylang diqqat,
Kelajak tupurmasin bu kunlarning yuziga.

Bir oz diqqat qilingki, toptalmasin nomus, or,
Boshga chiqib, ezmasin boshi bo‘sh labbaychilar —
Shaytonga yollanganlar,
Yolg‘on so‘zni takrorlab, holidan hollanganlar.

Qo‘rqoq tobe etmasin kurashda yov yiqqanni,
Xo‘rlamasin pastkashlar tog‘ boshiga chiqqanni.

Bir muxlis shunday dedi:
“Sen og‘zimiz totisan,
Mukofot so‘rama, do‘st,
Sen o‘zing xalqimizning jonli mukofotisan.”

Ko‘z tashladim gul tutgan she’rxonlarga, yig‘inga,
Bir-bir boqdim, ey xalqim,
san’at, so‘z qadrin bilgan
Yuz qizing, yuz o‘g‘lingga.

Dedim, qadr bilganlar — qanotim, najotimdir,
She’rni, shoirni sevgan shu samimiy muxlislar
Mening mukofotimdir.

Shunday kuch istaymanki —
g‘arb-u sharqqa tanitay
Orazning o‘ng-so‘lini,
Shoir uchun qish kuni guldastasin, gulini
Suvqog‘ozda asragan yurtning qiz-u o‘g‘lini.

Shunday kuch istaymanki —
ucharkan Tabriz sari,
Axmoqlar qayirmasin qanotimni, qo‘limni,
Chaqmoqlar o‘zi ochsin bulutlangan yo‘limni.

Mening oq osmonimdan biror yulduz og‘masin,
Ko‘zlari ko‘rmaganlar
Har charog‘bon satrimga zarrabin-la boqmasin.

Go‘zallik tashnasiman,
Go‘zallik — e’tiqodim, ismi sharifim, otim,
Bu yo‘lda yashab o‘tmoq — eng yuksak mukofotim.

*1984*

## SHUHRAT

Oqshom tashga boqib turarding xomush.
— Shuhrat ham yaxshi-da... —deb qo‘yding nolon. —
Falonchini kutib olishgan emish,
Gulga ko‘milibdi poezd, har tomon!..

Xotin, eringga ham kun kelar — u choq
"Volga"lar xizmatda, yog'ar yolqinlar!
Majlislar, olqishlar... gul quchoq-quchoq...
Uniki efirda barcha to'lqinlar!..

Sening bu holingga achindim, afsus,
Gulim, behudadir nolish, nadomat;
Odam loyiq bo'lsa shuhratga — durust,
Haromdir egrilar topgan shon-shuhrat.

Eringning sha'nini o'ylab, kuyyapsan,
Lek erkak ne asli — o'yla, sol nazar,
Chin erkak ko'ziga, bilki, har qachon
Na shuhrat ko'rinar, na boylik, na zar.

Shuhrat deb ko'p inson bo'ldi xor, qurbon
Metin bo'lmoq kerak, har nedan metin,
Shon tojin o'g'irlash bir muncha oson,
Lek tojni sharaf-la tashimoq qiyin.

Jonim, boshqa axir tikandan gullar,
Tarix soxtalarni erta-kech ochar.
Bilki, nomi chiqqan o'g'ri, qotillar
Xalqning boylik, shonin yeb, talab, qochar.

Qo'y, biz jim ishlaylik, gar ishlab tursak,
Bu jimlik bir kuni to'fon yaratar.
Biz g'oya otiga bir qamchi ursak,
U bizni albatta shuhratga eltar.

Kun emas, yuz yillar san'atda me'yor,
Kundalik zahmatdir umr tizimi.
Butun shuhratlardan ustundir ming bor
Shuhratga begona zotning to'zimi.

San'atkor yashasa tog'day qad kerib,
Qalblar cho'qqisiga yuksalar mutloq.

Asrlar, nasllar gultoj ko'tarib
Kelar oyog'iga bosh egib bir choq.

Hayot nega o'xshar? Oq sharshara u!
O'xshar u mo'l hosil berguvchi boqqa.
Mardlik, go'zallikni et maqsad, orzu,
Intilma shuhratga tutqun bo'lmoqqa.

Aldanma zohiriy mulk, hoy-u havas,
Turli unvonlarning vasvasasiga.
Yetmish jahongirning shoni teng kelmas
Mening she'rim sochgan nur nafasiga!

Shon-shuhrat yaxshidir, emasman mo'ne,
O'g'irli bo'lmasa, halol, chin bo'lsa.
Yanada yaxshidir — bir zotning shoni
Millat shuhratiga aylana olsa.

*1984*

## SHE'RXONLIK KOSHONALARI

*Qor yog'ibdir tizgacha*
*Bokudan Tabrizgacha.*
*Yo'liga ko'z tutarman*
*Kelasi Navruzgacha.*
***(xalq tizmasi)***

Buyuk bir she'riyat solinlarida[1]
Xasratga, hijronga nuqta qo'ydik biz.
Ko'klarga yuksaldi erksevar nido,
Topishdi she'rimda Boku va Tabriz.

Qoraqosh, qorako'z, metin, davongir,
To'fon qarshisida u bir tog', qoya;

[1] **Solin** — zal.

Minbarga musht urar u, Suhrob Tohir,
Minbarga bir burgut qo‘nganday go‘yo.

Og‘ir odim otib Feruz kelarkan,
Yoritar dunyoni yuzidagi nur.
Quvonib jo‘sharkan, so‘ylab-kularkan,
Ko‘plar his qiladi o‘zin erkin, hur.

Bu buyuk she’riyat solinlarinda
Ko‘zimdagi sevinch yoshin artarman,
Kunning kulfatlarin bu aziz onda
Poshnam-la chayonday toptab, otarman.

O‘ylanib qarayman G‘affor Kandliga,
Qarshimda turganday Xoqoniy o‘zi.
Dech kelgan ming nizo, zindonbandlikka,
Yuz yerdan yarali bir tog‘dir ko‘ksi.

Mirza Abbosli hech chiqarmi yoddan,
Bo‘rtiq ajinlari xuddi Chin saddi.
U devor ostida qolmish naqadar
Yog‘iy suyaklari, dushman jasadi.

Bu buyuk she’riyat solinlarinda
Ne-ne tilsimlarni ochmoqdir sirim.
Yozmagan bo‘lsa-da bir she’r umrinda,
Muhammad Sayfiddin — ulug‘ shoirim!

Ko‘z ko‘zni, sas sasni, nafas nafasni
Tushunar, g‘aflatdan uyg‘onar jonlar.
Hamisha berkitib o‘z yarasini,
Xalq uchun kurashgan bu qahramonlar.

She’r, bino hayqirar! Ey g‘ofil, uyg‘on!
Ko‘r, kimning qonidir bu ol guldasta?
Bu gullar so‘lmasin, joyimas guldon,
Qo‘y uni eranlar mozori uzra.

Shunday bir o‘lkaning o‘g‘lonisan san,
Yashaysan zolimga, yovga tik qarab,
O‘z qora baxtining zulmatlaridan
Obi hayot berib, basharga yarab.

Bu buyuk she’riyat maydonlarida
Xasratni, hijronni yengib boramiz.
Qahramon Bokuning osmonlarida
Tabriz otlariga minib boramiz.

*1986*

## SENING JAVOBING

Qayda yomonlashsa Xalil Rizoni,
Qayda ming‘irlasa nokas, muttaham,
Bir og‘iz aytib qo‘y, turib mustahkam,
Aytki: “Xalil Rizo Ozarbayjondir!”

Balki derlar: “Emas bosiq va og‘ir,
Bir oz betgachopar, og‘zi polvondir.”
Aytki: “Bor yutug‘i qusurlari-la
Xalil Rizo o‘zi Ozarbayjondir!”

Oldida oq varaq, qo‘lida qalam,
Xoin bir muhitda jang, hamlasi-la,
Xalqqa xitob aylab, hayqirgani dam,
Do‘st-dushman ichida qolgan sasi-la;

Jarlar yoqasida, tog‘lar belida
Kurashib, tik chiqish tajribasi-la,
Uch yuz yot shoirni ona tilida
So‘zlatgan kitobi, tarjimasi-la;

To‘fonlar ichida so‘lmas, yo‘q bo‘lmas
“Qardoshlik tovushi” guldastasi-la,

O‘tmish tog‘larini qazib topgani
“Bobak” — Selvinskiy xazinasi-la;

Zulmatda ko‘zlarga yog‘du sepgani
“Moabit daftari” mo‘jizasi-la,
Qayda bir yiqilgan iste’dod ko‘rsa,
Ko‘tarib, bayroqday yuksaltmasi-la
U yuz-yuz dengizni ichgan ummondir!

Ona makoniga, Turkaniga kel,
Dalabog‘i, uyi bir gulistondir.
Ochar quchog‘ini, bag‘riga bosar,
Ko‘rasan, u sodda va mehribondir.

Kuchi yetmaganda ajdaholarga,
G‘azabi tog‘larni yoqqan vulqondir.
Qo‘rqmay changal solgan yuzsiz yuzlarga,
Ilonlar boshini ezgan qoplondir.

Butun pastkashlarni, o‘g‘ri, yaloqni
Xalil Rizo degan gulxanda yondir!
Ne desa desinlar, chidar telefon,
Kelgan u tovushmas, kelgan to‘fondir!

Qani Ardabilning[1] xazinalari?
Qani Baylakanning[2] durdonalari?
Kimlar tashib ketdi boylikning barin?
Yurt — isi qolmagan quruq rayhondir.

Qonida yashaydi vatan tarixi,
U na Ko‘ro‘g‘lidir, na Sattorxondir.

---

[1] **Ardabil** — Eron hududining shimol g‘arbidagi, Qorasuv yonidagi shahar, asosiy aholisi ozarbayjon *(tarj.)*

[2] **Baylakan** — Kur va Oraz daryolari qo‘shilgan yerdagi shahar; 1221-y. da Chingizxon qo‘shinlari vayron etgan, 1403-y.da Temurning buyrug‘iga ko‘ra qayta tiklangan, shu uchun “Temur shahri” ham deyiladi *(tarj.)*

— Butun yigitlarning jami bo‘laylik!
Butun g‘amkashlarning g‘ami bo‘laylik!
Mutelar o‘lajak... amin bo‘laylik,
Endi dushman kuchli... boshqa zamondir.

Yuragi — bir Darband, xayoli — Tabriz,
Yolg‘iz jasurlikning atrofida biz
Birlashmasak temir-magnitdek, hargiz
Hayot hayot bo‘lmas, barcha qurbondir.

Ko‘ngli og‘riganda, kelganda g‘ashi,
Bir o‘zi Xazar-la gurlar yonoshib,
O‘zini viqor-la mag‘rur tutarkan,
Sokit boqishi ham ba’zan isyondir.

Ba’zan Oraz bo‘lar, ba’zan Kur, Xazar,
Qonida dalicha intiqom kezar,
Oq sochli boshi ham tog‘larga mengzar,
Qo‘chqortog‘ ham Sahand, ham Savalondir.

Qo‘lida yo‘q garchi kishan izlari,
Dek kishan sindirar keskir so‘zlari,
Payg‘ambar ko‘zidar ziyrak ko‘zlari,
Bir boqsang, boladay tez aldangandir,
Barcha yutuqlari, qusurlari-la
Xalil Rizo o‘zi Ozarbayjondir!

Quloq sol ko‘ksida yongan nafasga:
Har kim Ozarbayjon bo‘la olmasa,
Demak, nurlanmaptir,
fikri tumandir.

*1984*

## DO‘ST SO‘ZI

Men na Axsitanman, na Qizil Arslon,
Sen-chi, Nizomiydek bir ulug‘ inson.
Yo‘lingda bir sang men, sen boshim toji,
Sen mening xalqimning so‘z me’morisan.

Otguvchi shu tongga qurbonman, ey do‘st!
Oltin sharq tomonga qurbonman, ey do‘st!
Ko‘zlaring — umrimga qo‘sha deraza,
Seni yaratganga qurbonman, ey do‘st!

Bir kun Shix tarafga aylasang guzor.
Ko‘rgaysan mangulik gulzor bir mozor,
Bir zamon Makka yo Madina emas,
Ziyoratgoh bo‘lgay u yer ham takror.

Men sariq xazonman, sen yam-yashil bog‘,
Men tomchi shudringman, sen qaynar bulog‘,
Sen bir kun o‘lsang-da doim tiriksan —
Ey hayot o‘rmoni, ey mangu butog‘!

O‘ngimda shoirim, so‘limda go‘zal,
Qarshimda sof dengiz, qirg‘oqda qum, cho‘p.
Ey mening ataqlim, yaqin kel sal-pal,
Shoir sochlarining to‘lqinini o‘p.

Chaqaloq ingalab yubordi qattiq,
Ona to‘lg‘oqdan so‘ng quvonchga botdi.
Ona bilmaydiki, bizga bergani
Jimit bir bolamas, bir koinotdir!

Endi men borayin, sal taskin topay,
Yuz-ko‘zim qizardi sevinch yoshidan.
Sog‘ esa, onaning ko‘zidan o‘pay,
Bo‘lmasa, o‘purman mozor toshidan.

Sening halol haqqing borliq, rizq-ro‘zi,
Iching bir arslon-u, tashqaring qo‘zi.
Shoir so‘zlaridir ne’mat aylagan
Shu dasturxondagi suv, non-u tuzni.

Shu qutlug‘ onga men qurbonman, ey do‘st,
Uzganing rayhonga qurbonman, ey do‘st!
To‘rt unsur, bir ona yaratmish seni,
Seni yaratganga qurbonman, ey do‘st!

*1986*

## QADR-QIYMAT

Ulug‘vor orzular-la qaynab-toshgan chog‘imda,
Nafasimda tog‘ atri, qo‘limda toshlar izi,
Oz qolgandi, cho‘qqiga yaqinlashgan chog‘imda,
Qulog‘imga chalindi allakimning shu so‘zi:

— Uyam qadrin topmadi...

Qonimda his ayladim bir bo‘ron shiddatini,
Jonim, qorachig‘imda chaqmoqlar qudratini.

“Topmadi qiymatini...”
Ta’naga boq, so‘zga boq
Senga nima, ey ahmoq!

Kimligimni o‘ylab ko‘r: yer ham, ko‘k ham manimdir,
Dunyo vatandoshiman, koinot vatanimdir!

Qiymat nadir? Do‘stimning extiromi, xurmati,
Mening ko‘pdan tuyganim do‘st mehri-muhabbati.

Qiymat nadir? Shoirni jondan suygan o‘quvchi,
Qora nishonga qarab yoydan chiqqan o‘q uchi.

Qiymat nadir?
Sen uchun balki sariq bir medal.
Sen mening qiymatimni
Yuragimda saf tortgan o‘rdulardan anglab ol!
Sharsharadan quvvatli orzulardan anglab ol!

Men shunday chinormanki, boshim yettinchi ko‘kda,
tomirim yer taginda.
Bilki, men o‘solmasdim sening tor guldoningda,
ichi bo‘sh kuldoningda.

O‘z bo‘yimdan ko‘p uzun tomirim yer taginda...
Qadrimni, qiymatimni bilar orif insonlar,
Tizzamga kelib qaytar qasirg‘alar, to‘fonlar.

Aysbergman, ko‘zing och, yengil kemalardayin
hushing yo‘qotgan sayin,
Urilgaysan qoyamga, bo‘ladirsan chilparchin!

Men shunday bir gulmanki, qishda ham jon chamanda!
Yaproqlarim — yongan o‘t zulmat olam ichinda,
Bir jannat vodiysiman shu jahannam ichinda!

Sen o‘zingni berkitma...
Sarrof ko‘zidir ko‘zim.
Kim menga qiymat berar?
Qiymat berguvchi o‘zim!

Faqat shoirmanmi? Yo‘q. Birdardman, bir og‘riqman.
Xalqimning shoh tomiri, yuragiman, bag‘riman.

Qiymatim, kimligimni to‘g‘ri bilmoq istasang,
Uzoqlashma, yaqin kel, uni mendan ista san.

Ko‘rish, siq shu qo‘limni. Shuni anglab ol qat’iy,
Seni ming sel, to‘fondan salomat olib chiqar
qo‘llarim harorati.

Balki azalidirsan... angla, ey dardli inson,
Sen meni topa olsang, bayramingni toparsan.

"Topmadi qadrin..." degan pichiring, g'iybatingni
Eshitdim. Ko'rsatar bu kimling, tiynatingni.

Gar suyganing bir inson topmasa qiymatini,
Seyfda saqlamaysanmi fikring-u rag'batingni?

Qachon sen meni yoqlab chiqding barrikadaga?
Qayda, qachon fosh eting yurtning kasofatini?

Xalil Rizo jahonda mardlarning eng metini,
Bilar o'z qiymatini.

Sel, bo'ron qarshisida turgan Shoh, toqqa o'xshar,
Shu turishi qo'riqlar yer va ko'k vahdatini.

*1983*

## EGILMA, QARDOSHIM

Senga ichim achir ham g'ashim kelar,
Ko'zlaring yoshlidir, aziz qardoshim.
Ko'ksingda o't yonib, tutun yuksalar,
Nima ham dey senga, turolmayman jim.

Mayli, o'zim artay ko'z yoshlaringni,
Ular ko'zdan emas, qalbingdan oqar.
Tumanlar qoplamish boqishlaringni,
Tumanlar ichida chaqmoqlar chaqar.

Senga bir so'zim bor: "Egilma!" Inim,
Gar o'tsang, o'g'lingga Savalan qarar,
Bu yerlar, bu ko'klar, bu jahon qarar,
Insonda insonlik tojidir to'zim.

"Sarsilma" — bosh egma, demak; o'yga tol,
Bu so'zni ilk va so'ng kashf etganlarning
Egilmas ruhidan quvvat ol, kuch ol.
Sarsilma — bosim qil, zarba ber demak,
Zarbalar ostida pastlashma, yuksal!

Hayot — izg'irinda pismay, tik turmoq!
Qal'alar urushda yiqilar ba'zan,
Tog'lar zilzilada mahv o'lar ba'zan,
Insonlar jahonda, har ne to'fonda,
Har ne zilzilada yiqilmas tog'dir,
Yashamoq bo'ronda tikka yurmoqdir!

Sarsilma so'zining anglami talay:
Titrama, taraddud qilma, bosib o't!
O'zing sel, bo'ronni to'sgan bo'ron bo'l,
Qulog'ingda qolsin men aytgan o'git:
Titragan har yurak — ma'ragan qo'zi,
Sen qo'zi boqma hech, sher boq, sherbon bo'l!

Seni ulg'aytgan yo'l ekvator kabi
Oq-oppoq, charog'on, muqaddas bir yo'l.
Kahkashon ichida oqqan nur kabi
Porla, yog'dular soch, egilma, mard bo'l!

Taraddud so'zi, bil, ikkilanmoqdir,
Ikkilangan kimsa mute, qo'rqoqdir.
Quyosh — bir, osmon — bir, yer kurrasi — bir,
Har kishi — bir nusxa, takrorsiz, nodir.

Faqat yovuz qo'llar shuhrat tojini
Shoirlar boshidan yulmoqqa qodir.
Past, maddoh, tubanruh kaslar istarki,
Tog' bo'yli bir Shoir yerda surinsin.
Ko'nma! Tik yashaki, yelkalaringda
Tunda oy, kunduzi quyosh ko'rinsin!

Ishqi buyuklarning dardi ham buyuk,
Dardlarni aritgan do‘st-u yor kerak.
Senga yurt, o‘chog‘ing, uyingday suyuk
Ozarbayjon bo‘yli bir me’mor kerak!

Dengiz chayqaladir dovul turgan payt,
Lek ummon insondan hech teran bo‘lmas.
To‘fon ham egolmas ruhini hech vaqt,
Dovullar insonni chayqata olmas.

Yuragingdan oqqan ko‘zshin artgil,
O‘zingni tog‘larga suyanch, tayanch bil!
Simirib boraver sel, to‘fonlarni,
Egilma, bukilma, tik yåsha, Xalil!

*1984*

## CHARCHAMA

O‘n to‘qqiz yoshdasan, har nega shaysan,
Men ellik uchdaman, keksaroq kishi.
Ayt, nega tersdir shu dunyoning ishi,
Ayt, nega sen mendan tezroq charchaysan?

To‘rt kundir bog‘damiz, qo‘limizda bel,
To‘rt kundir ko‘krakdan, ko‘zingdan, yuzdan
Oqmoqda achchiq va qaynoq ter sel-sel,
Ayt, nega sen mendan tezroq charchaysan?

Chang qo‘nar soqolga, kiprikka, qoshga,
Cho‘kich ham taqillab, ilashar toshga,
Toshdan o‘t chaqnaydi, sen-chi, lallaysan!
Ayt, bolam, nega sen tezroq charchaysan?

Bog‘ni gullatishga so‘z bergandik biz,
Menda g‘ayrat jo‘shar misoli dengiz,

Senda qotib qolgan qo‘l kuchi xolos,
Tok bargiga qo‘ngan qo‘ng‘izday xassos.

Belkurak chetiga ilashgan tikan
Yo quruq o‘tlarni oralab o‘tgan —
Bir onda yo‘qolgan sassiz bir ilon
Seni seskantirar, keladi g‘ashing,
G‘azabing yondirar bog‘ning cho‘p, toshin.

Senga qarabturib, bo‘lurman diqqat,
Mehnat, ish sen uchun balki mashaqqat.
Ammo men uchun ish — sevinch, saodat,
Bog‘ning tozalangan tarafiga boq:
Tokning har bir bargi — yam-yashil mayoq!

Sening ko‘zing faqat mevani ko‘rar,
Daraxt-u butoqdan
hosilin so‘rar.

Birday suyuk menga bog‘da gul, tikan,
Sariq chechaklarga boqaman hayron,
Ko‘zni quvontirar mitti xonqizi,
Oshko‘ki, rayhonlar va tog‘ yalpizi...

Xazonga o‘ralib yotgan kirpijon,
Hatto chaqib qochgan o‘sha shum ilon,
Boshimda aylangan kaptarlar — barin,
Barchasin sevaman, bari qadrli.

Menga orom berar — quyosh chiqarkan,
Shudringning qurishi barg hovuchida,
Baliqning sakrashi bog‘ hovuzida,
Tonggacha nay chalgan chirildoqlar ham.

Quduqning yonida olarkanman dam,
Menga xush yoqadi sachragan tomchi.
Ust-boshim, yuz-ko‘zim etsa hamki nam;

Kuzda tok kesarkan, mazza qilaman,
Berkingan bir shingil uzumni topsam,
Qurugan kishmish-chi, totli boldan ham.

Balki shuning uchun kuchli selman, sel!
Nafasim dengizdan chuqur, ko‘kdan keng!
Mevali bir bog‘man...
U-chi, cho‘kich, bel...

Ammo u — jigarim, qonim, tomirim!

— Ko‘rpacha to‘shadim tolning tagiga,
Bor, o‘g‘lim, — deyman, — bor, bir oz dam ol, yot.
To‘rt soat yotarsan, balki besh soat,
Men-chi, yotgan payt ham uyg‘oqman har vaqt.

Seni uyg‘otmoqqa ko‘z qiymas, o‘g‘lim.
Oz-moz og‘risa-da kuragim, qo‘lim,
O‘rnimdan turaman... vaqt oz, ishlar ko‘p...

To‘rt ummon, besh dengiz, oy ham quyosh ham,
Ishlarkan, ruhim-la birlashsin deyman.

Uxla, jonim, ko‘zim, quvvat yig‘ bu dam,
Uyg‘onib turganda meni mayoq bil.
Men ne qilgan bo‘lsam, sen ham shuni qil,
Tog‘ni ko‘tarasan,
hech charchamaysan.

*Turkan, 1985*

## TOVUSHIMNI ESHITARMISAN?

Eng yuksak antennani seni deya qurmishlar
Ko‘zingga kirish uchun, miyangga kirish uchun.
Nafasing, tovushingni qorovullab turmishlar.
To‘quvchi dastgohida moslabroq qurish uchun.

Gap tashuvchi she'rbozga ming bora so'z berarlar,
Seni bezdirish uchun, yo'ldan ozdirish uchun.
Qonli ko'zyoshing emas, gul yuzingni ko'rarlar
Ko'rgazmalarga chorlab, mute kezdirish uchun.

Sen bunchalar chiyildoq, kir tovushlar ichida
Eshita olasanmi, sof, billur tovushimni?
U yarangga malhamdir, bahorgi epkin xuddi,
Ayt, hech eshitarmisan mard, jasur tovushimni?

Ey aziz mamlakatim, onam, Tabrizim manim,
Oq-qorani anglarga majoling, vaqting qani?
Kim kuchli-yu kim kuchsiz, anglarkansan, vatanim,
Ko'rarmisan ming tikan ichidagi rayhonni?

Qay tovushda ko'zyoshi, yurak qoni jo'shsa goh,
Bil, u mening tovushim, gar o'zim bo'lmasam-da,
Qulog'ingda yangrasa "Shur" yoki "yetim segoh",
Avji-yu nolishlari nafas olar misramda.

Qayda bo'lsa zilzila, qayerda chaqsa chaqmoq,
Qayerni bossa sellar, qo'rquvga solsa bo'ron,
Bilki, u menman, nurim zulmatni quvar har choq,
G'azabim-u nafratim — to'fondan kuchli to'fon!

Zarrin piyolalarda ko'zyoshini ichganlar,
Sening tovushingni ham to'rga tushirmoq istar.
Umrim, kunim!
Bunchalar sovuq tovushlar aro
Eshita olursanmi — tovushim yangrar, qaynar!

*1986*

## O‘ZBEK TILI

*O‘zbek olimi I.Haqqulga*

Qaysi kunda inib kelding samolardan o‘zbek tili?
Qanot olding eng muqaddas sadolardan o‘zbek tili!

Do‘ppi kiygan kelinlarning tingladingmi allasini?
Sen yaralding u ilohiy nidolardan o‘zbek tili!

Ming-ming yillar qat-qatida yotgan oltin yombimizsan,
Qanday chiqding, ayt, yuzaga?

Himoloyga, Tiyonshonga tengdosh, boysan mo‘ziyga,
Qanday chiqding, ayt, yuzaga?

Qaysi oyda, qaysi kunda silkalandi bizning jahon?
Elburus, Alp, Pomir tog‘i yerni yorib chiqdi qachon?

O‘ylarkanman, kalit topdim fikrlarning ilgagiga,
O‘zbek tili bu tog‘larni qo‘yib chiqmish yelkasiga!

Odim otdim goh yaqinda, goh uzoqda
Qayroqqumda, Qapchig‘ayda, Ko‘lbuloqda...

Tuproqdagi fil suyagi izing sening, o‘zbek tili!
Bor yulduzlar yerga boqqan ko‘zing sening, o‘zbek tili!

Qalinligi necha arshin muzloqlarni eritgansan,
Qilichlarni indirgansan, nizolarni aritgansan.

Tandirlarning issiq, lo‘ppi shirmonini tarqatgansan,
Qonimizni yuritgansan, tiriltgansan, o‘zbek tili!

Seni ko‘rdim Zarafshonda, Yettisuvning orqasida,
Sirdiryo ham Qashqadaryo, Chuv, Sarisuv yoqasida.

Bir payt ular oltinlarni tashir edi dolg‘asida,
Suv ozaydi endi nechun?

Ular senga berdimi yo o‘z kuchini, o‘zbek tili,
Zulmat kesgan chaqmoqlar ham o‘z o‘chini, o‘zbek tili?

Bizning qari planetdan sen qadimsan,
Dinim, tangrim, ma’badimsan,
Til yuragi, yurak tili — o‘zbek tili!

Bordim, ko‘rdim Takatoshni, Teshiktoshni,
Ko‘rdim, billur qasrlarning naqshisan sen, oltin naqshi!

Javharini sendan oldi qancha yoqut, qancha koshin,
Ey ikki ming besh yuz yillik Samarqandning tamal toshi!

Eshit, menga nima deydi qonimdagi sharshara qon,
Qizilqal’a, Jonbozqal’a, Kichiktepa, Sariqo‘rg‘on,

Toshkent, Bo‘zsuv, Ko‘kcha, Sho‘rko‘l, Boriqazg‘an,
Tandirqazg‘an...
Borlig‘imga quvvat kelar otlardagi milliylikdan.

Kim aytarki, shunchaki bir cho‘l otisan, ko‘l otisan,
Mening burgut yuragimning temir, metin qanotisan!

Keksa, yuksak qoyalardan oqqan suvsan, oq nurlisan,
Sayhun, Jayhun sen o‘zingsan, yurtga oshiq, mehrlisan!

Yusuf,[1] Lutfiy she’rlar bitdi, cho‘ng qalami o‘ng qo‘lida,
Bobir seni unutmadi uzoq Ganga sohilida.

Hayhot, bugun unutgan bor... ne ham deyin, u nodonlar
Nonini yeb, suvin ichib, so‘zlashurlar yot tilida.

[1] **Yusuf** — Yusuf Xos Xojib ko‘zda tutilgan *(tarj.)*.

Devorlarni, beorlarni yiqadirsan, o‘zbek tili!
Izg‘irin-u bo‘rondan sog‘ chiqadirsan, o‘zbek tili!

Aytar doim o‘z qo‘shig‘in sayrog‘imiz o‘zbek tili,
Borlig‘imiz, yarog‘imiz, bayrog‘imiz o‘zbek tili!

*1986*

## SHE’RIYATIM

Mikrofon qarshisida,
Ochiq osmon ostida,
Shoir Voqif mozorin shundoqqina pastida,
O‘qidim eng kerakli, jasur, billur she’rimni.

Boshim tog‘lar boshidan,
qoyalardan yuqori,
Oyoqlarim bulutlar, soyalardan yuqori,
Jonimda Toshostisoy suvlarining viqori!

Qarshimda gulday kulgan
Guldasta bolalarga boqa-boqa o‘qidim.
Buloq bo‘ldim, ming qalbga oqa-oqa o‘qidim.

Chiqishim bitar-bitmas bir gulnafas urildi —
Olqishlar aro jonim gulistonga burildi!

Muxlislar o‘rab oldi,
har biri qoya, tog‘day,
Biri der: “Ber she’ringni, nusxasini tarqatay!”

Biri der: “Aziz do‘stlar, so‘ng 67 yilda
Bunday jasur shoirni ko‘rmagandi Qorabog‘!”

Mahalliy gazetaning muharriri der shu chog‘:
“She’ringni ber, bosamiz!”

“Yo‘q! — der biri. — Bunday she’r bosilmasa, o‘samiz.
Aslo bermangiz chopga!”
Men uni ko‘rmay qoldim, ketdimi o‘nga, chapga.

She’rim tinglarkan, ichi torayganlar bor edi,
Bo‘g‘ilib, ko‘mirdayin qorayganlar bor edi,
Hasaddan bag‘ri yonib, so‘rrayganlar bor edi.

Bir kampir kelib, dedi: “Shoir bolam! Mard o‘g‘lon!
Jondan tikan chiqargan tilingga jonim qurbon!
Qo‘limdan kelsa, senga bog‘-bo‘stonlar berardim,
Shu bir dona gulni ol...”

She’riyatim!
Men u kun angladimki, nodirsan,
Bor o‘pka, qo‘rqoqlarni,
mutelar, ichqoqlarni
Tergashga sen qodirsan!

Sen ehtimol To‘pxona o‘rmonida uxlagan
Shersan, xolli bobursan!

She’riyatim! Qilichsan!
O‘lim-qolim jangida qabzangni siqqan qo‘llar
Sendan kuch olib, yovni kesib, do‘zaxga yo‘llar!

Bo‘shashgan va sudralgan ulusimni oyoqqa
Turdiruvchi quvvat bo‘l!
Men bir oz muloyimman, sen qattiqqo‘l, jur’at bo‘l!

Yaxshiyamki, sen mendan
Yuqorida ucharsan,
Men ortingdan borurman,
Sen ko‘klarni qucharsan,
Men-chi, yerda yururman,
Men ortingdan borurman.

Murosasizman ba'zan.
Sen — shafqatsiz jangchi, er,
Ufqlarda qanot ker!
Chaqir Ko'ro'g'lilarni,
Qirot bo'lib haybat sol!
Yuksal, har yerdan ko'rin,
Shushaning ko'ksidagi Voqif mozori misol.

*1987*

## MENDAN BOSHLANAR VATAN

O'ylasam, o'tibdir o'rta.yosh, netdim.
Ertalab turmasdan, to'yguncha yotdim.
Shunday kechdi besh kun,
so'ngra o'n besh kun,
Boqsam, tomirimda tugun bor, tugun.

O'ng tizzam so'zga kirmas, sustman, bir oz loxasman,
Xuddi qafasda yotgan, mushuklangan yo'lbarsman.

Yotog'imdan qalqdim: "O'x, bunday bo'lmas!"
Kamarimni taqdim: "Yo'q! Bunday bo'lmas!"

Tog'lar sharsharasi qoyadan emas,
yelkamdan otilib, gurladi: "Bo'lmas!"

Bir payt Tiyonshondan Alpga, Karpatga
Yildirim sirtmoqli kamandin otgan,
Na'rasi eradan eraga yetgan
Jasur otalarning o'g'lisan! Bo'lmas!

Har inson fitratida
uxloqdir ikki xislat,
Ko'zday yaqindir har vaqt
qo'rqoqlik va jasorat,

Ojizlik va diyonat,
Xasislik va saxovat,
Taraddud va qat'iyat...

Oyoqqa tur!
O'zingni kashf et yangidan bir qur!

Chekina olmassan kurashdan bir on —
Otilishi mumkin senga nogahon
Ipak bo'yinbog'li bir bo'g'ma ilon.

Sustlik — hayot ko'pigi.
Ko'pik bo'lsang, tashlarlar bir kun albat supurib.

Quyosh bilan birga tur,
Quyosh bilan birga yur,

Tuproqdan boshlanarmi vatan yo yurt elidan?
Yo'q! Boshlanar u qonda oqqan g'ayrat selidan,
Sendan boshlanar vatan,
Mendan boshlanar vatan.

*1983*

## GO'ZAL YASHASH

Yer sharin yostiqday qo'lda tutaman,
Boshimning ostiga qo'yib yotaman.

Nahotki yotibman?
Miyam jahannam!
Yettinchi qit'aman — yongan qit'aman!

So'zim uzuq-yuluq,
fikrim kalaka,
Yuragim isyonkor bir mustamlaka!

Taxtadan bo‘lsaydi yonib ketardi —
Yaxshiyam yotog‘im temirdan ekan!

Yaqinda tong otar.
Oqarar sahar.
O‘rnidan turadi qanchalar bashar!
Har kim bir eshikni ochadir, aniq:
Kim umid eshigin,
Kim najot eshigin,
Kim hojat eshigin.

Sen-chi? Qay eshikni ochmoq istarsan?
Ochmoq istaganing yotlarga bog‘li...
Kezsang-da har yonni;
qo‘lda chirog‘li,
Bor eshik qulfli, zanjir-la bog‘li.

Qo‘l urma, barmog‘ing kuymasin, shu choq —
Ilon bosh ko‘tarar tuyulsa oting:
Bu emish sen uchun go‘zal yashamoq,
Boq, nega eshikni o‘zing berkitding?

Eshiklar ortida — to‘r, o‘rgimchaklar,
Bu xon eshigimi?
O‘yla, qanchalar —
Qasr-u saroylarning obro‘sin to‘qar
Qabzaga tegarkan kirli panjalar!

Eshiklar ortida — muzli yuraklar:
Oladi, beradi, sanaydi ular.
Kaklikni ovlagan kalxatdan badtar,
Irkit qo‘llarini qon-la yuvganlar!

Jasur yashamoqqa qildingmi amal?
Bildingmi, qanchalar jafosi bormish?
Jasur yashaganlar uchun har mahal
Eshiklar har yerda berkitilarmish.

Balki afsusdasan? Pushmonsan balki?
Balki qurbon bo‘lding kundalik yukka?
... Xazina ustida — ajdaho,tulki,
Qaroqchi olomon, ichi bo‘sh to‘nka!..

Birisi — og‘zida suyak, yer etin,
Eng yog‘li suyakni axtarar betin.
Eng katta qozondan eng katta suyak
Olsam der, axtarar o‘rtachi — suyak.

Eshiklar ortida tilanchi omma,
Nafsidan bexabar g‘ofildir hamma!
Shuhrat suyagini kemirgan gado,
Sarvat suyagini simirgan gado!..

Shuni ko‘rib turib, eshitib turib,
Nafratingni saqlab yurishing og‘ir.
Qonli eshiklarni,
derazalarni
Shonli mushting bilan sindirib, urib,
Har yon uloqtirmoq istaysan axir!

Nordon bir narsaga, sho‘r pomidorga
Boshqorong‘i bo‘lgan onadek sen-da,
Tosh,
Temir eshikni ochishga o‘chsan,
Qal’alar qopisin buzmoqqa duchsan.

Yotoqdan tur endi,
yurtga keraksan,
O‘ylama, shu uyda tanho halaksan.
Oyoqqa turarkan —
milyonlasharsan!
Xalqing-la, bashar-la bir tan yasharsan!

Tush eski yo‘lingga,
shu yo‘l senga mos,

Sening miyang — otash,
irodang — olmos!
Yuzingga yuz eshik berkitsalar-da,
Go‘zal yashamoqdan qayrilib bo‘lmas,
Go‘zal yashamoqdan ayrilib bo‘lmas!

*1984*

## TO‘ZIMLI BO‘L, DALI KO‘NGLIM

To‘zimli bo‘l, dali ko‘nglim,
Sen bittasan, bir donasan.
Xazon uzra, somon uzra
Qizil gulsan, durdonasan.

Sabrli bo‘l, dali ko‘nglim,
G‘am yiqolmas na qomatsan!
Bu hay-huylar dunyosida
Na yoqimli maqomatsan!

To‘zimli bo‘l, dali ko‘nglim,
Jahannamdir o‘tar yo‘ling,
Yonar jarlik o‘ng-u so‘ling,
Bo‘shashmasin oyoq-qo‘ling!

Kasal bo‘lish sengga yasoq,
Qarishlik, bil, senga tuzoq!
O‘z qalbingdan kuch olaver,
Yor-u yo‘ldosh tursa uzoq.

Sen temirsan, sen po‘latsan,
Bunda, unda umr ikkidir:
Bilki, bitta umr ichida
Yaxshilar ham senikidir,
Yomonlar ham senikidir.

Jasur yasha, dali ko'nglim,
Bosh egma hech, yasha mag'rur!
Tik yashasa, bilki, har kim
Baxtli bo'lar u bir umr.

*Turkan, 16-avgust, 1984*

## OZARBAYJON

*Ozarbayjon mening tojim, taxtim-a,*
*Uyg'onmasmi shu ko'r bo'lgur baxtim-a!*
***Olmos Yildirim***

Bu baytni eshitdim Rafiq Zakodan,
Ko'zimdan yosh chiqdi, og'ridi yaram.
O'yimda jonlandi ulug' bir inson,
Bosh egib, bildirdim unga ehtirom:
"Ozarbayjon mening tojim, taxtima-a,
Uyg'onmasmi shu ko'r bo'lgur baxtim-a!"

U qonli yillarning qon tuzog'idan
Sirg'alib qutuldi Olmos Yildirim[1].
Qutuldi o'limning manjanig'idan.
Xuddi bo'ri bo'ldi Olmos Yildirim,
Og'rig'i aridi Og'ri tog'ida,
Burgutlar uyasi, sher yotog'ida.

Ko'zida porladi yulduzli bayroq,
Umidin kelajak kunga bog'ladi.
U qardosh o'lkada yashab yurgan choq,
Ona vatan uchun unsiz yig'ladi.
"Ozarbayjon mening tojim, taxtima-a,
Uyg'onmasmi shu ko'r bo'lgur baxtim-a!"

[1] **O. Yildirim** — (1907–1952) Bokuda tug'ilgan, o'qituvchi, atoqli millatsevar shoir. Sho'rolar uni millatchi, josus kabi soxta ayblar bilan Ashxobodga surgun qilgan. 1933-y.da Eronga, keyin Turkiyaga o'tib, Eloziqda yashagan (*tarj.*).

Ozarbayjon, jon berdik bir otingga,
Jonimizdir nomingdagi jon so‘zi!
Sovuq qalblar yona olmas o‘tingga,
Nomus o‘zing, sharaf o‘zing, shon o‘zing!
“Ozarbayjon mening tojim, taxtima-a,
Uyg‘onmasmi shu ko‘r bo‘lgur baxtim-a!”

*1988*

## QUTLUG‘ BO‘LSIN, OZARBAYJON

*Ustoz Shahriyor[1]ning bu tomonga kelish xabarini eshitganda yozildi*

Faxr et, qutlug‘ bo‘lsin, Ozarbayjonim,
Kuz kuni bag‘ringga ilk bahor kelur.
Gullar ko‘rgazmasi Milim, Mug‘onim,
Qo‘llarda titragan lolazor kelur.

Borlig‘im jo‘shdirdi shu payt xushxabar,
Deyman, muz ichida ko‘karar bahor,
Kerar qanotini mag‘rur burgutlar,
Ko‘rarsan, yuz lochin, ming shunqor kelur.

Sig‘mas o‘zaniga na Oraz, na Kur,
Xazarga qalbimdan Xazar to‘kilur,
Hijron devorlari chiday so‘kilur —
Yurtimning yarmisi menga tor kelur.[2]

U yonda quyoshday nurlar sochdi u,
Orazning ustidan o‘ychan kechdi u,

[1] **Shahriyor** — 1906–1988-y., Janubiy Ozarbayjonning mashhur shoiri; “Haydar boboga salom” she’ri 76 tilga o‘girilgan (*tarj.*).

[2] Mustamlakachilik siyosati natijasida bitta ozarbayjon xalqi mustaqillikkacha ikkiga bo‘lingan o‘lkada —Eron hududidagi janubiy hamda chor va sho‘ro hududidagi shimoliy Ozarbayjonda yashagan (*tarj.*).

Daryoni ko‘zi-la tag‘in ichdi u,
Tikanli sim sarhad tor-u mor kelur.

Oqur tog‘dan oqqan sellar-la birga,
Hilpirar cho‘llarda yellar-la birga,
Ochur qo‘llarini ellar-la birga,
Ona ham, o‘g‘il ham baxtiyor kelur.

Bir rassom chizibdi “Haydar bobo”ni,
Tomosha qilmoqning ayni zamoni,
Mo‘yqalam — kiprigi, bo‘yoq — o‘z qoni,
Matoda bir dunyo, bir diyor kelur.

Shukur, hasta onam turdi yotoqdan,
Unga salom berdi qushlar butoqdan,
Quvonchi qaynoqdir soydan, buloqdan,
U kuchsiz ko‘ksiga kuch, mador keldi.

Nadir qo‘llardagi bu lola, nargiz?
Bu qaysi ifordir, rayhonmi, yalpiz?
U o‘zi kelmadi, uni mehrimiz,
Dardimiz keltirdi — zor-u zor kelur.

Kelur ko‘zlarida to‘la sevinch, yosh,
Taxtga egilmagan u buyuk qardosh,
Ozarbayjon, senga egganicha bosh,
Oq-oppoq sochlari qoyador kelur.

Bu oqshom hammaning ko‘zi undadir,
San’atning eng yuksak so‘zi undadir,
Yongan har o‘choqning o‘zi undadir,
Chiqib o‘t ichidan bir qator[1] kelur.

“Xumoyun” rom aylar har yigit-qizni,
“Segohi”i o‘tlarga otadir bizni,

[1] **Qator** — poyezd *(tarj.)*.

Uchta sim ustida ona Tabrizni
Dunyoga ko‘rsatgan bir setor kelur.

U nozik torlarga qurbon bo‘lay man,
Orazim oqadir u pardalardan,
Ko‘zimdan, ko‘nglimdan ko‘z yoshlar oqqan,
Ustimga goh chechak, gohi qor kelur.

Bugun quvonchimdan devonadirman,
Zargarga peshvozman, durdonadirman,
Porlagan har nurga parvonadirman,
Fikrimga she’r, qo‘shiq, nur takror kelur.

Biroz kechikding-da, muxtaram ustod,
Senga ilhaq Vohid ko‘rmadi, hayhot,
Xayolimda xuddi shu payt, shu soat
Qarovsiz, buzilgan bir mozor kelur.

Ha, bo‘lmish bu makon “Faxriy Xiyobon”,
Jabborli, Uzayr, Vurg‘un yonma-yon...
Vatan, milyon-milyon
yog‘dularda yon:
Har ikki sohilga nur sochgan inson —
Qalbimiz dunyoga mash’alvor kelur.

Metin aqidali, mard e’tiqodli,
Tarlon orzulari Tabriz qanotli,
Ko‘ro‘g‘li qilichli, Bobak shiddatli,
Savalan ko‘krakli san’atkor kelur.

Jon qaynar soylarni Kurlashtiray deb,
Nursiz tuyg‘ularni nurlashtiray deb,
Janubni shimolga birlashtiray deb,
Faxr ayla, ey vatan, Shahriyor kelur!

*1969*

## QAYTA TUG‘ILISH

*Professor Bag‘ir Bag‘irovning*
*“Rasul Rizo” kitobini varaqlarkan*

Qarshimda bir mo‘jiza, marmar jildli bir kitob,
Sut varaqlar tongeri, oltin so‘zlar sochar nur.
Oshib-toshgan sevinchga berolgaymi yurak tob,
Ko‘zlarimda porlagan misra-misra oltin, dur.

O‘qigandim Bokuda, Turkanda yana ochdim,
Avtobusda, metroda ichgandim u kitobni.
Bu kitob she’rimizda bayrog‘dir va gultojdir,
Bu kitob — xazina va go‘zallik inqilobi.

Na kadar-u na g‘amdir, na hasratdan biror iz.
U qaytadan tug‘ildi, soppa-sog‘lom, tip-tirik.
Bizdan ancha oldinda odimlaydi, faxrimiz,
XX yuz yilning nodir, buyuk shoiri!

71 yillik umrin qatra-qatra berdi u
Chechaklarga, qushlarga,
Ertaklarga, so‘zlarga.
Sunbul satrlarini bir-bir durday terdi u,
Kitoblarin o‘qirkan, nur taraldi yuzlarga.

Nasimiy dargohidan kelgan bir elchi... Rasul.
Nechun buni vaqtida anglamadi bu muhit?
Bugun ham xor-u zor ko‘p... nomi inson... o‘zi qul.
Kitob kabi och, o‘qi... ko‘plar yurgan bir mayit.

Endi u ba’zilarga xazin, aziz xotira,
Kimlargadir ilmiy ish, shuhrat, foyda bulog‘i.
Kimgadir qutlug‘ mozor, to‘lig‘ gul-u atirga,
Kim uchun esa haykal, boshida oq papog‘i.

Men uchun bir bayroqdir sarkarda Rasul Rizo,
Buyrug‘ida quvvatli, ko‘rinmas bir o‘rdu bor.

Qo‘riqlovchi bir qal’a, sirparda Rasul Rizo,
O‘tkir, mergan ko‘zida O‘t yurtining o‘ti bor.

Manglaydagi terini artardi u goh xorg‘in,
Ota-o‘g‘il misoli gaplashardik bir mahal.
Haliyam buyuk jangda qatnashmoqda u betin,
Milliy kurash har zamon istar garov va badal.

Haliyam bor jahonda chayondan ham chayonlar,
Kabineti maydonday keng mikrobbo‘yli a’yonlar,
Haliyam bor jahonda zolimlar, xor-zalillar,
Et chaynagan, qon ichgan og‘zi qonli qotillar.

Haliyam blor jahonda hukmron panjasini
Xalqlarning yuragiga, miyasiga urganlar;
Talab, tashib bir millat boyligin qanchasini,
Elni xor aylab, o‘zi boy, bor bo‘lib yurganlar.

Shoir bu kurashlarning joni, ongi, nafasi,
Niqobli dayuslarning niqobini burdalar.
Barrikadan kelur Rasul Rizoning sasi,
Qaynar mening qalbimda po‘lat barrikadalar!

*1987*

## QUTLUG‘ BO‘LSIN, SHAYXZODA

*“Maqsud Shayxzoda she’riyati va ozarbayjon—o‘zbek adabiy aloqalarining muhim masalalari” ilmiy tadqiqoti himoyasi paytidagi o‘ylarim*

Qutlug‘ bo‘lsin, Shayxzoda! Bayram bu kun senikidir.
Bilim uyi, ilmiy kengash... bu to‘y-tugun senikidir.

Oq devorda katta rasming... devorlardan o‘tar nuring.
Cho‘ng ko‘zoynak ortidagi ko‘zlar boqar xorg‘in-xorg‘in.

Qoyadek tik boshing bosmish zolim qorlar necha-necha,
Bokumizga qo‘nding bu kun burgut kabi ucha-ucha.

Oriq-quruq o‘smir ekan, bu diyordan ketgan eding,
Yerdan ko‘kka bo‘y cho‘zibsan,
qaytding bo‘lib dong‘il, metin.

Qutlug‘ bo‘lsin, Shayxzoda! Bayram bu kun senikidir.
Guldastalar to‘lqin-to‘lqin, bu to‘y-tugun senikidir.

Ishongandin bu kun kelar deya yaxshi yomon kunda,
Bir kishilik kamerada boshingga suv tomarkan-da.

Guldastalar yuraklar-la olqish aytar bu payt senga,
Ilmiy kengash ovoz berar ayni chog‘da senga, menga.

Opponentlar yuzi nurli... Qaynab-toshib so‘ylar biri,
Seni ezgan kishanlarni sindirmoqda bilim sheri!

Qutlug‘ bo‘lsin, Shayxzoda, g‘ovlar ochilibdir,
Chig‘atoydan Oqtoshgacha yo‘lingga gul sochilibdir.

Sen Bokuga sig‘maganding...
Ey, Darbandga sig‘magan jon,
Toshkentda oq favvoradek toshni yorib chiqqan inson!

Ko‘z tashda bu anjumanga, yosh-u keksa odamiga,
O‘zbekiston qanot qoqdi Ozarbayjon olamiga!

Uchib keldi tug‘ishganlar, azizlaring, eldoshlaring,
Ilm-u she’rga qanot bergan tengdoshlaring, yo‘ldoshlaring.

Sen bir po‘lat ko‘prik bo‘lding Toshkent-Boku orasida,
Sen bir nursan, g‘urur nuri ko‘zlarimiz qorasida.

Xayolimda xuddi bunda o‘tirganday dono, jiddiy,
Qilichini qinga solgan Jaloliddin Manguberdi.

Jon og‘rig‘in chetga otib, yulduzlarning orasidan
Kelmish bunga Ulug‘bek ham qon tomgancha yarasidan...

Oq sallali Navoiy ham shahru tog‘lar osha kelmish,
Soqolidan yog‘du tomgan Fuzuliy ham shosha kelmish.

Qutlug‘ bo‘lsin, Shayxzoda, senga loyiq bu tantana,
Jon-tan bo‘lib birlashibsan jahon bo‘yli bir vatanga!

Bir quyoshdir, bir Xazardir qo‘limdagi oltin boda,
Davraboshi sen o‘zingsan, qutlug‘ bo‘lsin, Shayxzoda!

*Toshkent, 1985*

## IKKI SHOIR SUHBATI

— Yolvoraman, Xalil Rizo,
sir qolsin o‘z oramizda...
Men qo‘rqaman hasadchidan,
Ming sifatli fasodchidan.

Men qo‘rqaman har mansabga
tirmashgan she’r jinnisidan,
Maddoh, uchar, shang‘isidan.

Moskvada yo Bokuda barcha telik-teshiklarga
Kirib chiqqan kalamushdan,
Oyoqlarni yalamishdan...

—Men qo‘qmayman,
aziz shoir Vahobzoda,
Men egnimga kafan kiyib,
otilganman bu maydonga.
Yoqtirmayman pastkashlarni,
g‘iybatchi, xos xaskashlarni,
Zarba yegan bari zada.

Dushmanimning nafrati ham menga yangi quvvat berar,
Imzom ochiq, ko‘nglim ochiq,
nafratim ham ochiq-sochiq.

Ey qorong‘i, qoravoylar!
Chog‘ing yetsa, qarshimga chiq!

Ko‘zlarimning ichiga boq,
ey, badaxloq!”
Deyman chala olimlarga,
chalashoir, zolimlarga.

—Qurbon bo‘lay, yolvoraman Xalil senga:
Ular sening ko‘zlaringga
Chayon kabi mayda-chuyda ko‘rinsa-da,
Ishon menga,
Ba’zan tog‘day zotni yiqar kichik yara, kichik zada...

—Sen yolvorma, Vahobzoda,
Men bu sirni ochmayman, lek
Ochiq she’rga aylantirib,
yerdan ko‘kka shaylantirib,
Hali toza, kirlanmagan
Oyga, marsga yuboraman!

Sen qo‘rqasan, bu qo‘rquving menga bir dard,
Qo‘rqa-qo‘rqa yashadikki,
Shu kunga keldi mamlakat.

*1985*

* * *

Ko‘p ish kelar qo‘lingdan:
goh non-cho‘rak berasan,
Goho ko‘ylak berasan.
Tang qolib goh chekinsam, yurak-tirak berasan.

Qo‘llaysan, eng iforli yangi chechak berasan,
Imkon topsang, mukofot,
hatto unvon berasan.

Kuching yetar ko‘p ishga...
Ammo, bir ammosi bor,
Sen asli iqtidorsiz, bechorasan, ey g‘addor!

Payg‘ambariy ko‘zimni ko‘rishga yetmas kuching,
Chunki boshqa o‘lchoving,
Qarashing, fikring-puching.

Menga-ku non-tuzing ham, ko‘ylaging ham kerakmas,
Sarf aylaging emagin,
ko‘maging ham kerakmas!

Meni na bog‘-u rog‘ing, na aqchang xursand etar,
Birgina istagim bor: meni tark etsang — yetar.

Albatta, bilasanki, yelkadoshingdir Xalil,
Safdoshing, qalamdoshing, o‘lkadoshingdir Xalil.

To‘g‘ri, ishdosh yo‘ldoshing,
do‘sting, qardoshing Xalil,
Bitta sirdoshing Xalil.

Faqat shuni ham angla:
Xalil faqat bumas, bil,
Shuni angla, ey, g‘ofil —
Yer ustida yursa ham, ko‘klardan kelgan Xalil!

*1982*

## INSONLARGA SUYANISH KERAK

Faqat insonlarga suyanish kerak,
Gar odam mansabsiz, qashshoq bo‘lsa ham.
Faqat haqiqatga tayanish kerak,
Haqiqat maydonda yolg‘iz qolsa ham.

Faqat muhabbat-la yonib suyganni
O‘pib, ko‘z ustiga qo‘ya olarsan.
Haq uchun kurashda bag‘ri kuyganni
O‘zingga yo‘ldosh deb suya bilarsan.

Ko‘p bo‘lgan nohaq-la saf tutma, inson,
Oz bo‘lgan haqlining yonin ol har dam.
Nohaq dev bo‘lsa ham, nafratlan har on,
Jon berma uni deb, yonsa-da olam!

Yurakka, idrokka suyanmasa gar,
Ko‘p ham asta-asta oz bo‘lar albat.
Quyoshga suyangan har gul ochilar,
Bitta gul bilan ham yoz bo‘lar albat.

Men ham tanlaganim o‘sha ozlarni
Xalq bo‘yli qalbimda ummon deganman.
Suruv-suruv yurgan past she’rbozlarni
Bitta chin shoirga qurbon deganman.

Keling, ey ozlarim!
Ko‘payish kerak.
Sizning har biringiz — bir qo‘shin, bir tog‘!
Ular yo‘limizda yotgan xas-xashak,
Ko‘kbo‘ri uyg‘onsin —
chaqiring bu chog‘!

O‘lish bor, qaytish yo‘q! Kurash beomon.
Bu yo‘lda har o‘lim — hayotdan darak.
Faqat cho‘ng ruhli u tog‘larga suyan,
Tog‘ ruhli insonga suyanish kerak.

## QONDOSHLIK

Qorako‘z bir yigit... bo‘ychan va o‘ychan,
Jozibang jussangda emasdir aslo.
Ikkimiz chiqqanmiz bitta beshikdan,
Ayni sutni emgan Xalil va Shiiro’.[1]

Sen bilan ko‘rishsak, yayrar jon-u tan,
Ayriliq onlari, mahzun holating...
Qondoshlik ufurar so‘z, nafasingdan,
Qonimni jo‘shdirar samimiyating.

Nedir odimingda quvonib-kulgan —
Qanday afsungarsan? Qanday sehrkor?
Sening ko‘zlaringdan toshib-to‘kilgan
Mardlikning muqaddas sharsharasi bor...

Yuraklar yonma-yon,
bir-birin qo‘llar,
Sarhad simto‘sig‘i yo‘l berar bizga.
Semurg‘ qushi bilan bu falak yo‘llar —
Bokum qanot qoqar qondosh Tabrizga!

Tabriz havosidan tomar qaymoq, bol,
Atirli epkinin simiraman jim.
Qondoshlik zavqidan bo‘lib mast-u lol.
Bor tashnaligini qondirar qalbim.

Toshlar ifor sochar binafsha misol,
Onamiz kuymanar tandir boshida.
Qondoshlik bor suvi, noni, oshida,
Jondosh va yoqimli har holat-u hol.

Bir malak kelinchak osmondan tushib,
Tikkan shu kashtani, ipagin eshib.
Har ne o‘zimizdan, qarash-u sezgi,
Oddiy deraza ham baxtimga ko‘zgu.

[1] **Shiiro’** — Sirius; Egiz yulduz (*tarj.*).

Qayerni kezmayin qondosh elida,
Baqqol ham, dallol ham yoqadi menga;
Bozorning chetida, arqon belida,
Bukchaygan hammol ham yoqadi menga.

Qo‘llari ishda-yu og‘zi duoli
Har keksa men uchun ma’budning o‘zi.
Dono suhbatlari jonga davoli,
Azizdir, ulug‘dir eng oddiy so‘zi.

Azizdir o‘chog‘i, cho‘g‘i, olasi,
Ishtaha qo‘zg‘agan jiz bizxona ham;
Chora chorshafiga o‘rab bolasin,
Sirtiga bog‘lagan u yosh ona ham.

Qadrdon hovlilar — ichki-yu tashqi,
To‘rt devor ichidan chiqmas siri ham;
Oltin qasrlar-u uylarning g‘ishti,
Ming yillik shuhrati, kam-qusuri ham...

Haliyam bor shunday shahr-u qishloqlar,
Zahrini sochadi yot ilonlari;
Haliyam sabr etib, xalq sukut saqlar,
Portlashga shay g‘azab, kin vulqonlari.

Och ham,
yalovoch ham birday qiynalar.
Qondoshlik bo‘lmasa, yashamoq qiyin.
Men ham shu mamlakat dardini deyin —
Haliyam oh tortar ota-onalar.

U paxta, neftgamas, har nedan oldin
Qondosh nafasiga, mehrga muhtoj;
O‘zin ulug‘ligin,
O‘zin qudratin
Ochiq ko‘rsatuvchi sehrga muhtoj.

Ochilgan bir gul ham tikan ko‘rinar
Orzular, umidlar qolsa kishanda.
Dengiz ham bir kosa sho‘r suvga do‘nar
Sohilda qondoshlar birlashmaganda.

Asfalt qiyofasiz.
O‘ng-u so‘lingda
Asfaltga o‘xshagan toshyuzlilar bor.
Yotlar qondoshlarning hayot yo‘linda
Ilondan, chayondan qo‘rqinchli, badtar.

...U she’rni Nosirbek yozganmi bir payt?
Men uni takrorlay, mana o‘sha bayt:
“Boqib bu zulmatga, ṁot qolurman, mot —
Yotlar sohib bunda, sohiblar-chi, yot!”

Tabrizlik do‘stim hech ko‘zlarin yummas,
U ko‘zlar g‘azabning qutlug‘ o‘chog‘i.
Go‘yo Ko‘kmasjidning oltinin emas,
Uning yuragini talagan yog‘iy.

...Qondoshlik yo‘lida bitmas kurash, jang,
Bilaman, biz uchun otar oppoq tong.

Bor qiyofasizlar
o‘rnidan qo‘psin!
Qondoshlik uchun kim kurashgan bo‘lsa,
Temir chorig‘ini egilib o‘psin!

*1998*

## YER OSTIDA YOTGAN GAVHAR

*Faxriddinimizning vafoti kuni shoirimiz Qosim Qosimzodaga tasalli*

Na qora xabar bu, silkindi shahr,
Sellansin — ko‘zimda yoshim yig‘lasin!

Tiqilsin ko‘ksimga o‘kirik, qahr,
O‘t olsin kiprigim, qoshim yig‘lasin!

Men uni ko‘rgandim Xazar bo‘yinda,
Ko‘zim lol qotgandi sarvar bo‘yinda.
Bir haykal yashardi ar-ar bo‘yinda,
Yozim qish bo‘ldi-ku, qishim yig‘lasin.

## FAXRIDDIN!

Yosh olim, yosh arabshunos,
Quvvatda bir arslon, soflikda — olmos!
Yonarman go‘rgacha,
Yaram sog‘aymas,
Ustimda tuprog‘im, toshim yig‘lasin!

O‘g‘lidan ayrilgan, bukuk Qosim-ay,
Kel, seni bolangday bag‘rimga bosay!
Sokin xo‘ngrashingga jim quloq osay,
Kel, boshni boshga qo‘y, boshim yig‘lasin.

O‘zim ham bilmasman, men asli naman,
Siniq bir kamonman, yoriq bir nayman,
Qanoti qayrilgan Qosimzodaman,
To‘zigan xayolim, hushim yig‘lasin.

Qoraqosh, qorako‘z, jur’atli, mag‘rur,
Bir ko‘rkli — tog‘lar-la bo‘yma-bo‘y turur,
Zakosi yog‘du, nur,
borlig‘i billur...
Singan u omochim, qo‘shim yig‘lasin.

Qalami, qog‘ozi, kitob-daftari,
O‘zidan umrli...
Umr-da g‘arib:

Tez yondi, tez o‘chdi u tong Hulkari,
O‘lim pushmon esa, shoshib yig‘lasin.

Ey, mening sultonim!
Ey, mening poshom!
Chidayman, balki bir yuragi toshman.
Butun umrim bo‘yi dardga qardoshman,
Osmonda o‘q yegan qushim yig‘lasin.

Degandim: “Sotilmas qalam Faxriddin...”
Salom, chiqqan quyosh!
Salom, Faxriddin!
Bir o‘rdu badali bolạm Faxriddin!
Qalbimda bir o‘rdu, qo‘shin yig‘lasin.

Tobut nur ichinda, chechak ichinda,
Tobut bir lolazor, o‘zga bichimda,
Bir qayg‘u dengizi yashar ichimda,
Misramga misralar qo‘shing — yig‘lasin.

Aqlli, mehribon, qomatli, novcha,
Na ona o‘pgandi uni to‘yguncha,
Na ota boqqandi boshdagi tojga...
Kun botdi — qoraygan qoshim yig‘lasin.

O‘lgandan keyin ham, o‘g‘lim, go‘zalsan,
Bu kundan tuprog‘ing oltin-u la’lsan.
Uyquga tolsam men, uyqumga kel san,
Uyg‘oq g‘am boshimdan oshib yig‘lasin.

Yaqinda o‘tgandi muborak to‘ying,
Qadahlar jaranggi, gumburqars o‘yin...
U torni, u sozni bir yonga qo‘ying,
Barisi jim tursin, oshiq[1] yig‘lasin.

[1] **Oshiq** — baxshi *(tarj.)*.

Oh, nechun dunyoda baxt-u quvonch kam?
Yagona tasallim mitti nabiram.
Kelin, tin ol, bugun osmon yuzi nam,
Biz bilan yer-u ko‘k toshib yig‘lasin...

*1984*

* * *

Eng qudratli o‘g‘lingga begonaday boqmaysan,
Ko‘zingdan uzoqdadir seni eng sog‘inganlar.
Paxlavon avlodingning qo‘lin, tilin bog‘laysan,
O‘rtada javlon urar qamishdan ot minganlar.

Jonim, ko‘zimsan axir, haq so‘zimdan injima,
Seni shunday xor holda ko‘rish menga ko‘p og‘ir —
Cho‘ntagingga berkitib marvaridu injuni,
Loyxushtak, loymunchoqni xalqqa sotganing nadir?

*1986*

## KUCHIM, KUCHSIZLIGIM

Gar mushtimni toqqa ursam, gursa-gursa tog‘ yorilar.
Sharsharani quchoqlasam, qo‘llarimdan sel sharillar.

Faqat nodon ishboshiga mening aslo kuchim yetmas,
Xo‘kiz buyruq berib tursa, yurak bunga toqat etmas.

Men suzarman to‘rt ummonni sola-sola yuragimga,
Yuz chaqmoqli yildirimni o‘rarman shu bilagimga.

Faqat kuchim yetmas mening
Har gapini qonun deya uqtirganga, qo‘rqitganga,
O‘zi aql muhtoji-yu yana aql o‘rgatganga.

Qilich kesmas, bolta o‘tmas zanjirlarni uzaman men,
yetti boshli ajdahoning kallasini ezaman men!

Faqat kuchim yetmas mening ming sifatli bir iblisga,
Past-tepani qorishtirgan u nokasga, bu nokasga.

Ham qudratli, ham kuchsizman,
ham jasurman, hamda bo‘shang,
Yo‘limda ko‘p mone, to‘siq; g‘ovlarim ham o‘sha-o‘sha.

Yaldo tuni zulmatidan qo‘rqinch, qora shu tog‘ bor-a,
Qalam bo‘yli toshkesarim uni aylar pora-pora!

*1978*

## TENTAKNI TEPAGA CHIQARMA

Katta bir mansabda...
Bir boqsang — arslon.
Bir boqsang, gadoday tilanar — quyon.
Ajali kelguncha qanchalar inson
Chidab bu tentakka bo‘ladir qurbon.

Zulukdan ham badtar, yopishsa, qo‘ymas;
So‘rib ham, so‘rab ham, hech qachon to‘ymas,
Qoningni so‘rdirib,
Og‘u osharsan —
Nahot, o‘lguningcha shunday yasharsan?!

...To‘xta, o‘rtoq rais,
chapak chalma, bas,
Qorning shu chapaksiz to‘ymasa-to‘ymas!
Axlatday irganch-ku soxta olqishlar!
Yetar soxtakorlik!
Yetar chalg‘ishlar!

O‘lsak ham, qolsak ham, olg‘ir nodonga
Bermangiz minbar-u xalq, olomonni.
Sudralgan ko‘r-u kar, yovuz ilonga
Berib bo‘ladirmi katta karvonni?

Boqdingmi, ayt, xalqning fikr-u o‘yiga?
Har doim tanish-u bilishni deding.
Misol: Sosunlining yubileyiga
Bir chalamullani yuborgan eding.

O‘shanda u ulkan jumhuriyatni —
Emas, tamsil etdi seni, o‘zini.
Qoldirib Ko‘ro‘g‘li kabi bir zotni,
Jo‘natding yolg‘onchi Kachal Hamzani.

Kerilib, chapaging chalma bugun ham,
Ko‘zlarga kul sepma, muxtaram rais!
Yolg‘onni olqishlab turgan har odam
Bil, suvga tupurgan bir ablax, dayus!

O‘lsak ham qo‘ymaylik ilm olamiga
Xasta vijdonlarni,
    kar qadamlarni!
Qo‘ymang
qo‘pollarni hilm olamiga.
Ruhi qisirlarni,
qul odamlarni!

...Rais, o‘shanda ham olding to‘rini,
Hamkorlar majlisi... “doklad” o‘qiding.
Fan sohasidagi savdo to‘rini
Yana mohirona bichib-to‘qiding.

Mard chetda qoldi-yu nomard saylandi,
Yana sassiq alaf gulga aylandi.
Tanlading o‘zingga shundayin hamkor —
U ham ko‘r bo‘lsin-u, ham tilsiz, ham kar!

Asil olimlardan qo‘rqasan, g‘addor!
Kuchlilar bosh egmas, sen bir johilsan.

Papag‘lar ostida mag‘rur boshlar bor.
Ularning oldida axir bir pulsan!

Chetda qolgan anov qahramonga boq,
G‘o‘dayma, amaling emas-ku mangu.
Asling-u nasling-la, angla, ey ahmoq,
Uning verguliga arzimaysan-ku!

Uning ham davroni kelar, albatta.
Balki sen o‘lgandan keyin, sal so‘ngra.
Bil, sen deb hayotga sig‘maganlarga
Kerakdir eng ozi yuz yil, bir era!

Vijdonim to‘g‘risin ayt deb buyurar.
Tepaga chiqvolib qarsak urganlar —
Bizning otimizni minib yurganlar!

Ha, ortda qoldik biz.
Oldinda ular.
Tepani boy bermay deb bu qarg‘alar
O‘zin oq ko‘rsatib,
bizni qoralar.

Ular chigirtkaday epchil, sakrangich.
Dinozavrlarday bir oz-da yirtqich.
Ilonday og‘uli,
ziyrak, dog‘uli.
Mushukday sillig‘-u
tulkiday tullak,
Olim o‘rnin olgan ilmboz ahmoq,
Shoir o‘rnin olgan bir she’rboz, yaloq!

Ular boshga chiqib, beradi farmon —
Adab avf tilasin adabsizlikdan,
G‘ayrat avf tilasin g‘ayratsizlardan!
Qahramon qul bo‘lsin jasoratsizga —
Layoqat yolvorsin layoqatsizga!..

Balki ruhing tushdi, bo‘shashding bir on...
Qo‘rqma hech!
Qadrli bo‘lgan har zamon
Bir misqol haqiqat to‘nna yolg‘ondan,
Bir tola nur kuchli shar zulmatidan,
Qorong‘i ittifoq saltanatidan!

Yolg‘ondan general pogonin taqqan
Bir oddiy askardan zaifdir, inon.
Mayli, qurollansin tun-u kun zulmat,
Bir chora topadi hur insoniyat.

Bizning qo‘limizda yarog‘imiz bor.
Bu qurol zanglamas nafratimizdir!
Bizning ol sanjoqli bayrog‘imiz bor,
U bayroq g‘ayrat-u, jur’atimizdir!

Qo‘limiz qirqilsa —
tirnog‘imiz bor!
Bor bo‘lsin
tirnoq-la tog‘ ag‘darganlar!

Zaif kimsalarga berma bu yurtning
Biror burchagini, idorasini.
Tepada qol doim,
Xalil Rizo bo‘l,
O‘rnak bil ruhi-yu irodasini.

*1982*

## MANSAB YO‘LLARI

Tepadasan.
Ammo o‘yla: kimsan,
qanday kepatasan?

Buni hech kim bilmasa ham,
men bilaman, sen bilasan.

U tepaga chiqding xuddi o‘g‘ri kabi pisa-pisa,
yelkangni ham,
tilingni ham qisa-qisa.

Ishing ba’zan ters bo‘lganda,
yo‘l qoyaga duch kelganda,
Goh o‘zgani,
goho esa o‘zingnikin qilding qurbon.

Tepkadasan.
Shuhrat senda,
sarvat senda.
Kecha millat bolasiyding,
bugun millat cho‘ntagingda.
Nazdingda — sen eng tepada,
hamma jarning eng taginda.

Tepadasan.
Chiqding unga qanday qilib?
Axir yuzlab arizaga biror javob bermagansan,
Boshqalar ham isinsin deb bir bor o‘tin termagansan.

Qulig‘ingning ostida naqd baqirdilar,
chaqirdilar —
Eshitmading,
karga solding o‘zingni, hech
Biror ishni pishitmading.

Sen tepaga tirmashgan dam
hamma seni ko‘rsin deding,
Sen hech kimni ko‘rmasang ham.

Ko‘zlarini berib senga ko‘r bo‘ldi xalq — ne ko‘rguluk!
Shu xalq deb bir kiprigingni bermading-ku sen, ey zuluk!

Ey tepaga yopishvolgan, qapishvolgan,
O‘yla: rostdan tepami u?
O‘tirganing balki portlay deb turgan bir vahshiy vulqon?

Qarshingda bir mayoq yonar.
Ko‘zi borlar uni tanir.
Ne zot mayoq yonsin deya yuraklarin yondirganlar.

Men tepaga yuksalaman
misra-misra, satrlanib,
Senda to‘nna kuch bor, qo‘rqma,
Menda misqol-misqol kuch bor,
o‘smoqda u botirlanib.

Sen boryapsan yon-veringdan hurka-hurka,
qo‘rqa-qo‘rqa,
O‘ng ko‘zingni, chap ko‘zingni pirpiratib, qisib,
pisib...
Men boryapman ikki qo‘l-la xoinlarni surib, to‘sib...

Sen boryapsan o‘zgani-yu o‘zingnikin yalab-yulqab,
Men boryapman haq ko‘zgusi bo‘lib, doim haqni yoqlab.
Sen boryapsan boshqalardan biror nima kuta-kuta,
Men boryapman yotlar tomon o‘qlarimni ota-ota.

Sen tumanli tepadasan.
Men xalqimning qo‘liman.
Chin va soxta tepalarning tagidagi zilzilaman.

Sen yuqori tirmashasan o‘zing uchun.
Zinaning ost bosamog‘i bizning uchun.

Mushtlarimni tepa kabi ko‘taraman.
Yuksalyapman,
men bittaman alpinistlar orasida,
Men seni ham tashiyapman yuragimning yarasida.

Senga bitta savolim bor,
to‘risin ayt, o‘ylab ko‘r:
Sen rostdan ham bir tepada turibsanmi —
javob ber!

*1985*

## O‘LIMINGNI TILAGANLAR BOR

O‘limning turi ko‘pdir.
Men aytayin, sen o‘rgan:
Dushmanga taslimchilik, kurashdan qochish — o‘lim.
Elini otish — o‘lim!
Tilini sotish — o‘lim!

Ha, o‘limning turi ko‘p.
Ilhomsizlik ham o‘lim.
Iymonsizlik ham o‘lim.
In’omsizlik ham o‘lim.

Yotlar mushti ostida yashamoq ham o‘limdir,
Sharmandalik, haromni oshamoq ham o‘limdir.

O‘limning turi ko‘pdir,
o‘limning eng tubani
El ko‘zidan tushmoqdir,
Yarim misqol shuhrat deb xor bo‘lib tirishmoqdir.

O‘limdir mavqye deya o‘zin yerga urish ham,
Yot qo‘yniga kirish ham.

Bu o‘limlar senda jam!

Qani, yo‘q deb ishontir!
Ko‘ksingdagi nishonlar o‘limingdan nishondir!

Tashqaridan bezaksan,
ichkaridan tezaksan.
Kutar o‘rinbosaring —sen qachon o‘lajaksan?

Qabringga qo‘yilajak guldasta ham xastadir,
“Motam rais qachon o‘lar?” guldasta ham asta der.

Aspiranting o‘ylaydi: “Bizning ilmiy rahbarni,
Ilmsiz bir xumparni
Azroil ham unutib yuborganga o‘xshaydir.”
O‘limning turi ko‘pdir,
sening vijdoning o‘lgan,
Ammo nafsing tip-tirik,
nafsing o‘zingdan yirik.

Shu bois hayotingda, qara, qora motam bor —
O‘limingni tilagan allaqancha odam bor.

*1986*

## MADDOHLARGA ISHONMA

Ular seni ta’riflaydi radiolarda,
Teleko‘zgu minbarida madh etadi,
Gazetlarda vasfing bitib, sharh etadi.

—Nizomiyni yetishtirding! Kahkashonsan! —deydi biri.
—Nasimiyni yetishdirding! Qahramonsan! — deydi biri.

Biri deydi: —Sharqning ko‘zi!
Biri deydi: —yer yuzida jannat o‘zi!

Biri yayrab, tomoq yirtib baqiradi:
—Voy, vatanjon! Voy, jon, voy, jon!..

Maddohlarga ishonma sen, Ozarbayjon!

Sen shunday bir katta o‘rmon,
Ichkarida bir-biriga ters, zid, dushman,
Bir-birining kushandasi ko‘p hayvon bor...

Nizomiyning bog‘larini
talatgan bor,
jim sotgan bor,
Soib, Sobir tog‘larini
qulatgan bor,
ming nodon bor.

Sen — qadim bir ulug‘ chinor!
Biroq oltin butog‘ingni
Egib, butab, kesganlar bor.
Zarra-zarra, misqol-misqol yiqqaningni
To‘nna-to‘nna olib, yutib,
emin-erkin kezganlar bor.

Madh etadi ular seni,
Biri deydi: —O‘z elimsan!
Tufarganli Abbosimsan, Shoh Xatoyim, Fuzulimsan!

Unday bo‘lsa...
Bas! Xalajda, Duvannida, Buyuksho‘rda
Nechun bunday fojea bor?
Qurbonlar kim?
Qotillar kim?
Nechun mas’ul odamlar jim?

Nechun qo‘lga olinmaydi
jinoyatchi, qallob-zo‘rlar,
O‘lik jonlar, ochiq ko‘rlar,
xaromxo‘rlar?

Voqif, Mo‘jiz chinorining tanasida
yo‘sin kabi yashaganlar,
O‘zi no‘l-u, milyarderga o‘xshaganlar?..

Ular seni madh etarlar
uxlab, ko‘zi yumilsin deb,
Bu yonar o‘t tez o‘chsin deb,
o‘z kuliga ko‘milsin deb!

Sen gulingni tikanlardan ajratasan axir qachon?
Ilonlarning boshin ezib, shart otasan axir qachon?

Zolimlarni, zuluklarni yo‘q etasan axir qachon?
Sen ishonma maddohlarga, Ozarbayjon! Ozarbayjon!

Maddohlaring qator-qator, turli-turli,
bo‘sh gap sotar,
Eng qirrig‘i — nazmbozlar,
Eng tirrig‘i — rasmbozlar,
Eng jirrig‘i — bastabozlar —
bari isqirt dastabozlar!

Maqtab, siqib, sindiradi qo‘llaringni,
Shoh tomiring yulib olib,
kesar yurak yo‘llaringni,
Yuragingni parchalaydi bu maddohlar,
yarimtangri, yarimshohlar!

Seni doim kemirganlar,
semirganlar
Yuksak, zarrin ko‘shklarda jon saqlagan chayonlardir!

Berkitiqcha yurtni sotgan olchoqlarga ishonma sen!
Olg'ir vazir, rektor, hokim...
yaloqlarga ishonma sen—
Ongi mahbus, ichi zindon, qamoqlarga ishonma sen!

Ishonma puch so'z-la seni maqtagan u laganlarga,
Mehnat qilmay, har zamon ham tayyor oshni yeganlarga,
Oqni qora deganlarga!

Ishonma u karnaychi-yu,
ta'rifchi-yu ta'riflarga,
Seni harif, gel qilay deb madh etgan u hariflarga!

Hech ishonma maddohlarga —
ta'rifbozga, tanqidbozga,
Ishon menga, kel, qo'l uzat --
Bu maydonda yakkalanib
qolmasin hech Xalil Rizo.

*1986*

## LA'NAT

O'qidim u zaif, mo'rt maqolangni,
Pashshani fil deya yozibsan, nokas.
Odam bo'lsang agar, yirt maqolangni,
Axlatga ot — ilm hech ne yo'qotmas.

Qarigan tulkini nechun sher deysan?
Nechun bir ilonni silab, yayraysan?
Xalq qonin to'kkan u iflos, kirlarni
Nechun sovun surtib yuvib-taraysan?

Tuproq to'ydiradi u ochlar ko'zin,
Nechun to'ymaslarni maqtab, sayraysan?
Yotlar qilichidir qalaming, so'zing!
Yog'iylar qilichin nechun qayraysan?

Yozuving qoraytgan qog‘ozga la’nat!
Chop bo‘lsin degan u og‘izga la’nat!
Senga nashr imkonin berganga la’nat —
Davrangga, to‘rangga,
jo‘rangga la’nat!

Yoz, ey bo‘g‘ma ilon! Unutma biroq,
Olchoqni maqtagan o‘zi ham olchoq!
Chirkinsan, chiriksan,
ey quzg‘un yemi,
Maddohlik ilmining mohir xodimi!

Bo‘g‘ma, bas! Bilamiz, ey chaqir tikan,
Senlarning fitnang-ku boshni og‘ritgan:
Qahramon ataldi bir necha qo‘rqoq,
Olim deb xat oldi bir necha ahmoq!

O‘t yongan o‘choq men, o‘timga ko‘mil!
La’natim senga, ey chirik, bedavo!
Kel, mal’un, g‘azabim ko‘lida cho‘mil —
Balki sog‘ayarsan, tirilarsan yo.

*1986*

## CHETNIKI

Sovg‘a istaysan har vaqt —
chetnik bo‘lsin faqat.
Sharob, tamak
yo sumak —
chetniki bo‘lsin faqat.

Yangi kiyim istaysan —
neylon, ip-u ipak, jun,
Faqat chetniki bo‘lsin.

Ne bersalar olursan —
meva, qoqi, guruch, un...
Faqat chetniki bo‘lsin!

Chnt yog‘ini suribsan
olg‘ir qo‘lingga bu dam
Ko‘zigga chetnikidek
ko‘rinar quyosh, oy ham.

Sen tilagan baxshishning
berardim barin, toki
Agar boshing va onging
bo‘lmasaydi chetniki!

*1986*

## BALKI HALI KECH EMAS

Balki hali kech emas.
Umid axir tuganmas,
Balki lovullab yonar sovuq umringning so‘nggi,
Yetmish yillik u tunning otadir oltin tonggi.

Tomirda qolgan bo‘lsa gar bir tomchi o‘z qoning,
Yarim misqol vijdoning,
Gar yo‘q bo‘lib ketmagan esa poklik, imoning,
Qo‘l silta shak-shubhaga,
Kel, o‘t bizning jabhaga!

Bizning jabha — jahonda orzu, xayol tovushin
tinglaganlar jabhasi,
Seni bir qarashdayoq anglaganlar jabhasi.

Shafaq sellari kabi oqqanlarning jabhasi,
Pastkash dunyoi dunga

ko‘nglining shoh tog‘idan
Boqqanlarning jabhasi.

Tut shu odamning qo‘lin —
erit Muzli Shimolin!
Tosh yo‘ngan, urug‘ sochgan
qo‘llarga o‘xshar bu qo‘l,
Bog‘ yaratgan, yer ochgan
qo‘llarga o‘xshar bu qo‘l.

Ko‘klamdan ham kuchlidir,
quvvatli har boqimdan,
Ummonlarning tagiga o‘t keltirgan oqimdan!

Qo‘limdan tut, qo‘limda yorug‘ chaqmoq kuchi bor,
U goh bronday o‘sar,
U goh bo‘ronni to‘sar.

Balki hali kech emas,
Balki hali umid bor,
Balki lovullab yonar sovuq umringning so‘nggi,
Yetmish yillik u tunning otadir oltin tonggi.

Ne bo‘lsa ham, kech emas,
o‘zgar — ot shak-shubhani,
Biz tarafga o‘t sen ham, to‘ldir bizning jabhani.

Bizning jabha — goh ko‘plar, goho ozlar jabhasi,
Sarvatga taslim bo‘lmas,
Shuhratga taslim bo‘lmas
yengilmaslar jabhasi.

Mannerxeym qal’asidan qat-qat quvvatliroqmiz,
Manzilimiz istehkom, har birimiz mayoqmiz.

Dog‘ yo‘q bizning jabhada,

bu — or, g‘ayrat jabhasi,
Qaroqchi-yu devlarni inson hisoblamagan
Jur’at,
qudrat jabhasi!

Jarlardan chiqa olmoq —
metinlarga yarashar,
Cho‘qqilarga yo‘l solmoq
lochinlarga yarashar.

Yangi bir to‘lqin bo‘lib shoshil bizning jabhaga!
Haliyam hech kech emas, qo‘shil bizning jabhaga!

Bu jabha — million yurak!
Shoh tomiri — Oraz, Kur!
Jabhasiz o‘lganlarga
bermaydi mozor ham yer!

*1986*

## ORACHI

Uchta bo‘lsa, beshta bo‘lsa,
yo‘qotardik bu unsurni,
tuzatardik bu qusurni.

Orachilar —
porachilar,
suruv-suruv,
Ish boshida, davron surur,
mahkam turur.

Burni ko‘kda,
kezar tip-tik,
Qaniydi u bitta bo‘lsa,
bir zarbada yo‘qotardik.

Orachidan qutulishning yo‘li bormi?
Ha, ularning mansabi bor, nishoni bor,
unvoni bor,
Oq va qizil, sariq, qora allaqancha telfoni bor.

U — mansabga yopishvogan qora ko‘ppak,
Osonmidir mahv aylamak?

Majlis, qaror, qonun, muhr...
Qancha kalit —bari-bari unikidir.

Har cho‘ntagi bitta bankdir,
Qulfiga lek kalit yo‘qdir,
Ochay degan xangu mangdir.

Xotinining yoqasida,
bo‘yni-yu baqbaqasida,
Qulog‘ida,
barmog‘ida
Oltinlarin ko‘z-ko‘z qilar butun Boku!

Yopishmadim yoqasiga,
Indamadim shotirlari, akasi-yu ukasiga.
Qabuliga kirib, dedim: — Yurt kezaylik.
Sakson yoshli Shahriyorning bayramini o‘tkazaylik.

Dedi: — E, bor!
Boshimizga tushar cho‘qmor!
Bayram qilsak, yarashar-ku viqoriga...
Ammo... u payt
Javob berish kerak ming bor yuqoriga!
Bo‘lmas aslo!

Dedim: — Axir sen bu yerda direktorsan!
Chlenkorsan!..
Hali tirik, o‘lmagan bir ilon, ko‘rsan!..

To‘g‘ri, kimdir aytganidek,
Na xotinsan, na erkaksan,
varvaraksan!
Ha, sendaylar — orachilar,
o‘rtadagi porachilar!
Dunyomizni bosib turgan qorong‘usan!..

Chiqdim-ketdim.
... qaytib kelib, taklif etdim:
— Shu devoriy gazetani yangilaylik.
— Muharriri kim bo‘ladi? — deb so‘rdi tik.
— O‘zim! — dedim.
— Senmas, boshqa bo‘lar! — dedi.

Hye, bu rahbar kommunistlar,
yoqtirmaydi hech hushyorni
Behush, besar kommunistlar.

Orachilar orom bilar og‘asining ozorini,
Xursand bo‘lib belkurak-la qaziydi o‘z mozorini.
Yillar kechdi... qaysidir kun o‘tarkanman qabristondan,
Ko‘rdim, ikki ilon teshmish
mozorini ikki yondan.

*1986*

## YAXSHIYAMKI

Ko‘kda bulut quyuqlashib, quyun turgach,
Yerda inson bir-birini urib-surgach,
Och tuproqqa pok, gunohsiz
Bola qoni to‘kilganda,
Puch shiorlar yirtilganda,
Chok-chokidan so‘kilganda,
Ikkiyuzli notiqlarga
Hech kim quloq solmaganda,

Ganja, Boku darra, o‘qdan
Qo‘rqmay, taslim bo‘lmaganda,
Sumgaitda derazalar
Sinib, qonga bulanganda,
Vijdonsizlar, yuraksizlar
Vijdon, yurak tilanganda,
O‘t purkagan og‘izlarni
Hech kim yuma olmaganda,
Haftalarcha uyqusizlar
Bir marta ham kulmaganda,
Oq bayroqlar kamandiga
Shusha shahri band tushganda,
Oqtom yalang qo‘llar bilan
Solishganda, tuyishganda,
Bir un keldi yuragimdan:
— Yaxshiyamki Turkiya bor!
Har bir toshi, har qoyasi temirlashgan buyuk diyor!

Yaxshiyamki, bu dunyoda Istanbul bor, Anqara bor,
Yaxshiyamki, ko‘ksimizning Turk atalgan shunqori bor,
Yaxshiyamki, Ozarbayjon turklari bor,
Yaxshiyamki, O‘zbekiston turklari bor!

Yaxshiyamki, Qozoqiston ,
Qirg‘iziston turklari bor,
Turkmaniston, Boshqirdiston,
Tatariston turklari bor,
Yaxshiyamki, Oltoy, Sibir,
Uyg‘uriston turklari bor!
Bo‘lib-bo‘lib tashlansa-da,
O‘zgarsa-da qavm-u nomi,
Ruhi, qoni o‘zgarmagan Bulg‘oriston turklari bor!

Nasimiyga ko‘kdan ingan bir sas bergan,
Fuzuliyga ming yil yashar nafas bergan Parvardigor.
Yaxshiyamki, Karkuk, Iroq turklari bor,
Bag‘dod, Xalab turklari bor!

Tayanch tug‘im, bayrog‘imdir, borlig‘imdir turkligimiz,
Jasur, sodda turkligimiz,
Axloqi pok favqulodda turkligimiz.
Yaxshiki, yer kurrasi bor,
Unga hayot bergan oliy bir quvvat bor,
Savalandan ancha qari,
Everestdan ancha yuksak layoqat bor.

Yaxshiyamki, Alpomish bor, Go‘ro‘g‘li bor,
“G‘arb ham, sharq ham menman!” degan turk o‘g‘li bor.

Jonim, ko‘zim Xalil Rizo!
Tug‘ildingki, yashaydirsan turk so‘zidan nafas olib,
Insonlikning siynasidan to‘yinaroq mard-u g‘olib.

Sen kattasan,
Ammo kichik — umid shami lipillagan
Juda kichik uluslar bor,
Udin, nanay, lazgin, nen bor — til barqaror,
Bordir tuva, xakas,
Chuvash, yoqut, no‘g‘ay,
Gagauzlar — ko‘ko‘g‘uzlar,
Qo‘miqlar-u do‘st qorachoy!
... Uzoqlarda chukcha yashar,
Makoni qor, oq bichimda,
Ko‘zi O‘tlar diyorida, o‘zi qat-qat muz ichida.
U — kichik xalq.

Turk bo‘lsang, qalq!
yet dodiga
Botganlarning,
Jon ko‘zini javdiratib yotganlarning!

Turk nomiga loyiq kimdir?
Hayqir, bilsin har bevatan,
Turkdir —
o‘zi mahbus bo‘lib, o‘zgalarni xalos etgan!

*1988*

## NIZOMIY GANJAVIY, AFV AYLA MENI

*Ovga chiqqan shohlarning qo'liga qo'nib, yayrab,*
*Lochin jim turgani-chun kaklik etin yer ekan.*
*Gulg'uncha hasratida qonli yosh to'kib, sayrab,*
*Bulbul jim turmas ekan, ko'ksini teshib tikan...*

***Nizomiy***

"Sirlar xazinasi"ni o'girarkanman, bir dam,
So'z shu yerga yetganda, qalamimni to'xtatdim.
Dohiylar-la aytishmoq bir oz og'ir bo'lsa ham,
Ichimda ne bor, so'ylay, afv et, buyuk ustodim!

Menga lochin bo'lmoqlik, kaklik to'shi na kerak,
Ovchi shohlar qo'lida tarlonlik emas havas.
Go'zallikni ko'rganda, jim turmagay bu yurak,
Olchoqlikni ko'rib-da, tek turgan inson emas.

Yaxshiyamki, hech zamon nafratim yashirmadim,
Muhabbatim jo'shganda, daryo bo'lib qaynadim.
Ilonfe'l, tulkife'llar qoshida tek turmadim,
Qo'ymadim toptamoqqa, so'z o'qim-la siyladim.

Jim turganlar, qo'yaver, topsin shuhrat, siym-u zar,
Bom-boshqadir ko'nglimning intizomi, nizomi.
Pastkashlikni ko'rganda turolsaydi jim agar,
Na "Xamsa" yaralardi, na-da dohiy Nizomiy.

*1986*

## TURK SO'ZIDAN QO'RQQAN GADO

G'alati bir fe'ling bor:
Turk so'zin eshitsang, bas, shart o'rningdan turasan,
Ovsarlanib, so'zingni boshqa yoqqa burasan.

Jiyanim ismi — Turkel,
Yashar qishlog'im — Turkan,
She'rimda ko'rsang, darhol o'chirarsan, buzarsan,

Yo Mardakan yozarsan,
Yo Shavalan yozarsan, toki Turkan bo‘lmasin.

Ichingda g‘o‘ldiraysan,
Boladay mo‘ltiraysan,
Ba’zan oshkora deysan: “Qardosh, “Turkan” bo‘lmasin...”

“Qardosh” so‘zini hech dam
Tilga olma, ey gado!
So‘zdan qo‘rqqan odamdan qardosh bo‘lmas dunyoda
Yaqinga ham, yotga ham.

Bu jahonda ming turli qo‘rqoqlarni ko‘rdim men:
O‘tdan, suvdan, dengizdan, ilondan qo‘rqqanlar bor,
Jin, ajina, xayoliy hayvondan qo‘qrqqanlar bor.
Ammo so‘zdan qo‘rqqanni dunyoda ko‘ribdi kim?
— Yo‘q, bu oddiy so‘zmas, — der.
— Turk so‘zidir bu, jonim!

Bas, tanidim men seni — vijdonsiz, bir mayitsan!
O‘ttiz yettinchi yildan qolgan dumsan, bir xiltsan!
Qaysi yil tug‘ilgansan? Qirqinchimi?
Farqi yo‘q?!
Haqqi yo‘q, tug‘ildim deb aytsa elning qo‘rqog‘i!
Bordir har jinoyatda qo‘rqoq qo‘li, barmog‘i!..

Sendayin kimsalarni supurmasak jahondan,
Insonlar boshi chiqmas zulm ila qirg‘in-qondan!
Senga xitob etmoqni or bilsam-da o‘zimga,
Biroq gap boshlab qo‘ydim, quloq bergil so‘zimga:
Har holda, sendan ko‘ra besh-olti yosh ulug‘man,
Yerdagi buyuk daryo — Nilga o‘xshagan turkman!

Ozarbayjon turkiman, turk irqining butog‘i,
Ko‘ksimda eralarning buloqlari —qaynog‘i!
Yerning muz qatlamlarin eritgan qudrat menman,

Tosh davrini yashagan, tunj davrini yashagan,
Temir davrida po‘lat eritgan hikmat menman!

Ovruponi uyg‘otdi Atillaning qilichi.
U qilichni Fuzuliy qalamiga evirgan
Jur’at, layoqat menman!

Raketlarning onasi — aravani kashf etgan,
Bir necha uluslarga —
Yunonlarga, ruslarga,
Laxlarga, olmonlarga,
Chexlarga, tunguslarga
Ming-ming so‘zni baxsh etgan bashar otasi Turkman!

Quloq sol, ey aqli kam:
Mendan boshlanar tarix.
Tarix kabi bilginman ham tarix kabi qari.
Turkman, necha millatga o‘z qonimni berganman,
Dengizlar yuragimda, ummonimni berganman!

Borib ko‘r Kamchatkani, kezib boq Alyaskani,
Amerika egasin so‘r — u yerda bor ildizim.
Tillarini solishtir,
O‘sha qadim hindular o‘z bolamdir, o‘z ko‘zim!

Men so‘qmoqmas, tarixning kahkashoniy yo‘liman,
Qo‘rqut ota, Alpomish, Manasman, Go‘ro‘g‘liman!

She’r-u ilm-u rubobning ilk bahor nasimi — men,
Turkistonda Farobiy, Iroqda Nasimiy — men!
Bir qanotim — Navoiy, birisi Yunus Emra,
O‘rgan — qaysi maqomda ingandim ko‘kdan yerga.

Necha millatning sochi qo‘llarim-la tarandi,
Iyoxan, Ivan so‘zi
Bizning “xan”dan yarandi.

Ulug‘ — Oleg qarindosh,
Ug‘ur — Igor bo‘lgandir,
Bular jumboq, chistonmas, tarix osha kelgandir.

Edil, Irtish, Yenisey, Qizilirmoq — qo‘llarim,
Yerning shoh tomiridir jang-u kurash yo‘llarim,
Yo‘q, begona bo‘lmadim men ham xayr ila sharga,
Men “chelovek” so‘zini baxsh ayladim basharga.

Sen puch yo‘lda ozg‘unsan.
Turkka qarshi qo‘yilgan josuslarni ko‘p ko‘rdim.
Chirkinlikdan tozarib,
Yomonliklardan tonmish,
O‘zi turkka aylanmish.

Turkman.
Bitta to‘lqinman — dengiz ichra buyukman,
Sen kimsan?
Bor, onangdan so‘rab bil kimligingni.

*1986*

## QUROLLAN

Bu kunlar og‘ir... Bu dam
Men — Ali Bosh qo‘mondon
Bo‘lsam ham, bo‘lmasam ham,
Ozarbayjon nomidan
Buyuraman: qurollan!

Qurolsiz yashamoqqa bir lahza ham haqqing yo‘q!
Ko‘zlaring bir qo‘shotar, kipriklaring esa, o‘q!

Bilaman, dushmanlaring kelib o‘ng-u so‘lingdan,
Hatto ov miltig‘ing ham tortib olmish qo‘lingdan.

Ne g‘am, kin-la qurollan!
Miltiqdan, to‘pdan kuchli,
Tankdan, raketdan kuchli
G‘ayrating-la qurollan!
Orqasi zo‘r itlarga nafrating-la qurollan!

Sayribog‘ ruhi senga yarashmas, sur’ating-la,
Jur’ating-la qurollan!

Bilaman, Elburusdan, Savalandan og‘irdir
Yelkangda yuking bugun,
Teleko‘zgu, radio,
matbuot ko‘pdan o‘lgun...

Yo‘q... o‘lgan emassan sen, o‘ldirolmas seni kun,
Hozir ketib-kelguvchi nafasing-la qurollan!
Qafasdasanmi?
O‘krab, qafasing-la qurollan!

Sen bizning she’rimizdan, nasrimizdan kuchlisan,
Asrimiz qahramondir, asrimizdan kuchlisan!
O‘ttiz yettida botgan,
Qirq yettida qaytgan
Naslimizdan kuchlisan!

Nechun titrar lablaring?
Ayt, nechun tiling loldir?
Olchoqlarga g‘azab-la boqish ham bir quroldir.
Nigohing-la, qoning-la,
Vujuding-la qurollan!
Samandar qushi bo‘lib yon — o‘ting-la qurollan!

Tosh-u kesak, urto‘qmoq,
belkurak-la qurollan!
Chaqmoqlarni icharoq
qaldiroq-la qurollan!

Ular seni qurolsiz va holsiz ko‘rmoq istar,
Sen qo‘shiq-la, yurish-la, namoyish-la qurollan!
Eng tik bayroq o‘zingsan,
Qalq, tuyish-la qurollan!

Qurolllan insonlikka so‘ngsiz muhabbating-la,
Bashariylik atalgan eng buyuk sarvating-la!

Fitnali da’vatlarga aslo quloq osmagan,
Yo‘lda chumolini ham toptab, qadam bosmagan,
Qalbi dengizdan teran
Qadimdan eran xalqim!
Hatto dushmaniga ham
Tuz, cho‘rak bergan xalqim!
Chekinma! Bu maydonda olam senga panohdir,
Sofliging va haqliging asl qurol-silohdir!

Qoningdagi u soflik — toshqin bilan qurollan!
Jahonga mehring bilan, ishqing bilan qurollan!

Yolg‘iz emassan — xalqsan! Sen — Bugun, Kelajaksan!
Yer ham, Ko‘k ham seniki, sen g‘olib kelajaksan![1]

*1988*

[1] Bundan keyingi asarlar turli nashrlardan olingan (tarj.). “zindon” kitobidan.

## "TUTQUN" kitobidan

### XALIL RIZO ULUTURK

Xalil Rizo oq sochli bir keksadir,
Savalandan, elburusdan yuksakdir!
Har misrasi bir qizil gul, chechakdir,
Boshi qorli, o'zi — bahor, lolazor,
Ozod eting, hur yashasin san'atkor!
Orqasida xalq bor, ota, akalar,
Ular hurdir, emas mustamlakalar,
Ey miltiqli, avtomatli takalar,
kameraning ko'zi ko'rdir, o'zi kar,
Ozod eting, qalam sursin san'atkor!

O't nafasi panjaraga o't sochar,
To'g'ri so'zi xalqqa yetib, ko'z ochar;
Kim aytadi shoir qo'rqar, yo qochar?
Muhabbatning ma'badi u, ey nigor,
Ozod eting, ishq ahlidir san'atkor!

Boring, o'ping oyog'idan, qo'lidan,
Avf istangiz vodiyidan, cho'lidan,
Yildirimlar yog'ar ko'kday ko'nglidan,
Har satrida misriy qilich hukmi bor,
Ozod eting — yerdir, ko'kdir san'atkor!

Ozarbayjon yer kurrasin o'zidur,
Bag'ri otash, toshi gavhar, o'zi —dur,
Xalil Rizo basharga bir so'zidur,
Anglarmikin aqli noqis, ko'zi tor —
Zindonlarga sig'maydi hech san'atkor!

Aleksandr Yakov, o‘tma pichingga,
Aziz shoir, yutma dardni ichingga,
Qorovullar, eshiklarni oching-a,
Yo avf ayla va yo ayla tor-u mor,
Boshqalar qul, hukmdordir san’atkor!

Gullar soching yo‘lagiga, yo‘liga,
Sho‘x go‘zallar, qo‘lni tashlang qo‘liga,
Gultoj bering elning jasur o‘g‘liga,
Unga ilhom bergan o‘zi, Bir-u bor,
Yer-u ko‘kning bosh tojidir san’atkor!”

Xalil Rizo — Ozodlikka bayroqdor,
Zanjirlarni uzib, otar — azmi bor!
Chiqarmasa qul yurakli og‘alar,
Buz zindonni, ey lolazor, ey bahor!

*Moskva, Lefertova zindoni,*
*28.02. 1990*

## MEN YANA QAYTURMAN OZARBAYJONGA

Bu yerda havo oz... Havo istayman —
Hazar dengizining o‘ziday bo‘lsin!
Bunda samosizman, samo istayman —
Quyoshning olamga so‘ziday bo‘lsin,
Hazar dengizining o‘ziday bo‘lsin!

Uzing zanjirlarni bilaklarimdan,
Buzing qulflarni tilaklarimdan,
Tushiring zindonni kuraklarimdan!
Xayr deb sovuq tun — qo‘llari qonga,
Yo‘l olay jonajon Ozarbayjonga!

Faqat onam, singlim, qondoshimmas, bil,
Vatanim — abadiy saodatimdir!
Ming-ming farzandidan biridir Xalil,
Vatansiz ikki bor, uch bor yetimdir,
Vatanim — abadiy saodatimdir!

Har soyi, irmog'i — tovshim, nafasim,
Har toshi badaldir la'lu marjonga.
Mayli, choping, kesing!.. Men kesim-kesim
Bo'lsam-da, yetsam bas Ozarbayjonga!
Har toshi badaldir la'lu marjonga.

Mutloq shart qaytishim ota makonga,
Bir oz kuchli bo'lib, bir oz-da metin.
Kur, Oraz nahriday bog'liqman unga,
Joniman, bag'riman — shudir davlatim,
Bir oz qudratliman,
bir oz-da metin 272d.

Buzing zindonlarni, ochilsin butun!
Men shu kun qaytayin Ozarbayjonga,
Kahkashon bo'layin, porlayin bu tun,
Yuzimdan nur yog'sin Milga, Mug'onga,
Men shu kun qaytayin Ozarbayjonga.

Oqsoqolman, yurtim, sen — yosh onamsan,
Boladay bag'ringga joylanay bu kun,
Oyna Ko'kko'limsan, Moralginamsan,
Men oyning nuriga aylanay bu kun,
Boladay bag'ringga joylanay bu kun.

Ozarbayjon yashar shu ko'zlarimda.
Mening qaytishim-la u yuksalajak.
Qo'shinlar kelajak haq so'zlarimda,
Yurtimga kuch, ishonch, qudrat kelajak,
Mening kelishim-la u yuksalajak.

Zumrad yomg‘iringga, oq tumaningga,
O‘ranib-buranib kelajakman men;
Tik, oyoq ustida kela olmasam,
Yiqilib-surinib kelajakman men;

Nafasim uzilsa... Yuzimni surtib,
Tog‘ingdan, toshingdan quvvat olurman;
Uzilsa qo‘llarim... tishim-la tutib,
Yog‘iyga so‘ng bora qilich solurman,
Tog‘ingdan, toshingdan quvvat olurman.

Yo‘limga necha ming Azroil chiqsa,
Umrimni mozor-la bo‘la olmasman;
Angla, ey imonsiz:
Ozarbayjonsiz —
Men yashay olmasman, o‘la olmasman.

Men Ozarbayjonga kelurman qaytib,
Shoningni kuylarman, olqish degayman;
Achchiq tutuningni bol kabi yutib,
O‘tingni qaymoqday suyub yegayman;
Shoningni kuylarman, olqish degayman.

Yarali bir burgut bo‘lsam-da magar,
Bir qanot bilan ham ucharman, inon.
Darbanddan Salyonga, Zanjonga qadar —
Barin yetmish qo‘l-la qucharman, inon,
Bir qanot bilan ham ucharman, inon.

Ko‘taring bu og‘ir toshni ustumdan,
Ko‘kko‘ldan suv seping bu yonar jonga,
Balki ming yillarning boshi ustundan
Men qaytib kelurman Ozarbayjonga,
Ko‘kko‘ldan suv seping bu yonar jonga.

Keling, ey nafasim, ey qardoshlarim,
Malul-malul boqqan orqadoshlarim,
Yoqadir olamni bu ko‘zyoshlarim,
Siz meni qaytaring Ozarbayjonga...

Qarab shu quyoshga ont ichayinki,
O‘tmishman, bugunman, kelajakman men.
Qolmas hech shoirning yo‘li bog‘lanib,
Otib yelkamdagi temir tog‘larni,
O‘zim Vatanimga kelajakman men,
O‘tmishman, bugunman, kelajakman men.

Bag‘rimga bosurman seni, ey elim,
Meni visol kuni — u kun yashatur.
Ko‘zimdan bir tomchi yosh oqsa, biling,
Demak, ozod bo‘lgan kunim o‘shadur,
Meni visol kuni — u kun yashatur!..

*Moskva, Lefertova turmasi,*
*9 avgust, 1990*

## QAMOQ QO‘SHIG‘I

Turmaning panjarasi
Oltindandir, oltindan -
Chunki bunda men borman,
Zulm tog‘i ostinda.

Temir-beton devorlar
Nurli, nuri billurdan.
Ko‘zimdan toshgan nurdan
Yer ham, ko‘k ham charog‘on.

Mis emas, oltin suv bu,
Yoqutlandi yoqutdan;

Chunki har kun shu suv-la
Yuz-qo‘limni yuvaman.

Sachramasin tomchilar,
Ular havoday kerak:
Har qatrani o‘paman –
Bari atirli chechak.

Zindon – bodom po‘chog‘i,
Ichi – ichikkan bodom.
Chaq, och bu po‘choqni
Ey bodom sevgan odam!
Moskva, Lefertovo,

*5.03.1990*

## TUTQUN

Quyosh ko‘kda tutqundir,
Yulduzlar kahkashonda,
O‘rmonda daraxt tutqun,
Guldon guli guldonda.

O‘z o‘qi atrofida
Aylangan yer kurrasi
Tutqun doirasida,
Ey ko‘zlari charosim.

Inju sadaf ichida,
Urug‘ mevada tutqun;
Qoyalar qurshovida
Dengiz tutqun – boq, tushun.

Xotinining tutquni,
Erining tutquni bor.
Shum o‘g‘ilga tutqundir
Yaxshi-yaxshi otalar.

Ko‘plar o‘z davlatining,
Shuhratining tutquni,
Balki mingdan biridir
G‘ayratining tutquni.

Ko‘z yoshing art, azizam!
Umrim, kunim, shod bo‘l, shod –
Ming-ming tutqun ichida
Asli bitta men ozod!

*Moskva, Lefertovo,*
*5.02.1990*

## JON BERMAYMAN O‘LIMGA

Qadrdon Farangizim,
Ko‘zi yoshli nargizim!
Umrdoshim, yo‘ldoshim,
Bag‘ri yara azizim!

Dardlar chekib so‘lganim,
Bo‘lganicha bo‘lganim,
Juft o‘g‘limning onasi,
G‘ayrat, nomus qal’asi!

Quchoqlama tizingni...
Tur, qo‘lga ol o‘zingni,
G‘am tumanday bosmasin
Qora, chaqnoq ko‘zinngni!

Balki gumon qilursan,
Ering og‘ir xastadir,
Turmada, bir burchakda
Qurigan guldastadir...

Ahvolini bilgan yo‘q,
Biror yordam qilgan yo‘q,
Isitmalab yotgandir,
Ko‘z yoshini silgan yo‘q... –

Unday emas, azizam,
Salomatman, tirikman,
Samolardan so‘ngsizman!
Tog‘lar kabi tip-tikman!

Shunday bir burgutmanki,
Falak lol men uchganda –
Quyosh mendan tubanda,.
Tog‘lar mendan tubanda!
Ekvato‘r chizig‘iman,
To‘rt taraf tuzugiman,
Barchasin birlashtirgan
Bir qudrat uzugiman.

Zarofat deya balki
Madh etarman o‘zimni,
Ammo... senga ma’lum-ku
Xalillning fil to‘zimi,

Qo‘limdagi paylarim
Po‘latdan bo‘lmasa-da,
To‘fonlardan kuchlidir
Ruhimdagi sas-sado!

To‘rt ummonim hayqirar
Sening dolg‘angman, deya!
Dovullarim quturar –
Bo‘linar qancha qoya!
Ilgariga odimlar
Nur cho‘qqili tog‘larim,

Nafasimdan kuch olar
Yoz atrli bog‘larim

Balki shu uchun menga
Sog‘liq tilar bu davram,
Necha-necha hamshira,
Oq xalatli hakim ham.

Tovonimning yorig‘i
Tuzaldi bu orada,
Ilk bor dam olmoqdaman,
Ishonki, kamerada.

Pastga tushdi anchayin
Qon bosim, qand miqdorim,
yetar goh yo‘qlab qo‘ysa
Oq kiyimli hulkarim.
Men siyosiy mahbusman,
Injiqligim chekkan bor,
Har ikki daqiqada
Men tomon ko‘z tikkan bor.

Og‘ridi boshim, desam,
Yarim tunda, inqillab,
Darrov dori keltirar
Bir hamshira dingillab.

Aslo olma havotir,
Soppa-sog‘man, tip-tirik:
Ikkinchi ming yillikning
Men-ku eng zo‘r shoiri!

Uchinchi mingyillikni
Sen-u men ham ko‘ramiz!
Temir-beton devorlar
Tiz cho‘kajak bunda, tiz!

Eng og‘ir eshiklarni
O‘z qo‘lim-la sindirib,
Bahorni qarshilashga
Keladurman ot surib.

Yana ikov o‘tarmiz
O‘sha Turkan yo‘lidan,
Birga anor terarmiz
Daladagi hovlidan.

Bizga salom beradi
Billur Xazar dengizi,
Qutlar milyard to‘lqinlar,
Milyard-milyard suv qizi.
Gurunglashib, o‘choqqa
O‘t yoqqach uch-to‘rtimiz,
To‘planamiz, to‘planar
Parokanda o‘rdumiz.

Atirli gulzorimda
Moviy, yashil, ol chechak,
Uch rangli bayrog‘imiz
Xilpirar kunduz-kecha.

Mening ruhim kuch olar
Do‘stdan, bog‘dan, har yondan,
Yovuzlarning kulini
Tortamiz yuz gulxandan!

Oraz dala, tog‘danmas,
Mening bag‘rimdan kechar,
Har bir mavji ko‘zimdan
Ming umrlik nur ichar!

Suyak, suv, xujayramas,
Men butkul boshqa jonman,

Qon gupurgan tog‘-toshman,
Yong‘in bosgan o‘rmonman!

Darbandimda, Bokumda,
Tabrizimda qalqonman,
Tizzalab borayotgan
Yarador qahramonman.

To‘rg‘alsam yana-yana,
Mana, men o‘lmas jonman!
Tosh to‘g‘onni yorgan u
Qasirg‘aman, ummonman!

Har yonga nafas urib,
Yuz jahannam so‘ndirib,
O‘ldirilsa ham ming bor,
O‘lmas OZARBAYJONMAN!

Meni ko‘rmoq istasang,
Hayqirma, solma sado,

Eski, yangi she’rimni
Top, ko‘chir mashinkada.

Qovushmasdan elimga,
Boldan shirin tilimga,
Mingta azroil kelsa,
Jon bermasman o‘limga –
Jon bermasman o‘limga!

Men doim sen bilanman,
Ey ko‘nglimning ma’badi,
XALIL RIZO jahonda
Quyosh kabi abadiy!
Bahor kabi abadiy!

*Moskva, Lefertovo, 11.02.1990*

## JAZO KO‘YLAGI

*Bir necha bor qamoq tartibini buzganim uchun egnimga 24 soat muddatli jazo ko‘ylagi kiydirishdi.*

Egnimga kiydirdilar
Jazo ko‘ylagi–rezin,
Go‘yoki o‘tda yoqib,
Benzin to‘kdilar, benzin!

Qisdi meni to‘rt yondan,
Siqdi jazo ko‘ylagi –
Samandar ko‘ylagiymish
Xalil Rizo ko‘ylagi.

Sovuq rezin yopishib
O‘tli tanamga bu dam,
Ichimdan o‘t tutashib,
Yona boshladi u ham.

Temir qafasim ozmish,
Beton mahbasim ozmish!
To‘rt qavtli zindonning
Sovuq temir to‘ridan
Muz parchasi osilgan
Qotil nafasi ozmish!
So‘roq-savol, qiynoqlar,
Tergovchi qahri ozmish!
Jinoyatnomadagi
Tuhmatlar zahri ozmish!
Bo‘g‘zimdan bo‘g‘ib turgan
U qoravullar ozmish!
Yuragimga osilgan
U kirli qo‘llar ozmish!..

Yetmagan kabi bori
Endi jazo ko‘ylagi!
Ey Xalil, qutlug‘ bo‘lsin
XALIL RIZO KO‘YLAGI!

Bir qara, yer kurrasin
Jazo ko‘ylagi bormi?
Vulqonlardir, o‘tlardir
Uning jazo ko‘ylagi.

Boq, quyosh yo yog‘dusin
Jazo ko‘ylagi bormi?
Qop-qora bulutlardir
Uning jazo ko‘ylagi.
Quyosh to‘zmas jazoga...
Quyoshda portlashlar bor.
Jahon to‘zmas jazoga –
O‘t purkaydir vulqonlar.

Quyosh to‘zmas, to‘zmas tog‘...
Biroq chidar Ulug‘turk,
Ulug‘turkman – jahondan,
Quyoshdan bir oz buyuk.

Oriqlasa ham bir oz,
Po‘latlashgan badani...
Siqar jazo ko‘ylagi,
To‘rt yondan siqar mani;

Siqar quloqlarimni,
Der: “Hech neni eshitma!”
Siqar barmoqlarimni:
“Yozishni xayol etma!”

“Jim!” deya muhrlamish
So‘zlar dudoqlarimni.
“Ketma!” deya to‘xtatmish
Chaqmoq oyoqlarimni.

Siqar har xujayramni,
Tomirim, kuragimni,

Lek siqolmas miyamni,
Olovli yuragimni!

Yaxshiyamki, olamda
Fikrlash fursati bor,
Tafakkurdan sochilar
Yog‘du-yog‘du orzular.

...Ko‘zim gazetalarda:
Po‘lsha otmish kishanin!
Parchalamish Varshava
Mash’um jazo ko‘ylagin!

Qalqar chechen-ingushlar,
Osetinlar oyoqqa,
Do‘nar jazo ko‘ylagi
Qonga botgan bayroqqa!

Qo‘rqma, Xalil Rizo, tur!
Aylan tunda mayoqqa!
Hamnafas bo‘l basharga,
Dunyo qalqar oyoqqa!..

Burnimdan qon keldi, men
Bosdim kumush tugmani,
Oq xalatli qiz keldi,
Xalos etarmi mani?

Paxta tiqar burnimga –
Qon to‘xtamas, to‘xtamas!
Qo‘limga urar nina —
Qon to‘xtamas, to‘xtamas!

Qo‘y, qiynalma, jon hakim,
To‘xtatolmassan qonni,
Bor joyingga, o‘tir jim.

Qonning bir uchi bunda,
Bir uchi esa unda -
Boku ko‘chalarinda!..

*Moskva, Lefertovo, 23.02.1990*

## NAVBATCHILARIM

Navbatchilar xilma-xil:
Bor yoshi-da, bor chol-da;
To‘rtda navbat almashar
Har kun qulfli zalda.

Har qulfli eshikning
Ko‘zi, ko‘r teshigi bor,
Har ikki daqiqada
Navbatchi undan boqar.

Navbatchilar xilma-xil:
Zar pogonli, pogonsiz.
Na men usiz qolurman,
Na aylanar u mensiz.

Kuzatuvchim nechtaykin?
Bir yo ikki... bilar kim?
To‘rt devor kuzatuvchim...
Toshyurakli u hakim...

Kuzatuvchim – kechalar
Hech o‘chmagan chiroq ham,
Tergovchi qalami-la
To‘ldirilgan varoq ham.

Turli-tuman navbatchi
Bog‘langan shu zindonga,
Rahmim kelar tunlari
Uyquda yotmaganga.

Soqoli, miyig‘i oq,
Boshda oq soch kumushi,
Ammo qayga chekingan
Ko‘zlarimning kulishi.

Borar-kelar oromsiz,
Tonggacha shu yugurik,
O‘ksirib qo‘yar tez-tez,
Uni bo‘g‘ar o‘ksirik.

Tamaki chekar bosib,
Qovoq uyub, yutunib;
Quvar boshidan bosgan,
Xalqalangan tutunni.

Bir umr – keldi-ketdi,
Tutun, tuman ichida,
Yorug‘ kundan va baxtdan
Uzoq, gumon ichida.

Kal boshiga bir chertib,
Balki dashnom bergan bor,
“Qachongacha navbatda
Turasan, yovuz, g‘addor?

Bor, o‘zingga bir ish top,
Hech bo‘lmasa bog‘bon bo‘l.
Montyorlik qil hech qursa,
Besh uyga chirog‘bon bo‘l.

Qirq yildir kuzatasan
Navbatda bir teshikni,
Qachon xursand qilasan
O‘z uy-joying – eshikni?

Yakovlevning oshnasi
“Mersedes”da kerilar,
Qirq yildirki, xotining
Tor uyda xor, irillar.

Bolalaring bilmaydi

Po‘rtaxol ne, ne qovun,
Mandarin ne, ne banan.
Qizlaringning egnida
Buvisining ko‘ylagi,
Uyal-e, bir oz senam.

Qirq yildirki, bir joyda
Turgancha vaqillaysan.
Kasbingdan or qilarlar,
So‘rashsa, akillaysan...

Qizil maydon hayqirar,
Boq jasur odamlarga,
Sen ham bir kun odam bo‘l,
Bayroq ko‘tar bir marta!

La’natla qul umringni!
O‘lik, yo‘qsil umringni!
Axir qachon ko‘rasan
Yorug‘, baxtli kuningni?

Nafasingni kesibdi
Navbatchilik va zindon,
Qag‘illagan qarg‘adan
Farqing yo‘qmi, ey inson?

Qarg‘aning hech bo‘lmasa
Bir qarg‘acha baxti bor,
Istasa – uchar-ketar,
Boshqa butoqqa qo‘nar.

Quyondan ham pastmisan,
Ey chuvalchang, ey chivin!
Kecha-kunduz xorlanib,
Bor-kel qilursan nechun?..

Navbatchim kelar-ketar
O‘y-xayollar ichida,
Achchiq tamaki isi,
Tutun, zahar ichida.

Qo‘rqar bir so‘z degani
Saqlar o‘y, niyatini –
Afsus, mendan qo‘riqlar
Ikki qit’aga sig‘mas
Slvetlar davlatini.

*Moskva, Lefertovo,*
*25.02.1990*

## O‘KSINMAYMAN

O‘ksinmayman, kuymayman
Qamoqqa tushganimdan,
Uzoqdanmas, yaqindan
Ko‘rishim kerak edi.
U qizil jinoyatning
O‘lim sochgan, qon oqqan
Kreml tagidagi
Tamal ildizi nedir –
Uzoqdanmas, yaqindan
Ko‘rishim kerak edi.

Uch-to‘rt temir emasdir
Mash’um panjara, to‘siq,
U og‘uli bir og‘och,
Ildizi ko‘p terandir.
“Xalqchillik! Oshkoralik!”
Deganlar ko‘pi quruq,
Ilon, chayon ini bor
Kirli miyalarida;
U og‘uli bir og‘och,

Ildizi ko‘p terandir.
Hasrat qilib kuymasman
Turmaga tushganimdan,
O‘z ko‘zim-la ko‘rishim
Kerak edi bu kunni,
Simtikan devorlarni
Buzib, parchalab otgan
Mash’al Naxchivonimning
Yonayotgan ko‘ksini,
O‘z ko‘zim-la ko‘rishim
Kerak edi bu kunni.

Quyoshli, hur uydamas,
Turmaning tor kunjida
Yashaganlar ko‘radi
Ipdagi u tugunni.
Yerevandan Xazarga
Yo‘nalgan u quvg‘unni –
Milyo‘n sakkiz yuz mingning
Qanday surunganini!!!
Surulganlar biladi
Ipdagi u tugunni.

Shu yerda men ko‘roldim
Har zobit huquqchining
O‘sha qonli tanklarni
Qanday qo‘riqlaganin.
Qancha bo‘yni yo‘g‘onning,
Labbaychi, ta’qiqchining
O‘yinchoq qonunlarni
Qanday qo‘riqlaganin,
O‘sha qonli tanklarni
Qanday qo‘riqlaganin.

Panjasidan qon tomgan

Xil-xil jonivorlarning
Sovuq qorachug‘ida
Ko‘ra oldim muzini.
Kunda-yu boltasini
U jallod g‘addorlarning
Niqobli notiqlarning
Ko‘ra oldim yuzini,
Sovuq qorachug‘ida
Ko‘ra oldim muzini.

Meni qo‘qriqlab yurgan
Vakilim o‘ldirildi,
Qaynoq qoni to‘kildi
Kirov xiyobonida.
Tong yulduzi bir inson
Zulmga qurbon bo‘ldi,
Kirovchi xoinlarga
Taslim bo‘lmay, rad qildi,
Qaynoq qoni to‘kildi
Kirov xiyobonida...

Jismimni yer tortmoqda...
Ruhim tog‘lar boshida.
Baxtiyordir turmada
So‘zdan gultoj qilganlar.
Ellik sakkiz yoshida,
Yoshlik izlanishida,
O‘z umrini otashin
Misrada deb bilganlar,
Baxtiyordir turmada
So‘zdan gultoj qilganlar.

Mening kichik kameram
Ozodlik poytaxtidir!
Nur yog‘ilar ko‘zimdan

Qancha zulmat qafasga.
Shu oddiy ish stolim
Bir hukmdor taxtidir,
Devorni taqillatib,
Suhbatlashib havasga...
Nur yog‘ilar ko‘zimdan
Qancha zulmat qafasga.

...Siqib qo‘ydi eskini
Bugun yangi Moskva.
Panjasiga urilar
Bayroqlarning epkini.
Men o‘zi ne istayman?
Bir yutum toza havo!
Ozod ko‘rmoq istayman
Zindonlashgan o‘lkani!.. –
Panjasiga urilar
Bayroqlarning epkini.

Bokudan uzoqdaman.
Sevintirma yovimni,
Maydonda ShE’RIYATIM
Kurashmoqda. Kurashar.
Ketsam, tasallim ham bor:
Quyosh bo‘yli umrimni,
Xalqim, senga baxsh etdim
So‘nggi lahzasi qadar,
Maydonda SHE’RIYATIM
Kurashmoqda. Kurashar.

*Moskva, Lefertovo,*
*9.03.1990*

## QONIM

Ehe-hey, ko‘zi qonli!
Yo‘llari, izi qonli!
O‘zi qonlar to‘karkan,
Yot bildi bizi qonli.

Bir yonim mozoriston,
Yonboshda gul bog‘lari,
Bir yonim shifoxona,
Yuz-yuz ko‘ngil dog‘lari.

U kun dod-faryod solgan
Bir dala paykaliydim,
Dard-u g‘amning, g‘azabning
Bir yurar haykaliydim.

U kun tomirlarimda
Oqqan qon Oraz edi,
Besh yuz ming yaraliga
Qon bersam-da oz edi.

Harbiylar yurgan toshyo‘l,
Asfaltlar ham o‘t oldi,
Ikki qo‘lim qayirib,
Dushmanlar kishan soldi.

Bo‘lmadi qismat manga
Bormoq shifoxonaga.

Unda yuz-yuz yarali
Temir yotoqliklarda,
Birov gips ichida,
Bir oyog‘i mozorda.

Birining bosh ustida
Qo‘sha qo‘ltiqtayog‘i,

Kimgadir qismat toji –
Ol qon boshdan oyog‘i.

Biri bo‘g‘zi bog‘langan,
Yaraga bori surib,
Yuzida so‘ndirilgan
So‘nmas inson g‘ururi.

Xuddi o‘yinchog‘idan
Ayrilgan bir bolacha...
Bu manzara yuz yillar
Xotiramda qolajak.

Enmish uzun kipriklar,
So‘lg‘un yuzi za’faron.
Bu bolakay tanklarni
Unutmagay hech qachon.

Uy-joylar yiqiq, vayron,
Xatto qushlar yarali,
Yot oyoqlar ostida
Tog‘u toshlar yarali.

Ustida qon to‘plangan
Ko‘k chamanlar qip-qizil,
Hali chechak ochmagan
Yosumanlar qip-qizil.

Jinoyat markazidan
Ancha uzoq, orali
Yerda tutun qoraytgan
Zaytunu tut yarali.

Bitmish meva o‘rnida
Butoqlarda qo‘rg‘oshin,
Ol qirmizga bo‘yangan
Oq bo‘yinli qu qushim.

Qirmizlashib boradi
"Chaxorgoh"ning navosi,
To‘y yurtiga keltirdi
Kim bu motam havosin?

... Panjaralar ortida
Mushtin siqib turar g‘am,
O‘ylanib odimlayman,
Qo‘limda daftar-qalam.

Shisha idishchalarda,
Oqsa-da, oqmasa-da,
Turgan u qonim mening!

Chaqmoqlarga aylangan,
Chaqsa-da, chaqmasa-da,
Yurgan u qonim mening!

Vahshiy qoyalar aro,
Qalin changalzorlarda,
Bolasini yo‘qotib,
Yig‘lagan kiyiklarning
Sut to‘la tushlarida
Oqadir qonim mening!

Tog‘dagi gulxanlarni
Yoqadir qonim mening!

Gulxanlar yorug‘ida
Oqqan Oraz suvida
Oqadir qonim mening!

Chegara tepalarda
O‘t yoqqan, goh o‘q otgan
Jasur hayqirishlarda,
Jangga chaqirishlarda
Silqadir qonim mening!

"Xalil Rizo uchun" deb
Kurashgan yigitlarning
Nafasi, tovushida,

Zaynal qizi Ko'ngilning,
O'sha nokas itlarning
Basharasiga solgan
Nozikkina mushtida
Oqadir qonim mening!

Qabrga ko'milgaydir
Faqat jismim, badanim,
Ammo turk layoqatim
Doim jangdadir manim!

Bos bag'ringga she'rimni,
Balki qoning gupurgay,
Ko'z yoshin artib turgan
Ey yarali Vatanim!

*Moskva, Lefertovo,*
*11.03.1990*

## KETDING

Ketding... Qalbga g'ussa to'ldi.
Kamerada yolg'iz qoldim.
Qora-qo'ng'ir ko'zlaringni
Ko'rarmanmi... o'yga toldim.

Faqat ikki o'pich oldim –
Kelganingda, ketganingda.
Namuncha tez ketding, umrim,
Jismim manda, jonim sanda.

Silamadim barmog'ingni,
Yuzing, ko'zing, qabog'ingni.

Nafasim-la asrab qoldim
Gul nafasing, gulbog‘ingni...

Faqat bir gap ayta olding:
“Uyga qanday qaytay sensiz?”
Mening uyim – butun dunyo,
Olamni quch – qolsang mensiz.

Mensiz o‘tgan kunlaringda
Mag‘rur yasha, faqat mag‘rur.
Umr, balki visollarning,
Hijronlarning to‘pi erur?

Shu safar biz, balki terdik
Visolning so‘ng gullarini?
Nechun mehr bilan yana
Silamadim qo‘llaringni?..

Oh, bu qanday saodatki,
Yarmi sevinch, yarmi kadar.
Saodatning umri, balki
Bir chaqmoqning umri qadar?

Besh daqiqa uchrashuv-chun
Sen ikki ming kilometr
Yo‘lni qanday bosib kelding,
Ey nozik gul, nafis atir?

Ketding... Qalbga g‘ussa to‘ldi.
Kamerada yolg‘iz qoldim.
Qora-qo‘ng‘ir ko‘zlaringni
Ko‘rarmanmi?.. O‘yga toldim.

*Moskva, Lefertovo,*
*5.04.1990*

## KO‘ZLARIMGA QANDAY QARAYSAN?

Shundoq ko‘z oldingda, kuppa-kuunduzi
Ona vataningni toptadi ular.
Dohiylar qabrini portlatib, buzib,
O‘lib-yitganingni toptadi ular –
O‘rniga zanjirli it bog‘ladilar!

Zulmga qarshi hech qolmaganmi kuch?

Ming-minglab yurtdoshlar axir ne qilar?
Bir hafta ichida o‘q otib, yoqib,
Uylaridan haydab, sahroga tiqib,
Yuz yilga, ming yilga qurganlarini
Necha kun portlatib, g‘addorcha yiqib,
Hukm etgan kelgindi
Yana ne qilar?

Shu xalqni ayirib yurt, o‘vasidan,
Yaylov havosidan, tog‘ havosidan,
U yov uloqtirdi qorli yo‘llarga.
Mitti bilagiga ko‘zmunchoq taqqan
Bolalar suykandi xorg‘in qo‘llarga –

Zulmga qarshi hech qolmaganmi kuch?

Kimning qo‘g‘irchog‘i burchakda qoldi,
Kimningdir qozoni o‘choqda qoldi,
Kim sovuq qo‘llarda, quchoqda qoldi,
Qabr qazilyotgan bir chog‘da qoldi...

Somoni, xashagi, yemi oxurda,
Chorvalar egasiz, qirg‘inda qoldi.
Suruvlar, yilqilar qani? Oxirda
Mardlar o‘q ostida, yong‘inda qoldi... –

Mulki – to‘p urolmas qal’asi qoldi,
Zumrad chamanlarning lolasi qoldi,
Qonxo‘r bo‘rilarning och panjasida
Yosh-yosh kelinlarning bolasi qoldi!..

Zulmga qarshi hech qolmaganmi kuch?

To‘rtta avlodingni yurtidan xo‘rlab,
Rezin g‘ildirkka mahkam bog‘lashdi,
Benzin quyib yoqqach,
To‘rt gulxan o‘rlab,
Dardlari Hulkarga,
Oyga ulashdi...

Yondi tirik ko‘zli, to‘rt jonli mash’al,
O‘tlandi Xonqyentning qoq o‘rtasida!
Ko‘rdigmi, tuydingmi dodin u mahal?
Yetdimi, ey karlar, sizga bu sado?..

Zulmga qarshi hech qolmaganmi kuch?

Sening osmon bo‘yli mamlakatingni
Bo‘lib, bo‘lishtirib, kemirdi ular,
Boyligingni so‘rib, semirdi ular –
Arslon millatingni,
Sher millatingni
Yuvosh bir qo‘ziga do‘ndirmoq uchun,
Sharafli insonlik yuksakligidan
Bir qul pastligiga endirmoq uchun!..

Bokuni qoniga beladi dushman,
Bo‘ysunmas Boku lek bo‘lmadi pushmon;
Zirhli tanklar yurdi shahar ustida,
Qurolsiz xalq qoldi ajal ostida –

Zulmga qarshi hech qolmaganmi kuch?

Mening qo‘llarimni kishanladilar,
Zanjirlab qo‘ydilar oyoqlarimni.
Avtomat o‘qtalib, “Molchat!” dedilar,
Igna-la tikdilar dudoqlarimni...

Senlarni deya men o‘tga otildim,
Sen ham meni o‘ylab, ey yuzi qora,
O‘ttiz tiyin sarflab, bo‘lganda lozim,
Telegram berdingmi “yuqori”larga?

Zulmga qarshi hech qolmaganmi kuch?

Vaqt o‘tdi... Endi ham o‘rtaga chiqib,
Olg‘ir mushtlaringni yolg‘ondan siqib,
Mikrofon oldida baqirmasang ham;
Ma’lum haqiqatni ichingga yutib,
Yana u xoinlar yo‘lini tutib,
Xalqning yordamiga chaqirmasang ham,
Sening kimligingni biladi olam –

Bog‘liqsan u eski saltanatingga,
Yuraging qul edi, hamon iching qul!

Iflos g‘ayratingga,
Kir shuhratingga
Qoravul qo‘ydingmi, ey qul qoravul?..

Yolg‘ondan jirkanchdir yarim haqiqat.
Ilon suyagidir bo‘g‘zingda yolg‘on!
Ilonlar,
Yolg‘onlar to‘rida qolg‘on,
Ey sen, ehtiyotkor, erkin bo‘l bir bor!

Sen qonli qo‘llarning qo‘ltig‘idasan,
Kirganing teshikka ming bora sig‘in!
Kimsa medalingga tegmas hech qachon,

O‘rnida qoladi deputatliging;
Faqat bil: ko‘zimda rentgen nuri bor,
Bir kuni uchrashsak, kirib so‘zimga,
U xorg‘in boshingni ko‘tarib nochor,
Qaray olasanmi tikka ko‘zimga?

*Moskva, Lefertovo,*
*5.05.1990*

## OZARBAYJON

Qamoqdagi jismim bunda,
Jonim unda, ruhim unda.
Yuksaklardan yuksaklarda –
Qof tog‘ining cho‘qqisinda!

Tog‘ burguti otar na’ra,
Har satrimni ufqlarga
Qanoti-la yoza-yoza
Uchar, boqmas to‘siqlarga.

Xabar berar yaqinlashgan
Ilk bahorga, gulli yozga:
“Shimol qutbi sovqotsa gar,
Qo‘y, sig‘insin bag‘rimizga.
O‘t ichida juft samandar –
Ozarbayjon, Xalil Rizo.

Xalil Rizo tashlansa-da
Burchagiga zindonlarning,
Ozarbayjon sig‘mas aslo
Quchog‘iga zindonlarning!

Do‘stlar, faqat siz egilmang
Oyog‘iga zindonlarning!

La'nat ayting u qip-qizil
Bayrog'iga zindonlarning!

Shum yog'iylar suqilmasin
Po'latlashgan oramizga,
Biri tog'dir, biri qoya
Ozarbayjon, Xalil Rizo.

Keling, sellar, shalolalar
Tog' ko'ksimdan oqib-keching,
Oqa-oqa charchaganda,
Yuragimdan boda iching!

Bog'-bo'stonman, bag'rimda hech
Tikanlarga yo'qdir o'rin.
Bu qo'rqoqlar dunyosida
Yolg'iz qolgan mardni ko'ring!

Oqib chiqdim qoq qoyadan,
Tomchi-tomchi, siza-siza.
Biri dengiz, biri buloq
Ozarbayjon, Xalil Rizo.

Ko'zi chiqsin! Bir ko'zli dev
Quvonmasin haybatiga,
Bosh egmadik o'qlariga,
Kishaniga, zulmatiga.

Eshit, nutqi nega o'xshar –
To'plar, tanklar tovushiga!
El tupurur Ovrupoda
U maxluqning yuz-ko'ziga;
Osiyo-da, Afrika-da
Bu la'natga qo'yar imzo.
Bu kurashning bayrog'idir
Ozarbayjon, Xalil Rizo.

"Qon! "Qon!" degan qotillarning
Bir kun kelar, qondirarman –
Ular uchun jahannamman,
Otashimda yondirarman!

Qachon, qayda, qaysi selga,
Qaysi o'tga yon turaman?
Abadiyman, ma'badiyman,
Jahon borki, men ham borman!
Koinot bir gulistondir,
Bizdan uzoq bo'lsin qazo.
Tegma, bulbul makonidir
Ozarbayjon, Xalil Rizo!.."

*Moskva, Lefertovo,*
*8.IV.1990*

## VATANIMNI O'YLAYMAN

Mayda-chuyda tashvish-g'amni
O'ylashga ham yo'qdir vaqtim,
Qishda qor-la bezangan u
Alvon guldir mening baxtim.

Qayda bo'lmay, farqi yo'qdir,
Yo zindonda, yo gulshanda,
Umrim, kunim o'tar doim
Qog'oz, qalam urushganda.

Ko'rinsam ham qofiya yo
Radif izlab, hayron kabi,
So'zning toshloq havosini
Hidlaydurman rayhon kabi.

Vatanimni o'ylayman, shu –
Baxti kuyuk vatanimni,

Ahdi buyuk, taxti buyuk,
Dardi buyuk vatanimni!

Unda mansab navkarlari,
Dayuslari suruv-suruv,
Burni tip-tik, o‘zi olchoq...
Ish boshida davron surur.

Tug‘ishgandan yuz o‘girib,
Yotga quchoq ochganlar bor,
Onalarning ko‘z yoshini
Sharob kabi ichganlar bor.

Kirib-chiqqan nafasi ham
Yolg‘on, soxta,
Bir chuvalchang yo bir kaptar –
Bir qushchalik foydasi yo‘q,
Biroq chiqib olgan taxtga.

Tirik-tirik bolalarni
Tankda bosgan yangi chorlar –
Qotillarning qarshisida
Tiz cho‘kkan qul mansabdorlar!

Na joni bor, na qoni bor
Bu yeb-ichar chirimsoqlar!
Chuqur go‘rga muhtoj ekan,
Hukm aylagan qurumsoqlar!

Ammo, afsus, yuraklarda
U qo‘rquv bor, lak-lak, lak-a!
Qo‘rquvlarga asir tushgan
Inson – o‘zi mustamlaka!

Men quvmasam, kim quvar bu
Eski ahli zamonlarni?
Men o‘ziga keltiray-da
Bu miyasi somonlarni.

Yondosh yurar jannatlarni
Jahannamga do‘ndirganlar,
“Kalashnikov” dovuli-la
Chirog‘imni so‘ndirganlar.

... Aylanaman to‘rt odimlik
Kamerada u yon-bu yon,
Bu turmalar yopilmasa,
Hur yasholmas axir inson.

Haliyam ong, tushunchasi,
Aqli zindon bo‘lganlar bor,
Zar pogoni yaltillagan
Ijtimoiy ilonlar bor.

Qalbim bo‘yli koinotni
Qo‘limizdan olganlar bor,

Bu olamga bahor kelib,
Qish gulidek so‘lganlar bor.

Panjara-ku, uch-besh qarich,
Zangli temir, jonli emas,
Kecha-kunduz umr yeydi,
Biroq boshqa hech ne yemas.

Balki temir ichida der:
“Qilich, qalqon, o‘q bo‘layin,
Ochko‘zlarning zulmatiga
Chaqmoq kabi suqilayin!
G‘addorlarni bu dunyodan
Bitta-bitta yo‘q qilayin!”

Old-orqasi qulflangan,
O‘rgimchakli, temir eshik,
Qani Ikar?.. Yulduzlarni
Samolarda aylay beshik!
Eshik, sen qol! Men chiqayin

Jahonning keng yo‘llariga,
Haqsizlarni tik turdirib,
Haqning po‘lat devoriga!

Vatanimning bo‘ynin qisib
Turgan temir barmoqlarni,
Mixla tobut taxtasiga
O‘sha xoin qo‘rqoqlarni!
“Favqulodda vaziyat”ni
Najot bilgan olchoqlarni!

Bu bo‘rilar, shoqollarni
Bilaman-ku besh qo‘limday,
Men jangdaman, ulug‘ Tangrim,
Buyur, bosay bir o‘limday!

Faqat bitta silohim bor,
Qalam degan panohim bor,
Qalam bo‘lsa – o‘tmishim bor,
Bu kunim bor, sabohim bor.

Moziyning ham, bugunning ham,
Ertaning ham kuchin takror
Menga baxsh et, jur’ating ber,
Qo‘lla, ulug‘ Parvardigor!

Ming yildirim tig‘ini ber
Qalamimga, qilichimga,
Bu ilonko‘z qotillarni
Qilichimning taq uchiga!

Farqi yo‘qdir men qaydaman,
Jannatda yo jahannamda,
Jangdaman men, kunim o‘tar
Qalbim bo‘yli bu olamda!..

*Moskva, Lefertovo,*
*21.04.1990*

## OQ KO‘YLAKLI OZARBAYJON

Bu bir qadim afsonadir,
Asir tushmish bir yosh yigit.
Qora zindon, zulmat xona
Uni tortar o‘z komiga.
Qo‘li qonli, ko‘zi qonli,
Og‘zi qonli it necha it
Mahkamada qaror bermish
U yigitning o‘limiga.

“Ayt, oxirgi tilaging ne?”
Deb so‘rashdi undan bir choq,
“Onam kelsin, — dedi. — So‘ng bor
Ko‘rib olay men onamni.”
Ona keldi — birdaniga
Yorug‘landi zulmat qamoq,
Bolasiga baxsh ayladi
Sutday oqlik bu in’omni.

Ona dedi: “Qabul qilar
Borsam, meni qirol o‘zi!
Chaqirtirib o‘zi, o‘g‘lim,
Balki mujda berajakdir.
Axir yolg‘iz bir bolamsan,
Borim-yo‘g‘im, jonim, ko‘zim!
Seni menga qaytib bersin
Shu tilagim, so‘nggi so‘zim...

Qatl kuni oq kiyinsam,
G‘olib tursam oq ayvonda,
Bilki, senga o‘lim yo‘qdir,
Yashaydirsan bu jahonda!
Gar bo‘yninga sovunlangan,
Sovuq sirtmoq solinsa-da,

Ishon, tilsim yuz beradi —
Qutulasan eng so‘ng onda!

Qora kiysam, demak, qirol
Tilagimni aylagan rad,
Demak, falak baxtimizni
Azaldan ham qora yozmish...”

Qatl kuni keldi — zahar,
Qilich kabi ko‘p beshafqat!
Borar minglab olomonning
Oldida bir “yo‘ldan ozmish”...

Ko‘z yugurtar: ona turar
Oq kiyimda, oq ayvonda!
Boshida oq chambar ro‘mol... —
Na go‘zal ruh! Na xush suvrat!
Yigit anglar, endi unga
O‘lim yo‘qdir bu jahonda,
Borlig‘iga quvvat oqar,
Yer-u ko‘kdan kelar quvvat!

Ko‘zlariga ko‘rinmas hech
Olomon-u, jallod, a’yon;
Sovunlangan sirtmog‘i-yu,
Ilonday u dor og‘ochi.
Ozod rug‘i asta-asta
Ko‘tarilar quyosh tomon,
Bulutdami mag‘rur boshi,
Oltin qushmi oltin sochi!

... Bu afsona, bu haqiqat,
Qarang, qayda tushdi yodga?
Moskvada, qoq saharda,
Diqqinafas kamerada!
O‘sha yigit menman bugun!
Ammo, afsus, onam yo‘qdir...

Ona xalkim — onam sensan,
Otam sensan bu dunyoda.

Na tasalli istayman men,
Na so‘ng umid, tirak...
O‘zim senga tasalliman,
Menman sening yuraging ham
Layoqatim, matonatim
Oq boshimda oltin tojdak,
Na tizzamda bir titroq bor,
Na ko‘zimda alam yo g‘am.

Men shundoq ham abadiyman,
Jahongirlar kelar-ketar.
Bir kun qatl maydonida
Boshim ketsa, bersam-da jon,
Sen u yotlar qarshisida
Qora kiyma hech bir zamon,
Ey Oqko‘ngil Onam mening,
Oppoq tojli Ozarbayjon!

*Moskva, Lefertovo,*
*12.05.1990*

## QO‘RQMA, MEN TOG‘DAYMAN

Sen unda uyqusiz, men bunda uyg‘oq,
Boshimning ostida qo‘llarim taroq,
Ko‘zlarim yo‘lingga ko‘z tikkan chiroq,
Umrimiz esla bu on Farangizim!

Ey malak, ko‘klarda uchgan nozanin,
Qani ilk otashi o‘sha bo‘saning,
Bu kun olovlandi ko‘ylaging saning,
Olovlar ichida yon, Farangizim!

Bilaman, o‘qiysan, yarim tun o‘tar,
Jumboqlar yechasan, qayg‘ung tarqatar,
Bilaman, tong sening bag‘ringda otar,
Bag‘ri shafaq kabi qon Farangizim!

Sen mening najotim, qutulishimsan,
Suyanchim, borlig‘im, aql-u hushimsan,
Boshimda gultojim, davlat qushimsan,
Kel, po‘lat yelkamga qo‘n, Farangizim!

Haqning tosh zindonni ochar kuchi bor,
Ohimdan eriydir beton devorlar,
Shoir xotinisan — gultojing viqor,
Bukma qanotingni, Oy, Mirrixga bor,
Yo‘qdir g‘ayratingga so‘ng, Farangizim!

Oyog‘im kishanli, lek ko‘nglim ozod,
Men durri yetimman sadafda, kuzat,
Menga bir qog‘oz ber, bir qalam uzat,
Chaqmoqday qalamim yo‘n, Farangizim!

Bu tor kamerada arslon o‘chiman!
Osmon ustuniman, yerning kuchiman!!
Zindonni yoraman!!!
El sevinchiman,
Tutqunlik men uchun shon, Farangizim!

Qo‘rqma, men olinmas qal’aman, bir tog‘!
Ming-ming o‘lim kelsa, soh qolaman, sog‘!
Har ton hayqiraman (eslagin har chog‘):
“Ozodlikdir jonim, jon Farangizim!”

*Moskva, Lefertovo,*
*4.06.1990*

## KURASH YO‘LI UZUNDIR

Ey muqaddas, ey aziz,
Mehribonim Farangiz!
Dardim, g‘amim, umidim,
Ko‘z nurim-u, jon o‘tim!

Ana, ruscha yozganim
Arizamni o‘qiding.
Nechun boqding devorga,
Yo yoydagi o‘q eding?

Barmoqlaring titradi,
Qo‘lingda titrar qog‘oz,
38 yil avval
Ko‘rganim binafsha qiz.

Har holda, gumon qilding,
Holim ancha yomondir.
Yotoqda yiqilgandim,
Ha, taqdir beomondir.

Biroq, ishon, go‘zalim,
Sen yuksak Shohtog‘imsan!
Tiriklik suvim mening,
Tuganmas bulog‘imsan!

Yuborgan olmalaring
Oyim, tong yulduzimdir;
Art ko‘zingdan yoshingni,
Kurash yo‘li uzundir.

*Moskva, Lefertovo,*
*6.08.1990*

## G‘URUR QO‘SHIG‘I

Yaxshiyamki, tutqunligim
Tushdi yoshlik chog‘larimga,
O‘zim temir qafasdaman,
Odimlarim po‘latdandir.
Yildirimlar hayron qolar
Ko‘zimdagi yildirimga,
Yonartog‘lar qonimdagi
Milliy otash, sof o‘tdandir,
O‘zim temir qafasdaman,
Odimlarim po‘latdandir.

Yaxshiyamki, tutqunligim
Tushdi yoshlik chog‘larimga,
Borlig‘imda koinotning
Uncha-muncha quvvati bor,
G‘azab, nafrat daryolari
Sig‘ib, oqar tomirimga,
Nafasimda to‘lqin urgan
To‘rt ummonning shiddati bor,
Borlig‘imda koinotning
Uncha-muncha quvvati bor.

Panjaradan sizib o‘tgan
Parcha yorug‘ mening rizqim,
Ko‘zlarimga o‘rnab, yog‘du
Otash bo‘lur, quyosh bo‘lur.
Ne g‘am, osmon to‘g‘ram-to‘g‘ram,
Ne g‘am, ko‘klar kesim-kesim,
Boshim –qoya, qonim – daryo,
Ruhim – to‘fon, o‘zim – billur,
Ko‘zlarimga o‘rnab, yog‘du
Otash bo‘lur, quyosh bo‘lur.

Bir juft qo‘lim quchoqlaydir
Qof tog‘ini, Ximolayni,
Qon yosh to‘kkan Oraz va Kur
Sochlarimdan oqib o‘tar,
Tog‘ ko‘ksimda erigandir
Ming-ming to‘nna o‘qlar loyi,
Qari timsox pistirmada
Pisib yotar — o‘ta xatar!
Qon yosh to‘kkan Oraz va Kur
Sochlarimdan oqib o‘tar.

“Kalashnikov” avtomatli
Ko‘kko‘z dushman, havolanma!
Evurustdan ancha yuksak
Bir cho‘qqining boshindaman,
To‘p ot, tank bo‘l, o‘qlaring ot —
Faqat meni o‘ldi dema:
Qonga botgan yer yuziman,
Och ko‘zingni, qarshingdaman!
O‘n ming yildir yo‘ldaman men,
Ayni yigit yoshindaman!!!

*Moskva, Lefertovo,*
*14.09.1990*

## VIQOR QO‘SHIG‘I

Ozodlik har kimga bo‘larmi qismat?
Men ozod yashadim shamollar kabi.
Borlig‘in baxsh etib basharga har vaqt,
Hur o‘sgan hurnafas u gullar kabi,
Men ozod yashadim shamollar kabi.

O‘ksinib yurmadim, bo‘lmadim zada,
G‘ubor qo‘ndirmadim billur qalbimga,

Topdim o‘z baxtimni mujodalada.
Dengizlar bosh qo‘ydi jasur qalbimga,
Quyoshdan otashin billur qalbimga!

Hukmdor kabi men bunda yasharman,
Sen unda quruq et bo‘lib qolibsan.
Oltin qasringdagi boylik, taxt-u toj
Mening zindondagi baxtimga muhtoj,
Sen unda quruq et bo‘lib qolibsan.

Medalli, medalsiz baxtiyorlarning
Biriga, piriga g‘ashlandimmi hech?
Yirtdim niqobini soxtakorlarning,
Baxsh aylab olamga saodat, sevinch;
Biriga, piriga g‘ashlandimmi hech?

Ko‘zimning ichiga o‘qlar otganlar
Ko‘zimda ko‘rdilar faqat tabassum.
O‘z uyin yiqdilar meni “yiqqanlar”,
Po‘lat ko‘zlarimda diyonat, to‘zim,
Ko‘zimda ko‘rdilar faqat tabassum.

Non, tuzim bo‘lishdim siylab har kimni,
O‘tdim jahannamdan gul tera-tera,
Bo‘ldim tilim-tilim sher yuragimni,
Barini tarqatdim yo‘l yura-yura,
O‘tdim jahannamdan gul tera-tera.

Qup-quruq nonni ham, oddiy choyni ham
Mening binafsham deb hidladim mamnun.
Botgan quyoshni ham, chiqqan oyni ham
Yelkamda ardoqlab shom-sahar, har kun
Mening binafsham deb hidladim mamnun.

O’laman tuynukdan dunyoga boqib,
Ozarbayjonim-la turib yonma-yon,

Qalbimni mash'ala, o't qilib yoqib,
Yozdim she'rlarimni, qog'ozim — beton,
Ozarbayjonim-la turib yonma-yon.

Yog'ildi boshimdan yomg'irli onlar,
Har yomg'ir tomchisin yoqut deb bildim.
Yerda mening uchun zindon qurganlar
Bilarmi, yerdanmas, men ko'kdan keldim,
Har yomg'ir tomchisin yoqut deb bildim.

Sevinchga aylanar tuyganim kadar,
G'urur dolg'alarim tog'lardan oshar,
Mening saodatim men bilan yashar,
O'z haqqin istaydir har zamon bashar —
G'urur dolg'alarim tog'lardan oshar!

Muhammad payg'ambar, Konfutsiy, Budda...
Barcha dohiylarning ilk vorisiman!
Oyog'im tuproqda, boshim bulutda,
Sevgi tovushiman,
Haq nafasiman,
Barcha dohiylarning ilk vorisiman!

Bir kun yuragimga tegsa yov o'qi,
Qonim qizil gulga aylanib yashar.
Ol qolur dunyoning ochi-yu to'qi,
Seni deb o'lurman, ey qadim bashar,
Qonim qizil gulga aylanib yashar.

*Moskva, Lefertovo,*
*1.10.1990*

## ALVIDO, LEFERTOVO

Alvido, Lefertovo,
Ey toshlashgan dard, alam
Devorlari olanam,
Ichi sovuq jahannam!

Sen kunjingda chiritding
Hayotimdan bir yilni,
Siqding suvi chiqquncha
E'tiborni,[1] Xalilni.

Qorabog'li Tohirni,
Tantekin Muhammadni,[2]
Qurshab zangli devor-la,
Yog'dirding falokatni.

G'orsan, tortding komingga
Eng jasur avlodlarni,
Yalang qo'llari bilan
Tog' yorgan Farhodlarni.

Tugmaday dori misol
Yutding ming-ming nolani,
Yuraklar olovini,
Eng mag'rur shalolani!

Un kabi ezding bizni,
Tegirmonimiz bo'lding,

[1] **E'tibor** — E'tibor Mammedov (1955), tarixchi olim, siyosatchi, Xalq jabhasi faollaridan, Milliy mustaqillik partiyasi tuzuvchisi va rahbari, deputat. 1989-yilgi ommaviy ish tashlash tashkilotchisi; 1990-y. yanvarida KGB qamoqqa olgan, Lefertovada X. Rizo bilan bir paytda tutqunlikda yashagan *(tarj.)*.

[2] **Muhammad Xotamiy Tantekin** — Ozarbayjon milliy ozodlik harakati faollaridan; Xalil Rizo bilan bir paytda Lefertovoda qamoqda yotgan; "Chanlibel" tashkiloti rahbari, 2016-y.da, 81 yoshida vafot etgan *(tar.)*.

Umrimzga eng dushman
Soat bo‘lib qurilding!

Daqiqaning umrini
Uzaytirding kun qadar,
Kunlar do‘ndi oylarga,
Oylar — ming yil tun qadar!

Ko‘rdik tergovchilarning
Murdor sir, sifatini,
It chaynagan, qon ichgan
Shoqol kasofatini.

Ko‘rdik unda necha bor
Robot navbatchilarni,
Jonlarni unsiz yutgan
Tobut navbatchilarni.

Ko‘rdik mahkum shaklida
Yurgan josuslarni ham,
Nomusdan olis uzoq
Shum, benomuslarni ham!

Tutqunning yotog‘ini,
Cho‘ntagini titganlar,
Hattoki idrokini,
Yuragini titganlar!

Poklik, oqlikdan boshqa
Ne narsa topdi ular,
Faqat ozodlik ishqi —
Mo‘jiza topdi ular.

Qarshisida mo‘jiza —
XALIL RIZO ULUG‘TURK!

Boq unga: tor xonada
Elburusdan ham buyuk!

Bunda zaqqum tutunlar
Qo‘ndi boshga, devorga,
Qop-qora sochlarni ham
Aylantirdi oq qorga.

Bunda to‘kilgan tishlar
Arslon tishiga o‘xshar,
Bunda bellar bukildi —
Tog‘ belidan mo‘tabar.

Bunda cho‘yan tizzadan
Kuch ketdi, toqat ketdi,
Millionlarga ko‘z bo‘lgan
Ulug‘lar ko‘zdan yitdi.

Bu yerga qamadilar
Jasur Rahim Qozini,
Hech ega olmadilar
Mag‘rur Rahim Qozini.

Ko‘plarni qamamishlar,
Qamab-da qolmamishlar,
Nomiga qora chaplab,
Yoyibdirlar mish-mishlar.

Vijdoni o‘lik, nafsi
Tirik tuzum qullari
Bilagidan kesdilar
Qalam tutgan qo‘llarni.

Lefertovo, ey tubsiz
Sovet zulmatxonasi,
Koinotning eng jirkanch,
Murdor, manfur binosi!

Alizoda Mamadni[1]
Domingga yutmadingmi?
Qonini tomchi-tomchi
So‘rib, quritmadingmi?

Ko‘kdan nur sochib turgan
Ko‘zlar so‘ndi... Na so‘ndi —
Yerga nur taratganlar
Bir hovuch kulga do‘ndi!

Yetti milyo‘n kishini
Yetti hovuch kul etding,
Qanchalar jasurlarni
Bunda bôshiga yetding!

Devorlar tilga kirsa,
Nelar so‘ylamas, nelar!
Suyagi surma bo‘lgan
Radishchevlar tillanar!..

To‘rt faslning to‘rti ham
Bunda qishdir, qora qish,
Bundan salomat chiqqan
Yarimjonga ming olqish!

Panjaraga qaldirg‘och
Qo‘nib, qilolmas xonish,
Unga omon berarmi
“Kalashnikov”chi boyqush?

Mustamlaka quroli,
Ey temir-beton botqoq!
Go‘zal, pok tabiatga
Dog‘ bo‘lib yaralding, dog‘!

[1] **Rahim Qozi, Alizoda Mamad** — milliy ozodlik kurashchilari *(tarj.)*.

Boshi, qorni — bir, to‘ymas
U qora quzg‘unlarning,
U zarrin idishlarda
Qon ichgan mal’unlarning

Taxti yuksalarmidi,
Agar sen bo‘lmasayding,
Qon dengizi misoli
Bo‘shalib-to‘lmasayding,

Har niqobli josusing
Bir malak bichiminda,
Zahar to‘la ilonmi,
Yo chayonmi ichinda?

Yapo‘n kompyuterlari
Kecha-kunduz chiqillar,
Mahbuslarning yuragi
Azoblardan po‘killar.

“Ka” shaklli zindonim,
La’nat seni qurganga!
Seni mahv etajakman,
Qo‘l bosganman Qur’onga.

Yiqamiz bir senimas,
Butun imperiyani,
Soxta qonuniylashgan
Mal’un imperiyani!

Qachon seni kashf etdi
Katya – Yekaterina?
Ko‘zi, ko‘ngli marazli
U zino qizi zino!

Qayondan keldi Lefort,
Zulmat boshli u shoqol?

Bundagi har bir xona
Ajdaxo og‘zi misol.

Bo‘ying uzun muncha ham
To‘rt qavatli zindonim,
Ko‘lkangda ko‘rinmaydir
Oyim, kunim, osmonim.

Evaziga berganing
Muz-muz devorning o‘zi,

Bunda arslon yigitlar
Bo‘ldi qurbonlik qo‘zi.

Tarnovingdan oqqan suv
Yomg‘irmi yo ko‘z yoshi?
Ko‘k, zaharli yo‘sin-la
Bezatmishsan har toshni.

Uzun-uzun panjarang —
To‘r to‘qigan o‘rgimchak,
Rasming qotil qalam-la
O‘zing chizishing kerak.

Prometey bog‘langan
Temir-beton ustunga,
Yuragi mushtday u zot
Bog‘lik u ton-ton ustunga.

To‘siqli derazadan
O‘lik yog‘dular kelar,
Panjara orasidan
Ol-qirmizi qor kelar...

Yuksak antennalaring
Yutar chaqmoqlarni ham,

Toshlaringdan sizilar
Issiq qonlar damba-dam,
Sovuq qonlari damba-dam...

Tergovching son-sanoqsiz,
Yuragi tosh, muz ko'zi,
Har so'rog'i bir yirtqich,
Savoli itning o'zi!

Purkuroring pulkurar,
Kostyumi kaltakesak,

Bittasin keldi demas
Million telegram kelsa.[1]

Hakimlaring baytardir,
Azroilning vorisi,
Tuzalasiz, deb berar
Oppoq o'lim dorisin.

Tosh bo'lsang, bitta bo'lsang,
Yiqitardim bir kunda,
Ming-ming filialing bor
Sovet jahannaminda.

Besh qit'aga tarqalgan
Chayonsan necha-necha,
Seni mahv etmoq uchun
Kamchatkadan Kurgacha.

To'fon-u dovul kerak,
Sel bo'lgan bir qo'l kerak!

Har mahbusing, ehtimol,
Ming-minglab tutqun demak,

[1] Xalq Xalil Rizo va u kabi siyosiy mahbuslar ozoligini talab qilingan bir yarim million telegramma yuborgan (*tarj.*).

Yo‘lga ko‘z tutganlarga
Tuganmas bir tun demak!

Har mahbusning onasi,
Otasi, do‘sti bordir,
Ko‘z yoshi, mozor toshi,
Oxirat qasdi bordir.

Alvido, ey bosh yegan,
Ko‘z teshgan sariq quzg‘un,
Stalinning, Yejovning,
Jdanovning, Kirovning,

Brejnevning, Suslovning,
Chernenkoning qarmog‘i!
Alvido, zulmat qal’a,
Lefertovo qamog‘i!

Parcha-parcha bo‘lgur, ey
Mustamlaka, alvido!
Quyosh yurtida dog‘san,
Ey kalaka, alvido!

Munavvar koinotda
Qora ko‘lka, alvido!
Alvido,ey yirtqich tosh!
Qonsiz o‘lka, alvido!

Alvido, ey jahannam!..
Bordir bitta tasallim:
Senga jismim bersam-da,
Ilhomimni bermadim.

*Moskva, Lefertovo,*
*X.1990*

## OZODLIGIM

Har kishi mustaqil bir partiyadir.
Har kishi – eng oliy bir hokimiyat.

Davlat chegaramni, ozodligimni
Hech kimga bermayman, bil, ey shum niyat!

Hech biriga rom bo‘lmadim —
Na boylikka, na shuhratga,
Na bir jannat ichidagi marmar qasr-u imoratga,
Na rayosat hay’atiga,
Hech biriga rom bo‘lmadim —
Pulga, zarga,
Zarhal jildli kitoblarga,
Qallob taqqan medallarga,
Ichi bo‘m-bo‘sh satillarga!

Faqat ko‘ngil ozodligim
Istadim men umrim bo‘yi.
Shu kurashim, shudir o‘yim.

Faqat ko‘ngil ozodligi
Zindon, temir tor qafasda,
“Guliston”ni, “Turkmanchoy”ni
Qon-la yozar bu nafasda!..

Faqat daryo, soyni saqlaydi to‘g‘on,
Dengizlar kabi men ozodman, ozod!
Kimlardir o‘likdan so‘raydi kafan,
Ularning tersiman, ularga tazod,
Yomg‘irlar, girdoblar kabi oqaman
Chaqmoqlar kabi men ozodman, ozod!

Tartibli charx urgan yer kurrasiman,
Mening ozodligim, tamal kuchimdir,

Mening ozodligim —
Qonxo‘r , manaman,
Olg‘irlar niqobin yirtmoq uchundir!..

Mening ozodligim sizlarni chorlar,
G‘orlardan chiqing, ey qul maymunlarim!
Boshingiz ustida ozod ko‘k porlar,
Ey, erkni havoday sog‘inganlarim!

Na badbaxtdir o‘z uyida
Elchi kabi erlanganlar,
Hur yashashni qo‘msaganlar —
Umr bo‘yi kirlanganlar.
Dushmanimmi ular deysiz?

Ayting, dushman kemasiga
Loyiqmidir nodurustlar:
Yarim dushman, yarim do‘stlar?

Sut ko‘liga cho‘milganlar,
Boyliklarga ko‘milganlar,
El-u yurtni yillab talab,
O‘z vatanin kemirganlar?

Yuz yillarki, xalqni aldab,
Bor budini shilishganlar,
Buyuk tarix karvoniga
Suqilganlar, ilashganlar?
Bir-biriga pora berib,
Mansablarni bo‘lishganlar?
Birgalashib, xalqqa qarshi
Jinoyatlar qilishganlar –

Tirik qullar,
O‘lik jonlar!
Anglarmi bu saodatni,

Mening mushtday yuragimda
Dengizlangan u qudratni!
Yerga sig‘mas hukumatni,
Ko‘kka sig‘mas hukumatni!

Istasang, bolamni beraman unga,
Uzaman, lolamni beraman unga,
Jonim huzurini,
Ko‘zim nurini,
Soyimni, selimni beraman unga —
Ammo bermam ko‘kday ozodligimni!

Vatanimdir mening otam, qardoshim,
Men singib yasharman yurtim kuniga.
Dunyoda hech kimga egilmas boshim,
Ammo bosh egurman bir qush iniga.

Mening ozodligim unga merosdir,
O‘lsam ham, yana men qaytaman jonga.
Tiriklik suvidek qovushsam, basdir,
Dudoqlari yoniq Ozarbayjonga!

# MUNDARIJA

## BAXTIYOR VAHOBZODA

Baxtiyor Vahobzodaning hayoti va ijodi *(Tohir Qahhor)* ..... 4
O'zbek o'quvchilariga *(Baxtiyor Vahobzoda)* ..... 7

*Jumaniyoz Jabborov tarjimalari*

She'rim ..... 9
Shaki ..... 11
Ikki yo'ldosh — ikki tengdosh ..... 12
Bosh ..... 14
Tog'da shalola kabi ..... 16
O'zimdan noroziman ..... 18
She'r va men ..... 19
Yoshimdan ginam ..... 20
Kimdir mening dushmanim? ..... 21
Hayrat ..... 23
Qanotlarim ..... 26
Maktublar ..... 27
Zarra — dunyo ..... 28
Nekrolog ..... 29
Ehtiyot ..... 30
Shunday yuksaldikki ..... 31
Kechaning sog'lig'iga ..... 32
Xayolim ..... 34
Nimasan? ..... 35
Men sevarman ..... 36
Sen ketding ..... 37
Biri sensan, biri men ..... 38
Qora sochlar, oq sochlar ..... 39
Intizor ..... 39
Ekranda ko'rishuv ..... 40
Ota va o'g'il ..... 41
Yashamoq uchun ..... 41
"Yigitlikda..." ..... 41
Qofiyalar ..... 41
Bir tarafda ..... 42
O'lchov ..... 43
G'azal ..... 43
"Bu qadar soldi meni hasrat" ..... 44
"Tag'in bog'lar chechak bog'lar..." ..... 44
"Kel-kel, deya..." ..... 45
"Nechuk o'tsan..." ..... 45
"Qoshingga, ko'zingga boqqanim mahal..." ..... 46
"Bu qandoq iltijo..." ..... 46
"Deding..." ..... 46
Inson ..... 46
"Umr bizga berilmas..." ..... 47
"Uyingizning atrofida..." ..... 47
"Vatan ishqi..." ..... 47
Jayron ..... 48
Sovuq qotding ..... 48
Bu ulug' dunyo ..... 49
Mening yo'lim ..... 49

Shabi hijron. Dostondan parcha. *(Jamol Kamol tarjimasi)* ..... 52
Faryod. Drama ..... 90

Guliston. Doston. *(Qozoqboy Yo'ldosh tarjimasi)* .....201
*Nosir Muhammad tarjimalari*
Ozarbayjon.....209
Lotin tili .....209
Tilsimli olma.....211
Bir kemada.....212
Bir lahza sukut .....213
"To'ldir..." .....213
"Hududsiz..." .....214
"Chamandagi..." .....214
Keksalik .....215
*Tohir Qahhor tarjimalari*
Nomsiz she'r .....216
Vijdon .....216
Aqlning ko'zi bor.....217
Alvido .....217
Aql boshqa, yurak boshqa.....218
Dunyoning.....219
Onam o'ldimi .....220
Mendan xabarsiz .....223
Ne qilamiz .....224
Sukut, xayol, muhabbat .....225
So'nggi tepa .....227
Yetarmi? .....228

## XALIL RIZO

*Tohir Qahhor tarjimalari*
Ozarbayjonning qahramon shoiri *(Tohir Qahhor)*..... 235
Ish joyim .....236
Fuzuliyona.....237
Inson xushbaxt bo'lganda .....238
Opketdi sellar Saranni.....241
Mening mukofotim .....242
Shuhrat.....244
She'rxonlik koshonalari.....246
Sening javobing .....246
Do'st so'zi.....249
Qadr-qiymat .....250
Egilma, qardoshim .....252
Charchama .....254
Tovushimni eshitarmisan? .....256
O'zbek tili .....258
She'riyatim.....260
Mendan boshlanar vatan .....262
Go'zal yashash .....263
To'zimli bo'l, dali ko'nglim.....266
Ozarbayjon.....267
Qutlug' bo'lsin, Ozarbayjon .....268
Qayta tug'ilish.....271
Qutlug' bo'lsin, Shayxzoda .....272
Ikki shoir suhbati.....274
"Ko'p ish kelar qo'lingdan..." .....275
Insonlarga suyanish kerak .....277
Qondoshlik.....278
Yer ostida yogan gavhar.....280
Faxriddin!.....281
"Eng qudratli o'g'lingga ..." .....283
Kuchim, kuchsizligim .....283
Tentakni tepaga chiqarma .....284
Mansab yo'llari .....288
O'limingni tilaganlar bor .....290
Maddohlarga ishonma.....291
La'nat .....294
Chetniki.....295
Balki hali kech emas .....296
Orachi.....298
Yaxshiyamki.....300
Nizomiy Ganjaviy, afv ayla meni .. 303
Turk so'zidan qo'rqqan gado .....303
Qurollan .....306

**“TUTQUN” kitobidan**

Xalil Rizo Uluturk.....309
Men yana qayturman Ozarbayjonga.....310
Qamoq qo‘shig‘i .....313
Tutqun .....314
Jon bermayman o‘limga.....315
Jazo ko‘ylagi .....320
Navbatchilarim.....323
O‘ksinmayman.....326
Qonim .....330
Ketding .....333
Ko‘zlarimga qanday qaraysan?....335
Ozarbayjon.....338
Vatanimni o‘ylayman.....340
Oq ko‘ylakli Ozarbayjon.....344
Qo‘rqma, men tog‘dayman.....346
Kurash yo‘li uzundir .....348
G‘urur qo‘shig‘i .....349
Viqor qo‘shig‘i .....350
Alvido, Lefertovo.....353
Ozodligim .....361




# BAXTIYOR VAHOBZODA

# XALIL RIZO

## 66-jild

*Adabiy-badiiy nashr*

Muharrir *Oydinniso Yo'ldosheva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Munisa Ismoilova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garnitурasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 23,0. Nashriyot-hisob tabog'i 18,22.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 133-1/22 Buyurtma raqami № 22-349

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

B 36 Baxtiyor Vahobzoda. Xalil Rizo [Matn]: nazm/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Tohir Qahhor. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 368 b.
ISBN 978-9943-8733-3-9

**UO‘K 821.512.162-3**
**KBK 84(5Ozar)**

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

# BAXTIYOR VAHOBZODA

# XALIL RIZO